

Tohir
MALIK

Ko'ngil
nimadan
qorayadi

"Odamiylik mulki" ga doir
suhbatlar

!

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84{50}6

M-22

Malik, Tohir

Ko'ngil nimadan qorayadi. (Odamiylik mulkiga doir suhbatlar).
Uchinchi kitob. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. -224b.

ISBN 978-9943-27-193-7

Mazkur kitobda yozuvchi Tohir Malik odamiylik mulki - axloq- odobga doir suhbatlarini siz - aziz umidimiz yulduzlari bilan davom ettiradi. Adib bu suhbatga ota-onalar, maktab, litsey, kollej ustozlarini ham taklif etadi. Ardoqli ota va onalar, qadrli ustozlar bu kitobni ham suykli farzandlari va shogirdlari bilan birga mutolaa qilsalar, fikrlashsalar nur alannurdir.

UO'K: 821.512.133-3 KBK:

84(50)6

ISBN 978-9943-27-193-7

© Tohir Malik. «Ko'ngil nimadan qorayadi». Uchinchi kitob. «Yangi asr avlodi», 2014-yil.

BIRINCHIBO-UM KO'NGIL NIMADAN QORAYADI?

Zulm, zolim va asulmat

Yomonlik urug'i ko'proq yoshlik davrida ekiladi. Yomonlikka asir bolishning sababi - nafsga asir bolishdir. Zulm naqadar sharafsiz bolsa, unga qarshi kurash shu qadar sharaflidir, Dunyo saodati yaxshi, xayrli insonlar bilan qoyimdir. Yomonlar dunyoni odamlar uchun zindon qiladi.

«Zolimmg uyiga yaqinlashma. Undan biron narsa so'rashni xayolingdan o'tkazma. Shunday qilsang, mard bo'lib yashaysan. Zolimga yaqinlashing, nomard bolib olasan», degan donishmandlarning nasihatini quloqqa olib, hayot davomida amal qilingani afzal.

Yaxshilik doirasidagi fazilatlar haqida suhbatlashdik. Endi zulm va uning saltanatiga bir nazar solaylik. Kishining qalbi va ongi, ayniqsa siz - aziz umidimiz yulduzlarining qalbingiz va ongingiz jang maydoniga o'xshaydi. Bu maydonga ega chiqish uchun yaxshilik va yomonlik, shafqat va zulm tinmay jang qiladi. Bu jangda iymon kuch bilan quvatlangan tomongina g'olib chiqadi. Sahobalardan birining aytishicha, iymon qalbda oq nuqta bo'lib ko'rinadi. Iymon quvvati oshsa, oqlik ham ziyodlashadi. Agar bandaning iymoni to'la komil bo'lsa, qalb ham tola oqaradi. Nifoq qalbda qora nuqta bo'lib ko'rinadi. Nifoq ko'paygan sari qoralik ziyodlashadi. Qachonki nifoq tola bolsa, qalb ham tola qorayadi. Kishi qalbi qoraya boshlagan kundan e'tiboran har turdagi yomonliklarga bandi bolaveradi. «Yomon narsaga qarasang - ko'ngling qorayadi», deyilishi balki shundandir. Bo'ri och qoldimi, har qanday yovuzlikni qilgani kabi, qalb qoraysa, har qanday yomonlikni qilaveradi. Foni dunyo yaxshilar va yomonlar orasidagi

muxoriba maydonidir. Yomonlaming g'alaba qozonishiga yol qo'yib berilsa, olamni falokat bosadi. Balki Qiyomat yomonlik yaxshilik ustidan mutlaq g'alaba qozongan kuni boshlanar?

Yaxshi axloq goh tabiiy - tug'ma, goh yaxshi fellarga odatlanish tufayli, gohida yaxshi felli kishilarni ko'rib, ularga yaqin bo'lish natijasida hosil bo'ladi. Kimki tabiatan razil, pastkash bolsa, kamiga yomonlar bilan oshno tutinib, ulardan yomonlikni o'rgansa va yomonlikka odatlansa, odamiylikdan g'oyatda uzoq boladi.

G'azzoliy hazratlarining fikricha, tabiiy, odatiy hamda o'rganish kabi jihatlariga ko'ra farqlanadigan kishilar mana shu ikki daraja orasidadir. Har bir daraja o'zi taqozo qiladigan surat va holatga ko'ra komil insoniylikka yaqinlashadi yo uzoqlashadi.

Aflotun: «Agar bir kishini ko'rsatib: «Shuni oldirasan yoki o'zing olasan», desalar, «Men o'zimning olimimni afzal bilaman», deyishni ma'qul ko'rganlar. Kishi dunyoda xuddi soqchi kabi yashaydi. Yomonlikdan ko'z yumsa, yomonlik vujudini egallab, uning o'zini mahv etadi. Zolimlar mazlumlarning manfaatlarini o'yiamaydilar. Har kishi zolimlardan uzoq turishi, ularning chiroyli gaplariga aldanmasligi lozim.

Luqmoni Hakim dedilarki: «Yomonlik o'tini yomonlik o'chiradi», degan odamlar bekor aj^tibdilar. Ikki o't yoqib ko'ring, ular bir-birini so'ndiradimi? Yomonlik otini faqat yaxshilik o'chiradi.

*Kim yomonlikka aylasa rag'bat,
Necha turli balolar ko'rgay».*

Luqmoni Hakim bir boyga xizmatga yollandilar. Boy unga «Yerga bug'doy urug'i sochgil», deb buyurdi. Luqmoni Hakim bug'doy o'rniga arpa sochdilar. Buni ko^gan boy g'azablanib:

- Men senga bug'doy sochgil, degan edim, nega arpa sochding? - dedi.

- Arpa sochsam, bug'doy unmaydimi? - dedilar Luqmoni Hakim ma'nodor ohangda.

- Esing bormi, hech vaqt arpadan bug'doy unadimi? - deb yanada g'azabladi boy.

- Unday bolsa, nega siz doimo xalqqa yomonlik qilasiz- u, y ana Alloh Taolodan yaxshilik umid qilasiz. Yaxshilik qilsangiz, yaxshilik, yomonlik qilsangiz, albatta, yomonlik qaytadi. Arpadan bug'doy unmagani kabi, xalqqa ozor berib, yana yaxshilik umid qilmang, - dedilar Luqmoni Hakim-

Xalqimizdagi: «Bug'doy eksang - bug'doy o'rasan, arpa eksang - arpa o'rasan», degan maqol shu hikmatdan quwat olgan bolsa kerak.

Yusuf Hos Hojib aytdilar: «Yomonlik og'udir, bu og'uni yema, og'u yegan kishi tiriklikdan bahramand bo'la olmaydi. Yomon bo'lma, nomingni yomonlik bilan chiqarma.

*Olovkim, xaloyiqni kuydirgusi,
O'chirmoqdan o'zga topilmas iloj».*

«Zulm», «yomonlik» deyilganda birovlar oldirish yoki tepkilashni tushunadi. Holbuki, bir zaharli so'z bilan do'st qalbini yaralash ham zulmdir, yomonlikdir. Shuning uchun ham odamiylikni kasb qilgan inson do'st-u birodarlarini tahqirlamaydi, uning ustidan kulmaydi, istehzo etmaydi. Rasululloh (s.a.v.) kolcsilarini ko'rsatib: «Kishiningyomonligiga musulmon birodarini tahqirlashi yetarli dalildir» dedilar. Yana dedilar: «Birodariga ozor yetkazadigan nazar bilan ishora qilish mo'min kishiga halol emas». Umar ibn Hattob (r.a.) dedilar: «Mo'minga zulmning uchtasi uni zolim deyishga kifoya qiladi: odamlarning qilgan ishlarini ayblab turib, o'zi u ayb ishni qilaveradi; odamlarning ayblarini ko'radi, ammo o'zinikini ko'rmaydi; foydasi yo'q narsada suhbatdoshiga aziyat beradi».

Insonni kambag'al, miskin, kuchsiz bolgani uchun haqoratlash, haqir ko'rish juda yomon odat hisoblanadi.

Chunki harrna ham banda! Faqat bin chiroyliroq, boyroq, ikkinchisi kuchsizroq, kambag'alroq yaratilgan. Insonning vazifasi boshqa bir kishini tahqirlash emas, balki ungayordam berib, duosini olishdir. Zero, ko'ngillar nozik boladi, «E, Odam farzandi! Biror zaif insonga zulm va zo'ravonlik qilishga nafsing seni chorlasa, undan burun hamisha o'zingdan ko'ra qudratliroq Zot borligini esla. O'sha Zot seni haligi zaif insondan zo'rroq qilib qoygam kabi, xohlasa, uni ham sendan zo'rroq qilib qoyishi mumkin» (Hadisi Qudsiydan). Faqirlar o'z taqdiriga rozi bolganlaridan el-yurt nazdida ularning qadri baland. Yomonlar esa qudsiy hadisidagi bu xitobni unutmasalar durust: «E, Odam farzandi, bilginki, Mendan boshqa yordamchisi yo'q bechorahol odamga zulm qilganlarga nisbatan g'azabim qattiq», «...yomonlik vayovuzliklardan o'zingni uzoq tut. Zero, yomonlik do'zaxning kalitidir. Bu kalit o'z egasini, albatta, do'zaxga boshlab boradi», «... eshitgin, kimiki. bir misinga jabr qilsa, men uni Qiyomatda chumoli sifatida xor-u zor qilib turg'izaman», «E, Odam farzandlari! Men zulmni o'zimga harom qildim, bas, bir-biringizga zulm qilmanglar!» Ha, aynan Odam farzandlariga qarab xitob qilinyapti. «E, nasorolar!» yoki «E, musulmonlar!» degani yo'q. Zulmni bani basharga harom qildiki, buni butun insoniyat anglab, shu qoidaga asosan yashashi shart. Agar bu amrga amal qilinganda edi, birov-birovning haqiga xiyonat qilmagan bolardi. Bir- birining moliga, joniga ko'z olaytirmagan bolardi. «Uning shuncha mol-dunyosi: imoratlari, ulovlari, yozgi va qishki dala hovlilari bolsa, bu nima degan gap?! Bizda esa hech narsa yo'q. Uraylik, sindiraylik, tortib olaylik, biz ham rohat-farog'atda yashaylik», degan vasvasalar xayolga kelmagan bolardi. «E, Odam farzandi! Yaxshi eshitib olginki, bandalarimdan hech biri, o'zining zulmi, makr- hiylasi, chaqimchiligi, tajovuzkorligi va g'araz-u hasadidan odamlarni tinch qo'ymagunicha, o'zi ham Mening azoblarimdan tinch va omon bolmaydi». «Yomonliklarni qilib yurib, birlariga olim yetganda: «Endi tavba qildim»,

deganlarga va kofir hollarida olganlarga tavba (qaytish) yo'q. Ana o'shalarga alamli azoblarni tayyorlab qoyganmiz» («Niso» surasidan).

Madinayi Munawarada bir ayol o'g'irlik qilib qolga tushadi. Uning qarindosh-urug'lari bundan qattiq tashvishlanadilar. Agar qoli kesilsa, butun urug'imizga or boladi, deb qayg'uradilar. Maslahatlashib, «Usoma ibn Zayd Payg'ambarimizning erkasi, uni ishga solaylik, kechirib yuborsalar ajab emas», deyishadi. Usoma ibn Zayd (r.a.) vositachilik qiladilar. Shunda Rasululloh (s.a.v.) qattiq g'azablanadilar va masjidida jamoat namozidan so'ngxutba qilib: «Sizlarga nima boldiki, Allohning haddidan bolmish bir hadda menga vositachi qo'yasizlar. Allohga qasamki, agar Muhammadning qizi Fotima o'g'irlik qilsa ham, qolini kesaman! Sizdan oldin otganlaming halok bolishiga sabab ham oddiy odamga hadni (shar'iy jazoni) joriy qilib, obroliga esa joriy etmaslik edi», dedilar.

Bir odamning umri yomonlik qilish uchun juda ko'p, yaxshilik qilish uchun esa juda oz. Umr boyi yomon ishlar bilan mashg'ul bolib, xalqni ranjitadigan odamning nomi insoniylik daftariga yozilmaydi. Oldi olinmagan yomonlik esa qarshilik ko'rsatib bolmas darajaga yetadi. Uch xil odam erishish mumkin bolmagan uch narsaga erishishni orzu qiladi: gunoh ish qilib yurganlar - savobni; yomonlik qilayotganlar - yaxshilik qaytishini; umrini fosiqlik va dilozorlik bilan kechirganlar - jannatni. Shu bois, ahli donish dedi: «Yomonlar bilan oltirmaginki, garchi o'zing pok bolsang-da, yomon suhbat seni iflos qilar. Quyosh qanchalar buyuk bolsa-da, kichkina bulut parchasi ham uni to'sadi».

«Qutadg'u bilig»da ajib ma'nolar bor:

Ezguning (yaxshining) har bir ishi chiroyli, har bir qadami go'zal. Ezgu aslo qarimaydi. Yomon yuzga kirsam ham ezgu bola olmaydi. Yoshi kichik yomon oldnch bilan qariydi. Uzunyoshli ezgu esa sevinchdayuradi. Ezgu har kuni yangidan-yangi tilak-maqsadlarga erishaveradi. Yomonlarning esa kundan kunga mung va alami ortadi.

Yomonlar ikki toifadir: birlari o'jar, qaysar vayaramas bolib, ularning qilmish-qidirmishlari tubanlikdan iborat.

*Oq sut bilan kirsa qaysi bir qiliq,
O'lim tugamaguncha o'zgarmas yo'riq.
Mijozga qo'shilib kelarkan odat,
Uni buza olur bir o'lim faqat.
Bir udum yaralsa qorinda agar,
Qora yer qa'riga kirganda ketar.*

Ikkinchi toifa ezgularga qo'shilguday bo'lsa, o'z raftorlarini o'zgartirishi, tuban va yaramas xulq-atvordan voz kechib, ezgulikkayuz tutishlari ham mumkin. Buning uchun esa yaxshilarning madadi darkor.

*Yomonga qo'shilsa, ko'r, ezgu bilib,
Yo'lini rostlagay yomon ham ko'rib.*

Ezgulik - qimmatbaho gavhar, asl ipak va toza shohi misoli - u doimo baland qadrlanadi. Doimiy e'zozda boladi. Yomonlik esa qadrsiz narsaday gap. U doimo oyoq ostida qolib ketaveradi.

*Ezgu ezgulikdan chekmagay fig'on,
Yomon o'z fe'lidan bo'lar pushaymon.
Yomonlik qilganning ulushi - o'kinch,
Yomonga yaxshi bo'l, mayli har qachon.*

Qaysi ezgu o'z ezguligi uchun o'kinadi? Nomi chiqqan yomonlar ham oxirida o'z ishlaridan pushaymon qiladi:

*Balo, mashaqqatlar, o'kinch va alam,
Yomonlar ulushi bo'ladi, bolam.*

«Yomonlik» va «zulm», «yomon odam» va «zulm qiluvchi (yoki «zulmkor»)» so'zlari ayri-ayri bolsa-da, tilimizda ma'nodosh so'zlar kabi qo'llanib kelinadi. Biz «zulm»

o'rniga ko'proq «yomon»ni ishlatamiz. Aslida «yomon»ning ma'no jihatdan qamrOv doirasi kengroq, «zulm»niki torroq. Qaysi so'zni ishlatmaylik, bir ma'noni anglaymiz. Qur'oni Karim va boshqa kitoblarda yomonlik «zulm» shaklida tilga olinadi. Har qanday adolatsizlikning har qanday ko'rinishi, jabr-sitam zulm doirasiga kiradi. Buzuq axloqning barcha ko'rinishlari, xususan, firibgarlik, yovuzlik... yomonlik doirasining tobelaridir.

Zolim kimdir? «Zolim» deganda awal bировga aziyat, ozor yetkazuvchi kishi tushuniladi. Birovni uradi, ranjitadi, noumid qiladi, bo'g'izlaydi, yaralaydi, qon qaqshatadi. «Yovuz» yoki «vahshiy» esa zulmning dara- jalarini anglatadi.

«Zulm» deganda biz awalo shularni o'ylaymiz. Ha, bular kishining kishiga qilgan zulmlari. Zolim boshqalarga iztirob beruvchi, insoniy huquqlarini toptovchi, baxtsizlik keltiruvchi ishlar qiladi: molini oladi, joniga qasd etadi, jarohatlaydi...

Yomon odam boshqalarga zulm qila turib aslida o'ziga o'zi zulm qilayotganini fahm etmaydi. Mavlono Rumi dedilar: «Kishi bировga yomonlik qilsa, eng awalo o'ziga o'zi yomonlik qilibdi. Uning yomonligidan o'zga kishilar qancha jabr ko'rdilar? Uning o'zi bu yomonligi evaziga qanday jazoga loyiq topildi? Tog' boshiga qo'nib uchgan qush tog'ning nimasini orttirdi va nimasini kamaytirdi?»

Ayrim zolimlar bor-ki, o'z ahmoqliklari bilan faxrlanib ham qo'yadilar. Hazrati imom Husaynni shahid etgan badbaxt «Bugun men dunyoning eng sharaflari insonini qatl etdim», deb o'z ruhiy parishonligini va zolimligini e'tirof etgan ekan.

Zolim va fosiq kishi Valiulloh (s.a.v.)dan: «Ibodatlaming qaysi biri afzalroq?» deb so'radi. Javob berdilar:

- Sening uchun uyqu eng yaxshi ibodatdir. Chunki uxlagan paytingda hech kimga zarar bermaysan.

Xusrav zamonida shohlar yeydigan ba'zi taomlarni fuqaroning yeyishi man qilingan ekan. Agar o'sha taomni

avomdan biron kishining yegani malum bolib qolsa, jazolanarkan. Bir odam podshohning yaqin yasovulini shunday tansiq taom bilan siylabdi. Yasovul, to'yib, mamnun bolibdi-yu, ammo uyiga qaytishi hamon qog'oz- qalam olib, saxiy odamning qilgan ishidan podshohni ogoh etibdi. Podshoh uning qabih xabarini o'qigach debdiki: «Bu qilmishing uchun senga tahsin aytmayman. U odamni esa podshoh yeydigan taomni pishirgani uchun emas, balki yomonlikni ravo ko'radigan ko'rnamakni mehmon qilgani uchun jazolayman!»

Solih yaxshilikdan quvonganidek, zolim yomonlikdan zavqlanadi. Hatto birovning olimidan ham quvonadi. Zolimning panohida maishatga yetguncha, tuproqda och- nahor yotgan afzal, deydilar. Zolim faqat qilich qarshisida titraydi. Bo'yin egadi. Boshqa vaqt o'zgalarni masxara qilaveradi. Qays ibn Soida o'gliga bu nasihatni qildi: «Ey o'glim, bunday maqol bor: «Sen menga zulm qilsang, senga ham zulm qilguvchilar bor». Bu hikmatni angla va hech kimga zulm qilma! Mol-u davlatdan xazina to'plamay, ilm-u hunarni xazina qil. Do'st-u birodar- laringni o'zingdan uzoqlashtirma, har bir ishni maslahat bilan ado qil!» Usmonli davlatining quruvchisi Usmon G'oziy vafot etishi oldidan o'gli O'ixon G'oziyini chaqirib bu vasiyatni qoldirdi: «Ey o'g'il! Aslo qo'shinlaring va boyliging bilan mag'rurlanma. Haqiqiy olim va orif zotlarga hurmat ko'rsatib, saroyingdan ularga joy ber. Mening holimdan ibrat olki, zaif va kuchsiz bir chumolicha bolmay turib, bu mavqega erishdim. Doimo adolat va insof tarafida bol. Seni zulmga da Vat qilganlarni davlatningdan uzoqlashtir-ki, ular seni inqirozga yetaklay olmasinlar». Donishmand hukmdorlar shahzodalarga yaxshi tarbiya berib, ulami zulm qilmaslikka da'vat etganlar. Chunki ular Bedil hazratlari aytmoqchi, zolimlarning o'rne eng so'ng mazlumlarga qolajagini, olov oyoqdan yiqilgach, joyini kulga qoldirajagini yaxshi anglaganlar.

Boshqalarni yomonlikka yollagan kishi ularga eng kattaxiyonat qilgan boladi. Kishining zolimga ergashgani

- eng yomon **Volga** kirganidir. Yomonlar qaysarlik bilan kishilarni zulm sari yetaklaydi. Jahannamga sudraydi, Yomonlarni olqishlaganlar esa ular bilan birga la'natlandi. Odam bolasi jon tanasini tark etmay turib, yomon odatlarini tark etishga ulgirishi kerak. Rasuli akram (s.a.v.) dedilar: «Zulmdan tiyiling, zero zulm Qiyomat kunining zulmat va q orong'i il lkla ridir»

Rjvoyat, Bag'dodlik bir kishi ovchilik bilan shug'ul- langani uchun har taraflarni kezib yurardi. Kunlarning birida. shu shahar amaldori ovga chiqdi, Ov asnosida charchab, yol chetiga o'tirdi va ovqatlanishga kirishdi. Ovchi ham yura-yura, tasodifan shu joyga kelib qoldi, Amaldor uning horib-charchaganini ko'rib, dasturxoniga taklif etdi. Ovchi bu lutfdan quvonib, o'tirdi da, ovqat yeyishga kirishdi. Bir vaqt dasturxon ustiga qo'yilgan ikki kaklik-kabobni ko'rib kulib yubordi, Atrofda otirganlar uning bu qilig'idan ranjib, tanbeh berdilar:

Ey beadab, ulug' kishining dasturxonida otirib, ovqat yeyilayotgan bir paytda bevaqt va bemavrid kulishingnmg sababi nirna? Xayolingga qanday bema'ni fikr kelib qoldi?

- Bu kulgim ostida ajoyib sir bor, eshitsangiz. siz ham kulaverib qotib qolasiz, - dedi arab,

Bu gapdan dasturxon sobibi bolmish amaldorning jahli chiqdi,

- Qanaqa sir?! Gapir tezroq! - deb po'pisa qildi.

O'zining yomon illatini yaxshi fazilat deb hisoblovchi ovchi gap boshladi:

- Ey xoja, bugun ertalab changalzorda ov qilib yurgan edim. Tasodifni qarang-ki, shu ovloqda yolg'iz kelayotgan savdogarga uchradim. Uning yonida ko'pgina oltin bor ekan. Tortib oldim O'zini esa mahkam boglab qoydim Turli mol-u mato ortilgan otini ham ixtiyoriga oldim.. So'ng uni oldirishga shaylangan edim, u dod-u faiyod qilib:

- Meni oldirma, molimning hammasini ol! Barini senga berdim! Shaharda bola-chaqalarim bor, uyim falon mahallada. Uyim ham senga bola qolsin. Qoyib yubor, jigargo'shalarimning yoniga boray, - deb yalina boshladi.

Men uning oh-u faryodiga parvo qilmay dedim:

- Behuda gaplarni aytib, o'zingni urintirma. Baribir foydasi yo'q!

Ustodlar: «Kesilgan bosh gapirmaydi», deganlar. Agar sening so'zingga uchib, tirik qo'yib yuborsam, bu sir baribir fosh boladi.

Shu payt ikkita kaklik uchib kelib, yaqinimizdagi tosh ustiga qo'ndi. Najot yo'q ekanini sezgan savdogar kakliklarga qarab:

- Ey kakliklar, mana bu ablah odam men begunohni o'ldirmoqchi. Sizlar men bechoraning holiga guvoh bo'linglar! - deb baqirdi.

Men esa unga qarab: «Ey ahmoq, parrandalar guvoh bo'lganini hech qachon ko'rganmisan?», dedim-da, boshini tanasidan judo qildim. Ana endi yura-yura bu yerga kelib qaragam, o'sha ikkita kaklik kabobga aylanib, dasturxonda turibdi. Nodon savdogarning «guvoh bolinglar», degan gapi yodimga kelib, kulib yubordim.

O'zining yomonliklarini fazilat deb yuruvchi bu kishi dasturxon sohibi bo'lmish amaldorni ham o'zi kabi zulmkor deb bilgan edi. Barchani o'zidek tasavur qilib, zulmni yaxshi xislat deb yuruvchi ovchi vaziyat o'zgacha ekanini anglagach, tiz cho'Tdb, faryod cheka boshladi:

- Ey marhamatlixoja, men hech kimni oldirganimyo'q. Men hazillashdim. Lof gaplarni aytib, sizlarni kuldir- moqchi edim, xolos.

Amaldor unga g'azab bilan dedi:

- Ey ahmoq, hozir o'zing tiling bilan iqrar bo'lib turgan eding. Endi nega tonasan? Sen yomonligingni o'zing oshkor qilding va jazo botqog'iga o'zing botding.

Bayt:

*Jafo qilichini ko'tarsa kishi,
Aniqdir o'zi ham undan o'lishi...*

«Qilmish - qidirmish», «Nima eksang, shuni o'rasan», deb bekoraga aytishmagan. Kishini taajjubga soladigani shuki, yomonlar qilmishlarini yo yaxshilik, yo odatiy hoi

deb fahmlaydilar. Ayrimlar qilgan zulmlarini yaxshilik niyati bilan xaspo'shlaydilar. «Boplab urgan edim, o'shandan beri jimyuribdi», deb qo'yadilar.

Makkayi mukarrama podshohi Hajjojning g'oyat. zolim bolgani haqida so'z yuritib edik. Ul zolim «dunyoda qon toldshdan lazzatli narsa yo'q», der ekan. U bag'dodlik g'oyat taqvooi, donishmand Sulaymon ibn Musodan: «Ey aziz arjumand, bizlarga bir yaxshi duo qilg'il», deb so'radi. Hajjojning iltimosini qabul qilgan ul aziz duoga qol ko'tarib dediki: «E Xudo! Bu zolim shumning jonini olg'il va umrini oz qilg'il». Hajjoj bu duoni eshitgach, Alloh Taolo yo'lida yurguvchi ul azizga dedi: «Bundayin duoga nechun tiling aylandi? Mendan nima jafo ko'rding-ki, bundayin xavfli duo qilding?» Yaxshi yurish-turishli ul valiulloh javob berib aytdi-ki: «Bu duo ko'rkam duodir. U senga va barcha mo'minlar uchun yaxshidir». Ul aziz kimsa yana Hajjojga dediki: «Agar sen mening duom sababli tez kunlarda olib, oxirat uyiga borsang, gunohing ozroq bolardi. Zeroki, umring uzun bolsa, gunohing ko'p bolib, tamug'da uzoq turarsan. Tez olmog'ingdan yana bir foyda shuki, mo'minlar boshidan zulming ketib, rohatda qolurlar. Senga bundan ortiq yaxshi duo bolurmi?» Aytmishlarki, ul aziz bu duoni qilganlaridan so'ngyigirma kun o'tgach, Hajjoj hijratning 126 yilida, rabi'ul awal oyining 13 kunida juma kechasi dorul baqoga ketdi.

Hikoyat. O'taketgan zolim hukmdor 6vga chiqibdi. Tasodif yuz berib, askarlardan ajrab qolibdi, bu ham yetmaganday daryoga yiqilib tushibdi. Suvda suza oimagani sababli cho'ka boshlagan ekan, bir kishini uni qutqarib qolibdi. Hukmdor xaloskorining kimligini so'rab, o'zidan bilib olibdi. Saroyiga qaytib kelgach, uni chaqirtiribdi-da, mukofotlash o'rniga bu shunday debdi:

- Sendan bir masalani so'rayman, agar to'g'ri javob bersang, qutulasan, bolmasa, boshingm tanangdan judo

qilaman. Ayt-chi, xalqqa doim jabr-zulm qilgan kishi halokat chuquriga yiqilay deb turganda bir kishi uni olimdan qutqazib, xalqning yana jabr-zulm ostida qolishiga sababchi bolsa, u kishini nima qilish kerak? Unga jazo berish kerakmi yo yo'qmi?

U kishi kecha suvdan qutqargan odami hukmdor ekanini angladi, biroq dovdirab qolmadi, dadil javob berdi:

- Xalqqa juda ham jabr-zulm qiladigan aahaddiy zolimlaming bittasi - sizdorsiz. Kecha siz halokat oidida turgan edingiz. Sizni qurqarib, men xalq uchun foydali ish qildim. Chunki sizdan awal otangiz hukmdor ekanida xalqqa ko'p zulm o'tkazgan edi. Barcha nafratlanib, unga la'nat o'qirdi, uning tezroq olishini tilaxdi. Shu bilan birga, uning o'gli hukmdor bolsa, otasi kabi zolim bolmaydi, deb umid qilardi. Otangizning vafotidan keyin siz hukmdor boldingiz. Lekin xalqning umidi puchga chiqdi. Siz otangizdan ham battar zolim boldingiz, Zulmda otangizni yo'lda qoldirib ketdingiz. Endi bari bir olimingizdan keyin o'g'lingiz o'ringizga o'tiradi. Uning sizdan ham battarroq zolim bolishi turgan gap. Undan ko'ra hukmdorning o'zi olmay tura tursin, o'gli taxtga o'tirsa, xalqyanada ko'proq jabr-zulmga giriftor boladi, deb sizni halokatdan qutqarishga oshiqdim.

Ajabki, rostgoV kishining gaplari hukmdorga tasir qildi. Haqiqat oidida bo'yli egib, uning mukofotini berdi.

Bayt:

*Istaysankim, yetmagay senga balo,
Bermagil hech kimga ozor-u jafu.*

O'tgan asrlar adabiyoti bilan tanishganimizda ko'p misollar, ayniqsa, odillik va zulmga doir hikmatlarga inisol tariqasida podshohlar hayoti tilga olinadi. Bundan shohlarning barchasi zolim o'tgan ekan, degan noto'g'ri xulosaga bormaslik kerak. Shuning barobarinda odillik va zulm faqat podshohlar hayotiga xos, deb o'ylash ham noto'g'ri. Bu fazilat va illat kasb, mansab tanlamaydi.

O'zingiz ayting, gadoning marhamat qilganiga yoki zargarning (yoki aravakashning) o'zgaga zulm o'tkazganiga guvoh bo'lmaganmisiz? Zulmga ham, adolatga ham har qadamda duch kelishimiz mumkin.

Siz yaqinda bo'lib o'tgan bu voqea bayoni bilan tanishing-da, fikrimizga qo'shilish yoki qo'shilmaslikni o'zingiz hal qiling.

Voqea. Bir do'stimiz hikoya qildilar:

- Yomg'irli kunlarning birida bekatda avtobus poylayotgan edim, yoshi elliklardan oshgan bir ayol kelib, yonimga turdi. Ayol kun sovuq bolishiga qaramay, bir oz yupun kiyinganidan dildirab turardi. Unga rahmim keldi.

- Opajon, qayerga boryapsiz, shunday havoda? - deb so'radim.

- Yo'lni yaxshi bilmaganim uchun gangib qoldim. Markaziy kasalxonaga borishim kerak, - dedi u siniq ovozd.

- Ozingina kutsangiz, yo'nalishdagi taksi keladi, birga ketamiz. Qayerda tushish kerakligini o'zim ko'rsatib qo'yaman, - dedim.

Nihoyat, biz kutayotgan taksining qorasi ko'rindi. Shu onda besh-olti kishi paydo bo'lib, kutayotganlar to'dasining oldiga turib olishdi. Mashina ro'xtashi bilan, awaldan kutayotgalarni turtib-surtib, chiqib o'tirishdi.

- Insof qilinglar, navbati bilan-da, biz qancha paytdan beri kutib turibmiz-ku?! - degan noroziligimga parvo ham qilishmadi. Shunda:

- Hech bo'lmasa, onaxonni kasalxonaga tashlab qoying, shoshib turibdilar,-dedim haydovchiga qarab. Haydovchi ayolga bir qarab oldi-da, to'nglik bilan:

- Yana ozingina kutsinlar, kasalxonaga o'zlari olib ketishadi, - deb piching qildi.

Biz ilojisiz ahvolda qolaverdik. Saldan keyin bo'shroq taksiga o'tirdik. Biroq, manzilimizning yarmiga yetmay, mashina tiqinga duch kelib, to'xtab qoldi. Haydovchi mashinadan tushib, turna qator mashinalar oralab,

oldinga qarab yurdi. Bir mahal rangi oqargan holda qaytib keldi.

- Mendan oldin ketgan taksi «KamAZ»ga borib urilibdi, olganlar ham bor... - dedi yiglamsirab.

Men «yalt» etib ayolga qaradim. U nimadir deb pichirlab qoVdi...

Surbetlik qilgan yolovchilar, haydovchining to'ngligida ehtimol zulm alomatlarini ko'rmassiz. Hukmdorlarning zulmi oidida bu arzimas narsa bolib ko'rinar. «Bas, kim hayoti dunyodalik paytida zarra misqolichalik yaxshilik qilsa, Qiyomat kuni o'shani ko'rur. Kim **zarra misqoli- chalik yomonlik qilsa**, uni ham ko'rur» («Zalzala» surasidan). Ha, Alloh Taoloning nazdida arzimas narsa bolmaydi.

Bizlarga ta'sir etgan hikmatlar tarix kitoblarida shohlar hayotidan bolgani uchun, o'zgartirmay, aynan olishni ma'qul ko'r dim. Shulardan biri yuqoridagi hikoyat mazmunini davom ettiradi, ya'ni, hayot hikmatini to'g'ri anglash eng ashaddiy zolimni ham adolatga qaytarishi mumkin. Awalgi suhbatlarimizda tarixda «Anushirvoni odil» deb nom qozongan Eron shohi haqida bir necha hikmatlarni bayon qilib edim. Bu zot odillikni kasb qilmasdan oldin zulmi bilan nom qozongan ekan.

Hikoyat. Bir kuni vaziri donishmand Buzurgmehr bilan ketajotganida ikki tomonga saflanib qo'nib turgan boyqushlar to'dasini ko'rdi. Har to'dadan bittadan boyqush oldinga chiqib bahslasha boshlashdi. Anushirvon bu holdan taajjublanib dediki:

- Siz komil donishmand, hatto hayvonlar kayfiyatidan xabardor olimsiz. Ayting, bu boyqushlar ne uchun bu holda safga tizilganlar? O'rtadagi ikki boyqushning bahsi sababi nima?

Buzurgmehr javob berdi:

- Ikki tomon bir-biriga quda bolmoqchi, o'rtadagi bahslashib turgan boyqushlarning biri bolajak kuyovning, ikkinchisi qizning otasidir. Qizning otasi: «Qalin haqi uchun qirqta vayrona joy berishingiz kerak, agar talabimni bajarmasangiz, qizimni o'g'lingizga

bermayman, menga quda bolishni xayolingizga ham keltirmang», deyapti. Yigitning otasi esa: «Qalin berishdan bosh tortmayman. Hozircha to'rt vayrona tayyor, shularni ola turing. Hozirgi podshoh doim aysh-u ishratdadir. Mamlakatning holidan xabarsiz, kambag'al bechoralarning ahvoliga, dod-u faryodiga quloq solmaydi. Zolimlarning zulmini daf qilmaydi. U odil emas. Agar ahvol shu tarzda davom etaversa, bu yurt tez orada xarobazorga aylanadi. U vaqtda sizga qirq emas, sakson vayronani qalin uchun tortiq etaman, ungacha ozgina sabr qila turing», deyapti. Ikki boyqushning tortishuvi shu vayronalar ustida bolyapti.

«Zulmdur bir baloyi dil ozor, gar najot istasang balodan kech», deganlariday, Anushirvon bu hikmatdan yaxshi xulosa oldi. Saroyiga qaytib, adolat va insofni shunday mahkam bunyod etdi-ki, oradan asrlar o'tsa-da, tarixda «zolim» emas, balki «odil shoh» degan sifati bilan joy olib turibdi.

Sulton Mahmud G'aznaviyda fazilatlar oz edi. Uning xizmatida Muzaffar devona degan kishi bor bolib, zolimligi, nobakorligi va e'tiqodsizligi bilan nom qozongandi.

Sulton Mahmud Dasht viloyati va uning atrofidagi qishloq va ariqlami o'z mulkiga qo'shib olishni ixtiyor etdi. Biroq, yer egalari joylarini sotishdan bosh tortdilar. Bundan Sulton g'azablandi-da, jazo bermoq uchun Muzaffar devonani ularning ustiga nazoratchi qilib jmbordi.

Muzaffar aholiga shunday zulmlar qildi-ki, tez kunlarda ular jonlaridan toyib, olimlariga ham rozi bolib qoldilar. Muzaffaming zulmlaridan biri bunday edi: u o'z mulozimlari bilan yashayotgan uyi tomiga chiqib olib, dehqonlardan birini chaqirtirdi. Dehqon tomga chiqqach: «Uyimning tomiga nimaga chiqding?» deb dag'dag'a qildi. «O'zimcha chiqqanim yo'q, chaqirtirganigiz uchun chiqdim», dedi bechora dehqon. «Yolg'on aytasan, seni hech kim chaqirmadi», deb ~~u~~ **Bolim hntto qeam ham iohdi da,** ^ dehqonni tomdan tas hlabi^i]fIS3(i|shlipafl^Mctiic^@ik31nlar i

ichida ko'pgina dehqonlar mayib-majruh bolib qoldilar. Ahvol shu darajaga yetdi-ki, odamlar bu ko'chad an yurmay qoydilar. Bu zolim «Kim o'z quliga zulm qilib uni noo'rin ursa, Qiyomat kuni albatta undan qasos olinadi», degan sharaflı hadisni bilmaganmikin? Yo bila turib shu yovuzlikni kasb qildimikin? Bunisi bizga qorong'u. Rasululloh (s.a.v.) Umni Salamaning (r.a.) uylarida bolganlarida cho'rini chaqirdilar. Cho'ri darrov kelmadi. Rasuli akramning muborak yuzlarida norozilik alomati ko'rindi. Cho'riga misvakni ko'rsatib: «Qiyomat kuni o'ch olish xavfi bolmaganida edi, men seni shu misvak bilan urgan bolardim», dedilar. Muzaffar devona bu hadisni ham eshitmagan, eshitsa-da, nazarga ilmagandir, vallohu alam!

Zulm turi eskirgach, Muzaffar yangi-yangi turlarini o'lab topaverdi. Shulardan biri: dehqonni huzuriga chaqirtirib, «Nechta quling bor?» deb so'radi. «Faloncha...» dedi dehqon. «Hamma qullaringni shu yerga keltir», deb buyurdi. Dehqon amrni bajargach, qullar orasidan eng qarisi, majruhi va badbasharasini tanlab: «Buni menga sot», dedi. «Sizga hadya etdim», dedi dehqon uning vajohatidan qo'rqib. «In'omingga ehtiyojim yo'q, bahosini ol!» deb, arzimagan chaqaga qulni sotib oldi va amr qildi: «Bu qul endi sultonning ozod quli boldi. Sen o'z qizingni bunga nikohlab berishing shart!»

Zolimning bu qiligi qo'zichoqni yemoqchi bolib, jonivordan ayb izlagan bo'rini yodga soladi. Esladingizmi, bo'ri bechora qo'zichoqni «Sen men ichayotgan suvni loyqalatding», deb ayblaydi. Holbuki, qo'zichoq ariqning quyi qismidan, o'zi esa yuqorisidan suv ichayotgan boladi.

Muzaffar devonaga o'xshash zolimlarning qismatini Shayx Sa'diy bunday tasvir qiladilar: «Eshitdumkim, bir omil kishi sultonning xazinasini obod etmak uchun raiyatning uyin xarob qilur erdi. Hakimlaming bu so'zidin g'ofil erdikim, debdurlar: Har kishi bir maxluqning ko'nglin olmoq uchun Haq Taoloning bir bandasig'a ozor yetkursa, Haq Taolo onga hamul bandani musallat qilur,

to oning ro'zgoridin damor chiqarur, Oyturlarkim, hayvo- notning sarvari sherdur va jonivarlarning kamtari eshakdur. Hamrna oqillarning ittifoqi bila mardumozor sher borbardor eshakdan kamroqdur Masnaviy:

*Gar eshak xor-u betamiz o'ldi,
Yuk ko'tarmak bila aziz o'ldi.
Garchi hayvontar ichradur adno,
Lek zotimdin afzal-u a'lo,*

Ul omii kishining xaloyiqqa zulm va sitam qilg'oni podsholig'a malum bolub, buyurdi, to yuz turluk azob-u uqubat bila olturdilar. Ul holda sitam ko'rganlaming biri oning ustig'a kelib, yuziga boqib, dedi:

Qit'a:

*Har kishi tobsa qaviy bozu bila mansabg'a dast, Saltanat birla
ulus molin yemak oson emas.
Zo'r ila sitig'on so'ngakni gar o'tursa bo'g'zidin, Yirtmay qo'ymoq
yetushgach, qomig'a imkon emas».*

Sulton Mahmud Muzaffar Devonani jazolaganmi, yo'qmi, bizga qorongl Ehtimol, Dasht viloyatidagi yerlami mulkiga qo'shib olgach, mukofotlagandir. Lekin Muzaffar devonani Alloh Taoloning jazosi kutib turgani aniq.

Biz zulmni qoralaymiz, zolimni la'natlaymiz. Lekin zolimni yaxshilik sari da Vat etganmizmi? Ikki mast odam bir kishini urayotganida ajratganmxzmi yo teskari qarab o'tib ketaverganmizmi? Ikki saboqdosh do'stingiz bir- birini solcayotganda oraga tushib, ulami isloh qilasizmi yo mojarolarini tomosha qilib rohatlanasizmi?

Hikmat. Molik ibn Anas rivoyat qildilar: Allohning rasuli: «Zolim birodaringga ham mazlum birodaringga hamyordam ber», dedilar. «E Allohning elchisi, mazlumga- ku, yordam beraman, ammo zolimga qanday yordam beray?», deb so'radim. Aytidilar: «Uni zulmdan qaytarsang, ana shu sening ungayordamingdir».

Abu Maysaradan zikr qilinadi: «Bir kishi dafn etilganidan keyin uning qabriga Munkar va Nakir qamchi bilan kelishdi va: «Biz seni yuz qamchi uramiz», deyishdi. Marhum «men bunday-bunday kishi edim», deb foniyl dunyodagi yaxshiliklarini bayon qildi. Uning gaplari shifoat bo'lib, o'ntasini o'chirishdi. Banda yana yaxshiliklarini aytdi. Shu tarzda o'chira-o'chira to'qson to'qqiztasi ketdi, bittasi qoldi. Munkar va Nakir unga bir qamchi urishdi. Shunda qabr ichi o't bolib yondi. O'sha kishi: «Nega meni urdingiz?» deb so'radi. Aytishdiki: «Bir zulmyetgan kishining oldidan o'tayotgan eding, u sendan yordam so'radi, unga yordam bermading». Mazlumga yordam bermagan kishining holati shu bolsa, zolimning holati qanday bo'lar ekan?

Masai. Bir kuni qovoqari asalarini oldirmoqchi boldi. Chorasiz qolgan asalari qovoqariga yalinib, faryod qila boshladi:

- Ey aziz qardoshim! Atrofdan shuncha ko'p bol bor ekan, ularni qoyib nechm menga nashtaringni sanchib, oldirmoqchisan?

- Ey asalari, to'g'ri aytasan, lekin sen bolning xazina- sisan, bolning qaynog'i senda, - dedi qovoqari.

Mazkur masal orqali Mullo Jomiy hazratlari kishilarga katta bir haqiqat darsi berish bilan bunday demoqchilar: «Hayotda asalari kabi shifobaxsh kishilarni ba'zi yomon, axloqsiz kimsalar ta'qib ostiga olib, yo'q qilishni istaydilar. Ularning eng shirin so'zlari, hatto yolvorishlari hamyovuz kimsalarning rahmini keltirmaydi. Rahmsiz kimsalar dono olimlarni o'ldirish bilan rohatlanadilar. Shu boisdan aytdilarki, «Olimning olimi — olamning olimidir. Olimni oldirmoq - olamni oldirmoq. Olimning tirikligi - olamning tirikligidir».

Bir olim bir olamdir. Olamning tirikligi olim bilandir.

Zolimlarga mantiqlimi yo mantiqsizmi albatta bir bahona kerak. Taksiga navbatsiz chiqib olgan surbet yo'lovchilar va to'ng haydovchida bahona yo'q deb o'laysizmi? Bu xususda so'ralsa, albatta, bahona topib

beradilar. Birlari hech bo'lmaganda «Juda shoshib turuvdik», der, yana biri «Charchagan edim, hammaga yaxshi qarashga qurbimyetmaydi», der... Bahona topish qiyin emas, kishi o'zi to'qigan bahonaga o'zi ishonar, boshqalarni ham ishontirar, lekin bu bahona oxirtda inobatga olinarmikin, masala shunda!

Sulton Mahmud G'aznaviy zamonidagi voqeaga qaytsak, Muzaffar devona zulmni xojasining izni bilan va u uchun qildi. Demak, hukmdor ham uning bilan gunohda baravar. Aytishlaricha, xunuk ishlarga buyuruvchi Sultonning tashqi ko'rinishi ham xunuk ekan. Bir kuni ko'zguga qarab, ko'ngli cho'kib otirsa vaziri kirib qolibdi. «Nimadan qayg'iryapsiz?», deb so'rabdi.

- Chiroyli yuzga hamma qaraydi. Mendan esa irganishsa kerak, - debdi sulton.

- Qayg'urmang, - deb vazir tasalli beribdi, - tashqi qiyofaga ming kishidan bittasigina qaraydi. Hammani o'ziga qaratish uchun esa odamning surati - tashqi qiyofasi emas, siyrati - ichki olami go'zal bolishi shart. Xalqqa zulm qilmang, insof, adolatli, shafqat va marhamatli boling. Ochiqyuz, shirinso'z, xushmuomalalikni o'zingizga shior qilib oling. Ana u choqda xalqning muhabbatini jalb etasiz. Xalqqa sizning xunuk yuzingiz emas, go'zal siyratingiz kerak. Siyratingiz go'zal bolsa, xalqning qalbini o'zingizga tortib olasiz.

Chiroyli nasihat! Ammo bu chindan bolgan voqeamikin yo roviyning orzusidagi bayonmikin? Rostadanam bu nasihatlar aytilgan bolsa, amalga oshirilganmi yo yo'qmi, bu haqda ortiqcha bosh qotirishga hojat yo'q, bu borada tarixning guvohligi mavjud... Quyidagi masal bekorga to'qilmagandir.

Masal. Bir zamonlar barcha hayvonlarni zir titratgan o'rmon qiroli arslon qaridi. Awallari arslondan qo'rqqan hayvonlar kunlarning birida uning boshiga to'plandilar. Ot majolsiz arslonga yaqinlashib, uni bir necha marta tepdi. Bo'ri esa arslonning bir necha joyidan tishlab, qonga beladi. So'ngra ho'kiz arslonning zaifligidan foydalanib

uni suza ketdi. U shoxidan bu shoxiga olib oynadi., Bechora arslon juda g'amgin va dardmand edi, Bir zamonlar uning oidida dir-dir titragan bu xoinlar, hozir uni tepib, tahqirlar edilar. U parishon bir holda, olimini kutib, ovoz ham chiqarmasdi. Bir mahal eshakning tepmoqchi bolib yaqinlashayotganini ko'rdi. Ko'rdi-yu, o'rmon qiroli ich-ichidan yondi. So'ng haqixdi: «Yetar bas! Eshakning tepishi menga o'limdan battar! Buni ko'rgandan ming marta ollshga roziman!»

Hali aqlini butkul yo'qotmagan zolim uchun bu masalda katta saboq boi. Zolim maydonga chiqsa, avjlanib zulm qilaveradi. Ammo bir kuni hayot charxi aylanib, quwat va qudrati ketgach, u ham masalda bo'lgani kabi oqibat topadi, Jahon tarixi bu kabi acbechiq qismatlarga toladir, Tarixga boqib, zolimlar holidan xabar olib turishning tarbiya uchun foydasi bor,

Odamzotningxayolot dunyosi nihoyatda keng Bir toifa bu quwatni yaxshilikka, xususan, ilmga sarflasa, boshqasi yovuzlik yoliga sochadi. Hayvonlarning ayrimlarini «vahshiy» deb sifatlaymiz, Ularda aql yo'q. Vahshiyligidan maqsad - qorinni to'ydirish, U faqat shu yol bilan yashaydi. Yolbars sholg'om yeya olmaydi.

Malumingizki, ayrim odamlarni ham «vahshiy» deb ataydilar. Vahshiylik yoki yovuzlik - zulmning cho'qqisi hisoblanadi. Odam qorin toydirish uchun vahshiylik qilmaydi, balki o'z ko'nghga orom berish uchun o'zga bir kishini qaqshatadi Yolbars oljasini poylaydi, quvlaydi, bo'g'zidan oladi, nihoyat, qornini yorib toyganicha yeydi. Toygach, nari ketadi. Bizning nazarimizdagi vahshiyliigi bir tarzda davom etadi. Bugun bir turda, ertaga o'zgacharoq vahshiylik qilmaydi. Odamzod esa ongini zulmning xilma-xil turlarini kashf etishga sarflaydi. Toshkent hukmdori Azizbekning «O'tgan kunlar» romanida tilga olingan zulmlari orasida «chayon solig'i» ham bor. U zolim amri bilan mahalla ahli chayon topib, topshirar ekan. U esa zindondagi aybdor ustiga shu chayonlarni bitta-bitta tashlab, uning azoblanishidan

lazzatlanar ekan. Buni yevropa ilm tilida «sadist» deb ataydilar. Ana endi hayvonning vahshiyliги bilan odamning vahshiyliğini solishtirib ko'ring. Men esam fikr doirangizning yanada kengayishiga asqotar, degan umiddayana bir masalni bayon qilaman.

Masal. Bir to'rg'ay bir filning yoli ustida o'ziga uya qurib, tuxum bosdi. Fil hamisha shu so'qmoqdan yurib suv ichgali kol bo'yiga borardi. U to'rg'ayning uyasini toptab, tuxumlarini yanchib o'tib ketdi. To'rg'ay bu baxtsizlikdan nola chekib, qushlar yoniga bordi va fildan shikoyat qildi. Qushlar: «Biz filni nima ham qila olardik, biz kuchsiz parrandalarmiz», deb nolishdi. «Iltimos qilaman, siz men bilan borib, filning ko'zlarini cho'qilab tashlang, - dedi to'rg'ay. - Ana undan keyin men uning boshiga qanaqa sho'rliklar yog'dirishni o'zim bilaman». Qushlar to'rg'ayga ergashib borib, filning ko'zlarini cho'qib, ko'r qildilar. Shundan keyin fil bechora na suv ichish, na ovqat topib yeyishning ilojini qila oldi. Turgan joyida nima topsa, shu bilan kifoyalanib kun kechiradigan boldi. To'rg'ay buni ko'rgach, alamiga chidolmay, hovuz yoqasiga kelib qurbaqalarga fil ustidan shikoyat qildi. Ular: «Biz kuchli filga qarshi nima ham qila olardik?», dedilar. To'rg'ay aytdi: «Siz fil turgan joyga yaqin bolgan bir chuqurning chetiga borib, o'sha yerda baland ovoz bilan vaqir-vuqir qilsangiz, fil sizning ovozingizni eshitib, u yerda suv bor ekan, deb yoningizga boradi-da, chuqurga qulab ketadi». Qurbaqalar bunga rozi boldilar. Chuqur chetiga borib qurillay boshladilar. Suvsizlikdan qiynalgan fil qurbaqalarning ovozi eshitib, ular tomon yol oldi va chuqurgayiqilib halok boldi...

Bu masaldan ikki ma'no uqish mumkin: birinchisi, kuchga ishonib, manmanlikka berilganning halokati. Bunga to'rg'ayning xitobi misol: «Ey, o'z kuchiga ishonib, menga haqorat ko'zi bilan boqqan zulmkor! Jussam kichkina bolsa-da, zo'r aql egasi ekanligimni ko'rsatdim. Sening gavgang ulkan bolsa-da, aqling qisqa ekan...» To'g'ri, har qanday kuchni aql bilan ishlatilgan tadbir

halok qila olishi mumkin. Lekin masaldagi mantiqqa e'tibor bersak, zolim fil emas, to'rg'ay bo'lib chiqadi. Fil uning uyasi va tuxumlarini atajdn bosmadi. To'rg'ay esa aqlini zulm uchun ishlatdi. Axir deydilarku: «Suvda timsoh bilan birga suzmoq tahlikalidir. Lekin bu yerda gunoh timsohda emas, uning yashaydigan j^eriga borgan odamdadir. Agar kimda-kim o'zi ilonning og'zidan zaharini olib ichsa, Пон aybdor emas. Kim sheming g'origa kirmoqchi bolsa-yu, sher hujumidan emin bolaman, desa bekor aytibdi».

Ba'zilar zolimlarning zulmidan bezib: «Xudo bunaqa- lamingjonini ola qolmaydimi!», deb zorlanishadi. Odamlar zolimning tezda jazo topishini istashadi. Holbuki, ularga qachon va qanday jazo berishini Alloh Taoloning o'zi biladi. Taksiga benavbat o'tirib, boshqalarning ko'ngliga ozor berganlarni Alloh Taolo bir necha daqiqa o'tgach jazolaganday tuyuladi. Ular faqat o'sha ayblari uchun jazo topdilarmi? Ehtimol, gunohlar to'plana-to'plana so'ng jazoga muhtalo bolgandirlar. Xuddi quyidagi hikoyatdagi kabi.

Hikoyat. Qadim zamonda zolim, dilozor boy bor edi. Kambag'allarga jabr-zulm o'tkazib, ularning bozorga keltirgan o'tinlarini arzon-garovga sotib olib, qimmat bahoga pullardi. Kambag'allar bu savdogarning zulmidan tang ahvolga tushib qoldilar. Bir kuni zolim bir bechoraning o'tinini zo'rlik bilan tortib oldi. O'tinning yarim bahosini ham bermadi. Kambag'alning ko'ngli ozor chekdi. Boyni qarg'ab-qarg'ab ketdi. Bu voqeani ko'rib turgan bir insof egasi:

- Sen kabag'allarga jabr-u jafo qilma, g'arib ko'ngillarini vayron etma, yetimlarning ko'zlaridan qonliyosh oqizma, bu yaramasliklaringdan qayt, - deb nasihat qilsa ham, boy quloqqa ilmadi. Bu voqeadan ko'p o'tmay, boyning uyiga o't. tushdi, bor mulki kulga aylandi. Dunyo ko'ziga ko'rinib, «uyimga o't qayerdan tushganini bilolmay hay- ronman», deb yaqinlariga arz qilib o'tirganda nasihatchi insof egasi kelib qoldi-da, unga javob berdi:

- Hayron bolma, jabr-u zuimingdan tang holga kelgan bechora kambag'allarning vuragidan chiqqan faiyod o'ti jamlanib, sening uyingni kuydirib tashladi.

Rivoyat. Isfaxonlik bir yigitning yonida o'n ming oltin pul bor edi. Sayohatga chiqib, yo'lda ketayotganida kechani bir qishloqda o'tkazishga ahd qilib, bir uydan boshpana so'radi. Uy sohibi marhamat qilib, xonalardan birini uning ixtiyoriga berdi, izzat-ikrom ko'rsatib, taom keltirdi. Istirohat vaqti yetganda uy sohibi:

- Agar yoningizda oltinni yoki boshqa qimmatbaho buyumrhi bolsa, menga berib qo'ing. Agar o'g'rilar sizda tilla borligini sezib, izingizdan tushishgan bolishsa, bu xonada yolg'iz topib, yana aziyat yetkazishmasin, - dedi.

Yigitga bu gap ma'qul kelib, oltin tola xaltani unga berdi. Bir oz o'tgach narigixonadan er-xotinning nimanidir talashib, janjallasha boshlagani eshitildi. Yigit tanimagan odamga boyligini berib qoyganidan pushaymon qilib, uni chaqirdi. «Aziz birodar, men subhi sodiqda ketaman. Sizni uyg'otib, besaranjom qilishni istamayman. Xaltamni bera qoling», dedi. Uy sohibi uning iltimosini darhol bajardi. Xaltaning ipi yechilmagan, muhri ham buzilmagan edi. Shunday bolsa ham, xaltani ochib, oltinlarini sanadi. U odamning pok vijdonli ekaniga ishonib, gumonsiragani uchun o'zidan o'zi ranjidi. Har on o'zini Tangrining huzurida deb bilgan kishining qo'lidan yomonlik kelmaydi. Uy sohibi shunday kishilardan edi. Ammo...

Yana bir ozdan so'ng qo'shni xonadagi janjal avjiga chiqdi. Yigit darchaga yaqinroq borib quloq tutdi. G'azablangan xotin eriga qarab baqira boshladi:

- Ajab ablah, nodon kishi ekansiz! Qolingizga shuncha boylik tushganda, qoldan boy berdingiz, u musofirmi yo'q qilib, oltinlariga ega bolsak, kim ham bilardi?!

Bu gaplarin eshitib, yigitning yuragiga vahima tushdi. Xaltasini oldi-yu, baland daraxt tepasiga chiqib, shoxlari orasiga yashirindi. Bu xonadonning yigirma yoshlar chamasidagi bevosh o'gli bor edi. O'sha kecha ham g'irt mast bolib kelib, o'z xonasiga yeta olmay, musofir yigit

yotgan xonaga kirib, uning o'rniga yotib oldi. Pok vijdonli uy sohibi «agar o'g'rlar sizda tilla borligini sezib, izingizdan tushishgan bolishsa, bu xonada yolg'iz topib, yana aziyat yetkazishmasin», deganda shu o'g'lini nazarda tutgan edi.

Eri uxlab qolgach, xotin sekingina o'rnidan turdi-da, katta tosh olib, mehmonxonaga kirdi. Musofirning o'rnida yotgan o'g'li boshiga bir urib, uni o'ldirdi. Keyin oltin tola xaltani qidirdi. Topa olmagach, chiqib, erini uyg'otdi:

- Musofir oldi, tong otmay turib, jasadini ko'maylik, xaltasini topaylik, - dedi.

Er xotiniga la'natlar o'qib, mehmonxonaga kirib, chiroqni yoqdi. Boshi yorilib, olib yotgan o'g'lini ko'rgan xotinning esi og'ib qoldi.

- Yovuzlikning jazosi shu boladi, - dedi vijdon egasi. - Begunoh bir kishi uchun dor qurgan eding, unga o'zing osilding. Endi dod-faiyoding foyda bermaydi.

Imtihon dunyosida odam bolasi hamma narsani ko'radi. Muhimi, yomonlikka ro'para kelib imtihon qilinayotganini unutmasa bas. Har qanday yomonlikni daf etish uchun aqlni ishlatish kerak. Aqlni ishlatmagan onda yomonlik g'alaba qila boshlaydi. Bu sharaflari hamisha yodda tutish kerak: «Farazan bir tog' ikkinchi toqqa zulm qilsa, zulm qiluvchi tog' albatta mayda-mayda qilib yuboriladi». Ya'ni, zulm shunday yomon xulq-ki u aslo kechirilmaydi. Bu insonlar va hayvonlar uchunгина emas, hatto tog' kabi jamodot (noorganik jismlar)lar ham bir-biriga ta'adiy (hujum) qilsa, albatta, o'chini olib beriladi. Yaxshilik bilan yomonlik, foyda bilan ziyonning farqiga bormaydigan ahmoqlardan boshqa hech kim o'zgalarga zulm qilishni o'zlariga ravo ko'rmaydilar. Yolg'iz johillargina o'z ishlarining nima bilan tamom bolishini bila olmaydilar. Aqlli odam o'ziga ravo ko'rmaganni o'zgaga ham ravo ko'rmaydi.

Biz sabr qilishga buyurilganmiz. Lekin bu har qanday zolimga tobe bolib, zulmiga chidab yashayver, degani emas. Ya'ni, nohaq tajovuz va zulm yetganda xor-u zor

bolib qolmay, izzatlari, vatanlari uchun dushman ustidan g'olib kela olish kerak. Bu ham odamiylik uchun shart bolgan sifatlardan. Zotan, zolimning zulmidan qo'rqib, haqsizlik, adolatsizlikka qarshi tura olmagan odam ko'mil inson hisoblanmaydi. Lekin banda zulmga zulm bilan javob qaytarishni qasd qilmaslik kerak. Ba'zilar birovdan zulm ko'rganlaridan so'ng go'yo taqdirga tan berganday yuraveradilar-u, payti kelganda o'ch oladilar.

«Har qanday yomonlikning jazosi xuddi o'ziga o'xshagan yomonlikdir» («Sho'ro» surasidan), Bunga hayotda misollar ko'p. Har bir yomonlikning o'ziga yara-sha jazosi mavjudligiga quyidagi masal misol bola oladi.

Masal. Halab viloyatidagi o'rmonda yashovchi bahay-bat sherning qiladigan ishi faqat qon to'rish edi. Qoraquloq degan mulozimi uning sitamkorligi va qonxo'rlikidan qo'rqib, xizmatni tark etishga qaror qildi. Bir kuni Qoraquloq o'rmon chetiga chiqib, taqdirini o'ylab o'tirgan edi, bir sichqonning jahd-u jadal bilan daraxt tomirini kemirayotganini ko'rib qoldi. Joni og'rigan daraxt tilga kirib: «Ey dilozor va sitamkor, nima uchun jonim rishtalarini qiriyapsan?», deb nola qildi. Sichqon uning nola-vu zoriga e'tibor bermay, o'z ishini davom ettiraverdi. Nogoh bir burchakdan ilon chiqib, sichqonga hamla qildi va yamlab, yutib yubordi. Qoraquloq buni ko'rib, «dilozorning jazosi ozor ekan», degan xulosa chiqarib oldi.

Shu vaqt tipratikan kelib, ilonning dumidan tishladi-yu, boshini ichiga tortib g'ujanak bolib oldi. Ilon jon achchig'ida unga o'zini ura boshlagan edi, a'zoyi badanini tikanlar tilka-pora qilib yubordi. Qoraquloq ilonning olimidan ham ibrat oldi. Ilon olgach, tipratikan boshini chiqarib, oljasiniyedi. Qorni toygach, koptokdekyumaloq bolib olib, daraxt soyasida rohatlanib dumalayverdi. Bu on qomi och tulki keldi. Tipratikanning nayzalarini ko'rib, uni hiyla bilan oldirmoqchi boldi. Tipratikanni yumaJatib, qorniga yozildi. Tipratikan «yomg'ir yog'ayapti shekilli», deb oyiab, boshini chiqargan ham edi-ki, tulki bir hamla bilan uni cho'rt uzdi, bo'shshib, qorni ochilib qolgan

tipratikanni ishtaha bilan yeb oldi. Shu vaqt bo'riga o'xshagan vahshiy it kelib, tulkini turgan yerida bo'g'ib, uning go'shti bilan och qomini to'yirdi.

It dam olishga hozirlik ko'rayotganida bir qoplon kelib, uning bo'g'zidan oldi. Qoplon itni yeb ado qilishga ulgurmagan edi, ovchi kelib uni bir o'q bilan jo-bajo qildi. Qoplonning joni hali uzilmagan edi, u yerdan bir otliq o'tib qoldi. Qoplonning terisi yoqib qolib, qilichini yalag'ochladi-yu, ovchining boshini uzdi. Qoplon terisini shilib olib, yolga tushdi. Yuz qadam ham yurmagan edi- ki, oti qoqilib, o'ziyergayiqildi. Gardani sinib, shu on oldi.

Qoraquloq bulami ko'rgach, sherga kelib safar qilmoq- qa undan ijozat so'radi.

- Mening davlatim soyasida osoyishta hayot kechir- yapsan. In'omlarimdan bahramandsan, tag'in nima uchun ketmoqchi bolib qolding? - deb ajabladi sher.

- Agar ketmasam, g'amdan yuragim yorilishga yetdi, dardimni aytsam, boshim xatarda. Agar omon qoldirishga ont ichsang, aytaman, - dedi Qoraquloq.

Sher va'da bergach, dilidagini bayon qildi:

- Qilayotgan ishlaring xaloyiqqa ozor va begunohlarga sitam ekanligini ko'rib turibman. Uning oqibatidan qo'rqqanimdan xizimatingni tark etmoqchiman. Sen tufayli boshimga yomon kunlar kelishi mumkin. Bu dunyoni toqqa o'xshatadilar. Uning orasida turib nima deb baqirsang, o'sha so'zning aksi sadosi eshitasan... Men bugun birovlariga ozor yetkazgan kimsaning albatta jazoga mustahiq bolishining guvohi boldim...

Qoraquloq ko'rganlarini sherga bir-bir bayon qildi. Sher mag'rur va g'azabnok bolgani sababli mulozimining nasihatlarini o'ziga olmadi. Shundan keyin Qoraquloq uning xizmatidan chiqib, yolga ravona boldi. G'azabidan tushmagan sher unga jazo berish qasdida izidan tushdi. Qoraquloq uning bu qora niyatini sezib, o'zini tikonzor orasiga urib, yashirindi. Sher uni ko'rmay o'tib ketdi. Qarshisida ohuning ikki bolasi o'tlab yurganini ko'rib, quvondi. Bolalarini qo'riqlab turgan ona ohu sherni ko'rgach, faryod qildi:

- Bu ikki norasida go'dakni yeganing bilan toymaysan. Yalinaman, nuridiydalarim firoqida meni yig'latma, bag'rimni qon qilma! Axir sening ham farzandlaring bordir. Ularga ham balo yetishidan qo'rq, menga zulm qilsang, o'zing jazosiz qolmagaysan!

Haqiqatan ham bu urg'ochi sherining ikki bolasi bor edi. Sher ohu bolalariga qasd qilib turganida, ovchi kamon o'qi bilan shervachchalami moljalga olayotgan edi. Bu yerda sher ohuning nolayi zoriga parvo qilmay, bolalarini yedi. U yerda esa ovchi uning ikki bolasini otib, terisini shilib ketdi. Ohu go'shtidan rohatlangan sher maskaniga qaytib kelib farzandlarining oldirilganini bildi-yu, zor-zor yig'ladi. G'am daryosiga cho'kib o'tirganda qo'shnisi shag'ol chiqib, hoi so'radi. Sher bolgan hodisani aytib berdi. Shunda shag'ol dedi:

- Har bir narsaning awali ham, oxiri ham boladi. Umr nihoyasiga yetib, ajal kelganda, uning chorasini ko'rib bo'lmaydi. Dunyoning ishi shunday. Har bir g'am orasidan shodlik, har bir shodlik orqasidan kulfat keladi. Otalarimiz, qazoning ishiga chidashdan boshqa chora yo'q, deganlar... Yetar, qoy, oh-u fig'on ko'tarma. Qilgan ishlarini ko'z o'ngingga keltir. Sen boshqalarga bundan ham og'ir kulfatlar yetkazgansan. Kim nima qilsa, o'sha narsa uning oldiga keladi. Agar sen bu yovuzliklaringga barham bermasang, bundan ham ko'proq musibatlar ko'rasan. Rohatda yashamoqchi bo'lsang, o'zingdan zaiflarga aziyat berma. Sen oldirgan jonivorlaming ota-onalari yo'qmidi? Ayriliq va hijron dardi ularning qalblariga otyoqib, yuraklariga dog' solmaganmikin? Agar qon to'kish bilan mashg'ul bo'lmaganingda, bunday musibat sening boshingga tushmas edi...

Qissadan hissa chiqarish uncha mushkul emas. «Odamlarga zulm qiladigan va Yerda nohaq hadlaridan oshadigan kimsalarni ayblash va zulm-u zo'ravonliklari uchun jazolashgagina yol bordir. Ana o'shalar uchun alamli azob bordir» («Sho'ro» surasidan).

Yana bir hikmat: hayvon ruhli kimsa yirtqich kabi boladi. Yirtqichlikdan voz kech-da, inson ruhli bol!

Biz zulm haqida soʻz ketganda koʻproq shaxsning shaxsga nisbatan yomonliklarini nazarda tutamiz, Chindan ham odamlar orasidagi oʻzaro zulm yildan yilga koʻpayib, tobora vahshiylashib boiyapti. Zulmning yangi- yangi turlari paydo boiyapti. Malumotlarga koʻra, bir soatda dunyo boʻyicha ikki yuz ming jinoyat sodir boladi. Bir qotilning ikki-uch yoki undan koʻp odam joniga qasd qilishi hisobga olinsa, bir soatda yarim millionga yaqin mazlum azob chekadi. Buning sababi haqida koʻp bahslashadilar. Bizningcha, ortiqcha bahsga oʻrin yoʻq. Har qanday jinoyat, zulmning asosi maʼnaviy qashshoqlik. Boshqacha boʻlishi mumkin emas. Zolim yahudiy boladimi, nasroniy yoki butparastmi, yo musulmonmi maʼnaviy qashshoqligi tufayli bu gunohdan oʻzini toʻxtaca olmaydi. Sinagogaga boruvchi yahudiy, cherkovda ibodat qiluvchi nasroniy, butxonadagi butparast yoki masjidida besh vaqt namoz oʻquvchi orasida ham biron bir zolimni uchratish mumkin.

Bir hukmdor ibodat uchun borayotgan edi. Mulozim- lari unga yoʻl boʻshatish uchun yolda uchraganlarni qamchilar edilar. Shunda kaltak yeganlardan biri hukm- dorga qarata xitob qildi:

- Ey sen, zolim hukmdor! Qilgan amalingdan xabar- dormisan? Parvardigor sening yashirin zulmlaringdan jumlayi jahonni asrasin! Ibodat uchun ketayotib, yaxshi ish qildim, deb oyiayapsanmi? Yaxshiling shu bolsa, kim biladi, yomonliging qanday bolar ekan?

Shaxsning shaxsga yomonligidan tashqari foniyl dunyoda «xalqaro zulm» degan tushuncha ham bor. Qadim zamonlarda odamlar qabilalarga bolinib olib, bir- birlariga zulm qildilar. Keyin katta-kichik davlatlarga birlashib, zulmlarini shu miqyosda davom etdilar. Bir kishidan «Negaurushga bormading?» deb soʻradilar. «Men dushmanlardan birontasini tanimasam, ular ham meni tanimasa, nega borib urushayin?» deb javob berdi u.

Dunyoda yashab turgan odam bolalari vatanlari, millatlari, irqalaridan qatʼi nazar, ogʻa- ini ekani haqidagi

haqiqatni barcha idrok qilar, deb o'yiayman. Meni o'ylantiradigan narsa: asli nasablari bir ekanini bilganlari holda odamlar o'zaro yovlashadilar. Katta- kichik urushlarni boshlashdan charchamaydilar. Ajablanarlisi shuki, nasroniy nasroniyni qiradi, butparast butparastni, musulmon musulmonni... Ajablanarlisi shuki, jang maydonining u tomonidagisi ham, bu tomonidagisi ham Xudoga bir xilda munajat etadi: o'ziga omonlik, ro'parasidagilarga esa o'lim tilaydi. U dushman deb hisoblab, o'lim tilayotgan odaming kim ekanligini bilmaydi. Uning ham oilasi, farzandi taqdirini o'y lab, ruhan azob chekayotgani ham nomalum. Urush qaysi bir tomon uchun g'alaba bilan yakun topadi, ammo jonini garovga tikkan, muhoraba azoblarini totgan jangchi uchun hech qanday manfaat yo'q. U qiyomat janglardan omon chiqqaniga shukr qiladi, xolos.

Kaminani uzoq yillardan beri ko'nglini xira qilib turuvchi bir muammo bor: diqqat qiling-a, Odam bolalari go'y o' aqlga suyanib hayot kechirayotganga o'xshaydilar. Aslida shundaymi? Qarang-a, ko'p-ko'p kashfiyotlar qildilar, koinotga uchdilar, fazo bag'rida yashashni o'rgandilar. Suv osti kemalari yasadilar, suv ostida yashashni ham o'rgandilar. Hal bo'lmayotgan muammo shuki, yer yuzasida tinch, ahilinoq, halovat bilan yashashni ming yillardan beri o'rgana olmayotirlar.

Alloh Taolo «urushmanglar, bir-birlaringga zulm qilmanglar», deb buyurgani bilan urushaveradilar, urusha turib Yaratgandan pan oh so'raydilar, qiradilar, qiriladilar...

Voqea. Yigirma yil muqaddam Makkayi mukar- ramada, Baytullohda, hajarul-asvad qarshisida ikki hoji yonma-yon ibodat qilishardi. Ularning birlari eronlik, ikkinchisi Iroqdan edi. Bir din, hatto bir mazhabdagi bu ikki odam bir necha yil awal o'z mamlakatlari manfaati uchun qo'lga qurol olgan edilar. Jang maydonining ikki tomonidan joy olib, bir-birlarini oldirmoq qasdida o'q

uzgan edilar. Ulugʻmarhamatli Alloh Taolo ularningjonini saqlab qolib, bu muqaddas uyda yonma-yon qoydi. Namozdan soʻng ular bir-birlariga salom berib, tugʻishgan birodarlar kabi quchoqlashib koʻrishdilar.

Odam bolalari hamisha shunday yashasalar bolmasmi ekan...

Rumiy hazratlari «biz bu dunyoga bir parcha kafanlik ishlab topish uchun kelganmiz», deganlar. Topganimiz, oqibat bizga nasib etuvchi narsa shu ekan, talashmoqdan, zulm qilmoqdan, zulm koʻrmoqdan qanday naf bor?

Janjallar, urushlar ixtiloflar tufayli paydo boladi. Hozirgi urushlarning ikki asosi bolsa, biri - boylik ilinji, boshqa xalqlar hisobiga yanada boyish, ikkinchisi - diniy ixtilof. Koʻpincha birinchi sabab bilan ikkinchisi qoʻshilib ketadi yoki birinchisi ikkinchisini oʻziga libos qilib oladi. Yoki zolim davlat oʻz zulmini yashirish uchun ikkala sababni berkitib, boshqa liboslarda koʻrsatishga urinadi.

Biz «zulm» deganda koʻproq qotillik yoki hukmdor- larning berahmligini tushunamiz. Har birimizda yomonlik va zulmning (hech bolmaganda!) zirapchasi mavjudligini, bu zirapcha bilan birovga ozor berib qoʻvganimizni sezmaymiz. Oldingi suhbatimizda hatto jonivorlarga ham rahm-shafqat qilish kerakligi haqidagi amrlar, flklar bayoni bilan tanishdingiz. Bu mavzuni davom ettiradigan bolsak, hamonki, jonivorlarga rahm- shafqat qilinishi lozim ekan, demak, ularga zulm qilmoqlik mumkin emas.

Hazrati shayx Samadoniy Boyazid Bistomiydan «shayxingiz kimdir?» deb soʻradilar. Aytidilar: «Bir xotindir». «Ne vajah ila?» deb ajablandilar. Dedilar: «Bir kuni vujud va tavhid shavqi bilan sahrodan ketar edim. Bir xotinga duch keldim. Bir qop uni bor edi. «Shuni eltingin», dedi. Mening kuchim yetmas, deb bir arslonga ishorat qildim, qopni unga yukladim. Ammo karomatim izhoridan qoʻrqib, xotinga dedimki: «Bozorga j^etgach, kimni koʻrdim deysan?» Xotin: «Zolim va raʻno Boyazidni koʻrdim,

degayman», dedi. «Nega?», deb ajablandim. Dediki: «Bu arslonni Alloh yuk uchun yaratdimi? Nega yuk yuklatarsan? Sen istaysan-ki, shahar qavmi sening arslonga yuk ortganingni ko'rsinlar-u seni sohibi karomat desinlarmi? Bu ish zolimlik emasmi?» «Ra'nolikdir», deb yigladim, tavba qildim». («Ra'nolik»ning «mag'rurlik, o'zini chiroyli ko'rsatmoq» ma'nosi ham bor.)

Rasululloh (s.a.v.) alomat-belgi qilish uchun yuziga tamg'a bosilgan bir hayvon yonidan o'tib qoldilar. Shu vaqtda u hayvonning ikki burun teshigidan tutun chiqayotgan edi. Shunda Rasululloh (s.a.v.): «Mana shu ishni qilgan kishiga Alloh Taoloning la'nati bolsin! Hech kim biron maxluqning yuziga tamg'a bosmasin va yuziga urmasin», dedilar.

Jonivorlarni urib azob berishda bu sharafli hadisga amal qiladiganlar oz. Molni ham, eshakni ham, hatto yuvosh hisoblangan qoyni ham ayamay uradiganlar ko'p uchraydi. Holbuki, to'xtab turgan ot ustida ortiqcha o'tiraverish ham zulmga kiradi. Bu borada chavan- dozlarga ham tanbehimiz bor. Uloq musobaqalarida ko'ramiz, qadrdon do'stdek bolib qolgan otlarni ayamay savalab qoladilar yoki ot ustida soatlab o'tirib tomosha qiladilar. Qarab, achinib ketasan kishi: ot bechoraning deysinib-deysinib, pishqirib-pishqirib qo'yishdan o'zga chorasi yo'q... Jonivorlarga azob beruvchilar bu hadisni ham unutmasinlar: «Qiyomat kuni zimmangizdagi haqni albatta o'z egalariga topshirasizlar, hatto shoxsiz qo'y uchun shoxli qoydan ham o'ch olinadi» (Ya'ni, Qiyomat kuni qasos olinishi muqarrar. Hatto bu dunyoda bir-biriga zulm qilgan hayvonlar ham qasoskoridir, deyilmoqchi). Rasululloh (s.a.v.) dedilar: «Kim bitta chumchuqni bekorga oldiradigan bolsa, u Qiyomat kuni Allohga: «E Rabbim, falonchi meni bir manfaat yuzasidan emas, bekordan bekorga oldirdi», deb arz qiladi». Rasululloh (s.a.v.) chumoli uyasining kuydirilganini ko'rib: «O't bilan azoblashga o't Egasidan boshqaning haqi yo'q», dedilar.

Ko'p uchratamiz, arming chaqishidan qo'rqib, uyasini kuydiradilar. Ba'zi bolalar jonivorlarni (masalan, mushukni) ushlab, benzin quyib yoqib, uning azobla- nishidan rohatlanadilar. Tarbiya borasida bunga ham e'tibor qaratishimiz kerak ekan.

To'g'ri, tirikchiligimiz uchun jonivorlarning qonini tokamiz. Lekin qon tokishda ham zulmdan ehtiyot bolish lozimligini ayrim qassob birodarlarimiz bilishmaydi. Ularga bu sharaflı hadisni eslatamiz: «Alloh Taolo har bir narsaga yaxshilikni vojib etgandir. Agar o'ldirsangiz, chiroyli oldiring. So'ysangiz, chiroyli sowing. Picho- g'ingizni o'tkirlang va soyganmgizdan keyin dam bering». Pichoqni o'tkirlamay turib hayvonni yotqizish joiz emas. Bir kishi pichog'ini o'tkirlamay turib, qoyni soyish uchun yotqizganini Payg'ambanmiz (s.a.v.) ko'rdilar-da: «Buni ikki marta oldirishni xohlaysanmi? Yotqizishdan oldin pichoqni o'tkirlasang bo'lmaydimi?», dedilar.

Har birimiz hayotimiz davomida bilibmi yo bilmaymi yomon ish qilib qoygan ekanmiz, kimnidir ranjitgan ekanmiz, yoki kimgadir nisbatan qandaydir darajada zulm qilgan ekanmiz, aql ko'zi bilan o'zimizga qarab, aybimizni bilishimiz va kattami-kichik yomonliklardan tiyilishimiz kerak.

Qachonki aql ketsa

Zulm ko'p hollarda g'azabning farzandi o'laroq tug'iladi. «Jahlimni chiqargan edi, o'zimni tiya olmadim» degan gaplarni eshitib turamiz. To'satdan uyg'ongan g'azab zulmni dunyoga keltiradi-yu, o'zi bir ozdan so'ng so'nadi. Lekin dunyoga keltirgani zulm darrov o'la qolmaydi. Aksincha, uning bolachalari ham tug'ila boshlaydi.

Umidimiz yulduzlari, siz ham ba'zan g'azablanasiz. Do'stingizni urib yuborasiz yoki so'kasiz. Sizdagi g'azab daraxti ko'p meva bermaydi. Hatto quriganday boladi.

Lekin, diqqat qiling: ildizida jon qolgan. Ozigina sharoit tug'lsa, shox ota boshlaydi. Kattalardagi g'azab bosh- qacharoq, buni o'zingiz ham ko'p kuzatgansiz. Badjahl odam sizga ham yoqmaydi, to'g'rimi? Lekin o'sha odam ham yoshligida g'azabnoklardan nafratlangan. Naf- ratlangani holda, nima uchun o'zi shunday illatgayoliqdi? Keling, shu savolga birgalikda javob topishga urinaylik, toki, siz ulg'ayganingizda g'azab illatidan forig' bolib, hilm fazilati bilan ziynatlaning.

Go'zal xulq qahr-g'azab kelganida bilinadi. Qahr- g'azabiga g'olib bolgan odam o'z rohatini ta'min etadi. Muloyimlik daraxtini ekkan kishi salomatlik mevasini teradi. Inson g'azabini yengmagunicha, qalbidagi yomonlik vasvasalaridan qutulib, komil inson bo'la olmaydi. Yomon qalbni to'g'rilash niyat va amalga bogliqdir. Kishi nafs xohishi va ehtirosini yengmagunicha, saodatga erishmas. G'azabini yengmagan axloqini yo'qotadi.

Bir fozil odam tor yoldan o'Chayo'ib, g'oyatda johil va mutakabbir kishining oyog'ini bilmasdan bosib oldi. U johil birdan g'azablanib o'shqirdi:

- Qanday odamsan! Oyog'imni bosib olding-ku?! Ko'zingga qarab yursang bolmaydimi yo ko'rmissan?!

Fozil odam uning o'shqirishiga javoban dediki:

- Aziz birodar, ko'zim ko'r emas, yol torligi sababli ehtiyotsizlik qilib, bilmasdan oyog'ingizni bosib oldim. Buning uchun uzr so'rayman, uzrimni qabul qilib, gunohimni kechirishingizdan umidvorman.

Olijanob, tarbiyasi, axloqli odamlar mana shunday boladilar. Ul zotlar barchaga maqbul va marg'ub, johillar esa mardud va nomaqbuldirlar.

Bayon etilgan voqeaga bozordami yo avtobusdami ko'p duch kelamiz, to'g'rimi? Bir tomon o'shqirganda ikkinchi tomonning muloyimlik bilan javob berib, uzr so'rashiga esa kamroq guvoh bolamiz. Birinchi tomon baqirganda, ikkinchi tomon atay qilmagani uchun o'zini mutlaqo aybsiz deb bilib, u ham baqirib javob beradi. Oqibat

janjalga aylanadi. Ha, zulm va beshafqatlik aynan g'azabni yenga olmaslikdan boshlanadi. «Achchiq bolsa-da, o'ta shirin narsa nima?», deb so'ralganida, «Kuchli g'azabni ichga vutish», deb javob bergan ekanlar. Alloh Taolo deydi: «Ey Odam farzandi, g'azab kelganda Meni yodingga olgil, Men ham seni g'azabim kelganda yodimga olurman» (Hadisi Qudsiydan). Buxitobda «g'azabingni yengganing uchun seni mukofotlayman, halok qiladigan kishilarga seni ham qo'shib halok qilmasman», degan Alloh Taolo- ning marhamati bor.

Rasululloh (s.a.v.) «Sizlar pahlavon deb kimni hisob- laysizlar?», deb sahobalaridan so'radilar. Ular: «Biz kurashda hech kimdan yiqilmaydigan kishini pahlavon deb bilamiz», deyishdi. Rasululloh (s.a.v.): «Unday emas, balki jahli chiqqan vaqtda kim o'zini jahldan tiya olsa, o'sha kishi pahlavon ataladi», dedilar. Yana dedilar: «Qachon jahlingiz chiqsa, jim turishga o'rganing».

«Yomon qiliqli odam - badfel, - deb yozganlar hazrat Navoiy- Achchig'i tez bir baloga giriftor, bir ofatga muftalo badbashaadir. Bular qayon borsa, balodan qutuknas. Har yerga qochsa ham ofatdan xalos bolmas. Yomon qiliq

- g'olib dushmandir va qahrli yovdir. Yomon qiliqli kishi esa doim unga maglub va vujudi undan majruh». G'azab

- baxt saroyi yo'lidagi shafqatsiz qaroqchidir. Bu qaroqchini yenga olmagan kimsa baxt saroyiga yetishmoqlikdan umidini uzaversin. G'azab - sohibini yondirib kul qiladi, boshqalarga uchquniyetadi.

Bir adolatli podshoh uzlatdagi zohiddan «oxirtda gunoh uchun shafaatga nima vasila bola oladi?»- deb so'radi. Zohid:

- G'azab chog'ida muloyimlik qilishda ma'no ko'pdir,
- dedi.

- Bilamanki, tob keltirishlik - og'irlik qilishning zahromiz sharbati aql komiga katta zavq beradi. Ammo g'azab vaqtida hilmni nafsoniyatga hokim qilib bolmaydi. G'azab olovi shula urgan chog'da kishi o'zini zabt qila olmaydi, - dedi podshoh.

Zohid dediki:

- Men uch maktub bitib beraman va sen ularni o'zing ishongan va ixlos qo'lgan odamingga topshir. U senda g'azab alomatini ko'rganida, g'azab o'tining asarini fahmlaganida, birinchi xatni senga ko'rsatsin. Shunda shoyad foydasi tegib, nafs taskin topsa. Agar ko'rsa-ki, g'azab o'ti ul zulol bilan o'chmadi, ikkinchi nomani nazaringdan o'tkazsin. Agar sarkash nafs bu bilan ham rom bolmasa, uchinchi xatni ham bersin. Shunda shoyad g'azab shafqatga aylanib, g'azabnoklik zulmati zoyil bo'lsa. Har qalay, hilm va mehribonlik sening joningda mavjga kelishini umid qilsa boladi.

Zohid yozib bergan birinchi xatning mazmuni: «Qudrat topgan chog'da inon-ixtiyomi yomon yolga undovchi nafs qoliga bermagil-ki, abadiy halokatga boshlaydi». Ikkinchi xatda: «G'azab chog'ida notavon va tobe bolganlarga rahm qilgil, to jazo vaqtida tobelar senga mehribon bolgaylar», deb yozilgan edi. Uchinchisida esa: «Hukm qilishda shariat chegarasidan chetga chiqma va hech bir holatda insofni unutm», deyilgan edi.

Rasululloh (s.a.v.) o'z nafslari uchun sira jahllari chiqmas, kechirimli va o'ch olmas edilar. Makka fath qilinganida, intiqom olish mumkin bo'lganda ham hammasini kechirgan edilar. Islom qo'shinidagi ayrim sarkardalar: «Agar dushman ustidan g'olib kelib, qolga tushirsak, qiyma-qiyma qilib tashlaymiz», deyishgandi. Faxri olam (s.a.v.) bunday g'azabga minganlarni yomon harakatlar sodir qilishmasin, deb qo'mondonlikdan olib, qo'shin ortidagi xizmatlarga qo'Vganlar.

Risolatpanoh (s.a.v.) dedilar: «Kimda uch narsa bolmasa, mendan emas: 1. Johilningjahlini ketkazadigan (rad etadigan, pasaytiradigan) halimlik. 2. Odamlar bilan xush axloq munosabatda bo'lishlik. 3. Allohning ma'siyatlaridan, gunohlaridan saqlab turuvchi, yiroq tutuvchi parhezkorlik, ehtiyotkorlik». Aslida bu uch narsa bir-biri bilan bogliq. Kishiga qanday halimlik-salimlik kerak? Shunday halimlik-salimlik-ki, uning vositasida

johilning jahlini, tajovuzini qarshilaymiz. Uni yumshoq, bosiq muomala qilib, jahlidan tushiramiz. Sodaroq aytsak, bir kishi asabimizga tegsa, darhol tepa sochimiz tikka bo'lmasligi, portlamasligimiz lozim. Aksincha, har qanday holatda ochiq chehrali bolishga harakat qilishimiz kerak. Chunki, ochiq chehra hikmatdan xoli emas, janjalli holatga barham bera olishi mumkin, ya'ni, yong'in ko'ta- rilmay, so'nadi.

Jamiyatning salomatligi, barqarorligi, baxt-saodati uchun ham har birimizning halim-salim bolishimiz shart! Ba'zan kuzatamiz: bolalikdan birga katta bolgan, «biz qiyomatli oshnamiz», «biz qirq yillik og'aynimiz» deb faxrlanadigan do'stlar ham bir-birining gapini ko'tarolmaydi, hatto bir-biriga qo'pol muomala qiladi. Bundan afsuslanamiz. Ularning bu harakatlari odamiylik tarbiyasi, odobini durust egallamaganliklarini bildiradi.

Bir kishi kelib, Allohning rasuliga (s.a.v.) dediki:

- Yo Rasululloh, menga nasihat qiling.
- G'azablanma! - dedilar.
- Menga nasihat qiling, - deb yana so'radi.
- G'azablanma! - dedilar.

Nasihat qilishni uchinchi marotabayana so'radi. Yana dedilarki:

- G'azablanma!

Men ko'rinishi muloyim, lekin ichi g'azabga to'la kishilarga qarab bunday degim keladi:

- Ey inson! Sen g'azabingni jilovlay olasanmi? G'azab kelganda ota-onaga qarab ham baqiradiganlardan emasmisan? G'azab kelganda xotini, farzandlarini uradigan johillardan emasmisan? G'azab kelganda do'stidan ham kechib yuboradigan nomardlardan emasmisan? O'lab ko'r: ehtimol, bir marta bolsin, ota va onangga qattiq gapirgandirsan, xotining, farzandlaring, do'stlaringdan qay birinidir jahl ustida ranjitgandirsan. Endi sen bu uchun g'azabingni bahona qilma. G'azabni yenga olmagan o'zingni aybla! Aybla-da, tavba qil! Tavbaning qabul bolish shartini unutma: bu hoi endi

qaytarilmasligi kerak! Tili bilan tavba qilib, fel-odatini o'zgartirmaslik - yolg'onch ilikdir. Tavbayi nasuh - juda samimiy tavbaga erishmoq qasdida bo'l. Vujudingni kuydira boshlagan jahl o'tini chidam, bardosh suvi bilan o'chir. Qahr-u g'azab tikanlarini sabr-to'zim o'ti bilan yondir. Ahli donishning: «Qilich va nayza bilan hosil bolmagan ko'p ishlar hilmlilik ila hosil boladi. G'azab keltirgan zarar g'azablangan kishining o'ziga qaytadi», degan hikmatini unutma zinhor.

Hazrati shayx Hakim Termiziy (q.s.)ning ahlu ayol- laridan: «Shayx hazratlari hech qizishib, g'azab qilarmidilar?», deb so'rashdi. Javob berdilar: «Shayx bizlarga hech g'azab qilmasdilar, aksincha, biz ul kishiga achchiq qilib, ozorlar edik. Bizdan ul kishiga ozor yetsa, o'shal kuni bizni yanada yaqinroq tutar va yiglar edilar. Aytar edilarki: «Ilohi, men tavba qildim! Bularni sen yaxshilikka yo'llagin!»

Bir donishmanddan: «Xushfel, xushmuomalalikni yodimizda tutish oson bolishi uchun bir-ikki jumla bilan bayon eting», deb so'radilar. Donishmand dediki:

- Qahr-u g'azabni tark etish - barcha go'zal axloqni o'z ichiga oladi. G'azab zindoni eng jirkanch yaramas bir o'rindir. G'azabini tark qilmagan kishi haqqoniy va taqvodorlar martabasiga erishmaydi.

Bir johilningjahli burni ustida turar ekan, arzimagan narsadan asabiylashib, janjal chiqaraverarkan. Bundan bezor bo'lgan uyidagilari bir donishmanddan maslahat so'rashganida u: «Jahl kelsa - aql ketadi», degan maqolni aytgan ekan. Shu maqolni mulohaza qilib ko'raylik: balki aql ketganda jahl kelar? Qiziqqonlik, achchiqlanish, g'azablanish, shoshma-shosharlik, o'ylamay qilingan ish kechirimlilikka zarba beradi, kishini beburd qilib qo'yadi.

Rivoyat. Qadim zamonda bir-birini nihoyatda sevuvchi oshiq-mashuqlar taqdirning taqozosi bilan ancha yillar ayriliqda yashashlariga to'g'ri kelibdi. Yigit sarbozlikka chaqirilib, uzoq olkalarda, jang-u jadallarda yigirma yil yuribdi. Yurtiga qaytib, uyiga kelib qarasa-ki, mo'ylabi

sabza urgan yigit mast uyquda yotganmish. O'sha zahoti qalbida uyg'ongan gumon g'azabini to'lqinlantirib yuboribdi. «Men yigirma yil senga talpinib yashagan bolsam-u, sen yosh yigitlar bilan ishrat qilyapsanmi!», degan o'nda qo'shni xonada uxlayotgan xotinini ham, bu yigitchani ham chopib tashlamoqchi bolib, shart qilichini chiqaribdi. Shu onda ustozining «jahling chiqqanida, bir hukmga kelmay turib, awal qirqqacha sana», degan nasihati esiga tushib, sanay boshlabdi. Ovozdan uyg'onib ketgan xotin qarasa, eri darg'azab holda qilich yalang'ochlab turibdi. Xotin dod solganicha chiqib, yiglab- siqtab, bu yotgan yigitcha o'zining o'g'li ekanini tushuntiribdi.

«Qaysi narsalar odamga alam va pushaymonlik keltiradi?» degan savolga ahli donish: «G'azab, takabburlik va nojo'ya harakat», deb javob bergan. Bayon etilgan hikoyat bu fikrni quwatlaydi.

Halimlik - yumshoq muomalalik, dunyo ishlarida g'azablanmaslik odam farzandi uchun eng go'zal fazilatlardan biri. Odam bu fazilatdan uzoq bolsa, ya'ni jahlini jilovlay olmasa, g'azab aqldan ustun keladi va oqibat gunoh ishlardan o'zini to'xtatishga ojiz boladi. Boshqalarga, ayni damda o'ziga ziyon yetkazadi. Jahl tufayli qalbdagi g'alayon ko'tarilib, vasvasa kuchayadi. Dastlab ichkarida boshlangan g'alayon tashqi ko'rinishga ko'chadi va insonning aft-angori qo'rqinchli tus oladi. Nafrat miltig'ini g'azab o'qlari bilan o'qlab, endi tepkini bosaman, deb turganda aql hayqirig'iga quloq tutish va bu miltiqni uloqtirish -jasoratdir. Jasorat bolganda ham iymon quwatidan darak beruvchi jasoratdir. Hasan Basriy hazratlari aytganlar: «E Odam farzandi! Har g'azablanishing bir sakrashdir. Har sakrashing seni do'zax tomon eltadi. Yana bir sakrasang, jahannamga qulaysan».

Biz turli bayonlarimizda ko'pincha «g'azab o'ti» degan sifatdan foydalanamiz. Chindan ham g'azab - o'tdir. Shayton olovdan yaralgan. Yaqinlikni qarang! G'azab o'ti o'z alangasi bilan badanlami teshib o'tib, yuraklarga qadar

yetadigan do'zaxning olovidan bir parchadir. G'azab kul ostidagi cho'g' kabi fursat poylab yotadi. Qotib ketgan qalb tubidagi kibr uni puflab, alanga oldiradi. Valiyullohlardan biri: «Insonning bitta tomiri shaytoni la'inga borib ulangan. Inson qanchalik g'azablansa, shaytonga shunchalikiyaqinlashadi», degan ekan.

G'azab shunday o'tki, kishi engyaqinlarini oldirishdan yoki olim tilashdan ham qaytmaydi. «Qarg'ish» yoki «yomon duo» (duoyibad) deb ataluvchi illat haqida yana so'z yuritishga to'g'ri keladi. Ayrim qarg'ishlar dildagi «oh»ning samarasi o'laroq aytiladi. Kingadir astoydil yomonUK tilanadi. Ba'zan esa til uchida ham aytiladi. Onalaming astoydil qarg'amasliklarini yana takidlasam- da, ularning tilidan umuman qarg'ish uchmasligini xohlar edim. Ba'zan «afting qursin», deb qo'yishadi. O'zlari buni yomon qarg'ish deb hisoblashmaydi. Holbuki, buning zamirida ham o'lim tilagi yotadi. «Qurib ketgin», «juvonmarg bolgur» kabilar ham shunday. Esliroq onalar «afting qurmag'ur», «qurib ketmagur», «juvonmarg bolmagur» deyishadi. Bularni qarg'ish emas, tergash o'rnida qabul qilish mumkin. Aytilmasa, yana yaxshi. Bir savolga sira javob topa olmayman: ona hech qachon farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Lekin farzandni eng ko'p urishadigan, uradigan, qarg'aydigan ham ona. Shu ayol eridan, qaynota-qaynonasidan, hamkasbidan... g'azablansa, g'azabini ichiga yuta oladi. Lekin o'z bolasi jahlini chiqarsa, o'zini tuta olmaydi! Nega? Hatto boshqalardan gap eshitsa, alamini bolasidan oladi. Bu qanaqasi?

Bir ayolning hasrat daftari bilan tanishing: aytgan ishini bajarmagani uchun ikkala o'glini urisha turib, «ajaling kelgurlar!» deb qarg'ab yuboribdi. (Sizga yolg'on, menga chin, shu ikki so'zni yozishga qiynalдим, qolim qaltiradi. U ayol bolalarini qanday qarg'ay oldiykin?) Bu qarg'ishni eshitgan qaynonasi: «Hay-hay, darrov tavba qiling, har gapga farishtalar «omin» deydi-ya!» deb tanbeh beribdi. Ayol «xo'p», debdi-yu, jahli chiqqan kezlari baribir tilini

tiya olmabdi. Bir kuni o'g'illarini qoy boqishga chiqaribdi. Bolalar «chiqmay qo‘ya qolaylik», deb yalinishsa ham zo'rlabdi. Oqibat shu bolibdi-ki, kichigi ehtiyotsizlik qilib sovga yiqilibdi. «Ukam oqib ketyapti, onamga nima deb javob beraman?!», deb qo'rquvga tushgan aka ham o'zini suvga otibdi...

Jahli chiqqan kishi jim tursa, boshqa biror ishga o'zini chalg'itsa yoki boshqa joyga chiqib ketsa, g'azabining pasayishi yoki mutlaqo to'xtab qolishi hayot tajribasidan ma'lum. «Bitta gapdan qolgin», deb bejiz nasihat qilinmaydi.

*Kishi tosh ursa bosh, ey xojasta,
Kulib boq'g'il yuziga misli pista.*

So'fi Oллоhyor demoqchilarki, agar birov g'azablanib, boshingga tosh bilan ursa, uning yuziga kulib qaragil. Pistani tosh bilan urganlarida yorilib, kulib, ichidagi mag'zini beradi. Sen ham shu pistadek bol. Seni ursalar- da, yaxshi bol.

Sahl ibn Tustariydan go'zal xulq haqida so'rashdi. «Go'zal xulqning eng quyi darajasi ozorlarga toqatli bolish, zolimga rahm etish, unga mag'firat va shafqat tilash», dedilar. Axnaf ibn Qaysdan «Hilmni kimdan o'rgandingiz?» deb so'radilar. «Qays ibn Osimdan», dedilar. «Uning hilmi qanday edi?» deb so'radilar. Javob berdilar: «Qays hovlida o'tirgan edi. Cho'risi unga bir six qaynoq kabob keltirdi. Six bexosdan cho'ring qolidan sirg'alib tushdi va shu yerda yotgan go'dakning ko'kragiga qadaldi. Bola Qaysniki edi, shu zahoti jon berdi. Cho'ri dahshatdan qo'rqib ketdi. Shunda Qays cho'risiga: «Qo'rqma, Alloh yolida seni ozod qildim», dedi».

Hikoyat. Bir kuni Ibrohim ibn Adham sahroga chiqdilar. Yolda unga bir jundiy (jangchi) yoliqdi va:

- Sen qulmisan? - deb so'radi.
- Ha, - dedilar Ibrohim Adham.
- Imron qayerda? - deb so'radi jundiy.

Ibrohim Adham qabristonga ishorat qildilar. Shunda jundiy «Menga Imron kerak!» deb baqirdi.

- U qabrda, - dedilar Ibrohim Adham.

Jundiy g'azablanib, qamchi tushirdi. Ibrohim Adhamning boshlari yorildi. Jundiy u kishini orqaga qaytarib, shaharga haydab keldi. Do'stlari undan «Qanday xabar olib kelding?», deb so'rashdi. Jundiy bolgan voqeani aytib berdi. Ular boshi yorilgan kishini ko'rib: «Sen urgan odam Ibrohim ibn Adham-ku!» deyishdi. Jundiy otidan sakrab tushib, Ibrohim Adhamning qoli va oyog'ini o'pib, uzr so'ray boshladi. Boshqalar esa Ibrohim Adhamdan: «Nega bu jundiya «qulman» dedingiz?», deb so'rashdi.

- U mendan: «E qul, sen kimsan?» deb so'ramadi, balki «Sen qulmisan?», dedi. Men «ha», deb javob berdim. Dar- haqiqat, barchamiz Alloh Taoloning qulimiz-ku! Lekin boshimni urgan paytida unga jannat nasib bolishini tiladim, - dedilar Ibrohim Adham.

- Nega? Axir u sizga zulm qildi-ku? - deb ajablanishdi.

- Nohaqyetgan jarohat ajr olishimga sabab bolishini bildim. Ammo u jundiy tufayli mening nasibam yaxshilik bolib, men tufayli uning nasibasi yomonlik bolishini xohlamadim, - dedilar.

Hikoyat. Bir tuyakash g'oyatda qadrlaydigan qizg'ish tuyasiniyo'qotib qoydi. Necha kun qidirsam ham topolmadi. Tun-u kunlarni uyqusiz o'tkazdi. Yigladi, ezildi... Oxiri g'azablana boshladi. Hamma aybni tuyaning o'ziga yuklab, undan umidini uzdi, g'azab bilan, telbalarcha xitob qildi-ki:

- Ey tuya! Agar sen ablahni topsam, shu odamlar guvoh bo'lsin, Allohga qasam-ki, bir aqchaga sotib yuboraman!

Bu qasamdan sal o'tmay tuya topilgach, tuyakash nima qilarini bilmay, boshi qotdi. Qasam ichganiga pushaymon boldi. O'ylay-o'ylay bir chorasini topdi: tuyaning ustiga bir qora mushukni o'tqazib, bozorga chiqdi-da, «tuyaning narxi bir aqcha, mushuk ming aqcha, ikkovi birga sotiladi», deb elon qildi. Xaridorlar:

«Esing bormi, mushuk ming aqcha turar ekanmi?» deb ajablanishsa, u: «Sizlarda ham insof bormi? Tuya ham hech zamonda bir aqchaga sotiladimi?», der edi.

Qissadan hissa shuki, inson g'azablangan paytlarida shuursiz harakatlar qilib, so'ng qanday tuzatishni bilmay, arosatda qoladi. Bobolardan «Jahl chiqsa - ko'z qorayar, jahl ketsa-yuz qizarar», degan hikmat bor. Hikoyatdagi qora mushuk sovuqlik ramzidir. Bozorning omadsizligiga, buzilishiga sababdir. Kishilar bir narsaning amalga oshishiga qarshi bolishsa, «eshagidan tushovi qimmat» qabilida ish tutadilar. Xulosa shuki, jahl kelganda tiliga va qo'lga hokim bolgan kishi yomon oqibatdan xalos boladi.

Birovkamchilikyokixatoimizdan gap ochdi, deguncha g'azablana boshlaymiz. Holbuki, xatolarimizni yuzimizga aytgan birodarimizdan mutlaqo g'azablanmasligimiz kerak. Aksincha, unga mehr-muhabbat bilan boqib, gunohimizni anglab, bu xatolardan xalos bolish chorasini ko'rishimiz shart emasmi? Jahl aqlni ketkazsa, asab buzilishi ofat keltiradi. «G'azablangan paytingda so'zga ro'zador bol. Zero, bu paytda har so'z-u amaling nadomatga vosita boladi», deydilar. Ko'pincha g'iybat, igVo... g'azabni uyg'otadi. G'iybat ham, g'azab ham kishi ko'nglini o'ldiradi. Shu bois g'iybatdan, nafsoniy g'azabdan saqlanmoq kerak. G'azabni yenggan o'z nafsini yenga oladi. Mayxo'rlarning nafsni yenga olmasliklarini aytib o'tirish ham shart emas. Ko'p jinoyatlar mast holda qilinayotgani malum. Mast odam g'azabini bosa olish quwatidan mahrum boladi. Ichkilikka muhtalo bolganlar ko'zguga qarab, o'zlarining tusalari naqadar xunuk ekanini ko'ra olsalar edi, bu yaramas odatlarini tash-larmidilar...

G'azabni biz faqat salbiy ma'noda tushunishga o'rganib qolganmiz. To'g'ri, aynan olganda bu illat. Lekin bu so'zning ijobiy ma'nosi ham mavjud. G'azzoliy hazratlari deydilarki, «G'azab - bamisoli ovchi it. U nafs istagidagi hayajon bilan emas, balki bitta ishora bilan chopib, bitta

ishora bilan to'xtash darajasida tarbiyaga muhtoj... G'azab quwatining go'zal va mo'tadil holatidan **shijoat** tug'iladi (g'azab quwatining xoh kuchaygan, xoh pasaygan holatda ham aql yetovida bolishi - shijoatdir). Agar g'azab quwati me'yoridan oshsa, bemulohaza so'zlar, o'zni tuta bilmaslik kabi nojo'ya harakatlar yuzaga chiqadi. G'azab quwati me'yoridan pasaysa, ao'rqqoqlik tug'iladi».

Yana dedilarki: «G'azab tuyg'usidagi mo'tadillik chiroyli shaklda qizg'in va jo'shqin bolish bilan saqlanadi. Chiroyli shakldagi qizg'inlik serjahllikdan, darg'azablikdan hamda qo'rqqoqlikning barcha turlaridan xolidir. G'azabning mo'tadil darajasini egallagan odam botinan kuchli va shu quwati bilan birga aqlga tobe boladi. Hamonki, shiddat g'azabdan tug'ilar ekan, agar g'azab bekor qilinganida kurash ham bekor qilingan bolardi.

«U taqvodor zotlar yaxshi-yomon kunlarda infoq-ehson qiladigan, g'azablarini ichlariga yutadigan, odamlarning xato-kamchiliklarini afv etadigan kishilardir («Oli Imron» surasidan). Oyatd'a taqvodor zotlar haqida «g'azablarini ichlariga yutadigan» degan ibora qollandi, «g'azablarini yo'q qiladigan», deyilmadi. G'azab va shahvatni mo'tadil darajada saqlash shu darajada bolishi kerakki, na g'azab, na shahvat aqldan g'olib kelmasin, uni boysindirib qoVmasin. Balki, aql g'azab va shahvatni o'z haddida ushlab tursin. Xulqni o'zgartirish, degani aslida mana shu. Iroda kuchi noo'rin qo'zg'algan g'azabni ne chogli bosa olishiga qarab olchanadi.

*Kel, ey inson, agar bo'lsang chin erdek,
Og'irlik pasha qil dunyoda y erdek.
Agar topsa, sani har qaysi mavjud,
Ziyon etma, taqi tegur anga sud.*

«Yer kabi bol...» - Ey o'zini chin er bilgan inson, seni yer yuzidagi jonivorlar tepkilasalar-da, ularga ziyon yetkazma. Yaxshilik qil. Yer kabi bol. Yer yuzida yurguv-

chilar uning ustiga har turli harom narsalar tashlasalar ham, yer ularga ziyon-zahmat yetkazmayin, turli-tuman ne'matlar o'stirib berur. (Ammo... banda gunohlarini ko'paytiraversa, Alloh Taoloning g'azabiga uchrasa, zilzila, yer yutish kabi ofatlar bor-ki, buni ham unutmas-lik kerak. «Yer kabi bo'lmoq»ni barcha haqoratlarga chidayver, deb anglamagan ma'qul. Bu o'rinda shoirning bo'rttirishi ham bor.) Sen butkul dunyo xalqiga manfaatli ish qilib foydalar keltirsang-da, takabburlik qilma. O'zingdan tuproq ismini va faqirlikni ko'tarma. Sening otang Odam alayhissalomdir. U tuproqdan yaratilgandir. Demak, asling - otang yerdir...

Jaloliddin Rumiy hazratlari dedilar: «Bir bemorgayoki ko'ngli siniq bir odamga juda muloyimlik bilan muomala qilib, uning hol-ahvolini so'rash lozim. Iztirobda bolgan odamda u odamga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ulari hosil boladi. Shundan keyingina beriladigan dori va qilinadigan tavsiyalarni o'z tilagi bilan qabul qiladi».

Ardasherning o'g'li juda qimmatbaho libos kiyib maqtandi. Shunda ota dedi:

- Ey o'glim, bu libosing qimmatli emas, bunaqasini har kim topib kiya oladi. Sen hech kishi topib kiya olmagan va podshohlar xazinasida bolmagan juda qimmatbaho libosni kiyishing kerak.

O'gli ajablanib: «Siz ta'rif qilayotgan libos qaysi?», deb so'radi.

- Xushfellik, muloyimlik, yuwoshlikdan to'qilgan libosdir, - deb javob berdi ota.

Bahoulhaq vad din - Xo'ja Bahouddin hazratlari, Alloh Taolo ul zotning qabrini to Qiyomat nurli qilsin, asl ismlari Muhammad edi, otalarining ismi - Mahdiy. Ka'batullohga ikki marta yayov borib, tavof qilganlar. Ko'p karomatlar zohir bolgani uchun Bahouddin qo'ydilar. Shul zot bir zolim bilan tortishib qoldilar-da, oqibat - zolim hazratning yuzlariga qamchi bilan urdi. Xo'j aning yuzlari yorilib, qon oqdi. Shunda Xo'ja qonli soqollarini qo'lga olib, ul zolimni yaxshi duo qildilar, dedilarki: «Ey Xudo, bu zolimni yaxshi

yolga solgil! Yo Rab, bu bandangga yordam aylagil, dunyo-yu oxirat murodlarini bergil». Zolim bu duoning ma'nosini angladi. Naa'ra tortdi-yu, hushidan ketdi. Hushiga kelgach, Xo'janing oyoqlariga yiqilib, yuzini surtib yig'ladi. So'ng Xo'jani murshid deb bildi. Oqibat, Xo'janing katta xalifalaridan biri boldi.

Xulq, yumshoqlik (hilm) va ilmi hoi ahlining holi shunday. Ular hamisha yovuzlikka qarshi ezgulikni qo'vadilar.

Hilm - shijoatga xos olti xislatning biri bolib, bu xislat har qancha g'azab qo'zg'ayveradigan ish sodir bolganda ham o'zini bosib muloyimlik ko'rsatishdan iborat. Lug'aviy ma'nosi - muloyimlik, muloyim tabiatli bolishlik.

*Viqor gavhari-yu hilm ma'dani bo'lako'r,
Desangki, qilg'ay itoat sanga gado ila shoh.*

Hazrat Navoiy «hilm ma'dani» deganda muloyimlik koni, xazinasini nazarda tutganlar.

«Hilm-u hayo ahli har yerda arjumanddur, ulug'lar nazarida arjumandroq», deydilar (yumshoq ko'ngilli va hayoli odam hamma joyda azizdir, kattalar nazarida yanada qadrliroq). «Mahbub ul-qulub»da bunday ta'rif beriladi: «Hilm - inson vujudining xushmanzara mevali bog'idir va odamiylik olamining javohirga boy tog'idir. Yumshoq ko'ngillilik - hodisalar tola dengizdagi kishilik kemasining langari desa boladi va insoniyat qadrini olchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham boladi. Hilm - axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi». Shafqat, yumshoq so'zlamog, hilm - bir-biriga yaqin yaxshi sifatlardir.

Hazrati shayx Abu Bakr Abu Varroq Termiziy (q.s.) deydilarki: «Haq Taolo hazrati Odam farzandlaridan olti narsani istar: ikkisi ko'ngilda bolib, Alloh Taolo amrlarini

bajarmoq va xalqqa shafqat qilmoqlikdir; ikkisi taqdirniki, Alloh Taolo borligini iqror etmoq va xalqqa yumshoq so'zlamqlikdir; qolgan ikkisi esa sabr aylamoq va hilm bilan xoksorlik qilmoqlikdir».

Hazrati ibn Mas'ud deydilar: «Biling-ki, kishining halimligi g'azablangan paytda, omonatdorligi tama yuzaga chiqadigan pajrtda ayon boladi. G'azablanmagan (ya'ni, g'azabga sabab yo'q) paytda uning halimligini qayoqdan ham bilardingiz? Tama qilmayotgan (ya'ni, tama qilishga sabab yo'q) pajrtda uning omonatdorligi haqida qanday gap bolishi mumkin?»

Olijanob va odil vazir hisoblangan Nizomulmulik biron hadya keltirsa, atrofidalarga baravar bolib berar edi. Bir kuni dehqon unga uchta ertaki bodring keltirdi. Vazir bu ne'matni atrofidalilar bilan baham ko'rmay, uchchallasini ham o'zi yeb, dehqonga hadya berdi. Vazir xoli qolganida yaqin mulozimi ajablanib: «Sizning bunday odatingiz yo'q edi-ku?» deb so'radi. Vazir javob berdi:

- Bodringlar nihoyatda taxir ekan, boshqalarga bersam, taxirligidan achchiqlanib, dehqonga yomon so'z aytib, uning dilini ranjitmasin, dedim...

Abusaid ismli bir mo'tabar odam do'stlariga ziyofat berdi. Oshpazini chaqirib: «Men yaxshi ko'radigan taomni pishirib kel», dedi. Oshpaz xo'jasi so'ragan taomni pishirib, boshqa ovqatlar bilan olib keldi. Abusaid o'zi buyurgan taomdan bir luqma olgan edi, qil chiqdi. Ikkinchi va uchinchi luqmalarda ham qil chiqqach, bu taomdan qol tortib, boshqasidan yedi. Dasturxon yig'iladigan pajrtda oshpazini chaqirib, dedi:

- Men buyurgan taomni juda totli qilib pishiribsan. Ertaga shu taomdan ichiga qil tushirmaslik sharti bilan yana pishirib berasan.

Ziyofatda hozir bolganlar uning latofatli so'zlariga qoyil qoldilar. «Oshpazga ortiqcha tanbeh berishga hojat qolmadi», deb unga tahsin aytdilar.

Hazrat Navoiydan bunday bayon bor:

«Shayx Abul Abbas Omuliy qassoblikka mansub bolib, o'z zamonasining zabardast peshvolaridan biri edi. U fano vodiysiga qadam qo'lib, o'z vujudini unda yo'qotdi. Bir kun u xonaqohda o'tirar, tevaragida esa suhbat- doshlari yig'ilgan edilar. Bu mahalda bir g'alati devona beadablik bilan xonaqoh sahniga kirib keldi. Kirgan zahotiyuq, minbarga chiqib:

- E xonaqohda turganlar! Menga quloq berib, so'z- larimni yaxshilab tinglangiz: men uchun hozir suv tola obdastani hozirlang! Men poklanib olmoqchiman! - dedi.

Oliy qadrli shayx bu so'zlarni eshitgach, unga ob- dastada suv berishni buyurdi. Xonaqohdagi bir darvish chiroyli obdastada suv kelitirib berganida u esi past, idishni tosh bilan urib paclioq qilib, boshqasini keltirishni talab qildi. Talabi bajadlgach, unisini ham tosh bDan urdi. Darvish shayxga bu holni malum qilgach, shayx «nechta idishni sindirsa ham, beravering», dedi. Esi past barcha obdastalarni tosh bilan urib pachoq qildi. Unga boshqa idish yo'qligini aytdilar. Shunda u: «Agar idish yo'q bolsa, shayxingizga ayting, soqolini olib kelsin, toki men buyurilgan farzdan qutulayin», dedi.

Shayx bu hayosiz so'zlarni eshitgach, o'rinlaridan sakrab turdilar-da, u tomon qarab yurdilar. Yol-yolakay dedilarki:

- Eh, qanday xush soat-u baxtiyor holat! Qarangki, bir qassob o'g'liga soqol bitsa-yu, u yillar davomida soqoliga oro berib, yuvib-tarasa va vaqti kelib uning bu soqoli shunday bir ishga yarab qolsa! Unga bir darvish iltifot ko'rsatib, o'zini qayg'udan qutqarsa!

Shayxning bejirim soqoli bor edi. Uni qirqib, hovuchiga tutamlaganicha boyagi kishining oyog'i ostiga qo'ydi.

Bu behayo odam idroki yo'q, telba edi. Shayxning bu harakatini ko'rgach, yerga bosh qo'ganicha hushidan ketdi...»

Misni oltinga aylantirish mumkin emas. Lekin kishi o'zining yaxshi xulqini namoyon etishi bilan yomon xulqlini insofga keltira olishi mumkin. Shunday ekan, komil inson nechun o'zini chetga olsin?

Og'ir yuk

Odam hamisha yashiradigan, yashirishga urinadigan illat - hasaddir. Hasad - biron tanishining, hamkasbining yoki yaqin qarindoshining muvaffaqiyati, yutug'i uchun tutilgan azadir. Hasad illati bilan kasallanmagan odam yo'q. «Menda hasad yo'q», deguvchi odamning gapiga ehtimol, siz ishonarsiz, biroq men ishonmayman. Hasad hamma bor. Bilmadim, miyaning qaysi bir hujayrasidami yo yurakning biron bir tomiridami, har holda joylashib olgan boladi. Hasad - shaytonning eng ishonchli quroli. Kim: «Hasad menda ham bor, ammo bosh ko'tarishiga yo'l qo'ymayman. Har nafasda u bilan olishaman, menga hukm o'tkazmaslik choralari ko'raman», desa gapiga ishonaman va uni olqishlayman. Ammo ne fojiaki, birov hasadga yuragining to'ridan joy berib qoyadi. Ne baxtki, boshqa birovning vujudida pisib yotgan hasad erkin nafas ololmaydi - aql bo'g'ib turadi. Demak, aql ojizlansa, hasad kuchga kiradi.

Hasad Odam Atoning o'gli Qobildan qolgan eng razil odatdir. Bilasiz, hasad tufayli Qobil ukasi Hobilni oldirdi. Odamzot tarixidagi birinchi qotillik hasad tufayli boldi.

*Dilni auval san hasaddan pok qil,
O'zni so'ngra sohibi idrok qil!*

Hasad kishining go'daklik chog'ida tug'iladi. Agar kishi o'zidagi hasad o'tini o'chira olmasa, odamlar undan nariga qocha boshlaydilar. Hasadgo'yiligini yashirmaydigan odam xavfli emas, balki o'ta ustalik bilan yashiruvchi kimsa har bir jon uchun xatarlidir.

Voqea. Akaning «Matiz» avtomobili bor ekan. Uka akasiga havas qilib huddi o'sha rangdagi ulovdan olibdi. O'sha kundan boshlab, akaning uyida g'alva boshlanibdi. Xotin «Buni sotib, «Neksiya»ga harakat qiling», deb qiyin- qistovga olibdi. Oilalarda bunaqa g'alvalar tez-tez uchraydi, to'g'rimi? Kichik ovsin katta ovsini bo'nida tilla

bezak ko'rsa, hasad olovidan bo'g'ila boshlaydi. Qiz yangasining barmog'ida yangi uzukni ko'rgan nafasda, o'zining o'n barmog'i uchun yigirmata tilla uzugi bolsa- da, hasaddan yonib ketaveradi.

Bir oilada tutay boshlagan hasad o'ti vaqtida o'chi- rilmasa, alanga olib atrofga tarqaydi. Bu o't jabrini bir kishi emas, balki ko'pchilik tortadi. Hasad shunday o'tdirki, agar tutasa, ho'l-u quruq baravar yonadi. Tasavur qilaylik: qaysi bir ijodkorning xotini kam- xaijlikdan siqilib, eriga: «Sizning falonchidan kamyeringiz bormi? Nima uchun uning kitoblari chiqaveradi-yu, sizga yol bermaydilar. Nega u jaraq-jaraq qalam haqi oladi-yu, siz maoshga qarab kun kechirasiz?» dedi. Bu ijodkor «Og'zingni yum, xotin, sen aytayotgan falonchi millatning faxri, unday yozuvchi yuz yildami yo ikki yuz yildami bir bitadi millatning peshonasiga. Men o'zimning qobili- yatimga yarasha topyapman», deganida olam guliston edi. Hasad o'ti o'sha onda o'chardi. Lekin... tarixdan malumki bu o't o'chmagan.

Bunday o'tlar hozir ham alanga olib turadi. Xudoga shukr, bugungi jamiyat hasad o'tlarining yaxshi odamlarni mahv etishiga sharoit yaratib bermagan. Shunday bolsa-da, bu o't bir yoki bir necha oiladagi baxt saroyini kuydirishga kuch topyapti.

Hikoyat. Bir-biriga hamroh bolib, uch kishi safarga chiqqan edi. Yoshi ulug'rog'i qolgan ikkisiga dedi:

- Sizlar nima sababli o'z vatanlaringiz rohatidan kechib, safar qiyinchiliklarini ixtiyor etdingiz?

Biri dedi: «Men ishi yurishayotgan odamlarga hasad qilib, ularni ko'ra olmasdim. O'ylab-o'ylab, oz vaqtga bolsa-da, vatandan chiqib ketsam, ko'ra olmaydigan narsalami ko'rmay qo'ya qolsam, degan qarorga keldim».

Ikkinchisi dedi: «Men ham shu sababdan musofirlikni ixtiyor etdim».

Savol so'ragan sayyoh ham qalbini kuydirayotgan hasad olovi tufayli dashtga chiqib ketganini aytdi.

Uchchala hasadchi boshlari oqqan tomonga qarab ravona bo'ldilar. Yolda bir hamyon oltin topib oldilar. Oltinni teppa-teng bolib olishga qaror qildilar. Lekin har biriningyuragidagi hasad o'ti kuchga kirib, boshqasining ulushiga ko'z olaytira boshladi. Bir kecha-yu bir kunduz jazirama biyobonda och, tashna va uyqusiz holda janjal qildilar.

Podshoh ovga chiqqan edi, ertasi kuni mahramlari bilan shuyerdan o'tib qoldi. Uch hasadchini ko'rib, ahvol so'radi. Ular bor gapni aytib berdilar:

- Biz uchovimiz ham hasad o'tida kuyib-yonamiz. Shu sababdan vatandan judo bolgan edik. Mana endi topib olgan oltinimizni taqsimlashda oramizda nizo chiqdi. Bu oltinlarni insof yuzasidan taqsimlab beruvchi odamga muhtoj bo'lib turganmizda marhamatli va odil shohimizning o'zlari kelib qoldilar. Endi umidimiz sizdan, olampanoh.

Podshoh dedi: «Adolat bolishini istasangiz, awal o'zlarinigiznmg qay darajada hasadchi ekaningizni menga so'zlab bering. Oltinni hasadingiz darajasiga qarab taqsimlayman».

Podshohning bu sharti ularga ma'qul kelib so'z boshladilar. Biri dedi: «Mening hasadim shu darajada kuchli-ki, hech vaqt birovga ehson hamda shafqat qilishni va biron kishining xushvaqt bolishini xohlamayman».

Ikkinchisi dedi: «Shuni hasad deb yuribsanim?! Bu hasadning arzimas bir uchquni-ku! Birov birovga molidan ehson qilsa ham, mening jonim chiqib ketadi».

Uchinchisi dedi: «Ikkoving ham hasaddan bebahra va benasib ekansanlar. Menga birov yaxshilik qilsa, o'zgalarga ham yaxshilik qilar ekan, deb kuyib keta- man».

Podshoh bularning ichi qoraligiga hayron qolib, dedi:

- So'zlarinigizga qaraganda, bu oltin uchovingizga ham harom. Sizlarning har biringizga hasadingiz darajasiga qarab oltin emas, jazo berish kerak. Birovga bir narsa

ehson berishni xohlamaganning jazosi shuki, uni badnom qilib, dunyo ne'matlaridan mahrum etmoq kerak. Birovga birovning ehson qilganini ko'ra olmaydigan odamni oldirib, undan qutulgan yaxshi. O'zgaga ham, o'ziga ham hasad qiluvchi odamni dunyodagi barcha azob turlari bilan qiynab, jonini olish zarur.

Podshoh amri bilan birinchi hasadchining oyog'idan osdilar. Ikkinchisining boshini kesdilar. Uchinchisining badaniga zahar surtib oftobga qo'ydilar.

Hasad, vaqtida chora ko'rilmasa, davosiz dardga aylanadi. Hasadchi hamisha birovning shodligidan g'amnok, rohatidan alamnok boladi. Hasad shunday yomon illatki, uning kasridan odam o'ziga ham yaxshilikni ravo ko'ra olmay qoladi. Boshqalaming baxti va saodatini ko'rolmagan hasadchi doimo qayg'u-alam ostida boladi. Arastu hakim deganlarki: «Dunyoda hammadan ko'ra hasadchining yuki og'irdir. Chunki u bechora baxtli odamlarni ko'rolmay, hasad tufayli keladigan hamma qayg'u-alamlar yukini o'z ustiga ortib yuradi». O'zgalarning yaxshi turmushlari uning yurak-bag'rini yondiradi.

Hasadni tark eta olgan kimsa esa tinchlanib, rohatlanadi. Fozil Asmaiy bir yuz yigirma yoshga to'lgan kishidan uzoqumr ko'rish sirini so'radilar. Qariya aytdi: «Buning berkitadigan sirli yeri yo'q. Men umrim davomida hasad va kinchilikdan parhez qildim». Agar hasadning birovni emas, hasadchining o'z tanini kuydirishi va qayg'usini orttirishini hisobga olsak, bu illatdan parhez qilgan keksa otaxonning hayotlarini o'zimizga ibrat qilib olgan bo'lardik. Agar yurak siqilishining sababi qalbdagi hasad o'ti bolsa, dori-darmonga pul sarflashning hojati yo'q. O'sha kishi hasaddan tiyilsa bas, tez orada shifo topib, vuragi siqilmaydigan boladi.

Barchamiz uchun tarbiya asosi bo'lgan Qur'oni Karimning, xususan, «Niso» surasidagi oyati karimaning

ma'no tajjimasiga diqqat qilaylik: «Alloh biron ne'mat bilan biringizni biringizdan ortiq qilib qotygan bolsa, sizlar uni hasad va adovat bilan orzu qilmang. Er kishilar uchun ham qilgan mehnatlaridan nasiba bordir, ayollar uchun ham qilgan mehnatlaridan nasiba bordir. Haq Taolo o'z hikmati va tadbiri bilan har kimga loyiq rizqni muqaddar qilgan. Sizlar birovlariga berilgan ne'matlarga ko'z olaytirish o'rniga Allohning fazl-u marhamatidan fayz- barakat va rizq-ro'z so'ranglar».

Demak, bir kishining ko'proq molini ko'rib hasad qilmaslik barchaga vazifa qilib qo'yilyapti. Inson ko'p jihatda o'zidan afzal shaxsni ko'rib, unga hasad qiladi, deymiz. Shunga ko'ra, go'yo kambag'al boyni ko'rolmaydi, degan fikr to'g'riga o'xshab qoladi. Aslida unday emas. Ko'p hollarda boy boyni ko'rolmaydi. Hasadgoy har qancha boy bolsa-da, ko'zlari birovning molida boladi. Xuddi quyidagi hikoyatdagi kabi.

Hikoyat. Qadim zamonda Bag'dod shahrida xasislik va hasad dardiga muhtalo bir boyning axloqli, tarbiyali qo'shnisi bor edi. Uning boyligi ko'p emas, ammo sahovati bilan nom qozongan, el qoshida izzat va hurmatga ega edi. Hasadchi boy bunga aslo chidolmasdi. Barcha hasadgoylar singari u ham aybsiz odamni ko'rganida jahli chiqaverardi. Qo'shnisining xato qilib qo'yishini intiq kutardi, fazilatlariga toqat qila olmasdi. Qo'shnisining obro'sini toldshga, xalq nazaridan tushirishga harchand harakat qilsa ham muddaosiga yetolmasdi. U nodon cheksiz alam va sitamlari o'zidagi g'arazgo'yiikning mevasi ekanini fahm etmasdi. Dushmaniga azob berolmay, hamma vaqt o'zini o'zi azoblab yashardi. Hasad o'tida yona-yona oxiri bir shumlikni ko'ngliga tugib, qul bozoriga bordi-da bir yosh yigitni sotib oldi. Ikki-uch oy uni yaxshi yeb-ichirib, lutf-u karamlar ko'rsatib, mehribonlik ko'rsatgan boldi, keyin maqsadini unga ayon qildi:

- Menikida yashayotganingdan beri qanday yaxshi odam ekanimni bilib olgandirsan. Men senga yana bir

ulug‘ yaxshilikni niyat qilib turibman. Aytganlarimni bajarib, hojatimni chiqarsang, seni ozod qilaman, qolingga oltin tangalar beraman. Shu tunning o‘zida boshqa shaharga jo‘naysan-u farog‘atli hayot kechira boshlaysan.

Qul xojasining xizmatini so‘zsiz bajarishga tayyor ekanini bildirdi. Boy bundan quvonib, rejasini bayon qildi:

- Bilginki, qo‘shnimning dastidan toyganman. Uni ko‘rsam ichim yonib ketaveradi. Qo‘shnimga nisbatan boyroq bolsam ham atrofdagilar nima uchundir uni qadrlashadi. Uning yomonligini isbotlashga, shu orqali shikast yetkazishga ko‘p urindim, lekin natija chiqmadi. Birgina chora qoldi: shu tun ikkimiz qo‘shnining tomiga chiqamiz. Sen meni shu tomda so‘yib oldirasan. Ertalab jasadimni qo‘shnining tomida ko‘rganlar uning vahshiyiligiga ishonib zindonga tashlashadi. Undan nafratlanishadi. Mol-mulki esa talon-taroj boladi.

Shunday deb ozodlik varag‘i bilan oltinni qulining qoliga tutqazdi.

Qul xojasining bu gaplarini eshitib, taajjubdan qotib qoldi. Xojasining gaplari chinligiga awaliga ishonmadi.

- Xojam, bu tadbiringiz g‘alati-ku? - dedi u. - Olga- ningizdan keyin qo‘shningizning obro‘si tushishi yoki tushmasligidan sizga nima foyda? Aqlli odam bunday ahmoqlikka rozi bolmaydi.

Hasadchi saxiy bola olmaydi, xasisning hasadsiz yashay olmasligi esa aniq: qul har qancha nasihat qilsa ham boy ko‘nmadi. Boy «agar talabimni bajarmasang, qo‘shnimni o‘ldiraman-u seni qotil deb jazoga topshiraman», deb qo‘rqitgach, amrinibajardi-xojasining oligini qo‘shni tomiga tashlab, o‘zi Isfaxonga jo‘nab ketdi.

Ertasi kuni qo‘shnini zindonga tashladilar. Qotilligi asosli dalillar bilan isbotlanmagani uchun jazo berish kechiktirildi. Bu orada boyning boshqa qo‘shnisi savdo vajidan Isfaxonga borib qoldi. Xojasi bergan tillalardan foydalanib tijorat yuritayotgan qul u bilan tasodifan

uchrashib qolib, Bag'doddagi yangiliklar bilan qiziqdi. Tomdagi qotillik haqidagi gapni eshitib dedi:

- Bu ishda pokiza qo'shnining hech aybi yo'q. Xasis va hasadchi boyni o'zining qistovi bilan men oldirganman, - deb barcha voqealarni bir-bir bayon qildi.

Qulning gaplari qog'ozga tushirilib, ikki guvoh imzosi bilan tasdiq etilgach, qo'shni uni Bag'dod hukmdoriga yetkazdi va begunoh odam ozod etildi.

Bu hikoyatdagi boyning hasad qurboni bolishini ramziy ma'noda ham tushunish mumkin: kim yuragida yona boshlagan hasad o'tini o'zi o'chira olmasa, shu o'tda kuyib o'ladi. Shunday razilliklardan qaytmaydigan odamdan nihoyatda ehtiyot bo'lishimiz kerak. «Bunaqa voqealarni hayotda uchratmaymiz», deyapsizmi? Ha, to'g'ri, uchratmaymiz. Lekin hasadgo'ligi uchun elning nazaridan qolish - tiriklayin olish emasmi? Hazrat Navoiy dedilarki: «Hasadchi - bemor, balki halokatli dardga giriftor. Bid'atchi o'z dinidan uzoqda, hasadchi o'z felidan azobda».

Insonlarning qolidagiga hasad qilmaydigan kishining ko'ngli rohatda boladi. Hasad qalbni, axloqni oldiradi. Odam tanasi turli sabablar bilan oladi. Olimga sabab boluvchi kasallik turlari ko'p, falokat turlari ham ko'p. Qalbni oldiradigan illatlar ham turli-tuman. Shulardan biri, balki asosiysi, hasaddir.

Bir donishmandga dedilar:

- Atrofmigizda hasadchilar ko'pligini bilasizmi?

- Bilaman, - dedilar.

- Bilganingiz holda ularga qarshi nechun kurash- maysiz? - deb ajablandilar.

- Hasadchilar - xastadirlar. Kasai odamga qarshi kurashaymi?

Kishi astoydil istasa, vujudida g'imirlayotgan hasadni yengishga o'zida ruhiy-ma'naviy kuch topa oladi. Buning uchun hushini olayotgan, hasadni uyg'otmoqchi bola- yotgan narsalardan o'zini baland qo'yishga harakat qilsa bas. Bir singlimizga ovsinlarining qulog'idagi olmos ko'zli

tilla zirak tinchlik bermayaptimi? O'lab ko'rsinlar, shu ziraksiz ham yashash mumkin-ku? Nima uchun shu matohni deb yurakni siqish kerak? Dunyoda necha milliard ayol shu matohsiz yashab yuribdi-ku? Bu singlimizga deymizki: boshqalar sizga havas qilsin. Aqlingizga, tafakkuringizning boyligiga havas qilishsin. Tilla matohsiz yashash mumkin, aql boyligisiz yashash esa juda mushkul.

Bir do'stingizni ko'chada ko'rib qoldingiz: yangi «Shevrolet»da ketayotgan ekan. Yana hasad g'imirlab qoldimi? «Men undan aqlli roq edim, yaxshi o'qigan edim...» degan fikrlaryuragingizni o'rtay boshladimi? Oldin biling- chi, o'sha do'stingiz aslida baxtlimikin? Ehtimol, boylikka mukkasidan ketib, oila baxtini qoldan chiqargandir? Sizday aql egasining hasad o'tida kuyishi yaxshi emas. Mayli, agar avtomashina orzusi sizni tinch qoymayotgan bolsa: «Xudoyim, shu narsani unga beribsan, menga ham nasib et», deb so'rang. Hasadni havasga aylantiring. Eng yaxshisi - «Rabbim, meni bu narsalarga qul qilib qo'yma, boyluk bermasang mayli, mashina bermasang mayli, lekin oilam baxtini ber!», deb munajat qiling. Yana biling-ki, vaqti-soati yetganda kishi lahadga tilla ziraksiz, «mersedes»siz qo'yiladi. Jannat bog'lariga ham zeb- ziynatlar taqib, qimmatbaho «Limuzimda kirib borilmaydi.

Imom Ahmad ibn Hanbal (r.a.) ulkan sahobiy Anas ibn Molikdan (r.a.) rivoyat qiladilar:

«Payg'ambar alayhissalom bilan o'tirgan edik. U kishi: «Hozir huzuringizga bir jannati odam keladi», dedilar. Tahorat suvi soqollaridan oqib turgan bir ansoriy kirib keldi. Ertasiga Payg'ambar alayhissalom huddi shu gapni yana aytdilar. Yana kechagi kishi o'sha holatda kirib keldi. Uchinchi kuni ham bu aynan takrorlandi. Majlis tugab, Nabiy muhtaram turib ketganlaridan so'ng Abdulloh ibn Amr ibn Oss haligi ansoriyga ergashdi va «Otam bilan arazlashib qolib, uyga uch kun kirmaslikka qasam ichgan edim, uch kun siznikida tursam maylimi?», dedi. Haligi kishi rozi boldi».

Abdullohning hikoyasi:

«Unikida uch kun yotdim. Kechasi hech oshiqcha ibodat qilganini ko'rmadim. Faqat u yonboshidan bu yonboshiga ag'darilganida Alloh Taoloning zikrini qilar va takbir ay tar edi, xolos. So'ng bomdod namoziga turar edi. Uch kun davomida undan faqat yaxshi so'z eshitdim. Lekin hayron boldim. «Jannati bolishga shu amallarning o'zi nahot yetsa?!» deb yuborishimga sal qoldi. Unga qarab: «Otam bilan o'rtamizda hech qanday gap o'tgani yo'q. Rasululloh (s.a.v.) uch kun davomida uch marta «Huzuringizga jannati kishi keladi», deganlarida sen kirib kelding. Uyingda uch kun birga yashab, yaxshi amallaringni o'rganib, senga ergashmoqchi edim. Ammo hech bir katta amal qilganingni ko'rmadim. Rasululloh aytgan martabaga seni nima erishtirdi?», dedim. U: «O'zing ko'rgandan boshqa hech bir amalim yo'q», dedi. Jo'nab ketayotganimda esa: «O'zing ko'rgandan bo'lak o'zga amalim yo'q. Lekin mening qalbmida birorta musulmonga nisbatan aldamchilik yo'q. Biror kishiga Alloh Taolo yaxshilik bersa, hasad ham qilmayman», dedi. Men: «Seni oliy martabaga erishtirgan narsa shu ekan, unga toqat ila amal qilish ham qiyin», dedim».

Tabobatdan chuqur bilimga ega bo'lmasangiz ham bilarsiz, arzimagan deb hisoblaydiganimiz shamollash ham o'zidan jiddiy asoratlar qoldiradi. Yo o'pka yoki buyrak kabi a'zolari jiddiy dardga ro'para qilib qo'adi. Hasad ham shunaqa. Kishi arzimagan narsaga hasad qiladi-yu, jiddiy illat quliga aylanganini o'zi ham sezmay qoladi. Yuqorida zikr etilgan sharafli hadisdan malum boldi-ki, boqiy dunyo saodatiga yetishmoqlikning asosiy omillaridan biri hasadni yengmoq ekan. Takror aytaman, hasadni yengdingizmi, demak, boshqa illatlarni ham mahv eta olasiz. To'g'rirog'i, boshqa illatlarning bosh ko'tarishiga yol bermaysiz. Tabobat tili bilan aytganda, shamollashni yaxshilab muolaja qilsangiz, o'pka ham tinch, buyrak, yurak ham tinch va salomat.

So'fi Ollohyor bu xususda yozganlar:

*Hasad etgan kishi dunu dag'aldur,
Bu so'z bir xalq aro eski masaldur.*

Deyilmoqchiki: hasadchi kishi yovuz bir pastkashdir. Bu so'z eskidan bor bir masaldir.

*Musulmong'a hech bo'lma mukobir,
Borur joy bir erur, e nafsi jobir.*

Deyilmoqchiki: musulmon kimsaga takabburlik qilma. U aziz kimsa bolsa, itoat qil. Ko'ngildan hasadni chiqar. Zero, aziz va martabali kishiga bironing hasadi qanchalar kuchli bolgani sari, uning izzati va martabasi yana ham oshar. Buni uqqin, ey o'ziga zulm qiluvchi inson!

Do'stlarning hasadi dushmanning xusumatidan yomonroq hisoblanadi. Kim o'zgalami qiynayotgan dardga muhtalo bolishni istasa, do'sti boshiga tushgan kulfatdan quvonaversin. Ha, o'zganing kulfatidan quvonish ham hasadning bir ko'rinishidir.

Bunaqa gunohkorlarni uzoqlardan qidirmaylik, yon- atrofimizdagi oilalarda ham ko'p uchratamiz. Kundoshlami qo'ya turaylik, hatto boshqa-boshqa hovlida yashovchi ovsinlarning quloqlari hamisha «ding» turadi. Er-xotin o'rtasida g'avg'o chiqsa, ovsin qalbida tantana boshladi. Kelin eridan so'kish eshitganda, qaynona chapak chalib o'nagisi keladi. Buni ayollargagina hos kasallik desak, bironing qamaliganidan quvonadiganlami nima deymiz? O'zingiz ayting, qalblari hasad dudi bilan xiralashgan kishilarda biron misqol vijdon topilarmikin?! Biz kattalar bu xastaligimizni yashirishga urinamiz. Lekin bizga umidimiz yulduzlarining taajjub bilan boqib turganlarini nega sezmaymiz? Shu qarashlari barobarida bu kasallik yuqib qolishidan nechun cho'chimaymiz?

*Qarg'a farog'at ila tutsa chaman ichra maqom,
Qarg'a bo'lib qolur, ammo sira ham bulbul bo'tmas.*

Shayxul mashoyix Junayd Bag'dodiyning dushman- lari xalifaga arz qilib: «Xalqni butkul o'ziga ergashtirib oldi, chorasini qilmasangiz g'aflatda qolarsiz», deb fitna qildilar. Taxtga mehr qo'ygan xalifa hasadchilar fitnasiga uchdi. Biroq, xalq e'zozidagi valiyni bir hamla bilan yo'q qila olmas edi. «Uni hujjatsiz daf qilib bo'lmas», degan qarorga kelib, fitnani ishga soldi. Uning uch ming tillaga sotib olgan g'oyat go'zal kanizagi bor edi. Uni yasantirdilar, ko'ngilni qitiqlab, fitnaga sola oluvchi hushbo*y atirlar sepdilar.

«Junaydning oldiga bor, unga yuzingni ko'rsat va: «Ey Shayx! Mening hech kimim yo'q. Molim ham yo'q. Men ko'nglimni dunyodan uzdim. Sendan tilmanki, meni xizmatkorlikka va qarindoshlikka qabul etgin. Sening suhbatingda toat bilan mashg'ul bo'lay in. Hargiz bu ko'nglim dunyo ahli bilan qaror topmaydi», deb aytgil», dedilar. Kanizakning izidan bir xizmatkorni kuzatuvchi qilib yubordilar. Kanizak shayxga salom berdi. O'tirdi. Yuzini ochdi. Junayd Bag'dodiy beixtiyor bir qaradilar. Filhol, boshlarini quyi egdilar. Kanizak o'rgatilgan gaplarni toliq aytdi. Junayd Bag'dodiy hazratlari birdan boshlarini ko'tarib, bir «oh» tortdilar-da, kanizakka qarab pufladilar. Kanizak shu zahoti yiqilib oldi. Bu hodisadan xabar topgan xalifaning joniga o't tushdi. Piyoda yurib, Junayd hazratlarining huzurlariga keldi, uzr tiladi. Shayxul mashoyix dedilar:

- Seni «Amir ul-mo'minin» deydilar. Shafqating umum musulmonlarga g'olib va shomil (*umunga tegishli, keng qamrovli*) bolmog'i lozim. Mening qirqyillik toatimni hadar (*bekorga chiqarish*) etmoqchi bolding. Sening shafqating shu tarzdamidir? Ertaga Haqning huzurida nima deb javob bergaysan?

Xalifa shayx hazratlarining oyoqlariga yiqildi, ko'p uzrlar aytdi...

Nodon va johil odamlarning bir-birlari bilan do'st bolib ketishlari taajjub emas, ammo ongli va fozil kishilarning bir-birlarini ko'rolmay, dushmanlikka borishlari taajjub-

ligina emas, afsuslidir. «Gadoning dushmani gado boladi», deyilganidek, olimning dushmanini ham olimlar davrasida ko'ramizmi?

Nega ajablanamiz? Axir bu hasadning ishi-ku?! Endi bir savol: hasadni yenga olishga kuchiyetmaganlami dono deya olamizmi? Olimlar o'z g'arazlarini ko'p hollarda «ilmiy bahs» degan niqob bilan to'smoqchi boladilar. Olimlar orasidagi hasad jamiyat uchun ofatdir. Payg ambarimiz (s.a.v.) «Olimning buzilishi - olamning buzilishi», deb bekorga ogohlantirmaganlar.

Oila atrofidagi hasadchilardan olimlar olamiga o'tishim bejiz emas. Olimlar hasadlari tufayli bir- birlarining ildizlariga bolta urish bilan kifoyalanishsa mayli edi. Daraxtga bolta urilganda awal payraxalar uchadi. Shunga o'xshab, olimlar o'zaro g'araz urushiga kirishsalar, hasad multiqalaridan otilgan o'qlar shogirdlarni ham yaralaydi. Qizlarimiz ilm bila:n shug'ullanish uchun yigitlarga qaraganda ko'proq to'siqlarni yengib o'tishlari kerak. Bir qizning ilmiy rahbari shu sohadagi boshqa olim bilan chiqishmasa, balo bulutlari yosh olima boshi ustiga to'planadi. Hasadgoy olim shu yosh olimaning ilmiy ishini yo'qqa chiqarish bilan dushmanidan o'ch olmoqchi boladi.

Umidimiz yulduzlari, siz hozircha bunday g'alva- lardan yiroqsiz, lekin oradan yillar o'tib duch kelishingiz mumkinligini inobatga olib, diqqatingizni shu noma'- qulchilikka tortishni lozim topdim. «Olim» degan sharafli nomga dog' tushiruvchi hasadchilarning bugun bolmasa ertaga insofga kelishiga umid qilamiz. Agar ardoqli singillarimiz, ukalarimizdan bironalari ilm yolida shundaylarga duch kelsalar, ulardan yomonlik ko'rsalar, darrov chekinmasinlar. Sabr bilan ilm yolida davom etsinlar. Bunday da'vatni yozishimdan maqsad: ilmga mehr qo'Vgan aziz singillarimizning irodalari bo'shroq boladi. Ko'zyoshlari tokilib, yuraklari siqilib, ilm olamini tashlab chiqib ketishni o' y lay boshlaydilar. Singiljonlar, aslo unday qilmang. Mayli, ozgina jdglang, lekin hasadchi

huzurida bosh egmang. Hasadchi hech qachon g'olib bolmagan. Gapimga ishonmasangiz, mustahkam irodalari va iqtidorlari tufayli ilmning sharafli dovonlarini egallagan muhtaram olimalarimizdan so'rang. Ular ham yoshlik kezlari hasadchilar o'qidan qiynalishgan. Agar hasadchining bitta hujumidan qo'rqib chekinsangiz, ilmdan yuz o'girsangiz ilmgagina xiyonat qilgan bolmaysiz. Xudo bergan iqtidoringizni isrof ham qilgan bolasiz-ki, buning gunoh ekanini unutmang.

Ko'p kuzatganmiz: biror yaqini yoki tanishi nimagadir erishganda, kishida ikki holdan biri ro'y beradi - yo quvonchdan boshi osmonga yetadi yoki xafa bolib, ich- etini tirnaydi. Deylik, bir odam halol kasb bilan boyidi yoki munosib ravishda mavqe-martaba topib, olqish qozondi. Uning bu muvaffaqiyati kimgadir yoqmaydi, siqiladi, ishi tezroq orqaga ketib, bir zumda topganlaridan ajrab qolsa, deydi...

Boshqa bir manzara: birov dunyo va oxirat ishida o'zib ketyapti. Kimdir u bilan har uchrashganda, bir fazliga guvoh bolib, ko'zi quvonadi. Bu azizlik unda doimiy turishini xohlaydi. Aksincha bolishi uni ranjitadi. Ayni paytda o'ziga ham shunday muvaffaqiyatlar nasib etishini istaydi.

Endi bir o'y lab ko'raylik: mol-u davlatning egasi kim? Mavqe-yu martaba degani - xohlasak undan foydalanib, xohlasak hurjunga solib qoyadigan otameros narsami? Yo'q, albatta. Bularning barchasi Alloh Taoloning in'omi, bandasiga ato etgan ne'mati. Shunday ekan, Alloh Taolo ne'matini unga emas, boshqaga bergani uchun yoqtirmaslik, u ne'matningyo'q bolishini xohlash aqlsizlik emasmi? Agar kishi do'stiga berilgan ne'matning yo'qolishidan emas, bardavom bolishidan suyunsa, o'ziga ham shunday xayr nasib etishini qo'msasa, bu hasad emas, havasdir. Bunday havas har bir dinda, har bir jamiyatda maqталadi. Bu hususda Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Albatta mo'min havas qiladi, munofiq esa hasad qiladi», deganlar.

Hasad barcha holatda haromdir (ya'ni ta'qiqlangan). Ammo fojirlar va haqdan toygan kimsalar ne'matga yetishsa, u bilan fitna qo'zg'ab, fasod yoyishsa, odamlarga ozor berishsa, bu holda ne'matga munosabatimiz qanday boladi? Shubha yo'q, ularga berilgan ne'matdan ko'ngil o'rtanadi, bu kunlarning uzoq davom etmasligini xohlaysiz. Qachon barchasi tugab, ado bolar ekan, deya kutasiz. Eng muhimi, bu o'rinda o'zni oqlash uchun dalda bor: ne'matni ne'mat bolgani uchun emas, balki fasodga qurol bolgani uchun yoqtirmayapsiz. Havas masalasiga kelsak, harom yollar bilan topilgan boylikka, pora yoli bilan egallangan martabaga ham havas qilishimiz joizmi? Albatta yo'q!

«Hasad» so'zi bir illatni anglatgani bilan uning eshiklari ko'p. G'azzoliy hazratlari shulardan yettitasini sanaganlar: kibr, o'ziga rom bo'lish, yaxshi ko'rgan narsalarini yo'qotishdan qo'rqish, martabaga muhabbat, tuban nafs va baxillik. Hasad uyg'otuvchi ashaddiy sabablardan biri adovat, ikkinchisi esa yaxshilikni ko'rolmaslikdir.

Oila deb atalmish muazzam saroy muntazam ravishda hasad zilzilasidan titrab turibdi. Qamrovni kengroq olib mulohaza qilsak, insoniyat hasaddan ozor chekyapti. Ahillik va totuvlik bilan tiklangan nene mustahkam qal'alar hasad tufayli yemirilib qulayapti. Qarindoshlar yotga, qo'ni-qo'shnilar begonaga, do'stlar dushmanga aylanib ketyapti.

«Olov o'tinni kuydirib kul qilgani kabi, hasad savob amallarniyeb tugatadi», deyiladi hadisi sharifda. Savobli amallarning tugashi - Qiyomatning qo'pishi, olib ham qutulib bolmaydigan abadiy azobning boshlanishidir. Hasad olovi esa lovullab yonyapti.

Aziz umidimiz yulduzlari, suhbatlarimizga toqat qilib, bayonlarimizni o'qib, foydalanishga urina- yotganingiz uchun sizga rahmat. Bilaman, nasihat ko'payib ketsa, ayrim tengdoshlaringizning ensalari qota boshlaydi. Lekin na iloj, hayotni nurlantiruvchi fazilatlar, qora dudga ko'muvchi illatlarni farqlab olishimiz kerak.

«Qozongayaqin yursang- qorasiyuqadi», degan maqolni yana eslaylik. Qorasi yuqmasligi uchun qozonning qayerda turgan ini aniq bilishimiz, undan uzoqlashishimiz shart, to'g'rimi? Illatlar haqidagi suhbatlarimizda pokiza hayotimizga qora yuqtiruvchi o'sha qozonning qayerdaligini bilib olishga oz bolsa-da, erishdik shekilli?

Umidvormanki, bu gaplarni qoldan qoymay o'qiyot- gandirsiz? Lekin shoshma-shosharlik bilan o'qish durust emas. Har bir suhbatdan keyin bir oz o^lab, mulohaza qilish lozim. Masalan, hasad haqida yetarli malumotga ega bolganingizga ishonsangiz, endi o'ylang: keyingi kunlar davomida kimlarga va nima uchun hasad qildingiz? Hasad olini yoqishga sabab bolgan narsa yoki voqea yuragingizni siqishga arziydimi o'zi? Hasad o'lining alangasi qay darajada va u necha kundan beri bag'ringizni kuydiryapti? Bu o'zni o'zingizning idrokingiz, irodangiz bilan o'chira olasizmi? Fikrimcha, bunga qodirsiz. Faqat astoydil urining. Biz esa duolarmiz bilan sizni qollab- quvatlab turamiz, hasadni va boshqa illatlarni yengishga ahd qilgan ekansiz, sharaf sizga!

Ayovsiz ilon

Umidimiz yulduzlari, kattalar orasidagi qarzga doir oldi-berdilarni eshitgansiz. O'zingiz qarz olganmisiz? To'g'ri, sizning yoshingizda qarzdor bolib qolish hollari kam uchraydi. Aytaylik, katta tanaffusda qomingiz ochdi. Oshxonaga chiqib, cho'ntakka qol solsangiz - bo'm-bo'sh: pulingiz uyda qolibdi. Do'stingizga deysizki, «menga ham taom olgin, haqini ertaga beraman». Ertasiga pul berishni esa yodingizdan chiqardingiz. Do'stingiz bu pulni arzimas deb sanab, sizdan so'ramadi. Siz «haqini ertaga beraman» deb va'da qilgan edingiz, demak, qarz boldingiz va miqdoridan qat'i nazar, qaytarishingiz shart. Yoki do'stingiz bu puldan voz kechganini bildirib qo'yishi kerak. Janozalarda ishtirok etgan bolsangiz, diqqat qilgandirsiz: imom janoza namozini boshlamasidan ilgari marhumning

qarzi bolsa kim tolashini so'raydi. Bir kishi boyniga olsa, marhum u dunyoga qarzdand qutulib ketyapti, deb duo qiladi.

Oshxonada taom olib beruvchi do'stingiz «bugun men seni mehmon qilaman», desa, siz qarzdor bolib qolmaydiz. Agar lutf etsangiz, ertasiga siz uni mehmon qilarsiz. Bu odat ikkovingiz orangizdagi do'stlik zanjirini mustahkamlaydi. Tengdoshlaringiz bilan suhbatlashganimda qarz haqida so'z ochib, ularning bu borada ko'p narsani bilmasliklarini anglaganim uchun so'zni ayni paytda shu mavzuga burishni lozim topdim.

Qarz - kishini xomush qiluvchi ayovsiz bir ilon kabidir. Uning zahridan qarzdor ham, qarz beruvchi ham aziyat chekadi. Albatta, nochor odamga yordam berish - ulug' savoblardan. Ammo bu savobga yetishmoqning ham o'z imtihonlari mavjud.

Awalo, qarz oluvchilar haqida, bu illat sizlarda deyarli uchramaydi, kattalar orasida esa bor.

Ma'lum bir xarajatga yetarli mablag'i bo'lsa ham boshqalardan qarz so'rovchilar bor. Ular o'zlarini boshqalarga nochor ko'rsatishni istaydilar. «Odamlar meni kambag'al desin, pulim borligini bilib qolmasin», deydi. Ularning ayrimlari qarzni tez qaytaradi, boshqalari o'zini yanada bechorahol ko'rsatish uchun qarzdand qutulishni galga solaveradi. Puli bolaturib, hojatsiz ravishda qarz oluvchilar jon taslim qilib qolsalar, gunohlarni ortmoqlab borishlarini bilarmikinlar? U dunyoda bechorahollik pul bilan o'lchanmasligini-chi? Foni dunyoda ko'p savob topding - boqiy dunyoda boysan. Bu boylik ne'matini yashirishga urinmaysan. Gunohlar botqog'iga botib bordingmi - u dunyoda senga birov savob boyligidan qarz berib tura olmaydi.

Ba'zilar esa chindand ham ko'makka muhtojlar. Ming xijolat bilan birovdan qarz so'raydilar. Vaqtda berolmaydilar, balki umuman qarzdand qutulolmaslar. Ularni bu dunyodagi xijolatlikdan, u dunyodagi azoblardan xoli qilish - naqadar olijanoblik! Qarzdand xolis

tarzda, minnat qilmay voz kechish benazir fazilatlaridan hisoblanadi. Yaqinda bir tanishimiz ko'zlarida yosh bilan bir voqeani hikoya qilib berdi.

Voqea. «O'n yilning nari-berisida topish-tutishim yaxshi edi. Do'stim esa muhtojlikda qolib mendan qarz so'radi. Berdim. Ammo boshiga kulfat tushib, qarzni va'da qilgan muddatda qaytara olmadi. Yaqiniyillarda qaytarishi mahol edi. Bilardim-ki, do'stim kulfatda yotgan chog'ida ham qarzini qaytarolmaganidan eziladi. Shunda men u qarzdin butkul kechdim va bu qarorimni yaqin qarindoshlari orqali ungayetkazdim. Oradan yillar o'tdi. Do'stimning boshi ustidagi kulfat bulutlari tarqadi. Ishlari yurisha boshladi. O'zini o'nqlab oldi. Biz ko'p suhbat qurardik, biroq, o'tgan yillardagi qarz voqeasi tilga olinmasdi. Men hatto bir ishora bilan eslab qolishdan ham cho'chirdim. Esolasam, minnat bo'lishini, do'stimnixijolat qilishimni bilardim. Yaqinda o'zimning moddiy ahvolimda bir oz nochorlik sezildi. Birovdan qarz so'rashga hojat bo'lmasa-da, qiyinchilik bilinib qolgandi. Mening bu ahvolimni hech kim, jumladan, o'sha do'stim ham bilmasdi. To'lov muddatiga bir kun qolganda, kutilmaganda o'sha do'stim kelib qoldi. Men bu tashrifdan ajablanmadim. Chunki u tez-tez kelib turardi. Suhbatlashib o'tirdik. Men mushkul ahvolimni bayon qilmadim. Xayrlashar chog'ida u «biz siz bilan qiyomatlik do'stmiz, do'stlarning bir-biriga hadya qilib turishi lozimligini Payg'ambarimiz (s.a.v.) aytganlar», deb qo'limga pul tutqazdi. Men o'sha qarzni shu bahonada qaytar-moqchi, degan xayolga borib, qo'limni tortdim, olmadim. U esa pulni cho'ntagimga solib qo'vdi. U ketganidan keyin pulni olib sanasam, olgan qarzidan ikki hissa ko'p edi».

Mavzuga qaytamiz: atrofimizda qarz so'rovchi yana bir toifa bor-ki, ulami makkor, hiylagar, deb atamoqjoiz. Qarz olish evaziga yashashga o'rganib qolgan bu mal'unlarga oxiratni eslatsangiz eshitarmikinlar? Agar quloqlariga qo'rg'oshin quyilib qolmagan bo'lsa, ehtimol, eshitarlar. Bundan umidvormiz va bundaylarga insof berishni

Yaratgandan so'raymiz. Bir odamni bilaman: ba'zan «bolalarimga shakar olishim kerak, ming so'm berib turing», deb, ba'zan esa boshqa bahona bilan so'raydi. Bu hoi takrorlanavergach, dedimki: «Birodar, «berib turing», demang, chunki baribir qaytarib bermaysiz. «Berib turing», deb olib, so'ng gunohkor bolib qolasiz. Shuning uchun «sadaqa qiling yoki hadya qiling», deyavering». Gapimga tushunganday bo'lgan edi. Lekin yana bir ro'paramdan chiqqanida «bolalarimga paypoq olishim kerak, ikki ming so'm berib turing», deb yalindi. Yoshi o'ttizzdah endi oshgan, jismonan baquwat, lekin mehnat qilishga bo'yni yor bermaydigan, halol-haromni tushuntirsangiz ham o'zini tushunmaganga oladigan bu odamga yana nima deyish kerak, hayronman...

Yana bir toifa, muhtojlikda oladi, hojati ravo bolib, qoliga pul tushgach, qaytargisi kelmaydi. Qaytarsa, xuddi yuragi uzilib chiqadiganday. Qarz bergan odam uning uyiga qatnayverib charchaydi. Insof, vijdon kabi fazilatlarini eslatib tushuntirmoqchi boladi, hatto do'q-po'pisa ham qiladi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) imkoniyati bolaturib qarzini o'z vaqtida tolamaslikning zulm ekanini takidlaganlarini ehtimol u odam bilmas. Mayli, o'zimizni shunday deb ovuta turaylik. Lekin bulami bila turib o'zini gunohdan to'xtatmaydiganlar ham bor, shunday emasmi?

Bir xonadonga uch-to'rt yigit bostirib kirib «o'glingiz bizdan shuncha miqdorda qarz olgan, agar bugun qaytarmasangiz o'ldiramiz», deyishadi. «O'ldirsanglar oldiraverlaring», deydi ota. Qarzdorni oldirishdan nima foyda? O'ladi - ketadi. Qarz bergan puliga kuyib qolaveradi. Demak, kutishdan, talab qilishdan o'zga chora yo'q. «Bolamni oldirsanglar oldiraverlaring» deguvchi ota buni bilgani uchun ham qarzni qaytarishni o'ylamaydi. O'g'il-ku, yosh, qarzni qaytarmaslik qanchalik gunoh ekanini fahm etmas. Turmushda ko'p narsani ko'rgan ota-chi? Nahotki, o'g'lini gunohdan asrab qolishni o'ylamasa? Qarz berguvchilar uni oldirishmas, taqdirga

tan berarlar balki. Lekin qarzni qaytarmay lafziga xiyonat qilgani uchun Alloh tomonidan berilajak jazodan nahot qo'rqmasa?

Bir giyohvand yigit to'satdan vafot etadi. Janoza namozi o'qilishidan oldin imom-xatib odat bo'yicha «bolangiz hayotlik chog'ida qarz ko'targan bo'lsa, qaytarishni zimmangizga olasizmi?», deb otadan so'raydi. O'g'lining oligi tepasida, jamoat guvohligida ota qarzni tolashni zimmasiga oladi. Lekin qarz berganlar haqlarini talab qilib kelishganda «qarzni o'g'limga bergansanlar, go'riga borib talab qilib olaverlaring», deydi. Pul hamma narsadan shirinroq, qadrliroq, azizroqmi? Nahot farzandiga boqiy dunyo azoblarini ravo ko'rsa?! Axir farzandning oyog'iga tikan kirsam, ota-onaning qalbiga sanchilganday boladi- ku? «Bolamning qarzini to layman», deb tobut ustida so'z bergan ota ko'pchilik huzurida berilgan va'daning o'zi kifoya qilmasligini, va'da ijro etilgachgina bolasi zimmasidagi qarzdan soqit bo'lgan holda u dunyoga ketishini bilmasmikin? Oxirat saodatini arzon-garovga sotayotganini nahot fahm etmasa bu odam?

Bir latifa bor: Anvar degan yigit Asqar degan do'stiga qarz beradi. Qarzni qaytarish muhlati o'tadi. Asqardan esa darak yo'q. Anvar uning uyiga borib, haqini talab qiladi. Asqar ahvoli harobligini bayon qilib ko'ziga yosh oladi. Unga rahmi kelgan Anvar qarzning bir qismidan voz kechib, yangi muhlatni belgilaydi. Bu muhlatda ham qarz qaytarilmagach, do'stining uyiga yana keladi. Asqar yana fig'on qiladi. Anvar yana qarzning bir qismidan kechadi. Shu tarzda qayta-qayta kelib qarzning uchdan biridan voz kechadi. Oxirgi qismini talab qilganida Asqar unga qarab o'pkalaydi: «Buncha besabrsan, buncha shoshilasan! Axir sekin-sekin tolayapman-ku, chida. Yana ozginasi qoldi».

Bu-ku, hazil. O'rtada pul mojarosi bosh ko'targanda hazilga o'rin qolmaydi. Do'st do'stga, aka ukaga, hatto ota bolaga dushman bolib qolishi hech gapmas. Qarzni qaytarishni istamaydigan toifa muttahamlikning turli

yo'llarini o'zlashtirgan boladi. Bir yigit do'stiga qarz beradi-yu, undira olmay qiynaladi. Chorasiz qolgach, otasiga voqeani bayon qilib maslahat so'raydi. Shundan so'ng ota-bola qarzdorning uyiga borib qat'iy talab qo'yadilar. Hatto qo'rqitish niyatida do'q-po'pisa qilib, muhlatni belgilaydilar. Vijdon fazilatiga begona qarzdor esa militsiyaga murojaat etib, ularni tama'girlikda, bosqinchilikda ayblaydi. Oqibat shunday bo'ladi-ki, qarzini undirish uchun kelgan ota-bolaga militsiya tomonidan tayyorlangan, maxsus bo'yoq surilgan pullar beriladi-yu, ular «jinoyat ustida qo'lga tushgan tovlamachi-tama'gilar» sifatida qamoqqa olinadilar. Qarzdor awalgi gunohiga endi tuhmati uchun yana gunoh yozilganini, Qiyomatda buning azobi yanada yomon bolishini tasavur ham qilmagandir. «Gunohlari uchun Xudoning jazo berishini» bilmas edi, deya olmaymiz. Chunki bu haqda ko'p gapiriladi. Ular oxiratdagi azobni eshitganlar, faqat ishonmaydilar. Ishonganlarida qo'rqan bolar edilar.

Qarz berib birovning hojatini chiqargan kishining himmatiga balli, deymiz. Lekin himmat savobini minnat gunohi bilan yuvib tashlaydiganlar ham bor-ki, bundan ogohlantirib qo'yish kerak boladi. Qarz bergan bir odam to'yimi, ma'rakami, qayerda bolsa ham qarzdor do'stini malomat qilaveradi. Bundan ranjigan do'st «Hech bolmasa begona odamlar orasida gapirmagin», desa, u: «Pulimni qaytarib bermaguningcha tinmayman. Olsang, ko'mishayotganda go'ringning tepasida turib ham gapiraman!», deydi. Ularning janjaliga guvoh bolayotgan uchinchi do'st unga «O'zing undan oldin olib qolsang- chi?», deb so'raydi. Qarz bergan odam shunda ham bo'sh kelmay: «O'glimga tayinlab ketaman, o'glim gapiradi!» deydi. Shunda uchinchi do'st ularni murosaga keltirish uchun qarz beruvchiga deydi: «Do'stim, biz bolalikdan birga o'sganmiz. Sen bergan pulingga hozir muhtoj emassan. Bu do'stimizning topar-tutari yaxshi bolganda uyida ko'p mehmon bolganmiz. Hozir qoli kaltalik qilib

turibdi. To'g'ri, bergan pulingni talab qilishga haqing bor. Lekin insof bilan so'ra, do'stimizni birovlarining oidida mulzam qilma. Do'stimizning bu ahvolga tushib qolgani aslida bizlar uchun ham isnod. Sen, yaxshisi, bergan qarzingdan Alloh Taoloning roziligi uchun kechg'in-u, oxiratingni yanada obod et». Agar shayton kishining ko'zi oldiga puldan parda tortib qotysa, qiyin ekan. Oxirat bog'lari ham ko'rinmay qolarkan. Qarz tufayli do'stlarning orasi buzildi, Qiyomat azobi naqd qilib qo'lganiga esa e'tibor bermadilar.

Boshqa bir ibratli voqeaga o'zim guvoh bo'lgan edim.

Voqea. Yoshi o'ttizga yetmagan kishining janozasida imom-xatib mayitning akasidan qarzni ado etishni so'rab bolgach, shu ko'chada yashaydigan otaxon oldinga chiqib dedilarki: «Birodarlar, bu ukamiz mendan falon so'm qarz olgan edilar, sizlar guvoh bolinglar, men Allohning rizosi uchun bu qarzdin kechdim. Men bu xonadonga zinhor qarzimni talab qilib kirmayman, xijolat bolmasinlar». Ba'zi birovlar «shu gapini marhumning akasiga sekin aytsa bo'lardi-ku», deb ham qo'yishdi. Lekin, bizningcha, ibrat yuzasidan qaralganda, otaxonning bu ishlari ayni muddao boldi.

Qarz olish va berish qadimdan mavjud. Shu bois hech bir zamonda bu masala e'tibordan chetda qoldirilmagan. Aniq tartiblar joriy etilgan. Afsuski, bugunga kelib bu tartiblarga rioya qilinmaydi. Shu tartiblardan biri - qarzni guvohlar ishtirokida berish. Ayrimlar «qarindoshim-ku», deydi, boshqalar «yaqin do'stim», deb ishonadi, guvohlarsiz qarz beradi va buning oqibatida oylar, hatto yillar davomida pulini undirolmay sarson boladi. Birovlar tilxat yozib berib ishontiradi. Guvohlar va notarius tasdiqlamagan bu tilxatning hech bir quvati yo'q. Shunday muttahamlar ham bor-ki, qarz beruvchini ishontirish uchun pasportini qoldiradi va... bir hafta ichida «hujjatimni yo'qotdim», deb yangisini olvoladi.

Qarz oldi-berdisiga doir mashmashalarning kelib chiqish sababini johillikdan qidirish kerak. Agar kishida

ilm bolsa va bu ilmiga amal qilsa yoki ilm olishga intiluvchilardan bolsa, to'g'ri yoldan yuradi va boshi g'avg'olar doliga uchramaydi.

Qur'oni Karimning «Baqara» surasidagi «Oyati mudoyana» - «qarz oldi-berdisi oyati» nomini olgan oyatda turmushda tez-tez uchrab turadigan, odamni odamga dushman qilib qo'yishga, hatto joniga qasd qilishga qodir bu masalaning odilona yechimi ko'rsatib berilgan.

Umidimiz yulduzlari, siz bu yoshda mazkur muarn- moga duch kelmasangiz-da, yaqin kelajakda yo qarz beruvchi yo qarz oluvchi yoki bu jarayonda guvoh bolishingiz mumkin. Demak, bu jarayonga doir to'g'ri tartib-qoidalarni hozirdan bilib olsangiz foydadan xoli bolmaydi. Shuni nazarda tutib, Qur'oni Karimdagi eng uzun oyatning ma'nosini «Tafsiri hilol»dan foydalangan holda, shoshilmasdan, atroflicha o'rganishga harakat qilib ko'raylik.

Oyati karimaning «E mo'minlar!» (Muhtaram ulamo- larimiz «Ey iymon keltirganlar!» deb ham tarjima qilish- gankim, har ikki xitob bir-biriga zid emas, balki ayni bir ma'noni anglatadi. Ya'ni iymon keltirgan banda mo'min boladi) deb boshlanishida ham hikmat bor

«E mo'minlar! Bir-birlaringiz bilan qarz berishib muomala qilgan vaqtlaringizda u qarzlaringizni ado qilish muayyan bir vaqtgacha malum bolsa, u qarzlaringizni hujjat tariqasida yozinglar». Bu jarayonda qarz oluvchi bilan qarz beruvchining nomi albatta yozilishi kerak. Qarzning miqdori, qaytarilish muddati qachon ekani aniq ko'rsatilishi shart. «Sizlarning o'rtalaringizda qaysi birlaringiz kotib bolsangiz, adolat bilan yozsin», ya'ni qarz miqdorini ko'p yoki oz qilmasdan, to'g'ri yozsin. Demak, qarz oldi-berdisi haqidagi hujjatni qarz oluvchi ham, qarz beruvchi ham yozmaydi. Balki, bu vazifani uchinchi - xolis bir shaxs adolat bilan bajaradi. Qarz oldi-berdisiga doir ishlar odatda kishiga ozmi-ko'pmi tashvish keltirishi malum. Shuning uchun ayrim birodarlar oqibatda bosh og'rig'i boladigan ishdan o'zlarini chetga olishni ma'qul

ko'rib, yozuvchi sifatida ishtirok etishni istamaydilar. Ana shu hoi e'tiborga olinib, deyiladi-ki: «Hech bir kotib Alloh unga bildirganidek yozishdan bosh tortmasin, albatta yozsin». Demak, yozishni biladigan odam yozishdan bosh tortmasligi kerak. Chunki unga yozmoq ilmi ato qilingan ekan, endi shu ne'matning shukronasiga yozishdan ibo qilmasligi lozim. Bu ish - savobli ish. Jamoatga kerak boladigan ishlarda hojatmandlarning hojatini chiqarishga Odam bolalari doimo targ'ib qilinadilar. Shuning uchun ham, kotiblikka taklif qilingan inson «Bas, yozsin va haq zimmasiga tushgan kishi aytib tursin, Robbiga taqvo qilsin va undan hech narsani kamaytirmasin». Kotib bo'v'nida qarzi bor odamning iqrorini yozadi. U Parvardigorining azoblaridan qo'rqishi va haqdan ozginagina bolsa-da, noqis qilib yozmasligi zarur. Oyati karimadagi «haq zimmasiga tushgan kishi» deyilganda qarz oluvchi kishi nazarda tutilgan. Demak, o'rtadagi xolis kishi kelib, qarz oldi-berdisini yozayotgan paytda matnni qarz oluvchi aytib turadi. Bu narsalarni qarz beruvchi aytib tursa, qaysi bir nuqtada gapni o'z foydasiga burib yubormasin, degan ehtiyot chorasi tufayli shunday qilinadi. Qarz oluvchi muhtoj bolib turgani uchun bunday qilmasligi aniqroq. Chunki u muomalaning tezroq amalga oshishiga muhtoj.

Ba'zan qarz oluvchi kishining esi past yoki kar-soqov bo'lishi mumkin yoki moliyaviy ishlar tadbiridan bexabardir yoki yosh boladir, yoki keksadir, maqsadni bayon etishga layoqati yo'qdir, balki tilida, so'zlashuvida nuqson bordir... Shu bois iqrorini aniq bayon eta olmas. Bunaqa holatlarda o'sha odamning valiysi - homiy vakili adolat bilan aytib turishi kerak boladi. Chunki valiylar boshqa ishlarda ham o'z qaramog'idagilarning mas'uliyatini oladilar: «Agar zimmasiga haq tushgan kishi esi past, zaif yoki aytib tura olmaydigan bolsa, uning valiysi adolat bilan aytib tursin». «Va sizlar rozi boladigan adolatli guvohlardan ikki er kishini, agar ikki er kishi bolmasa, bir er kishi va ikki ayol kishini - biri unutib adashsa, yana biri unga eslatadi - guvoh qilinglar».

Moliyaga oid oldi-berdi chog'ida oraga mol-u pul, demakki, nafs aralashgani uchun ham bu masalani adolat yo'sinida yechish g'oyat jiddiy ahamiyatga egadir. Bu ishda bir odamning ikkinchi odam haqini yeb ketishi yo'li har jihatdan to'silishi lozim. Buning uchun adolatli kotibga yozdirib qo'yish kifoya emas, bu jarayonda ikki er kishining guvoh sifatida ishtirok etishi shart. Guvohlikka hamisha adolatli kishilar o'tishlari zarur. Shariat olchovida adolatsiz bo'lgan kishining guvohligi qabul qilinmaydi. Guvohlarning er kishi bo'lishi ta'kidlanishining ham hikmati bor. Haqiqiy islomiy jamiyatda yuqoridagi kabi sertashvish, xarxashali va mas'uliyatli ishlar odatda er kishilar zimmasiga yuklatiladi. Islomda ayol kishi mol-dunyo tashvishini chekishdan umuman ozod etilgan. Qarz oldi-berdisi, yozib qo'yish va shunga o'xshash tashvishli ishlar bilan musulmalar bezovta qilinmaydi. Ammo kutilmagan holda yon-atrofda guvohlikka o'tadigan ikki er kishi topilmay qolishi mumkin. Shundagina ikki ayol bu ishga jalb qilinadi. Oyati karimada guvohlarning adolatli bo'lishlari ustiga, yana muhim shart qoyiladi: qarz beruvchi ham, qarz oluvchi ham guvohlardan rozi bo'lishlari kerak. Keyinchalik biror kelishmovchilik chiqib qolsa, «guvohlarga ishonchim yo'q edi, bu guvohlar qarshi tomonning odamlari ekan», deganga o'xshash gaplarga o'rin qo'ymaslik uchun bu ishonch qaror topishi zarur.

Oyati karimadagi ikki ayol kishining guvohlikka o'tishi masalasida ba'zan tushunmovchiliklar bo'lib turadi. «Islom ayolni to'liq odam o'rnida ko'rmaydi, shuning uchun guvohlikka o'tishda ikki ayolni bir er kishi bilan tenglashtirgan», degan bema'ni va asossiz da'vo ham uchrab qoladi. Aslida esa mutlaqo unday emas. Shariatda shunday ishlar bor-ki (misol uchun: idda, tug'ish, emizish kabi masalalar), unda mingta er kishining guvohligi o'tmasa ham, bitta ayolning guvohligi o'tadi. Agar shu hukmni ushlab olib, «Islom er kishilarni odam o'rnida

ko'rmaydi, chunki falon-falon ishlarda ularning guvohliklari qabul emas», deyilsa kulgili-ku? Oyati karimada mavzu sertashvish va o'ta mas'ulivatli hisob- langan qarz oldi-berdisi, xususan, guvohlik haqida borayotganini unutmash kerak. Ta'kid-ki, ayollar bunday «boshog'riq» ishlarda qatnashib o'zlarini qiynamaganlari durust. Zarurat tufayli ishtirok etgan taqdirlarida ham ehtiyot chorasi yuzasidan bir emas, ikki ajrol jalb qilinadi. Hech kimga sir emas-ki, ayol kishining ko'ngli bo'sh, ta'sirchan, mehri daryo boladi. Onalik uchun zarur bo'lgan bu sifatlar talashib-tortishish va urush-janjalda teskari natija berib qolishi ham mumkin. Agar ikki kishi bolsalar, birlari nimanidir unutsalar ikkinchilari eslatib, guvohlikni adolat bilan ado etadilar. Aynan mana shu e'tibordan qarz oldi-berdisida ikki ayol guvoh bolishi shart qilingan-ki, o'zgacha ma'nolar axtarib adashmaslik kerak.

Oramizda guvohlikni ortiqcha mashmasha, keraksiz bosh og'rig'i deb hisoblovchi va bu savob ishdan bo yin tovlovchilar ham topilib turadi. Shundaylarga qarata oyati karimada «*kimki guvohlik uchun chaqirilsa, bu vazifadan bosh tortmasin*», deb alohida ta'kidlanadi. Bu Alloh Taoloning amri ekani e'tiborga olinsa, bunga amal qilmagan insonning gunohkor bolishi oydinlashadi. Haqiqatni, adolatni himoya qilish uchun guvohlikka o'tishlik ulkan savob hisoblanadi. Bu hususda Pay- g'ambarimiz (s.a.v.): «Sizlarga eng yaxshi guvoh kimligini aytib beraymi? Bu vazifaga taklif etilmay turib shahodat berishga rozi bo'ladiganlar eng yaxshi guvohlardir», deganlar.

Kotiblar qarzlarning miqdori xoh ko'p, xoh oz bolsa- da, to muayyan vaqtga qadar olinganini aniq yozib qo'yishdan malollanmasliklari zarur. Mana shunday muomala qilishlar Xudoning nazdida adolatdir, guvohlik bermoqqa to'g'ridir. Ehtimol, qaysidir kotib pulning miqdori kam bolgani uchun yozishdan erinibmi yo «eslab qoldim, keyin yozib qo'yarman», debmi yo «ozgina qarzni

yoʻzish shart emas», degan xayolda yoki boshqa bahonani roʻkach qilmasligi lozim. Qarz miqdoridan qatʻi nazar, yoʻzib qoyilishi shartligi Qurʻoni Karimda taʻkidlanmagan, demak, hech bir gap-soʻzga, bahonaga yoki mulohazaga oʻrin yoʻq-yoʻzib qoyilishi shart! Shunda shubhaga oʻrin qolmaydi.

Ammo yurib turgan savdo ishlari bolsa, yoʻzish shart emas. Chunki hamma narsa aniq: savdo jarayoni tez-tez takror boʻlib turadi, mol ham oʻz ixtiyorida. Savdo jarayonining har birini yoʻzadigan bolsa ish qiyinlashib ketadi. Shu bois oyati karimada deyilyaptiki: *«Magarki, oldi-berdilaringiz tijorat tariqasida naqdma-naqd boʻlsa, yozmasangizlar ham sizlarga hech zarari yoʻqdir. Ammo bir-birlaringiz bilan oldi-berdi qilgan vaqtlaringizda guvoh keltiringlar. Shahodat bermoqlikda guvohlarga va kotiblarga zarar ye tkazilmasin»*. Savdo ishlariga guvohlik keltirish haqidagi hukmni ulamolalar «mandub» deganlar. Sotuvchi bilan xaridor oʻrtasida baʻzi kelishmovchiliklar paydo boʻlib qolsa, guvohlar haqni oʻrnatishda oʻz guvohliklari bilan yordam beradilar. Oʻrganayotganimiz oyati karimada kotib va guvohlarga vazifa yuklatildi. Ularga bu xizmatdan qochmaslik takidlandi. Navbatdagi jumlada esa kotib va guvohlarning haqlari himoya qilinyapti. Ular kotiblik va guvohlik qilayotganlarida zarar tortmasliklari kerak. Odatda kotib va guvohlar savob umidida vaqt sarflab, mehnat qiladilar. Lekin baʻzan balo va tuhmatlarga ham qoladilar-ki, bunday hoi avom tilida «yemagan somsaga haq tolash» deyilur. Xayrli ishga bel bogʻlaganlarning xotirini jam qiladigan, bu savobli ishga qiziqtiradigan vaʻda ham aytilmoqda: *«Agar buning aksini qilsangiz, yaʻni ulardan birontasiga zarar yetkaysangiz bu Allohga itoatsizligingizdir»*. Bu demak, kotib va guvohga zarar keltirgan shaxs, fosiqlik qilgan, Alloh Taoloning amridan chiqqan boladi.

Kimsa safarda ekanida qarzga muhtoj boʻlib qolsa nima qiladi? Qurʻoni Karimda bunga ham javob topamiz. «Baqara» surasining ikki yuz sakson uchinchi oyatida bu maʻnoni

o'qiyimiz: «Bas, agar safar uzrasida bo'lsangizlar va yozuvchi kotibni topa olmasangizlar, bir-birlaringizga qarz yo omonat berganda bir-birlaringizdan garov olinglar. Agar ba'zilaringiz ba'zilaringizga omonatdor bo'lsangizlar va garov olmasangizlar, bas, u holda omonat olgan kishi y o qarz olgan kishi Allohdan qo'rqsin-da, omonatni egasiga topshirsin yo qarzni ado etsin. E shohidlar, shahodatni (guvohlikni) yashirmay ado etinglar. Har kimki shahodatni ado etmasdan, dilida yashirar ekan, uning dili gunohkordir. Alloh Taolo amallaringizni bilguvchidir». Safarda o'ziga yarasha qiyinchiliklar, hatto kutilmagan fojialaryuz berishi mumkin. Ana shunda qarz olishga muhtoj odam, biron kishidan umidvor boladi. Insof egasi unga yordam berishga tayyor, ammo awalgi oyati karimada zikr qilingan shartni bajarishga, ya'ni oldi-berdini yozib qo'yishga kotib yo'q. Mazkur oyati karima bunday sharoitda noqulay holatdan chiqishning yo'lini ko'rsatadi: qarz beruvchiga qarz oluvchi garovga nimadir beradi. Garovga qoldirilgan narsa qarzni eslatib turadi, uning tonib ketmasligiga sabab boladi. Voqea safarda yuz berayotgani uchun o'rtada yozuvchi kotib bolmasa ham muhtoj odamga ishonib qarz berilaveriladi. Qarzdor esa qarz beruvchiga ishonib garovga biron nimasini topshiradi. Bu holatda ikki taraf ham bir-biriga ishonadi va omonat qo'yadi. Ta'ay- joiz bolsa, har ikkala tomon ham bir-birining iymon egasi, halol odam ekaniga ishonadi. Endi ikkovlari ham omonatni ado etishlari, Allohga - Robbilariga taqvo qilishlari kerak. Bu o'rinda yana bir karra taqvo - Xudoning jazosidan qo'rqish lozimligi eslatilmoqda, harama ishlarda taqvo asos sifatida zikr qilinyapti. Oyati karimada ta'ay etilgan «guvohlikni berkitmaslik» - qozining huzuridagi guvohlikdir. Ya'ni, qarz yoki tijorat ishlarida guvohlikdan qochish yoki bo'yin tovlash yaramaydi. Vaqtiki kelib, mazkur ishda kelishmovchilik chiqib qolib, taraflar qoziga murojaat qilishsa, albatta, qozi guvohni chaqiradi. Shunda guvohlikni berkitmaslik kerak. Kim guvohlikni berkitsa,

uning qalbi gunohkordir, deyilishiga sabab - guvohlik yoki uni berkitish qalbga bogliq ishdur.

Afsuski, bandalar orasidagi qarz oldi-berdisiga doir yol-yo'riq aniq belgilab berilgan bolsa-da, ba'zi holatlarda ayrim odamlar adashib qoladilar. Belgilab qoyilgan to'g'ri yoldan yurib saodatga yetish o'miga, shayton yolidan yurib baloga giriftor bo'ladilar. Boshqalarni qo'yib turaylig-u, «musulmonman» deb yurganlar ham aksar paytlarda o'zlarining ayblari tufayli qarz muomalasi yuzasidan turli mushkulotlarga duchor boladilar. Ular odamiylik talablariga binoan ish tutmaganlari uchun bir- birlarining mollarini yeydilar, urush-janjallarga ko'miladilar.

Ba'zilar qarz so'rayotganida muhtojligi sababini aytadi. Ayrimlar «pul zarur bolib qoldi», deyish bilan cheklanadi. Bizningcha, sababini ochiq aytgan ma'qul. Qarz bemvchi ehtimol shunga qarab biron chora ko'rar. Masalan, qarz so'rovchi toy qilmoqchi-yu, qoli kalta. Bu o'rinda qarz beruvchi pul so'rayotgan birodariga toyni dabdaba bilan emas, kamtarona o'tkazishga da'vat etishi kerak. Agar so'rovchi yaqin qarindosh yoki do'st bolsa, iltimos qilinayotgan mablag'ning ma'lum bir qismini hadya sifatida bersa nur alannurdir. (Masalan, besh yuz ming so'm so'ralayotgan bolsa, shuning yuz yoki ikki yuz ming so'mi hadya, qolgani - qarz.) Agar banda himmati baland, saxovatli bolsa, barcha og'irliklarni zimmasiga olar.

Yana bir odam o'tgan marhumlarini eslab «yigirma oshi» yoki «yil oshi» o'tkazish uchun qarz so'rayapti. Qarz beruvchi «savob ish ekan», deb darrov pul sanab bermasdan, so'rovchi birodarini bu ma'rakani qilishdan qaytarishi shart. «Xudoyi», «ehson», deb nomlanuvchi bunday bid'at ma'rakalar qarz olish evaziga qilinmasligini tushuntirishi zarur. Bunday ma'raka uchun qarz berilmagani ma'qul. Chunki xudoyi-ehson o'z tirik- chiligidan orttirilganda qilinadi. Aslida fazilatli amal bolgan «xudoyi» yoki «ehson» qarz evaziga qilinsa, johilli ko'rinishini olib, o'zining o'sha go'zal fazilatini yo'qotadi,

qarzdorning oilasini qiynaydi, muhtojligini yanada oshiradi, tirikchiligi yanada og'irlashadi.

Endi qarz beruvchilarning imtihoni haqida: namanganlik bir yaxshi odam toshkentlik do'stiga katta miqdorda qarz bergan ekan. Qarz berish jarayoni shariatga ko'ra, ikki er kishi guvoh ishtirokida bo'lgan. Qarzni qaytarish muddati aniq belgilangan. Lekin qarzdorning ishiyurishmay, pulni o'z vaqtida qaytara olmagan. Oradan oylar o'taverib, qarzni qaytarish muddati bir necha marta ortga surilgan. Oxiri namanganlik yaxshi kishi ikki guvohni yoniga olib, qat'iy talab qilish maqsadida Toshkentga kelgan. Qarzdorning uyiga kelib qarasaki, u og'ir xasta. Qarzdandan so'z ochmay, bemorni bezovta qilmay izlariga qaytadilar. Shunda odamiylik fazilatlariga ega bo'lgan u yaxshi odam hamrohlariga deydi: «Sizlar qarz berayotganimda guvoh edinglar, yana guvoh boling- larkim, men bu qarzdandan kechdim!» Olijanoblikning oliy namunasi shunday bo'ladi! Ular Namanganga qay- tishgach, insof egasi to'sat dan vafot etadilar. Buxabarni eshitgan qarzdorning o'g'illari ta'ziyaga kelib, ma'us- lanadilar. «Otamiz bu kishidan qarz edilar», deb yig'lash- ganida guvohlar marhumning qarzdandan kechganini malum qilib, ularni xijolatlikdan qutqaradilar.

Biz-chi? Biz shunday qila olamizmi?

Qarz-oldi berdisida chetlab o'tish mumkin bolmagan yana bir muhim masala bor, Birovga qarz berib, hojatini ravo qilish savob. Ammo bergan bir so'mini ikki so'm qilib qaytarib olish og'ir gunohlardan hisoblanadi. Tilimizda «sudxo'r» degan atama mavjud. «Sud» - «foydali», «bahra», «naf» degan ma'nolarni anglatadi. «Sud ayla» deyilganda «foydali yetkaz», «sudmand» deyilganda esa «foydali» degan ijobiy ma'nolar tushuniladi. «Sudanpesh» - foyda ketidan quvuvchi, «**sudxo'r**» esa **foydali yeyuvchi** degan salbiy ma'nolarni beradi. Qur'oni Karimda bu ma'nodagi atama «ribo» deb bayon qilinadi. «Ribo»ning arab tilidagi lug'aviy ma'nosi «ziyoda», «oshiqcha» demakdir. «Sudxo'r» deymizmi yo «riboxo'r» deymizmi, baribir, har ikkisi ham

bir xil gunohkor, o'zganing molini nohaq yeydigan kishiga berilgan nomdir.

Rasululloh (s.a.v.) buxususda aytdilar: «Kumush o'ziga teng kumush bilan ayirboshlanadi, ortiqchasi sud- xo'rlikdir. Bug'doy o'ziga teng bug'doy bilan ayirboshlanadi, ortiqchasi sudxo'rlikdir». Keyin donni, xurmoni va tuzni ham zikr qildilar. So'ng aytdilar: «Kim ziyoda qilsa yoki ziyoda qilishni so'rasa, ribo qilibdi».

Qarz bertivchining qarzdordan ma'lum vaqt muqobiliga asl moli ustiga oladigan foydasi harom hisoblanadi. Hozirgi «zamonaviy tibda bu amal «protsent olish» deb ta'riflanayapti. Qarz so'ragan odamga qarz berguvchi «ustiga o'n (yoki yigirma, o'ttiz...) foiz qo'shib qaytarasan», deb shart qo'yadi. Ya'ni, yuz dollar olgan odam qarzini bir yuz o'n dollar qilib qaytaradi. O'sha o'n dollarni «ribo» deymiz va bu foydani yeyish harom hisoblanadi. Ustiga foiz qo'yib qaytarish - riboning eng oson usuli. Bugungi oldi-berdi muomalada dahshatli shartlar bor: «Ikki haftadan so'ng olgan pulingning ustiga o'n foiz qo'shib qaytarasan, belgilangan kunda qaytarmasang, har bir kuniga yana besh (balki o'n) foiz qo'shib boraveradi!» Omma tilida «schyotchikka qo'yildi» deb ataluvchi bu shart qarzdorni tamomila xarob qilib tashlaydi.

Qarang, bir bechora muhtojlik yuzasidan qarz so'rayapti. U ayni choqda so'rayotgani yuz ming so'mni topishga ham ojiz. O'n (yoki yigirma) kundan keyin shu miqdordagi qarzni qaytarsa ham katta gap. Lekin undan bir yuz o'n ming so'm qilib qaytarishni shart qilib qo'yishgan. Muddatida bu mablag'ni topa olmadimi, demak, bir hafta-o'n kun orasida qarzi ikki, hatto uch barobarga ko'payadi... Shu insofdanmi? Bir bechorani qaqshatib topilgan foyda - harom luqma do'zax oloviga boshlashini banda nahot bilmasa?

Sirtidan, yuzaki qaralsa, savdogar bilan sudxo'rning kasbi-kori bir-biriga yaqinga o'xshab ko'rinadi. Holbuki, unday emas. To'g'ri, «kimdan qarz ko'tars am ekan?» degan

muammo yuzaga kelganida ko'pchilik savdogarga murojaat qiladi. Chunki savdo ahlida ozmi-ko'pmi, doimo pul boladi. Ehtimol, savdogarlar orasida kimdir riboxo'rlik ham qilar. Lekin shu bahonada savdo ahlini sudxo'rlar bilan bir gunoh qayig'iga o'tqazib qo'yishimiz adolatdan emas. Mana shu holatni inobatga olgan savdogar tijorat qilish uchun zarur bolgan miqdordagi ilmni egallashi lozim. Sudxo'rlik bilan yemaslik, halol va harom orasini ajratish, moliga haromni aralastirmaslik, harom moldan saqlanish, to'g'rilik va yolg'onchilikni bilib olish, sunnat va bid'atni farq qilish, kufr va iymonni ajratish uchun ilm olish zarur bo'ladi. Agar bunday ilmdan bebahra bolsa biron kishi qarz so'rab kelib «hojatimni chiqarsangiz, falon so'm foydasini ham berib xursand qilaman», desa bu «xursand bo'lish» evaziga gunohga botib qolishini bilmaydi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) buxususda aytganlar: «Kim din ilmini o'rganmasdan oldin savdogarlik qilsa, u riboga tushibdi, riboga tushibdi, riboga tushibdi!» Ya'ni, unga cholrib ketibdi.

Nafs bandalari pul-mollari yanada ziyoda bolishi uchun sudxo'rlik qiladilar, cho'ntakka tushayotgan foydani tiyinma-tiyin sanab, ko'payayotganidan quvonadilar. Aslida esa sudxo'rning puli hisob jihatidan ko'p bolsa ham, uning barakasini ko'tarilib, yegani o'ziga yuqmaydigan qilib qo'viladi. Sudxo'r turli xastaliklarga duchor qilinadi, tinchligi, xotirjamligi olinadi. Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Ribo garchi ko'paysa ham, oqibati, albatta, ozayishga qaytadi», deb ogohlantirganlar.

Nochor odamlarning boyishini sabr bilan kutish alo fazilat, bu qarzni kechib yuborish esa undan ham aloroq. Payg'ambarimiz (s.a.v.) bu xususda bunday deganlar: «Kimki O'zining himoyasidan boshqa himoya bolmagan kunda Alloh uni O'z himoyasiga olishini xohlasa, nochorga yengillik tug'dirsin yoki undan kechib yuborsin». Yana deganlarki: «Odamlarga qarz beradigan bir savdogar bor edi. Agar nochor kishini ko'rsa, xizmatkorlariga undan kechib yuboringlar, shoyadki, Alloh Taolo bizdan ham

kechib yuborsa, der edi. Alloh Taolo uning gunohlarini kechdi».

Islomdagi awalgi johiliyat zamonasida sudxo'r boylar kambag'allarga foiz evaziga qarz berar edilar. Hofiz ibn Kavsar (r.a.) rivoyat qilishlaricha, berilgan qarzning muddati tugab qolganda qarz beruvchi qarzdordan «Yoki qarzingni tola yoki riboni ko'paytir» deb talab qilar ekan. Tolasa toladi, bolmasa, qarz muddatini cho'zish evaziga riboning miqdorini ham ko'paytirar ekan. Bechorani ado qilolmaydigan qarzga botirib qoyib, to olguncha foizini olib yer ekan. Shunday nafsi buzuq insonlarga qarata Alloh «Az'ofan muzo'afatan» - foizni ustama, ziyoda qilib olib yemanglar, deydi. Bundan «ozgina yeyish halol» degan ma'no anglashilmasligi kerak. Nafsi buzuq ayrim kimsalar mazkur oyatni ushlab olib «Alloh Taolo Qur'oni Karimda: «Riboni bir necha barobar qilib yemang», degan, demak, bir necha barobar oshirmay, malum foiz yesa bo'laveradi, degan da'volarni ham qiladilar. Bu johillikdandir, Alloh harom etgan narsani o'ziga halol qilib olish yo'lidagi g'arazli harakatdir. Boshqa oyatlarda riboning hatto sarqitini ham tark etish buyurilgani holda ozgina riboga ijozat berilar ekanmi? Bundaylarga yo'g'on mixning ham, qildek ingicha ignaning ham ko'zni ko'r qilishi mumkinligini yana qayta eslatib qo'vsak, foydadan xoli bo'lmas.

Payg'ambarimiz (s.a.v.) riboni olganni ham, berganni ham, ribo olish-berishida guvohlik va kotiblik qilganni ham la'natlaganlar. Shundan ko'rinadi-ki, gunohkor faqat sudxo'rning o'zigina emas ekan. Pora olgan va bergan qanday gunohkor bolsa, sudxo'r bilan bir qatorda ribo evaziga qarz olishga rozi bo'lgan ham, bu jarayonga guvohlik qilganlar ham jazoga loyiq ekanlar. Agar foiz xususidagi ahdlashuv ikki tomon o'rtasida og'zaki hamda pinhona ravishda qilinib, guvohlar va kotib bu noloyiq ahdlashuvdan bexabar bolsalar ularga gunoh yo'qdir. Agar bu ahdlashuvni eshitib qolsalar yoki sudxo'r bu qarorni xatga tushirishni talab qilsa, uni bu gunohdan

qaytarishga urinib ko'rishlari zarur. Qaytmasa, guvohlik va kotiblikdan voz kechganlari durust. Rasululloh (s.a.v.) «Riboning yetmish ikki eshigi bor. Gunohligijihatidan eng yengili ham kishining o'z onasi bilan aloqa qilgani kabidir. Holbuki, chinakam foizning eng og'iri, kishining o'z musulmon birodarining iffati va nomusiga tegishidir», deb ogohlantirganlar.

Vijdonli bir kishining nomusi va hurmatiga tajovuz qilish... O'z onasiga nikohlanishni odam tasawuriga ham sig'dira olmaydi. Demak, sudxo'rlikning gunohi ham tasawurga sig'mas darajada! O'z onasi bilan aloqa qilgan mal'unni dunyo qonunlari jazoga tortmaydi. Ammo birovning nomusiga tegish, hurmatini poymol etishning jazosi bor. Ajabki, riboning jazosi yo'q. Jazoning bu foniy dunyoda yo'qligi jazodan butunlay qutulib qolish mumkin, degan gap emas. O'zingiz o'Vlab ko'ring: sharafli hadisda qayd etilganiga ko'ra, kishining bergan qarzi evaziga bir chaqa bolsa-da foiz olishi Alloh Taoloning nazdida o'ttiz olti marta zino qilganning gunohidan ham yomonroq ekan, jazodan qutulib qolishi mumkinmikin?

Riboxo'rlik ikki kishining orasida bolib o'tadigan kichik gunoh emasligi ayon. Eng muhimi - bu gunoh amal jamiyatga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi-ki, buni ham unutmazlik shart. Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Qaysi jami- yatda ribo keng tarqalsa, u millat yetishmovchilikka muhtalo boladi», deb ogohlantirganlar.

Abdurahmon ibn Sobit aytadilar: «Qavm to'rt narsani halol sanasa, uning halok bolishiga izn beriladi: tarozidan urishni; olchovdan kamaytirishni; zinoni oshkora qilishni; riboni yeyishni. Zinoni oshkor qilsalar - ularga vabo yetadi; tarozidan urib, olchovdan kamaytirsalar - yomg'irdan mahrum boladilar. Agar ribo yesalar - ularga qilich yalang'ochlanadi».

«Qarz» atamasining faqat moddiy emas, ma'naviy ma'nosi ham mavjud. Masalan, amakingiz dadangizga yoki bir do'stingiz siz orqali boshqa birodariga salom aytib yuborsa, bu salomni egasiga yetkazish zimmangizdagi

qarz (ba'zan buni «omonat» deb ham ataydilar) hisoblanadi. Ota-onaning farzandni boqishi, tarbiya qilishini ham o'ziga yarasha qarz deb anglamoq mumkin. Garchi tilimizda buni «qarz» emas, balki «ota-onaning vazifasi» tarzida bayon qilishga o'rgangan bo'lsak-da, ma'noda farq yo'qdir. Bu o'rinda qarz ota-onaning o'zigagina qaytarilmaydi. Buni qanday tushunamiz? Ota- onangiz sizni boqdilar, tarbiyaladilar. Yaxshi tarbiya berganlari tufayli siz ulg'ayganingizdan so'ng ularga mehribonlik qilasiz. Shuning barobarinda o'z farzand- laringizni boqib, tarbiyalashingiz ham ota-ona zim- mangizga ortgan qarzdin qutulishning bir ko'rinishidir. Buni o'ziga xos robita desak ham boladi. Bir kishi har kuni uchta non sotib olar ekan. Buning sababini so'rashganida u: «Bitta nonni qarzinga, ikkinchisini qarzga beraman, uchinchisini esa o'zimyeyman», degan ekan. Bu hikmatning ma'nosi: nonni qarzi evaziga berishida - ota-onalari nazarda tutilyapti. Qarzga berishi

- o'z farzandlarini boqishidir. Albatta, bu o'rinda ramziy ma'no bor. Hech bir ota-ona farzandiga «seni qarzga boqyapman, vaqti kelganda qaytararsan», deb minnat qilmaydi. «Bolamni umid bilan tarbiya qilyapman, qariganimda rohatini ko'rayin», degan xayrli niyati boladi va bu umidini bolasini asraganday avaylaydi.

Birovdan pul olib qaytarmagan odamning qanchalik gunohkorligini bilamiz, ma'naviy qarzdin bo'lin tovlagan kimsaning gunohi esa yanada ko'proqdir. Salomga alik olish, yaxshilikka yaxshilik qaytarish ham ma'naviy qarz doirasiga kiradi-ki, bunga e'tiborsizlik bilan qarash kishini gunoh botqog'iga botirib qo'ishi mumkin. Ilm olishni ham shu doiraga kiritish mumkin. Ustozdan olingan ilm shogirdlarga qaytarilsagina, ma'naviy qarz bo'indan soqit boladi.

Moddiy qarz oldi-berdisiga doir barcha masalalarni muxtasar tarzda qamrab olish g'oyat mushkul. Ayniqsa, banklar faoliyatiga doir juda ko'p savollarni eshitamizkim, bu va bunga o'xshagan savollarga aniq javob berishga

kaminada mavjud ilm kifoya qilmaydi. Hayotda qarzga doir yechimi qiyin masalaga duch kelinganda muhtaram ulamolarimizdan, shuningdek, diniy idoramiz arboblardan javob olinsa maqsadga muvofiq bolur.

Endi kundalik hayotimizda ro'y berayotgan, ko'p noroziliklarni hatto jinoyatlarni tug'dirayotgan omonatga xiyonat illati haqida gaplashib olsak. Aslida bu haqda avvalgi suhbatlarimizda ham to'xtalgan, turli hikoyatlarni misol tariqasida bayon qilgan edim. Endi mavzuga batafsilroq to'xtalib, avvalgi bayonlarni yangilari bilan toldirsam.

*Birovning molini olma omonat,
Xizmatini o'zingga bo'ladi tuhmat.
Kishining kiyimi turmas ustingda,
Odamsan, odamga qilma xiyonat.*

«Omonat» so'zi «ishonib topshirilgan narsa» ma'nosini anglatadi. Kimsaga saqlash uchun topshirilgan har bir narsa omonat hisoblanadi. Ammo omonat faqat mol- buyumga nisbatan emas. Shariat takliflari va «Alloh» Taoloning farzlari ham omonat hisoblanadi. Ahzob surasida «Biz omonatni osmonlarga, Yerga va toglarga taklif etdik...» deyilganda aynan toat-ibodatlar nazarda tutilgan. Payg'ambarimiz (s.a.v.) vado xutbalarida marhamat qildilar-ki: «Sizga bir omonat qoldiraman. U omonatni saqlasangiz, to'g'ri yo'ldan adashmaysiz. Bu omonat - Allohning kitobi Quroni Karimdir!» Demak, Qur'on musulmonlarga omonatdir. Bu omonat ko'z qorachig'iday asralib, kelajak avlodlarga topshirishi kerak. Dindan, Qur'ondan tashqari jon ham insonga omonatdir. Shu bois birov vafot etsa, «omonatini topshirdi», deymiz. Ya'ni jonni bergan Alloh Taolo vaqti kelganda bu omonatini qaytib oladi. O'z-o'zini o'ldirgan kishilar Alloh Taoloning bu omonatiga xiyonat qilgan boladilar va qay tarzda xiyonat qilgan bolsalar, do'zaxda shunday jazo oladilar. Ya'ni, o'zini yoqqan tinmayyonadi, osgan har kuni osilib

olish azobini totadi... Demak, jismni turli xastalikdan ixota etish ham omonatni saqlash turlariga kiradi.

Bandaga topshirilgan vazifalar, burchlar ham omonat sanaladi. Banda bu ishlarni, burchlarni sidqidildan bajarishi kerak. Agar loqaydiik, erinchoqlik yoki mensimaslik bilan ado etilsa ham, omonatga xiyonat hisoblanadi.

Davlat va xalq mulki ham omonatdir. Deylik, transport vositasiga zarar keltirish, hatto chizib qo'yish ham omonatga xiyonatdirki, bunday shumliklardan ayniqsa bolalar va yoshlar o'zlarini tiyishlari kerak. Hazrati Umar (r.a.) uylarida davlat ishlari bilan mashg'ul ekanlarida Abdurahmon ibn Avf (r.a.) kelib qoladilar. Shunda hazrati Umar (r.a.) shamchiroqni o'chirib, boshqasiniyoqadilar. Mehmon bundan ajablanganlarida: «Siz kelganingizda davlatga tegishli shamni yoqib, davlat ishlarini bajarayotgan edim. Siz bilan suhbatimiz - shaxsiy ish, shu bois o'zimning shamimni yoqdim», deganlar.

Insonga oilasi, bolalari ham omonat. Ularni har tomonlama tarbiya etmoq shu omonatga sodiqlikdir.

Sir sifatida aytilgan so'zlar ham omonat. «Saqlasang- sir senga asir, saqlamasang - sen sirga asir», «Bir oqil aytarmish, tingla qarindosh, siringni fosh etma, kerak bolsa bosh», deydilar. Omonatni saqlamagan va zarar yetkazib xiyonat qilgan kimsani «xoin» deb ham ataydilar. Xoinlik esa harom amallardan biridir.

Xalifa hazrati Umar (r.a.) Madinayi munawaradan Makkayi mukarramaga yolg'a tushdilar. Bir yerda dam olgani tobrtadilar. Cho'pondan: «Qo'ylaringning bittasini bizga sot», deb so'radilar. Cho'pon: «Sotolmayman, suruvning egasi men emasman», deb xalifaning iltimosini rad etdi. «Bittasini soy, pulini olasan», dedi harnrohlardan biri. «Aytdim-ku, qoyiarning egasi men emasman, men faqat cho'ponman». Shunda harnrohlardan yana biri: «Sotaver, egasiga «bo'ri yeb ketdi», deya qolarsan», dedi. Shunda cho'pon: «Xo'p, qoyning egasini aldarmiz, lekin Allohni alday olamizmi?» dedi.

Soglom bir e'tiqodga, butun bir iymonga sohib kishi omonatga sira xiyonat qilmaydi.

Luqmoni hakimdan so'radilar:

- Birovning qora badanli cho'poni edingiz, ulug' darajaga sizni nima kotardi?

Javob berdilar:

- Doimo to'g'ri so'zladim, omonatga xiyonat qilmadim, ma'nosiz behuda so'zlashdan chekindim. Mana shu uch xislat meni ulug' darajaga ko'tardi.

Zamonning ulug'laridan Shamsiddin sohibi devon bir kuni besh yuz dinor bilan bir dastor (salla)ni shayx Sa'diyga sovg'a qilib yubordi. Uni olib borayotgan Husayn ismli kishi omonatga xiyonat qilishdan o'zini tutolmay, puldan bir yuz ellik dinorni olib qo'ydi. Shayx Sa'diy sovg'ani olgach, minnatdorlik sifatida bu qit'ani yozib jo'natdilar: ^

*E menga yuborgan kishi shuncha mol,
Moling ko'paysin-u, dushmaning zavol.
Yaxshi yo yomonning fazlin bilursan,
Yaxshilar hech qachon topmagay zavol.
Yuborgan dinoring miqdoricha sen,
Uch yuzu ellik yil doim boqiy qol.*

Oradan kunlar o'tdi. Bir kishi sohibi devonni duo qilayotganida o'sha xiyonatkor Husayn ham uning yonida edi. Duo qilayotgan kishi sohibi devonga qarab:

- Umring besh yuz yilga yetsin, - dedi.

Shunda Shamsiddin Husaynga qarab olib, dediki:

- Agar Husayn yuz elligini bersa...

Hikoyat. Bir savdogar har kimning molini saqlab berar, buning evaziga haq olib, ro'zg'or tebratar edi. Bir kuni shayton vasvasasini yengolmay, omonatga xiyonat qilib qo'ydi. Bu hoi barchaga ma'lum bo'lib, undan yuz o'girdilar. Savdogar yakkalanib, ishlari orqaga ketdi. Qarzga botdi.

Savdogarning o'g'li aqlli va dono edi. Otasining ahvolidan xabar topdi, ammo yordam berarga imkoni yo'q edi. O'g'il podshohning lashkarboshisiga qo'shni edi. Ittifoqo, podshoh lashkarboshisini urushga jo'natadigan boldi. Lashkarboshi safarga jo'nash oldidan savdogarning o'g'lini huzuriga chaqirdi-da, qoliga o'n ming dinor oltinni topshirib dedi:

- Bu senga omonat. Agar omon qaytsam, seni ko'p xursand qilurman. Jangda shikast topib, o'lsam, bu omonatning o'ndan biri senga haloldir. Qolganini farzandlarim ehtiyoj sezishganda berasan.

Lashkarboshi tilxat ham, guvoh ham talab qilmay, jo'nab ketdi. Ko'p o'tmav urushda halok boldi. Yigit uning olimidan xabar topgandan keyin ham omonatni bezarar saqlayverdi. Bir kuni savdogar o'glidagi omonatdan xabar topib, dedi:

- O'glim, kambag'alchilikdan azobdaman. Qolimizda shuncha naqd oltin bor ekan, bir miqdorini olib, qarzlrimdan qutulayin, qolganini tiriklik yolida sarflayin. Baribir, bu oltinlami sendan talab qiluvchi biror muayyan kishi yo'q-ku?

Otasining iltijosini eshitib, yigit bosh chayqadi.

- O'zingiz omonatga xiyonat qilib, shu ahvolga tushdingiz. Men esa jonim ketsa-da, omonatga xiyonat qilmay man.

Shu voqecadan keyin bir necha vaqt o'tgach, lashkarboshi xonadoni yo'qchilikni his qila boshladi. Farzandlarning ahvoli mushkullashdi. Bir kuni ular yigitning huzuriga chiqishib, podshoh nomiga ariza yozib berishini iltimos qildilar. Arizada otalarining yaxshi xizmatlari va sadoqati evaziga hukmdordan yordam so'radilar. Yigit yozib berdi. Podshoh arizani o'qib ko'rgach: «Har kim oldirilgan bolsa, u kishining nomi baytulmol daftaridan o'chiriladi», deb, iltimosni rad etdi. Farzandlar saroydan noumid bolib qaytdilar. Yigit ularning ma'yus chehralariga boqib, ahvallari g'oyat nochor ekanini anglagach, lashkarboshining vasiyatini bildirdi:

- Otalaringiz menga omonat mol topshirib, ushbu moldan o'ndan biri seniki, deb vasiyat qilgandilar. Yana degan edilarki, «farzandlarimning ahvoli yomonlashgan taqdirda bu oltinlarni ularga topshirursan». Men to shu damgacha xiyonat qilmay, mollaringizni saqlab keldim. Otangizning muhri bosilgan hamyon saqlanib kelinmoqda. Mana endi sizlarning og'ir ahvolingiz, ehtiyoj- laringiz menga ma'lum. Endi molni qo'llaringizga topshirsam bo'ladi. Menga vasiyat qilingan ulushni o'z qo'llaringiz bilan berarsiz».

Yigit shunday degach, hamyonni olib chiqib berdi. Ular ming oltin sanab, ulushini rizolik bilan berdilar. Shundan so'ng ularning ahvoli yaxshilandi.

Oradan bir qancha muddat o'tgach, podshoh marhum lashkarboshisini esladi, farzandlarining ahvoli bilan qiziqdi. Saroy a'yonlari marhum lashkarboshining farzandlari turmushi ancha yaxshilanganini ma'lum qildilar. Podshoh «Axir, ular o'zlarining qashshoq ahvollari haqida arz etib kelgan edilar-ku?», deb ajablanib, farzandlarni saroyga chaqirtirdi. Ular kelishgach, hol- ahvol so'radi. Farzandlar bolgan voqeani bayon qildilar. Bu so'zlarni eshitgan podshoh:

- Omonatga xiyonat qilmay, diyonat bilan saqlamoq shunchalik bo'lgav. Birov kattagina mablag'ni boshqa birovga bersa va o'zi olib ketsa, molni talab qilib olguvchi bo'lmasa-da, u kishi o'zi qidirib kelib omonatini egasiga topshirsa! Bunday zot hamma sohada yetuk va mo'tabar shaxsdir, - dedi. Savdogarning o'glini saroyga chaqirtirib, unga shohona liboslar in'om etdi va xazinadorlik mansabini topshirdi...

Qani edi, barchaga bu komillik nasib etsa! Afsuski, shaytonning «xiyonat» degan quroli ham bor. Bu qurolidan tinmay o'q uzadi. Ba'zi o'qlar, ayrim bandalarga tegib, qalbini jarohatlab qo'yadi. Shu uchun hikmat ahli So'fi Ollohyor hazratlari aytganlariday: «Kel, e komil, kamol etsang diyonat, kishiga qilmagil hargiz xiyonat», deb o'git beradilar.

Rivoyat. Iskandar Zulqarnayn Eronga hujum qilib, Hamadon shahrini qamalga oldi. So'ngra Eron shohi Dorodan xiroj talab qildi. Doro lining talabini qabul etmadi. Shundan so'ng Iskandar jangni davom ettirishni ma'qul ko'rdi. Biroq, qancha urinsa-da, Doroni mag'lub eta olmadi. Nihoyat, makr-hiyla yo'liga o'tdi.

Doroning ikki eng yaqin, ishonchli quli bor edi. Doro ularni tarbiyalab, o'ziga vazir qilib olgandi. Iskandar hufyalarini yuborib, bu ikki vazirni huzuriga chorlatdi. Vazirlar bu daVatni jon-u dillari bilan qabul etib, Iskandar huzuriga keldilar. Iskandar ularni yaxshilib mehmon qilgach, muddaosini aytdi:

- Agar orzuyimning rotyobga chiqishiga yordam bersangiz, qilgan xizmatlaringiz uchun sizlarga engyuqori o'rinni hadya qilaman.

Vazirlar Iskandarning vazifasini bajarib, ertasiqayoq Doroni oldirdilar. Shaharga kirib kelgan Iskandar Doroni dafn etishni va maydonga ikkita baland dor qurib, ikki xoin vazirni osishni buyurdi.

Iskandardan zo'r mukofot, ayniqsa, baland martaba umidadagi xiyonatkorlar bu buyruqni eshitib qo'rqib ketdilar.

- Buyrug'ingizni bajo keltirsak, bizga eng yuqori o'rin berishni va'da qilgan edingiz. Endi va'daga vafo qilish o'rniga o'limga buyuryapsiz, shu ishingiz vijdondanmi?

- dedilar.

- Men vijdonsizlik qilmadim, o'zimga insof-adolatni rahbar qilib ish yuritmoqchiman, - dedi Iskandar. - To'g'ii, sizlarga engyuqori o'rin berishni va'da qildim. Mana endi shu va'daga vafo qilaman. Doro sizlarni tarbiya qilib yetishtirdi, nihoyat o'ziga vazir qilib oldi, ammo sizlar uning yaxshiliklari evaziga yomonlik qildingiz. O'z tarbiyachisiga yomonlik qilgan ko'mamak xoinlar, albatta, menga ham vafo qilmasliklarini yaxshi bilaman. Tuz haqini saqlamay, xiyonat ko'chasiga qadam qoyganlarga mana shunday mukofot beriladi. Mening qo'shinimda dordan yuqori o'rin yo'q, marhamat, endi o'z o'rningizni egallang.

Chindan ham, xiyonat munofiqlik bolgach, mukofoti nima bolsin?

*Xiyonatkim, kelur qo'ldinu ko'zdin,
Ayog'din, uzvi pinhondinu so'zdin.*

Xiyonat turlicha boladi: 1.Qol xiyonati - birovning narsasini o'g'irlamoq yoki harom a'zolami ushlamoq kabi qo'l vositasi ila boladigan ishlar bilan boladi. 2.Ko'z xiyonati - nomahramlar yuziga qarash kabi ko'z bilan boladigan ishlarda boladi. 3.Ko'ngil xiyonati-yaxshilarga yovuzlik niyat qilish yoki ulardan yovuzlik gumon qilish kabi ishlar. 4.So'z xiyonati - yolg'on so'zlash va glybat kabi illatlar kiradi. Xiyonatning yana bir turi: agar kishi olim bola turib, bandalarni ezgu yolga boshlamasa, yomon yollardan qaytarmasa u xiyonat aholidan sanaladi. Bundan ulug'xiyonat bolmas. Masalan, birov xato yolga kirib qolsa, biz esak ko'ra turib uni yaxshi yolga solmasak, bu qandayin insofu, qanday diyonatdir? Agar qarshimizda bir go'dak ko'rinib, uning yonib turgan otga tushib ketishini bilib tursag-u bu bolaga rahm-u shafqat qo'lini cho'zmasak, bizdayin kishi odamiylikdan bebahradir. Shunga o'xshab bir nodon bilmayin harom ishlarga qadam qo'ya boshlasa-yu, biz ko'ra-bila turib uning yoli buzuq ekanidan xabar bermasa, bu qilganimiz ulug' xiyonat boladi. Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Muxtasar qilib aytilsa, xiyonatning eng ulug'i va yomoni - ko'zing yoki ko'nglingga tushgan biror yomon narsani o'zingga ravo ko'rmay, yaqinlaringdan birining boshiga tushishini istab, sevinishingdir.

Xiyonatlarda orasida «birovning haqiga xiyonat» degani ham bor. Ba'zan ustalarning nolishini eshitib qolamiz: «Falonchi bizni ishlatib haqimizni bermay yuribdi», «Falonchi ishni buncha pulga gaplashib, yarmini ham bermadi»... Shunday nomardlarga bir sharafli hadisni eslatish kerak: «Xizmatkorning peshona terisi qurimasidan

xizmat haqini bering», dedilar Risolatpanoh (s.a.v.). Yana dedilar: «Ish haqini ishga olmasdan, ishlatmasdan oldin kelishib olinglar». Ishlatib bo'lgach, «Men senga shuncha beraman, olsang- ol, bolmasa toshingni ter!»yoki «Yaxshi ishlamading, yegan ovqatingni ham oqlamading, jo'na, kimga dod desang deyaver!» deganga o'xshash yaramasliklar bolmasligi uchun ham Nabiy muhtaram (s.a.v.) ummatlarini ogohlantirganlar.

Aziz umidimiz yulduzlari, mazkur suhbatlar bahonasida komillik saodatiga yetkazuvchi odamiylik mulki bilan tanishishimiz barobarida duo qilib, siz-u bizlarni shaytonning xiyonat o'qlaridan asrashini so'rab munojot qilamiz.

Halol va harom

Hayotda inson ba'zan halol (pok) va harom (nopok) ikki ayri yolga to'g'ri kelib qoladi. Ulardan qaysi birini tanlash uning aqliga, iroda kuchiga, vijdon amriga bogliq boladi. «Halollik bilan qilinmagan ish yaxshi bolmas, ip kalavasi hassabolmas», deganlar.

Umidimiz yulduzlari, ba'zilaringiz bolaligingizdanoq bozor ishlariga aralashgansiz. Dadangiz yoki ayangizga bozorda yordam bergansiz. Hatto savdo ham qilgansiz. Tijoratga doir talablarni bilmaganingiz holda dadangiz yoki ayangizning ko'rsatmalarini aniq bajargansiz. Odamiylikka doir ayrim masalalami yechishda sayozlikka yol qo'ysangiz jiddiy tanbeh berilmasa ham bo'ladi. Masalan, qarzga doir masalalarni yechishni asta-asta o'rganib boraverasiz. Lekin halol va haromning farqiga borish go'daklikdan o'rganiladi, sizning yoshingizda esa bu borada mukammal tushunchaga ega bolish shart. Sizda shunday darajadagi bilim yetarli, degan ishonchim bolsa-da, bu mavzuni chetlab o'tolmadim. Diqqat bilan o'qib chiqing-chi, balki bayonda sizga yangilik boladigan fikrlar, hikmatlar uchrab qolar.

Bir tanishim nolib qoldi:

«Bozordan ikki kilo yong'oq oldim. Sotuvchi opa chaqib ko'rsatgan yong'oq mazali, mag'zi to'q edi. Uyga kelib, mehmonlarga atab chaqib qo'yay, desam, ne ko'z bilan ko'ray-ki, deyarli barchasining mag'zi puch, ayrimlariga qurt tushgan... Shunda sotuvchi opaxonning nayrangini angladim. Birovning yaxshi yong'og'idan olib, xaridorni aldar ekan...»

Bu gapni eshitib, bolaligimni esladim. O'tgan asrning oltmishinchi yili edi. Anor bozorida xuddi shu kabi nayrangni ko'rib, katta odamlarning haromdan tap tortmasligini bolalik ongimga singdirolmagan edim. Aslida savdodagi bu nayrang qadim-qadimdan bor ekan. Qadim-qadimdan ayrim odamlar halol-haromning farqiga bormaydi, ayrimlari esa haromdan hazar qilmaydi. Aytaylik, yong'oqni aldab sotgan opa bolalarini boqish uchun boshqa chora topa olmabdimi? Boshqa daromad yolini bilmasmidi? Nima bolgan taqdirda ham topganiga harom aralashdi. Bundan topgan foydani bolalari yeydi. Men «halol-haromning farqiga bormaydi», dedim. Chindan shundaymi? Yo'q! Ko'p hollarda harom botqog'ini ko'ra turib, qadam bosadilar, cho'kib ketib, halok bolishlarini bilsalar-da, qaytmaydilar.

Atrofga qaraylik, kimningdir bolasi o'g'irlik qilib, qamalgan. Kimningdir bolasi jinoyat qilib qo'yib qochib yuribdi. Yana kimningdir qizi fahsh ko'chasiga kirib ketgan... Bu ko'rgiliklarning ildizi qayerdan suv ichadi? Yong'oq sotuvchi kabilarning bozordagi nayranglaridan emasmi? «Qozoningga mehnat hosilidan bolak harom- harish narsa tushmasin, bil'aks, uni iste'mol qilgan farzandlaring senga bemehr, bemuruwat bo'ladilar», degan oddiy haqiqatni bilmaydiganlar ko'pmi oramizda? Ha, sizga bu narsa arzimas bo'lib ko'rinyaptimi? Harom botqog'iga botib yotganlarga balo ham urmayapti, bu yong'oq mojarosi dengizdan bir tomchi-ku, demoq- chimisiz? Qaysi bir oshxona ombori tekshirilganda harom o*lgan mol go'shti topilibdi. Bu ham arzimas gapmi? Yana

zamondan, hayotdan nolib qolamiz-a! Halolga harom aralashaversa, birovning haqidan qoʻrquv hissi tanamizni bir marta ham jimirlatib qoʻlmasa, eng yomoni - bu tirikchilik vositasiga aylanib ulgurgan bolsa, *biz* qanday odam boldik?!

Rasululloh (s.a.v.) «Kim bizni aldasa, bizdan emas», deganlar. Ul muhtaram zot bozorni kuzatganlar. Bir marta savdogarning qopda turgan moliga muborak qollarini botirib, aralastirib koʻrdilar. Qarasalar, usti quruq, tagi hoi. Molning tagi yomon, usti esa chiroyli. Shunda: «Bunday qilma!» dedilar.

Savdoning, tarozuning, olchovning halol bolishiga oid oyatlargina emas, hatto sura ham bor. «Mutaffifun» (birovlarning haqidan urib qoluvchilar) deb nomlangan sura kofirlarga xos yomon xulqlardan biri - olchovda birovning haqidan urib qolish zikri bilan boshlanadi. Soʻngra fojirlar, ularning axloqlari, Alloh Taolo ularning qalblarini muhrlab qoʻyganligi haqida soʻz yuritiladi. Shu bilan birga abror-moʻminlar sifati haqida ham bayon qilinadi. Oyatlar maʼnosining tarjimasini bu tarzda bayon etilgan: «Olchov va tarozidan urib qoluvchi kimsalarga halokat bolgʻav (*Surayi karimadagi «vayl» soʻzi ikki xil maʼno anglatadi: birinchisi - ularning ahvoliga voy boʻlsin, ikkinchisi - «vayl» doʻzaxning nomlaridan biri. Yaʼni, oʻlchovdan urib urib qoluvchilarga «vayl doʻzaxu azoblari nasib boʻlsin, degan maʼnoni ham uqish mumkin*). Ular odamlardan biron narsani olchab olgan vaqtlarida tola qilib oladigan, ularga olchab yoki tortib bergan vaqtlarida esa kam qilib beradigan kimsalardir. Ular oʻzlarining ulugʻ bir Kunda- barcha odamlar butun olamlar Parvardigori huzurida tik turib hisob-kitob beradigan Qiyomat kunida qayta tirilguvchi ekanliklarini oʻylamay dilarmi?»

«Olchagan chogingizda toliq olchang va toʻgʻri tarozi ila torting. Ana oʻsha yaxshidir va **oqibati goʻzaldir** » («Isro» surasidan). Bu qalb pokligining alomatidir, oʻzaro ishonchga bogʻliq narsadir, xayr-baraka omilidir.

«Olchovni tola olchanglar va kamaytirib tortuvchilardan bolmanglar va to'g'ri tarozi bilan tortinglar. Odamlarga narsalarini kamaytirib bermanglar va yer yuzida buzg'unchilik qilib, sanqib yurmanglar» («Shuaro» surasidan). Tafsiir: Hijoz bilan Falastin o'rtasida Aqaba ko'rfazida yashovchi Madyan xalqiga Alloh Taolo Shuayb alayhissalomni payg'ambar etib yuborgan. Madyanliklar ichida olchovda aldab, birovning haqqini urib qolish avjida ekan. Ularning diyori savdo karvonlari o'tadigan asosiy markaz bolib, u yerda savdo rivojlangan. Bu qavm faqat tarozida emas, boshqa sohalarda ham birovning haqqini urib qolishga usta ekan. Shuayb alayhissalom ularni insofga chaqirganlarida ular ul zotni yolg'onchiga chiqardilar. Shunda Alloh Taolo ularni azobga tortdi. Olkani g'oyat isitib yubordi. Nafas olib bolmaydigan darajaga yetganda osmonda bulut ko'rinib, hamma uning soyasida orom topmoq istagida to'plandi. Shunda bulutdan chaqmoq chaqib, o't-olov chiqib, barchalarini kuydirib yubordi.

O'tmishda azobga tortilgan gunoh bugun jazosiz qolyaptimi? Bu voqeaga diqqat qiling-a: ulamolarimizdan biriga odamlar kelishib: «Olim to'shagida yotgan bir bemorimiz bor, dam solib qo'ying», deyishibdi. Tungi soat uchda borishsa, bemor behush, g'oyat og'ir ahvolda ekan. Ustoz kalimayi tahvid, kalimayi shaliodatni aytdirishga harakat qilibdilar. Bir mahal bemor hushiga kelib, debdi: «Nimaga meni majbur qilyapsiz? Ko'rmayapsizmi-ki, tarozining bosh qismidagi temirini tomoglmga sanchib- sanchib olmoqdalar!» Shunday degach, jon taslim qilibdi. Ustoz uning jon talvasasidagi gapidan ajablanib, buning sababini xotinidan so'rabdilar. «Bu haqda so'rab, yaramga tuz sepmang, ustoz, - debdi beva o'kinch bilan. - Erim tijoratchi edilar. Tarozilari ikkita edi. Kam ko'rsatadiganini mol sotib olayotganlarida, ko'p ko'rsatadiganini sotayotganlarida ishlatardilar». U kishi bir tarozida tortgan bir kilo mol ikkinchisida sakkiz yuz gramm chiqarkan. Shu tarzda xalqni aldab yashagan odamning ayanchli

o'limidan xabar topdingiz, shunday ekan, xulosa chiqarish o'zingizga havola. Har holda, o'sha savdogar «Halol, ishonchli savdogar payg'ambarlar, siddiqlar va shahidlar bilan birga boladi» deyilgan sharaflil hadisdan yo bexabar bo'lgan yo nazariga ilmagan.

Amir Temur hazratlari hayotlari davomida, xoh mamlakatda bo'lsin, xoh safarda, halol va harom masalasiga alohida e'tibor berganlar. Ul zotning xotiralaridan birida Bushraviya shahridagi ibratli voqea aks etgan, tanishib ko'ring-a:

«Baqqol dolconi oidida bir xotun kishi savdo olib turganiga ko'zim tushdi. Baqqol tarozuga qolini teguzmay turub: «Vaylul-lil mutaffifun. Allaziyna izak talu alan-nosi yastavfuna», deb oyat o'qudi. Men baqqolni, Qur'on o'qushni bilmasa kerak, deb xayol qilur edim. Xotun kishi, savdosini tugatib jo'nagandan keyin baqqolning oldiga borib: «O'qig'on oyatlarningning ma'nisini bilasanmi?» deb so'radim. «Ha, bilaman», deb javob berdi. Undog' bolsa, «Vaylul-lil-mutaffifun»ning ma'nosi nima?» deb so'radim. «Sotuvchilarga haloklik bo'lsun», deganidir», dedi. «Allaziyna izak talu alan-nosi yastavfuna» ma'nosi-chi?» dedim. Baqqol kishi tamom iste'dodi bilan javob berdi: «Bu oyatning ma'nosi awalgining takmilidur, Alloh Taolo aytadur: «Sotuvchilarga haloklik bolsunki, ular olchovni yaxshilab oladurlar, ammo...» deb to'xtadi. Men undan «Ammo» demak ila to'xtashdan maqsading nima?» deb so'radim. Baqqol: «Bu oyatdan keyin yana oyat bor, hali o'quganim yo'q, unda mukammal ma'noni anglatadur», dedi. Men: «O'sha oyatni ham o'qug'il», dedim. U bunday o'qudi: «Va iza kalu hum av-vazanu humyuksirun». So'ng sharh qilib: «Bu oyat ikkinchi oyatning takmilasidur, ma'nosi: «U odamlarki, o'zlari bir jins molni olganlarida vaznni tamomlab tortib oladi, sotishda esa, vazn yoki olchovda kam berib, olg'uvchiga ziyon beradi», deydur. Bu suradagi uch oyatni o'quvchi kishilar, bir-biriga muttasil o'qishlari kerak, toki o'qug'uvchi va eshitguvchilar uning ma'nosini yaxshi idrok qilg'aylar», dedi. Men unga:

«Ey yaxshi kishi, mening yoshligimdagi ustozlarim ham sen kabi Quronni yaxshi tafsir qilolmas edilar. Sen bu mavqeda nima uchun bu oyatni o'qiysan?» deganimda, javob berdi: «Ey amirlar amiri, men har vaqt qo'lumga tarozi olsam, Alloh taoloni hozir-u nozir bilib, Allohning maxluqlariga nuqson berib qo'ymayin, deb bu oyatni takrorlab turadurman», dedi».

«Mutaffifun» surasidagi oyati karimaning o'zbekcha ma'nosi bilan yuqorida tanishgan edik. Amir Temur hazratlarining bayonidagi voqea bandalarning mazkur suradagi vazifalarga qanday ziyraklik va vijdon ila amal qilganlariga aniq misoldir.

Bir imoratni ta'mir etayotgan buyoqchi ustalar ishlatilgan idishlarni pachoqlab tashladilar. «Nega pachoqladingiz, biron nimaga, masalan, gul tuvak o'rnida ishlatsa bolar edi-ku?» degan savolga javob berdilar: «Bu idishlar bozordagi noinsoflar qoliga tushsa, ichiga sifatsiz va arzon bo'q solib, xorijniki, deb qimmatga sotishadi». Ustalarga rahmat aytib, noinsoflarga insof tilaymiz! Afsuski, bunday ko'zboyamachilik boshqa sohalarda ham ko'p uchrayapti. Mahsulotning idishi xorijniki, kiyimning yorlig'i mashhur firmalarniki, aslida esa sifatsiz bir matoh. Buyoqyoki kiyimga doir nayranglarga odamlar chidarlar, lekin dori-darmon, oziq-ovaqt sohasidagi bu yara- masliklardan u noinsoflar nechun qaytmaydilar? Million- million odamlar bu haromxo'rlarni la'natlayaptilar. Nahot ular qarg'ishdan qo'rqmasalar?!

Makkayi mukarramada mehmonxonadagi kichik hammomdan yuvinib chiqqan hoji hamxonalariga: «Sovun olib kirishni unutibman, kimningdir sovunidan foydalandim, rozi bo'linglar», dedi. Bir qarsangiz, arzimagan narsa, aslida esa so'ralmasdan olib ishlatilgan narsa harom ekanligini har bir odam bilishi va amal qilishi shart.

Ibrohim bin Adham hazratlari bir kuni «Baytul muqaddas xodimlari meni masjididan chiqarishmasin», deb bo'Vraga o'raldilar. Yarim kechada masjid eshigi ochilib,

bir pir ichkari kirdilar. Mehrobgga o'tib, ikki rakaat namoz o'qidilar. Yana qirq kishi kirib keldi. Bittasi: «Bu yerda bir kishi yotibdir, bizdan emasdir», dedi. Pir kulimsirab, «Adham o'glidir. Qirq kundir-ki. ul o'qigan namozining totini bilmas», degan edilar, Ibrohim bin Adham bo'yradan chiqib, piring huzuriga salom berib bordilar. Bu holatining sababini ne ekanini Alloh Taolo rizosi uchun aytmog'larini so'radilar. Pir dedilarki: «Falon kuni xurmo olayotib, yerdagi bir xurmo seniki bo'lmagani holda, meniki, deb olib yeding - sabab shudir». Shu javobni olgani hamon xurmofurushga borib, halollik tiladilar. Do'kon sohibi uning so'zlarini eshitib, bir faryod ko'tardi. Do'konini tashlab, tark etib, darvishlardan boldi.

Rivoyat. Hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning suyuqli sahobalaridan biri Abu Dardo (r.a.) barcha namozlarni Masjidi nabaviyada, Rasululloh (s.a.v.)ning ortlarida turib o'qishga harakat qilardilar. Shuning uchun masjidga erta kelib, kech qaytardilar. Rasuli akramning (s.a.v.) namozdan keyingi suhbatlarini diqqat bilan tinglardilar. Biroq, xurmo terish mavsumi boshlanganida Abu Dardo (r.a.) awalgidan kechroq kelib, ertaroq ketadigan boldilar. Bu hoi Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning diqqatlarini tortdi. Abu Dardon (r.a.) yonlariga chaqirib:

- Sening masjidga kelib-ketishingda bir o'zgarish ko'ryapman. Nima boldi? - deb so'radilar.

- Shu kunlarda qo'shnimizning xurmo daraxti mevalarini to 'ka boshladi, - dedilar Abu Dardo (r.a.), uzrli ohangda. - Xurmolar bizning hovliga ham tushyapti. Bolalarim qo'shnimdan beso'roq ularni yeb qo'Vishmasin, degan xavotirdaman. Bomdodga kelishdan oldin toldlgan xurmolarini to'plab, qo'shnimning bog'iga o'tkazib qo'Vaman. Shu sabab masjidga kech kelyapman. Men masjiddaligimda ham daraxtlardan xurmo toldladi. Ularni yig'ib, qo'shnimnikiga qo'yish uchun shoshilaman. Shunday qilsam, bolalarim harom yemaydi, qo'shnimga ham zarar yetmaydi.

Rasululloh (s.a.v.) Abu Dardoning (r.a.) bu so'zlaridan mamnun boldilar va uning haqqiga duo qildilar.

Shu rivoyatni o'qigan kunim ta'sirlanib, juma namoziga chiqdim. Ajabki, juma ma'ruzasi ham shu mavzuga bag'ishlandi. Yanada ajablanarlisi, namozdan qaytishda boldi. Bir necha daqiqa ilgari halol luqma xususida va'z tinglagan birodarlarimizning ayrimlari ko'chadagi daraxtlarning shoxlarini egib, mevasidan uzib, yeb borardilar. Biz bolalardan ranjiymiz. Aslida bolalardan emas, ularga halollikdan dars bermayotgan va yomon o'rnak ko'rsatayotgan kattalardan ranjishimiz kerak.

Xuddi shu kuni menga bir yigit qo'ng'iroq qilib, uchrashishi zarurligini bildirdi. Uyga taklif qildim. Notanish yigit aytilgan vaqtda keldi. O'zini tanishtirib muddaosini aytdi:

- Bir do'stimizning takliflari bilan amakilarining Chorvoqdagi bog'iga bordik. Kalitni unutib qoldirganlari uchun sizning bog'ingizdagi shiyponda hordiq chiqardik. Bilishimizcha, sizning eshigingiz doimo ochiq turarkan. Olxo'ringiz g'arq pishgan ekan, men ham yerga tolcilganlaridan olib yedim. Kelishimdan maqsad: o'sha yeyilgan mevalar uchun sizdan rozilik so'rash. Ularni yeyish men uchun halol emasdi.

Bu gapdan hayratga tushdim. Yigit men uchun zamondosh emas, balki o'qarab rivoyatlaridagi pokiza dilli bir inson bolib ko'rindi. Yigitni xijolatlikdan chiqarish uchun dedimki:

- Rizolik so'rab kelmaganingiz taqdirda ham u mevalar siz uchun halol edi. Chunki «mevalardan kim yesa yesin, roziman», deb awaldan aytib qoyganman, eshikning ochiq qoldirishim ham shundan. Bog'dagi mevalar sotish uchun emas, yeyish uchun. Oilamiz uchun ortiqchalik qiladi. Kim yeb lazzat olsa, biz uchun savob-da, - dedim.

Yigit yana qayta-qayta rozilik so'radi. Har safar roziligimni takrorladim. Sezib turibman-ki, yigitning ko'ngli ravshanlashmayapti. Shundan so'ng halol luqma haqidagi rivoyatlardan so'zlab berdim, uning ota-onalari

haqiga duo qildim. Yigit uyiga taklif qildi. Bordim, dadalari bilan tanishdim.

Endi muddaoga o'tsam, demoqchimanki, hamma ham ko'chadagi mevalarni uzib yeb ketavermaydi. Oramizda halol-haromni farqiga boradiganlar ko'pkim, buning uchun ham shukrlar qilamiz. Faqat shukrlar qilib qolmay, shunday halol yigitlardan awalo o'zimiz o'rnak olishimiz, farzandlarimizni, qarindoshlarimizni, qo'shnilarimizni ham shu yigit kabi tarbiya topishiga hissamizni qo'shishimiz kerak. Halol luqma faqat o'zimizga foyda emas, balki jamiyatimizningpokligiga ham xizmat qiladi. Shuni unutmasak bas.

Umidimiz yulduzlari, suyuqli ukajonlaringizning odatlari sizlarga ma'lum: barchalari shirinlikni yaxshi ko'rishadi. Berkitib qotyilgan shokoladni yashirincha olib yeyish siz uchun yangilik emas. Bir necha yil muqaddam o'zingiz ham shunday bo'lgansiz. Bundan oltmish- yetmish yillar awal buvijonlar shirinqandlarni sandiqda saqlasalar-da, sandiqni teshib oluvchi azamat bolakaylar topilardi. Demak, bu odat yillar bo'yi o'zgarishsiz davom etib kelyapti. Biron bir narsani - u shokolad boladimi yo bananmi, so'ramasdan olish, yumshoqroq aytilganda, odobsizlik ekanini ba'zi ota-onalar tushuntirishadi, ba'zilar kulib qoya qolishadi. Go'dakning ong darajasini inobatga olib, men «odobsizlik» dedim. Aslida so'ramasdan olish o'g'irlikdir Bugun qamoqda o'tirgan o'g'rilar ehtimol bu yaramas olamga kirishlarida birinchi qadamlarini shirinlik o'g'irlashdan boshlashgandir. Bolalar qamoqxonasidagi o'g'rilar orasida do'kon eshigini buzib kirganlar bor. Ularning non yoki go'sht, hatto pul uchun emas, aroq maqsadida kirishgani yanada achinarlidir.

Siz «Shum bola» kinofilmini qayta-qayta tomosha qilgan bo'lsangiz kerak. Bir-ikki lavhani eslab ko'ring-a: Qoravoyning qorni och. Nowoyxonaga yaqinlashadi. QoYqa-pisa nonga qo'l uzatadi. Non o'g'irlashga uni ochlik majbur qilyapti. Lekin o'g'irlik gunoh ekanini bilgani uchun jur'at qila olmayapti. Uni bu ahvoldan qutqargan

Hoji bobo uyida nonga to‘ysa-da, bundagi o‘g‘irlikni va boshqa buzuqliklarni ko‘rgach, uning beradigan non- taomidan ham voz kechadi. O‘g‘rilar davrasiga qo‘shilib qolganda dasturxon to‘kin edi. Agar shu davrada qolsa, qorin g‘amidan qutulardi. Lekin shu yoshida haromdan hazar qiladigan odobi bor edi. Bugun o‘g‘rilarga qo‘shilib qoladigan ko‘p bolalarda aynan shu tarbiya yetishmaydi.

Mehmonga borsangiz, mezbon «marhamat oling», deb lutf qilgach, dasturxonga qo‘l uzatiladi. Chunki «oling», deyilishi rozilik alomati hisoblanadi. Roziliksiz olingan bir tishlam non ham luqmayi harom hisoblanishini quyidagi rivoyatda ko‘ramiz.

Rivoyat. Bir shaharning meshkobchisi taqvodor donishmandga arz qilibdi: «O‘glingiz har kuni bigiz bilan meshlarimni teshyapti. Sizday ulug‘ odamning farzandiga shu ish munosibmi?» Donishmand mulzam bo‘lib, uzr so‘rabdi, meshlaming haqini tolabdi-da, xotinini chaqirib voqeani bayon qilibdi. So‘ng «Biz bolamizga bunday tarbiya bermagan edik. Luqmasiga harom aralashib qolmadimi ekan?», deb so‘rabdi. Xotini picha oyiagach: «Ey xojam, siz nima topib kelgan bo‘lsangiz, biz o‘shanigmayeymiz. Bizdan gumoningiz noo‘rindir», debdi. Donishmand esa: «Men uyga harom luqma keltirganimni eslay olmayapman. Tongga qadaryana o‘ylaylik», debdi. Tongda xotini aybdor odamning siniq ovozi bilan debdi: «Ey muhtaram xojam, bir voqeani bexos yodladim: shu bolaga homiidor ekanimda mehmonga borib edim. Dasturxon noz-ne‘matga to‘la edi. Undagi po‘rtaxol (apelsin) ishtahamni qitiqlab, nafsimni o‘zimga hukmron qilib qo‘vdi. Eshitib edim-ki, homiladorlik chog‘ida ayol yegisi kelgan narsadan tatib ko‘ra olmasa, bolasi nogiron bo‘lib tug‘ilmog‘i mumkin ekan. Mezbon nechundir «oling, yeng» demadi. Nafsim esa tinchimadi. Oqibat, mezbon chiqib ketgach, po‘rtaxo‘lni qolimga olib, to‘g‘nag‘ich ignasi bilan asta teshdim-da, bir tomchi sharbatini simirdim. So‘rab olinmagani uchun balki shu luqma harom bo‘lgandir?» Xotining iqrorini eshitgan taqvodor

donishmand: «Ha, barakalla. Anglab yetibsiz. Siz o'n yil avval rizoliksiz qolga olgan kichkina po'rtaxol bugun katta meshga, to'g'nag'ichingizning kichkina ignasi esa endi o'g'lingiz qolidagi bigizga aylanibdi. Tezda o'sha xonadonga boring-u, voqeani bayon qilib, o'sha bir tomchi sharbat uchun rozilik oling», degan ekan.

Tanishlarimizdan biri xorijdagi supermarketdan sovg'a-salom xarid qilibdi. Har bir odam mol olishda o'zicha hisob-kitob qiladi. Tanishimizning hisobi bilan hisobchining o'rtasida farq chiqibdi. U hisobchiga qaytib: «Hisobingizda xatolik bor», debdi. Hisobchi xotin undan norozi bolib, «bolishi mumkin emas!» deb qo'rslik qilibdi. Hamyurtimiz esa qat'iy ravishda «xato hisoblangan», deb turaveribdi. Shunda dolcon rahbarlaridan biri kelib, bahsga aralashibdi-da: «siz nohaqsiz, mashina hisobda adashmaydi», debdi. «Mashina adashmasligi mumkin, lekin odam xato qilishi mumkin-ku? - debdi hamyurtimiz. - Mana qarang, men bu mollar uchun 2,45 yevro toladam. Holbuki, bu mollarning narxi 24,5 yevro. Men ikki emas, yigirma to'rt yevro tolashim kerak». Xizmatchi mollarni qayta hisob-kitob qilib, hamyurtimizga ham rahmat aytibdi, ham hayratlanibdi. To'lanishi kerak bolgan qo'shimcha yigirma ikki yevroni olmay, aksincha, halolligi uchun sovg'a berishibdi. Afsuski... biz chetga chiqqan birodarlarimiz haqida buning teskarisi bolgan hikoyalarni ham eshitib qolamiz. Bilishimiz kerak, biron supermarketdan kichkinagina molni berkitib olib chiqmoqchi bo'lgan odamni «toshkentlik falonchi o'g'irladi», deyishmaydi, balki «bir o'zbek o'g'irladi», deyishadi. O'z nomining bulg'anishi bir masala, millat sha'niga haqorat orttirishi yana bir masala.

Bir rivoyatni hadis tariqasida aytib berishgan edi. Ulamolardan bu hadisning sahifligi haqida so'raganimizda «Bunday hadisni eshitmaganmiz, ammo insonning tarbiyasi uchun foydali ekan», deyishgan edi. Hali tug'ilmagan bolani halol luqma bilan ta'minlash haqidagi fikrimni shu rivoyat bilan quvatlantirishni lozim

topdim. Hadis ekaniga dalil bolmagani sababli voqeani sal o'zgacha tarzda bayon qilay.

Hikoyat. Bir bola murshidga salom bergan ekan, u zot alik olib «Ha, haromi, senmisan», deb qoyibdilar. Bu gapdan bolaning ko'ngli og'rib, uyiga yiglab boribdi. Bolaning otasi voqeadan ogoh bo'lgach, ajablanib, murshidga uchrab debdiki: «Pirim! Menixotinimga o'zingiz nikohlab qotygan edingiz. Bizning farzandimiz nechun haromi bolsin?» Murshid otaning norizoligiga javoban aytibdilar: «Nikohlab qo'yganim rost. Ammo falon yilning falon kuni sen ko'chadan o'taturib katta bir o'tinni ko'rding-u uni uyingga olib kelding. Xotining shu o'tinni yoqib taom pishirdi. Ikkoving shu taomni yedilaring va qo'shildilaring. Buning oqibatida shu bolang tug'ildi. O'ylab ko'r-chi, o'sha o'tinni sen halol yol bilan topib, uyingga keltirganmiding?»

Dunyoni sevgan kishi bu hayotni sevadi. Agar hayotdagi iymonsizlar kabi yelib-yugurishni, harom mol to'plashni, to's-to'palon, talon-toroj qilishni istasa, xush ko'rsa nima boladi? Unda ko'zni hirs pardasi qoplaydi, hirsiga berilib, harom ishlar qiladi, harom molga qol uzatadi, birovni shiladi, o'g'rilik qiladi va... pora oladi.

Siz poraxo'rlarga duch kelgandirsiz. Nomi «sovg'a» aslida esa pora berish qanday bolishi sizga sir emas. Lekin poraxo'rlkning oqibati-chi? Qamoqxonalarda necha mingab poraxo'rlar qilgan ishlariga pushaymon yeb o'tirganlarini tasavur qila olasizmi? Bu pushaymon nima ekan, oxirlari qanday bolarkin?

Rasululloh (s.a.v.) pora olgan ham, pora bergan ham do'zaxiy ekanini takidlaganlar. «Pora» atamasini «rushvat» shaklida ham uchratamiz. Turklar «pul»ni «pora» deydilar, bizning tushunchamizdagi «pora»ni «rushvat» ataydilar. Arablar talaffuzida «rishvat»dir. Ya'ni, «roshi-rishvat» - pora beruvchi, «murtashi-rishva» - pora oladigan kishi. Poraning turi ko'p. Masalan, pora - haqi bolmagan ishni bajarish uchun ishning boshida turgan rahbarlarni harom yolga, g'ayri qonuniy yolga boshlash, to'g'ri yoldan

ko'z yumish, nohaqlik qilishi uchun beriladigan pul yoki boshqa biron narsa. Natijada har ikki tomon harom ishga qol urgan boladi.

Xoh sud, xoh soliq, xoh bojxona, xoh hokimiyat ma'muriyati bolsin, xoh oliy o'quv yurti yoki shu kabi boshqa joy bolsin, u yerda davlat tomonidan har bir fuqaroning haqini hisob-kitob qiladigan, ishchilarga maosh beradigan xodimi boladi. Bu xodim, albatta, adolatli qonunga ko'ra ishlashi, har bir fuqaro haqini ko'z qorachig'idek asrashi kerak. Lekin pora berib, o'z ishini bajaradigan kishi: «**Xalq haqi** bilan ishing bolmasin, lavozimingni ham o'ylama, men senga shuncha pora beraman, mening ishimni bajar. Nohaqlik bolsam ham ishim bitsin. Men seni ko'rmadim, sen meni ko'rmading, tamom- vassalom!», deb ishini bajarib ketganlar oqibatni, do'zax olovini oyiamaydilar? Olganlar-chi?! Gugurt cho'pining olovi barmoqni kuydirsa, necha kun azob chekiladi, a? Jahannam olovi-chi?

Pora beruvchi qonunni, nizomni buzgan, adolatli qonun majmuasini o'z foydasiga ishlatgan, haqsizlik qilib ishini bajarib ketgan hisoblanadi. **Pora oluvchi** vijdonini yegan, nohaqlikka, adolatsizlikka rozi bo'lgan, o'z manfaatini o'ylagan, xalq haqiga xiyonat qilgan boladi.

Mana shunday yo Har bilan jamiyatdagi qonunlar oyoq osti boladi, rivojlanish oqsaydi, haqlar toptaladi, mazlum va begunoh xalqning haqi himoyalalanmaydi. Zolimlar xalq pulini, molini, davlat xazinasini talon-toroj qiladilar, xalq manfaatini aslo oyiamaydilar. Devor darz ketsa, uy oqibat qulaydi. To'g'onda ignadek teshik paydo bolsa, oqibat uni suv yuvib ketadi. Pora tufayli olamning ta'sis etgan nizom-qonunlari buziladi, dahshatli zararlar yuzga keladi.

Bilim olishga xohishi ham, layoqati ham yo'q bola pora tufayli o'qishga kiradi. Kimning o'rniga? Ilmga o'ch bolaning o'rniga! Oqibati - malum...

Pora tufayli zolimga jazo berish o'rniga, lutf ko'r- satiladi...

«Chorasi bormi?», «Iloji bormi?»

Pora berguvchining savoli shunday boladi.

«Ilojsiz narsaning o'zi yo'q, ammo... ozgina chiqimi bor...»

Bu oluvchining javobi. Unisi «pora berayinmi?» demaydi, bunisi «ber» demaydi. Chiroyli ishoralar bilan so'zlashadilar-a! Ba'zilar bu oldi-berdini «pora» deb atamaydilar, «hadya» yoki «qol haqi» yoki «ataganim bor edi», «xursand qilaman», deydilar.

Bir oliy o'quv yurtidagi Davlat imtihonida kotiblik vazifasini bajargan yosh mutaxassisga «Sening xizmat haqing», deb pul berishibdi. Yigit: «Bu pul talabalardan olingan poralar hisobidan berilyapti, men harom yemayman», deyishga jur'at eta olmabdi. Agar shunday desa, unga tazyiq qilishardi, ishdan ketishga majbur bolardi. «Aslida-ku, vijdonli odam sifatida shunday qilishi lozim edi», demoqchimisiz? Ha, lozim edi. Lekin... lekin barcha halol odamlar chetga chiqib ketaversa nima boladi? Xullas, halol yigit vijdon azobida yurib, do'stiga maslahat soldi. U pulni bir kambag'al yetimga berishni lozim ko'rdi. Shunday qilishdi. Xo'sh, yetim uchun bu pul halolmi yo harommi? Sadaqa halol ishlab topilgan puldan beriladi, degan qoidaga ko'ra, harom. Lekin bu sadaqa emas-ku? Agar yetimga bu pulning qayerdan topilgani aytilsa, ehtimol u ham olmasdi.

Barcha dinlarda pora harom qilingan, barcha jamiyatlarda jinoyat hisoblanadi. Ajabki, poraxo'r na unisidan, na bunisidan cho'chiydi. Olaveradi, tiqilib olgunicha olaveradi. Ruslarning bir yozuvchisi aytgan ekan: «Pora - go'zal ayol kabidir, yoshi o'tibroq qolgan bolsa-da, jozibasi bilan o'ziga tortaveradi». O'sha ayol ko'rinishidagi shayton jozibasi bilan bandani qayoqqa tortadi? Haqni eshitmaslik va haromdan hazar qilmaslik olimni hali uzoq deb bilishdan paydo boladi. Rasululloh (s.a.v.) dedilar: «Alloh bir qavmga nimani harom qilsa, uning orqasidan keladigan pulni ham harom qiladi».

Hazrati shayx Ahmad Harb (quddisa sirruhu) uyiga Nishopurning uluglari keldilar. Shayxning bir o'g'illari

bor edi. Sarxush bo'lib kelib, baland ovoz berib, eshikdan kirdi. Otasidan va bu ulug'lardan uyalmadi. Ulug'larning ranglari o'zgardi. Shayx:

- Nechun malul boldingiz? - deb so'radilar.

- O'g'ling uchun, - dedilar.

- Ul ma'zurdir. Sababi budirki, bir kecha qo'shniidan taom keldi, yedik. Onasi bilan suhbat qildik. O'sha kecha bu o'g'lon ona rahimiga tushdi. Keyin meni shundoq uyqu bosdi-ki, vazifam favt boldi. Tong otganida so'rasak, bu taom talab, zo'rlik bilan olingan osh ekan. Bizga harom aralashgan taomdan bergan ekanlar.

«Harom» so'zininglug'aviy ma'nosi- ta'qiqlashdir, ya'ni qilishi, foydalanishi, iste'mol etilishi shar'an man etilgan narsadir. Hech nimadan saqlanmasdan tanovul qilishni «harom-harish yemoqlik» deyiladi, ya'ni «harom-harish» (harish - qattiq, qo'pol) o'ta haromlikni anglatadi. «Haromzoda» - haromdan tug'ilgan, oqqadar bo'lgan kimsa. «Haromi» - kimsaning moliga, harom narsaga qol uzatuvchi odam, o'g'ri, yo'lto'sar, g'oratgar, bezori ham shunday ataladi. «Haromnamaklik» esa noshukrlikni bildiradi. «Halol» (hallol) esa yechish, ya'ni haromniyechib, yolni ochish, soddaroq aytsak, haromning aksi, ya'ni mumkin bolgan, demakdir. Taom aslida halol, ammo u harom yol bilan qolga kiritilgani uchun ham «harom luqma» hisoblanadi. Aksini «luqmayi halol» deyishga odatlanganmiz.

Bir taqvodor debdiki: «Quduq ichiga ichkilikdan (masalan, aroq) bir tomchi tushsa, quduq suvini poklash uchun tashqariga chiqarib tolcsalar, suv toldlgan yerda o't-o'lan o'sib chiqsa, shu o't-o'lanlarni yegan qo'y-sigirning go'shtini yemayman». Bu yerda mubolag'a, bo'rttirish bor. Mubolag'adan maqsad - odamlarni «arzimas harom» degan tushunchadan ehtiyot qilish. Qabristonda o'sgan o't-olanni molga bermaslik tavsiya etiladi. Chunki yuqumli kasallik bilan vafot etgan odamning murdasidan tarqalgan mikroblar o't orqali sut va go'shtga o'tishi mumkin.

Bir kishiga dedingizki: «Cho'chqa go'shtidan ye!» Shubhasiz, u derki: «Emayman, bu go'sht harom!» Barakalla, bu kishi harom-halolning farqiga borar ekan, deb quvonasiz. Ammo qaraysiz-ki, u aroqning haromligini bilsa ham ichadi, zinodan ham qaytmaydi, tarozidan ham uradi... «Bular ham harom-ku, bilmaysizmi?» deb ajablanasiz, hatto g'azablanasiz. U esa ishonch bilan: «Bilishga bilaman, gunohimni Xudoning O'zi kechiradi», deydi. Ajabki, go y o Alloh Taolo unga gunohini kechi- rishga va'da bergan. Cho'chqa go'shtini juda zarur holatda, deylik, olib qolmaslik uchun ma'lum miqdorda iste'mol qilishga ijozat bor. Ammo olib qolmaslik uchun aroq ichishga, zino qilishga, pora olishga... mutlaqo ijozat yo'q! Yana bir gap: birov cho'chqani yetaklab kelib, bir- ikki kun hovlingizda tura tursin, desa uyingizdagi kattalar ruxsat berishmaydi, lekin to^ga atab olingan besh-o'n quti aroq uyingizda tura tursin, desa rad etishmaydi, a? Bunga nima deymiz?

Rasululloh (s.a.v.) dedilar: «Halol aniqdir. Harom ham aniqdir. Bu ikkisining o'rtasida aksariyat odam bilmaydigan shubhali narsalar bor. O'zini shubhali narsalardan uzoq tutgan odam dini va sha'nini saqlagan boladi. Shubhali narsalargayaqinlashgan inson haromga kirib qolishi mumkin. Xuddi cho'pon podani qo'riqxonada atrofida o'tlatsa, uning (qo'riqxonada) ichida o'tlatgandek bolgani kabi. Har bir hukmdorning o'z qo'riqxonasi (ya'ni kirish ta'qiqlangan joyi) bordir. Allohning qo'riqxonasi harom qilgan narsalaridir. Ogoh boling-ki, vujudda bir parcha go'sht bor: u yaxshi bolsa, vujud ham yaxshi boladi. Agar u buzilsa, butun vujud ham buziladi. Ogoh boling-ki, u- qalbdir». (Yodingizdadir, mazkur hadis bilan awalroq ham tanishgan edik. Barcha fazilatlar yoki illatlar qalbga bogliq bolgani sababli bu sharafli hadisni har suhbatda tilga olsak ham boladi.) «Vujudda bir et parchasi borki», deyilishining ma'nosi: «o'sha et parchasi Allohdan hayo qilsa, badan ham hayo qiladi. Agar u havoyi istak va orzuga berilsa, vujud ham istak va orzular ketiga

tushadi. Buzuq va yomon niyatda bo'lsa, vujud ham yomonlashib buziladi».

Ulamoi kirom «halol» va «harom» so'zlari xususida turli fikr bildirganlar. Abu Hanifa «Halol - halolligiga dalil bor narsa», Imom Shofi'iy esa: «Harom - haromligiga dalil bor narsa», deganlar. Rasululloh (s.a.v.)ning «Bu ikkisining o'rtasida aksariyat odam bilmaydigan shubhali narsalar bor...» deganlari halol va harom narsalar o'rtasida ba'zi narsalar ham bor-ki, ularning haromligi yoki haloligi xususida shubha boladi, demakdir. Shuning uchun shubha bor joyda ko'ngilsiz holat yuzaga keladi. Rasululloh (s.a.v.) «O'zini shubhali narsalardan uzoq tutgan odam dini va hurmatini saqlagan boladi», deyishlarining ma'nosi - odamiylikning sofligini istagan inson shubhali narsalardan ham yiroq bolsin, demakdir. «Sha'nini saqlash» deganda, kishi shubhali narsalarga yaqinyolasa, odamlar uni «harom yeyapti», deb o'ylashlari ehtimol.

*Ko'ngil Haq fayziga bo'lsun desang chok,
Ki, avval martaba xalqingni qil pok.*

So'fi Olohyor demoqchilarki, agar ko'nglingni Alloh Taoloning ilhomi kirishi uchun ochiq qilay desang, uning birinchi sharti tomog'ingni butkul haromdan pok qilmog'ing kerakligidir. Chunonchi:

*Yema zarra harom og'ushta nondin,
Bo 'lur chohi najas bir qatra qondin.*

Deyilmoqchiki, bo'g'izni pok qilmoqlik awal boshda harom aralashgan ne'matlami yemaslik bilan boladi. Agar yegan ne'matingda bir zarracha harom bolsa-da, ul taomni yemaslik kerak. Chunki, quduqqa bir tomchi qon yoki xamr tushsa, najas qilar. Shunga o'xshab ko'p ibodatdan hosil qilgan savobing bir oz harom qatishgan ne'matdan yeyish bilan yo'qqa chiqar. Ulamolalar

ayturlarki, birov harom luqma bilan toat-u ibodat qilsa, garchi kechalari uyg'oq turib kundudan ro za tutsa-da, qabul bolmas. Agar birov Alloh Taolodan qoVqib, shubhali **narsalardan** saqlansa, yuz karra Ka'baga borib Haj qilganlikning savobini topar ekan. «Tanbehul g'ofilun»da zikr etilgan hadisda aytilishicha, agar bir kishining kiyar kiyimiga harom aralashgan bolsa, o'sha to'nda o'qilgan namoz qabul bolmas ekan.

*Agar osh manhiy bo'lsa, ko'z yumib osh,
Va gar na, tongla qomingdin chiqar tosh.*

Deyilmoqchiki, agaryemoqchi bolganingbir ne'matda harom narsalar bolsa, ko'zingni yumib undan o't, unga qarama, uni yeyishga mayl qilma. Agar shunday qilmasang, Qiyomatda qomingdan tosh chiqar. Ya'ni, turli azoblarga giriftor bolursan.

*Erur xardalcha manhiy zahri qotil,
Qilur bir qatrasu xum suvni botil.*

Deyilmoqchiki, agar harom narsa qalampir urug'ichalik kichik va kam bolsa-da, uni oldirguvchi og'u deb bilgil. Ya'ni, oz harom ko'p ibodatlaming savobini buzar. Shunga o'xshash bir tomchi may bir xum suvni najas-u botil qiladi.

Bir odam «Men halollikka tupurdim, men baxtli yashashni istayman!» deydi. Ajab! Haromlik botqog'iga botgan holda baxtli bolish mumkinmi? Ehtimol u odam harom yoldan oqib kelgan boylikni baxt deb o'ylar? Ehtimol, kunda, kunorayosh fohishalar bilan aysh qilish unga baxt bolib tuyular? Bunisi bizga qorong'i. Bu odam haqiqiy baxt saroyiga faqat halol yol orqali yetib borish mumkinligini qachon anglab yetadi? Bunisi ham bizga nomalum. Siz «farqlamay olib ketadi», demoqchimisiz? Yo'q, umrining so'nggi daqiqasida bolsa ham anglaydi va afsus bilan ko'z yumadi. Bu afsusi esa oxiratda asqotmaydi.

Shukrlarkim, atrofimizda es-hushi joyida bolganlar ko'p. Lekin buzuq oshyonlarning ohanrabosi kuchiga nafsi dosh berolmayotganlar-chi? Qo'shnilarimiz orasida bormi? Bor! Qarindoshlar orasida bormi? Bor! Hamkasblar orasida bormi? Bor! Xonadonimizda bormi?.. Restoranlarni chetlab o'tishimiz yaxshi, lekin haromdan hazar qilmaydiganiarni ham xoli qo'^ganimiz-chi?

Bir yigit qarzga botib, hayotidan nolib yuribdi. Nima maqsadda qarz ko'targani sababini bilib, hayratdan yoqa ushladik: Ukrainadan cho'chqa go'shti olib kelib sotmoqchi bolgan ekan! Boribdi, ishi yurishmay, xonavayron bolib qaytibdi. Endi nega hayotini la'natlaydi, hayronmiz... Oshxonalarda bitta pichoq bilan ham mol go'shti, ham cho'chqa go'shti maydalayotgan qassoblar, oshpazlar qilayotgan ishlari haqida oyiab ko'rsalar chakki bolmas edi. To'nglz terisidan tikilgan poyabzallarni olib kelib sotayotgan tijorat ahliga ham gapimiz shu.

Cho'chqa go'shtini yahudiy dini ham harom qilgan. Isroilda cho'chqa boqish taqiqlangan. Isroil harbiylari mina topishda foydalanish uchun Yevropadan qora cho'chqa sotib olishgan ekan. Jamoatchilik qarshi turib, cho'chqalarni yo'qotishdi, hatto harbiy maqsadda foydalanishga yol berishmadi.

Harom haqida gapirilganda bir narsaga e'tibor beraylik: nima uchun Alloh Taolo asalni yoki sholg'omni harom qilmadi? Chunki bu ne'matlarning inson saiomatligiga zarari yo'q, jamiyatga zarari yo'q. Aroqning kishi soglig'iga, jamiyat osoyishtaligiga zarari bormi? Cho'chqa go'shtining sogliqqa zararligini hatto nasaro olimlari isbot qilib berishdi-ku? Masalaga faqat diniy emas, ijtimoiy, dunyoviy nuqtayi nazardan qarasak ham, qarama-qarshilikni ko'rmaymiz. Faqat diniy tomondan haromga qarshi qarshilik, kurash bor, dunyoviy jamiyat tomonidan olib borilayotgan kurash esa ancha sust.

Hayotda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan va ularni yengib o'tgan inson bosib o'tgan yolga qaralsa, uning pokligiga va ichki dunyosi go'zalligiga ishonch hosil

qilish mumkin. Halol yutuqqa erishish qiyin bolsa-da, uning zavqi totli, shirin boladi. Shuning uchun ham yaxshilar dedilarki: «Rizqingni topish uchun yaxshi yo'llarga o'tlan. Foydani halol yo'l bilan top. Harom yollardan foyda topish oson bolsa ham, oxiri azobdir». Yomonlik eshigi harom foyda bilan ochiladi, yaxshilik eshigi esa halol foyda bilan ochiladi. Halol ham, harom ham tugaydi. Boqiylik esa shularga qarab, yo azob boladi, yo rohat! Odam harom-harish vositalar bilan moli-dunyo, huzur-halovat topsa ham, lekin ma'naviy jihatdan halok boladi. Haromga berilgan kimsa har odimda harom yeb, gunoh topgani kabi halolga intilgan inson har haloldan savob topadi. Odam bolasi halol topib, bu topganidan muhtojga yordam qilsa savobi yanada ortadi. Nafsi qitiqlovchi shayton hiylalariga zarba bera olishlik, poklik ila hayot kechirish, halol umr saroyining kalitlariga ega chiqishga intilish har bir insonning asosiy maqsadi bolishi kerak. Halol va haromga doir fikrlarning barcha suhbatlarimizda tilga olinishi bejiz emas. Umumlashtirib aytadigan bolsam: odam zotining chiroyi bolgan barcha fazilatlar poydevori halollikdan iborat. Barcha yomonliklar - illatlarning asosi esa haromdandir.

Qo'shning yomon bolsa,,

Luqmoni hakim aytganlar:

«Og'ir tosh ko'tai dim, temir ko'tardim, ammo yomon qo'shnidan og'irroq narsa ko'rrnadim»

Umidimiz yulduzlari, qo'shnilar bilan munosa- batingiz qanday? Men ko'p kuzatganman: ayrim bolalar yon qo'shnilari bilan do'stlashmay, ikki-uch ko'cha naridagi bolalarga yaqin bolishadi. Ehtimol, siz ham shundaydirliz? Nega shunday?

Odam bolalari o'z xonadoni ahli bilan qanday yaxshi muomala qilsa, qo'shnilar bilan ham shunday murosa qilishga buyurilgan. Ota-ona va farzand burchlari qanday bolsa, qo'shnining qo'shni oldidagi burchi ham o'shanday

darajadadir. «Qo'shning yomon bo'lsa ko'chib qutulasan», degan maqolni eshitgansiz. Lekin qo'shnim yomon ekan, deb tinmay ko'chib yurilaverilmaydi. Lozim bo'lganda dardni ichga yutib, jahannam azobida yashayverishdan o'zga chora qolmaydi. Qandaydir holatlarda esa murosa qilishga ham to'g'ri keladi. Mazkur maqol kimdir tomonidan shunchaki to'qilmagan, u sharafli hadis asosida aytilgan. Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning takrorlab yuradigan duolaridan biri bunday bolgan: «E Alloh! Men yashaydigan yerdagi yomon qo'shnining yomonligidan panoh berishingni so'ray man. Chunki foniy dunyodagi yomon qo'shnidan ko'chibgina qutulish mumkin». Yomon qo'shnining yomonligi hamisha bolavermasa ham, yomonligi bolib qolishidan cho'chib yashashning o'zi ham katta aziyatdir.

Xalqimizda «Qo'shning tinch - sen tinch», degan maqol bor. Bu hikmatning mazmuni oydek ravshan, mulohazaga o'rin yo'qdek ko'rinadi. Lekin «Qo'shning tinch bolmog'i uchun o'zing nima qilishing kerak?» degan savol qo'yilsa, har bir odam o'ylanib qoladi. Qadim- qadimdan qo'shnichilik muammosi donishmandlar diqqat-e'tiborida bolgan. Hozirgina eslaganim maqol bekorga vujudga kelmagan: qo'shning tinch - sen tinch! Bu demak, agar sen osoyishtaligingni istasang, awal qo'shningni osoyishtalik bilan ta'minla. Awal o'zingni emas, qo'shningni o'yla, deyilmoqchi. Bu maqol zamirida odamlarni birodarlikka, mehr-oqibatli bolishga undash yotadi. Oilada ota-onasiga, akalari-ukalariga mehrli bolib ulg'aygan odam, shubhasiz, qo'shniga ham mehrli boladi. Ota va onasini behurmat qiluvchi odam qo'shnini ham sariq chaqaga olmaydi.

Yomon qo'shnidan qutulishning yollaridan biri - har bir odamning o'zi yaxshi qo'shni bolishga harakat qilishi kerak. Ya'ni, birovga qilinajak yomonlik ham, yaxshilik ham qo'shnidan boshlanadi. Hatto Vatanni sotish ham qo'shnini sotishdan boshlanadi. Qo'shnisini yomonlab imzosiz xatlar yozadigan odam Vatanini sotmaydi, deb

kim kafolat beradi? «Qo'shningga qasd etma, bast et» (bast - quvontirish ma'nosida) degan hikmatga barcha birday amal qilganda edi... Nabiy muhtaram (s.a.v.)dan so'radilar: «E Rasululloh! Falonchi xotin kechalari turib ibodat qiladi. Kunduzlari ro'za tutadi va odamlarga xayr-ehson ulashadi va boshqa yaxshi ishlarni ham qiladi. Lekin qo'shnilariga tili bilan ozor beradi. Buning oqibati qanday bo'ladi?» Rasululloh (s.a.v) javob berdilar: «Bu xotinda yaxshilik yo'q, u do'zax ahlidandir». Yana so'radilar: «Faloniy xotin farz namozlarini o'qiydi va borini, arzimas bolsa ham, sadaqa qiladi. Shu bilan birga u hech kimga ozor bermaydi». Allohning rasuli (s.a.v.) javob berdilar: «Bu xotin jannat ahlidandir».

O'ziga tilagan narsasini o'zgalarga, xususan, qo'shnisiga tilaydigan, o'ziga munosib ko'rmagan narsani boshqalarga ham munosib ko'rmaydigan odamni vijdonli, e'tiqodli deyish mumkin. Kim qo'shnisiga balo-qazo yog'ilishini istasa - nodondir. Tasavvur qiling-ki, «qo'shnimning uyini kuydir!» deb niyat qilgan odamning nolasi qabul etildi - qo'shning uyi yondi. Oqibat nima boldi? Qo'shniga ofat tilagan nodonning uyi ham qo'shilib yondi!

Nabiy muhtaram (s.a.v.) dedilar: «...qo'shnisini bezovta qiluvchi odam musulmon bola olmaydi!» Yana dedilar: «Kim o'zi to'yib ovqat yesa-yu, qo'shnisi och o'tirsa - iymonsizdir». (Boshqa bir rivoyatda: «Qo'shnisining ochligini bila turib, o'zi to'q yotgan odam toliq ijnonon keltirgan hisoblanmaydi».) Yana dedilar: «Sho'rva pishirganingizda suvini ko'proq qiling. Keyin qo'shnilaringizdan xabar oling va ularga muvofiq ravishda sho'rvadan solib bering».

Yurtimizda bu odatning go'zal ko'rinishlari bor edi. Afsuski, bular unutilyapti. Hozir faqat hayit arafasida qo'shnilar bir-birlarini bir kosa osh bilan yo'qlaydilar. Bolaligimizda o'n besh - yigirma qo'shniga quvona- quvona osh tarqatib chiqardik. Shunga yarasha biznikiga ham shuncha osh qaytardi. Hozir kuzatishimcha, ikki yon

qo'shni bilan cheklanilyapti. Ovqat qizg'anilmaydi, shukrlarkim, yigirma-o'ttiz qo'shnini yo'qlashga har bir xonadonningimkoniyati bor. Faqat... ayollarimiz salgina e'tiborsizlar, salgina yalqovlar, salgina mehrsizlar. Erlarning esa bu bilan ishlari yo'q!

Tarixga nazar tashlasak, yaxshi odamlar tansiq ovqatlaridan albatta qo'shnilariga chiqarganlar. Agar qo'shnilari muhtoj ekanini bilsalar-u, unga yordam berishga qurbilar yetmasa, taomning hidi chiqib qo'shnimga ozor bermasin, degan xijolatda o'z uylarida ovqat pishirtirmagan odamlar hozir ham bor. Qadimda muborak haj ibodatiga otlangan odam qarindoshlari va bola-chaqalari bilan bir qatorda qo'ni-qo'shnilami ham moddiy tomondan ta'minlab, rizoligini olar ekan.

Bir odamning uyida sichqon ko'payib ketibdi. Shunda tanishi «Mushuk boqa qolmaysizmi?» desa, u odam: «Mushuk olib kelsam, sichqonlar qo'rqib qo'shnimnikiga qochsa, ularni bezovta qiladi-da», degan ekan.

Sharq rivoyatlaridan birida bunday hikoya qilinadi: Bir odam chog'roq sholcha ustida o'tirgan ekan. Yoniga qo'shnisini chorlabdi. Qo'shnisi: «E birodar, sholchangiz bir parchagina-yu, yana menga izzat ko'rsatmoqchi bolasiz- a», deb kulibdi. Shunda lutf ko'rsatgan qo'shni debdi:

- Bir-biriga dushmanlik qiluvchi noahil qo'shnilar butun dunyoga ham sig'ishmaydi. Ahil qo'shnilar bir parcha sholchaga sig'ib, rohat ko'raveradilar. Gap sholchanning torligida emas, ko'ngilning kengligida.

Yana bir rivoyatda aytilishicha, bir burgut chovut solib hovlidagi quyonna ko'tarib ketibdi. O'sha hovlida yashaydigan chumchuq quyonga achinish o'rniga mazax qilib chirillabdi:

- Ey chopag'on quyon! Chopag'onliging yordam bermadimi?!

Chumchuqning chirqillashini eshitgan boshqa burgut uchib kelibdi-yu, uni chovutiga ilibdi. Shunda quyonna unga qarab: «Juda tez ucharding-ku, qanotlaring foyda bermadimi?», degan ekan.

Masaldan olinadigan ma'no shuki, qo'shni boshiga kelgan falokatdan kulib, mazax qilish yaramaydi. Balki qo'shni og'ir ahvolga tushsa, unga yordam berib, bundan qutqarish kerak. Qo'shni boshiga kelgan falokatdan quvongan kishining o'zi ham biror falokatga uchrashi tayin.

Qo'ni-qo'shnilar orasidagi noxush hollarga ko'pincha manmanlik sabab bo'ladi. Nisbatan to'qroq, boyroq odam gerdaysa, kerilsa, mensimasa yaxshi oqibatga olib kelmaydi. Kambag'alroq qo'shnida hasad, ichqoralik bolsa undan yaxshi oqibat kutmang. Qo'shnisini norozi qilgan boyroq odam kutilmaganda boyligidan ajralib qolishi, qo'shnisiga hasad qilib igVo tarqatgan esa ertaga el-yurt oidida obro'sizlanishi, sharmanda bo'lishi mumkin. Suqrot hakimdan hikmat: «Ikki narsani islohga keltirish juda qiyin: qarindosh-urug'larning bir-birlariga bo'lgan adovatlarini va qo'shnilarning hasadini».

Bir odam manmansirab, qo'shni hovliga orqa qilib baland imorat quradi. Imorait shunday baland-ki, qish oylari qo'shni hovliga oftob tushmaydi. Bundan qo'shni ranjiydi va ekin sug'organida ariqni atayin shu uyga taqab oladi. Oqibatdauyzaxlayveradi vajanjal boshlanadi. Bir qarasangiz, ikkovi ham haq. Pul meniki, yer meniki, uni qanday qursam quraveraman, deydi biri. «Hovli meniki, ekin meniki, qanday sug'orsam sug'oraveraman», deydi ikkinchisi. Bu janjalning boshi - manmanlik. Biroqunga hasad aralashdi-yu, yara fasod bogladi.

Ikki qo'shni bir parchayemi «Bu meniki! Yo'q, meniki!» deb talashayotganida yer tilga kirib, «talashmalar, ikkoving ham menikisanlar, ikkoving ham bag'rimga kirasalar», degan ekan. Hamonki, odam vafot topgach, bir xil libosda, bir xil lahadda, bir xil holatda yotar ekan, ozginagina umrini janjal bilan otkazmay rohat ilayashasa bolmas ekanmi, deb o'ylayman.

Kishining boshiga kulfat tushsa, birinchi navbatda qo'shni yaraydi. Shodlingizni ham eng birinchi

qo'shningiz baham ko'radi. Qishloqlarda, mahallalarda qo'ni-qo'shnicilikning go'zal an'analari shakllangan. Dono qariyalar bu an'analarning asralishini kuzatib tuiishadi. Biroq, afsuski, ko'p qavatli uylarda yashovchilar yaxshi an'analarga amal qilishmaydi. Bu daVo, ayniqsa, yosh oilalarga tegishli. Bir yo'lakda to'rt-besh yil mobaynida qo'shni bo'lib yashagan oilalar bir-birlarini yaxshi tanishmaydi. Eitalab ishga ketish chog'iarida yoki ishdan qaytishlarida ikki-uch kunda tasodifan bir ko'rishib qolishlari mumkin. So'ng uylariga kirib ketishgach, tashqariga chiqmaydilar Qo'shnikida nima gap - ishlari yo'q. Bunaqa odamlar boshiga bir noxush ish tushsa qo'shning qadriga yetadi. Ammo kechikkan bolishadi. Attang, deyishadi-yu, foyda bermaydi.

Qo'shnicilik - bir chinni idish kabidir. Darz ketsa, izi qoladi. Shu sababli yaxshi qo'shnicilik munosabatini e'zozlagan ma'qul. Albatta, bu gaplar siz uchun yangilik emas. Hozir aytilgandan ko'ra ko'proq maqollar, rivoyatlar, hayotiy misollar bilarsiz. Men sizdan ko'proq bilaman, deb da Vo qilmayman. Maqsadim oddiy - bilganlaringizni yana bir yodga solish, bilimni amalda tatbiq etishga da Vat qilish.

Payg'ambarimiz (s.a.v.) qo'shni haqini aniq va ravshan tarzda belgilab berganlar: «Bilasizmi, qo'shning haqi nima? - dedilar va bu savollariga o'zlari bunday javob qildilar: - Iona istasa - iona berasiz. Yordam so'rasa - yordam berasiz. Qarz so'rasa - qarz berasiz. Kam-bag'allashsa - ro'zg'origa madad berib turasiz. Xastalansa - ziyoratiga borasiz. Vafot etsa - janozasiga qo'shilasiz. Omad kulib boqsa - uni qutlang. Boshiga musibat tushsa - ta'ziasida birga bo'ling. Undan ruxsat bo'lmasa, uyingizni uning uyidan baland qilib qurmang. Chunki uyingizni baland qilib qursangiz, uning nimasigadir to'sqinlik qilgan bolasiz. Unga azob bermang. Bozordan biron meva olgan paytingizda unga ham bering. Agar bermoqchi bo'lmasangiz, uyga olib kelganingizni ko'rmasin. Bolangizning qo'liga biron meva berib

tashqariga chiqarib yubormang-ki, qo'shnining bolasi shunday narsaga ega bolmaguncha bundan o'pkalanib yurmasin. Qozoningizda qaynatgan go'sht hidi bilan ularni notinch qilmang. Agar keltirgan go'shtingizdan bir parchasini unga kesib bergan bolsangiz, go'sht hidi taralishining aybi yo'q. Bilasizmi, qo'shnining haqi nima? Allohga qasamki, qo'shni haqini faqat Alloh marhamatiga noil bolgan kimsalargina o'tay oladi».

Bu ibratli so'zlardan ayonki, kattamizmi yo yoshimizmi
- har birimizning zimmamizda mas'uliyat bor. Bu mas'uliyatni to'g'ri ado etsakkina yaxshi xulq egasi bolamiz.

Mazkur satrlar yozilayotgan kunlarda Russiyadagi bir voqeani eshitib, dahshatga tushdim. Yoshga yetmagan chaqalog'i va ikkiyoshli bolasini uyda qoldirib, ko'chaga chiqqan bir juvonne avtomashina bosib oldiradi. Hujjati bolmagani uchun marhumaning kimligini aniqlash qiyin kechadi. Bu orada uyda qolgan ikki go'dak yiglay-yiglay ochdan oladi. Qo'shnilar esa ularning yig'ilariga ahamiyat bermaydilar. Bolalarning o'liklaridan hid chiqa boshlaganda «gazning hidi chiqayotgandir», deb yana e'tibor bermaganlar...

Shukrlarkim, bizda bu darajadagi bemehrlik, beoqibatlik yo'q, bolmasin ham! Lekin bunaqasiyo'q, deb xotijam bolishimiz ham durust emas.

Ba'zi qizlarimiz, kelinlarimiz ko'chaga suv sepib supirishganda qo'shni chegarasidan bir qarich ham nariga o'tmaydilar. Darvozalari yonma-yon bolsa-da, qo'shni darvozasi oldini supurishdan yo erinadilar, yo bu xizmatning savob ekanini bilmaydilar.

Odamiylikda qo'shni haqiga katta ahamiyat beriladi. Rasululloh (s.a.v.) bu xususda dedilarki: «Hazrati Jabroil qo'shni haqiga rioya etmoq to'g'risida menga shu qadar ko'p vasiyat (topshiriq) qildilarki, men qo'shnini hatto molimga ham merosxo'r qilib qo'^salar kerak, deb o'yladirm. Mazkur sharafli hadisning talridi olaroq, Mujohid hikoya qiladi:

«Bir kuni hazrati Umarning o'g'li Abdullohning (r.a.) uyida edim. O'gli qo'ib, terisini shilayotgan edi. Abdulloh «Qo'yni sotyib bolganingdan keyin, qo'shnilariga berishni yonimizdagi yahudiy qo'shnidan boshla», deb topshirig'ini bir necha marta takrorladi. Oxiri o'gli: «Necha marta aytasiz, ota?», deb ajabladi. Shunda Abdulloh dediki:

- Rasululloh qo'shnilik haqiga shu qadar ko'p o'git berardilar-ki, biz qo'shnini qo'shniga voris qiladilar shekilli, deb o'ylardik».

Sharaflari hadislarida marhamat qilingan talablarni har bir odam bajarishi shart. Bajarish uchun esa bu talablarni bilishi kerak. Shu bois, talablarning asosiylarini yodimiz- ga olish vaqti keldi:

Bir kuni Oyisha onamiz (r.a.) non yopdilar-u bir sabab bo'lib, bu nonni qo'shning qo'i yeya boshladi. Oyisha onamiz (r.a.) qo'y og'zidan nonni olmoqchi bo'lganlarida Rasululloh (s.a.v.): «Mayli, undan qolgani ham bizga kifoya qiladi, qo'yning bu ishi to'g'risida gapirib, qo'shniga ozor bermagin», dedilar.

Qur'oni Karimning «Niso» surasida yaxshilik qilish haqidagi oyatda «yaqin qo'shnilariga» va «yon qo'shnilariga» deyilgan. Ulamolarni «yaqin qo'shni»ni «qarindosh qo'shni», «yon qo'shni»ni esa yaqinligi yo'q, ya'ni begona qo'shni, deb tafsir qiladilar. Nabiy muhtaram (s.a.v.) bu borada marhamat qildilarki: «Qo'shnilar uch xil boladi: bitta haqi bor qo'shni - haqi eng kam qo'shnidir; ikkita haqi bor qo'shni va uchta haqi bor qo'shni - bunisi eng ko'p haqi bor qo'shnidir. Endi, bitta haqi bor qo'shniga kelsak, u mushrik qo'shnidir. Uning qo'shnilik haqi bor, xolos. Ikkita haqi bor qo'shni esa musulmon qo'shnidir. Uning ham musulmonlik haqi, ham qo'shnilik haqi bor. Uchta haqi bor qo'shni esa - musulmon va qarindosh qo'shnidir. Uning qo'shnilik, musulmonlik va qarindoshlik haqlari bor».

Hazrati Oyisha onamiz (r.a.) «Hadyani ikki qo'shnidan qay biriga berayin?», deb so'raganlarida Allohning rasuli

(s.a.v.): «Qaysi birining eshigi senga yaqinroq bo'lsa, o'shanga ber», deb marhamat qildilar.

Etibor qilgan bolsangiz, qo'shnilar sifatlariga, ya'ni boy yoki kambag'alliklariga, chiroylariga, shirin so'zlariga qarab ajratilmaydi. Biz hayotimizda aynan shu nuqtada xatoliklarga yol qo'yamiz. Devor-darmiyon qo'shnimiz- ning bir qiligi' yoqmagani uchun undan uzoqroq bolishga intilamiz. O'n darvoza naridagi qo'shni bilan apoq-chapoq bo'lgimiz keladi. Darvoqe, darvozalarning yaqin yoki uzoqligiga qarab nechta xonadon qo'shni sanaladi? Hasan Basriy hazratlari sharaflil hadisga asoslanib, hovlingizning old tomonidan qirq hovli, orqa tomonidan yana qirq, o'ng tomonidanyana qirq, chap tomonidan yana qirq hovlining hammasi qo'shni hisoblanishini ta'kidlaganlar.

Demak, kichikroq bir qishloq yoki mahalla ahli bir- biriga yaqin qo'shni hisoblanar ekan. Ayrim rivoyatlarda qo'shnilarning adadi o'n hovli miqdorida belgilangan. Yana ayrim rivoyatlarda mahalla chegarasi, deyilgan. Bu borada bahslashmay, afzalini olaverish kerak. Kimning qirq xonadon bilan yaxshi qo'shnichilik aloqasini o'rnatishga imkoniyati bolsa, quwati yetsa, baraka topsin! Kimning imkoniyati chegaralangan ekan, qo'shni haqiga rioya qilishi shu doirada bolaveradi.

Hasan Basriy hazratlariga bir ayol kelib ahvolidan shikoyat qildi. «Uying qayerda?» deb so'radilar. «Sizning uyingizdan yetti eshik narida», dedi ayol. Hasan Basriy hazratlari bor pullarini sanab ko'rsalar yetti tanga ekan. Hammasini berdilar. «Yo Alloh, halokatga uchrashimga oz qolibdi-ya!», dedilar. U zot yetti xonadon naridagi qo'shnilarining og'ir ahvolda ekanidan bexabarliklarini halokat deb bilganlar.

Bir odam muhtojlikdan qiynalayotgan qo'shnisining uyini sotib oldi. Kechasi yig'i ovozini eshitdi. «Kim yiglayapti?» deb so'radi. «Sotilgan uyning egalari», deb javob berishdi. «Ularni chaqirib aytinglar, qalblari ezilmasin, sotgan uylarini qaytardim, o'zlariga buyursin, mendan olgan pullari ularga hadya».

Bunday saxovat egalari hozir ham bormi yo rivoyatlarda qolib ketganmi? Balki turgan joyi ko'ziga tor ko'rinib, qo'shnisining hovlisi evaziga kengaytirmoqchi bolgan yuragi torlar bordir oramizda?

Kunlardan bir kuni Imom Ahmad ibn Hanbalning (rahmatullohi alayh) devorlari quladi. Shogirdlaridan birining qo'shni tomondan bir oz tuproq olib, loy qorganini ko'rib qoldilar-dau shogirdni «menga yaramaysan», deb huzurlaridan nari qidilar. Devor uchun boshqa loy qordirdilar.

Qo'shni hovlisidagi bir siqim tuproqning haqi ne ekanini biladiganlar bormi hozir safimizda?

Ba'zi birovlar yaqin qo'shni ekanini pesh qilib, eshikni o'zlari ochib, ichkariga indamay kirib kelaveradilar. Ular balki nomahram nazar nima ekanini bilmaslar? Beijozat kirib kelishlari oqibatida qo'shnini xijolat qilib qo'yishlari mumkinligini o'ylamaslar? Qarang-da, agar qo'shnining indamay kirib kelaverishiga ijozat bolsa, eshik qurishga ne hojat bor edi?

Nabiy muhtaram (s.a.v.) dedilar: «Suhbatdoshlarning eng yaxshisi - xushfe'l va ko'ngilga ma'quli va qo'shnilarning eng yaxshisi - qo'shnisiga munosabatda mumtozidir». Yana dedilar: «Allohning huzurida qo'shnilarning yaxshisi - qo'shnisiga yaxshilik qilganidir».

Nabiy muhtaram barakot va barakotsizlik xotinda, maskanda va otda bolishini aytdilar. Maskanning barakoti - turar joyining kengligi va qo'shnilarining yaxshi insonlar bolishidir. Bebarakaligi - turar joyining torligi va qo'shnilarining yomon fel-atvorli insonlar bolishi bilan bogliq.

*O'rdayin kuymas edim, kuyirdi-da, yon qo'shnim,
Guldayin so'lmas edim, so'ldirdi-da, yon qo'shnim,
O'g'lim, qizim baxtidan ayirdi-da, yon qo'shnim...*

Qo'shnichilik burchi faqat qo'shniga azob bermas- likdangina iborat emas. Qo'shni uchun qandaydir

qiyinchilikni zimmaga olish ham kerak boladi. Chunki qo'shniga azob bermaslikning o'zi, hali burch o'taldi, degan gap emas. Buning uchun hatto malum bir qiyinchilik yo noqulay ahvolga chidash ham kamlik qiladi. Chunki, shu bilan birgalikda qo'shniga yaxshi (mehr bilan) va muloyim muomala qilish, unga xayr-sadaqa qolini uzatish kerakdir. Shu o'rinda bir oz qaytariqday tuyulsa ham qo'shni burchi haqida yana to'xtalaylik. G'azzoliy hazratlari sharafli hadisning tafsiri sifatida bunday bayon qiladilar:

«Qo'shni bilan uchrashganda salom bilan so'z boshlamoq, gaplashganda gapni cho'zmaslik, ko'p savol bermaslik, kasal bo'lganda ko'rgani borish, boshiga musibat tushganda ta'ziyasida uning bilan birga sabrli bolish, sevinchli onlarida qutlash - uning sevinchi bilan sevinish, xatolarini ko'rmaslikka olish, uyini josuslarcha kuzatmaslik, devoriga bir narsalar qo'yib yoki osib g'ashini keltirmaslik, unga tegishli joydan suv olmaslik, uyining oldiga axlat va supirindi to'kmaslik, o'tish yo'llarini toraytirmaslik, biron bahona bilan uyiga qaramaslik, quloqqa chalingan oilaviy sirlarini yoymaslik, u yo'qligida uyini qo'riqlash, unga qarshi aytilgan so'zlarga quloq solmaslik, mahramiga oid xususlarda ko'z yummoq, xizmatchisiga qaramaslik, bolasiga shirin so'zlar aytish, diniy va dunyoviy masalalarda bilmaganlarini o'rgatish...»

Qo'shni haqi - qo'ldan kelganicha unga yaxshilik qilishda ekan. Shu bois ham Nabiy muhtaram (s.a.v.) «Qo'shnigayaxshilik qil, tinch-salomat bolasan... Kimning Allohga va Qiyomat kuniga iymoni bolsa, qo'shnisiga nisbatan izzat-ikromda bolsin», deb marhamat qilganlar. Xalqimizda bu sharafli hadisdagi ma'noni davom ettiruvchi maqollar ham bor: «Qo'shningni yanima, kinoya so'z dog' etar, qurbingyetsa ko'maklash, eshigingni bog' etar». «Qo'shning yomon bolsa-yomonlik kelar, qo'shning yaxshi bolsa - omonlik».

Hozir turli ko'rinishda, uslubda, hajmda yangi uylar qurilyapti. Ayrim uylarning pastki qavatida do'kon, qahvaxona yoki hunarmandlik ustaxonasi mavjud. Dolcon, qahvaxona ham, ustaxona ham qo'shniga ozor bermaydigan bo'lishi kerak. Tasavvur qiling, magnitafondan erta-yu kech ashula jaranglab tursa, temirchi bosqonda urib tursa, tutun burqsib tursa... Yoki ustaxonadan taralayotgan bo'yoqning o'tkir hidi qo'shnining dimog'ini achitib tursa. Bir qo'shni boloxona qurgani uchun ikkinchisidan ranjidi. «Boloxonani o'zimning yerimga qurdim, sening nima ishing bor?», deydi u qo'shni. Zimdan qaralsa, gapida jon bor. Lekin o'sha boloxonadan turib qo'shnining hovlisiga nomahram nazar tushib turishi-chi? Bu tomoni o'ylanmaydimi? Donolar deganlar-ki: «Ko'chaga, qo'shnim tomonga mag'zava tolckanimdan ko'ra, bu mag'zavani o'z ustimga to'kkanim afzal». Bu hikmatni tushunish qiyin emasdir?

Malum boldi-ki, o'zini vijdonli sanagan har bir odam qo'shnichilikka doir burchlarini og'ishmay ado etishi zarur ekan. Bu borada er va ayolning mas'uliyati orasida farq ko'ramiz. Erlar mayda-chuyda narsalarga ko'pda e'tibor bermaydilar. Aksincha, qo'shnilar orasining buzilishi xotinlarning o'zaro chiqishmasligi, mish-mishlari, glybatlari tufaylidir. Qo'shnining kelini arazlab ketib qolsa yoki qizi qaytib kelsa, quvonadiganlar ozmi yoki ko'pmi?

Shunday hikmatli gap bor: «Falonchilikida qo'sh nog'ora qizib, tayyor turadi. Qo'shnisilikida bir noxush gap bolsa nog'ora qo'qib, elga oshkor qiladi». Shunday odamlar ham o'zlarini iymonli hisoblaydilar? Bir xonaqohda namoz o'qib, ibodatdan so'ng teskari qarab ketadigan qo'shnilar-chi? Agar ular «U qo'shni bu qo'shnining begunohligiga amin bolmasa, bu qo'shnining iymoni shubha ostida boladi... Qiyomat kuni birinchi bo'lib, yovlashib qolgan qo'shnilar muhokamaga qo'yiladi», degan sharafli hadisni bilganlarida ehtimol bunday qilmagan bo'lardilar. Qo'shnisining uyiga mo'ralashni yaxshi ko'radiganlar-chi? Agar ular «Iznsiz

birovning uyiga mo'ralagan odamning ko'zini otyib olish halol boladi», degan hadisi sharifni bilganlarida ehtimol o'zlarini bu gunoh ishdan to'xtatgan bolardilar.

Ha, bu borada katta-yu kichik - hammamizning o'ylab ko'radigan ishlarimiz bor. Abdulloh ibn Umar aytadilar: «Bizning yoshligimizda ko'rganimiz shunday edi-ki, u vaqtda hech bir kishi o'z oltin-kumushini boshqa musulmon birodaridan azizroq hisoblamas edi. Hozir esa, har birimiz uchun oltin-kumush har qanday musulmon birodarimizdan yaxshiroq bo'lib qoldi. Men Rasul- ullohdan: «Bir qancha qo'shnilar Qiyomat kuni o'z qo'shnilarining etagidan ushlab: «E Rabbim! Mana bu qo'shnim boshimga ish tushgan vaqtda yordam qilish o'rniga eshigini qulflab olgan edi» deb da'vo qiladi», degan hadislarini eshitganman».

Rasululloh (s.a.v.) sahobalaridan so'radilar: «O'g'rilik to'g'risida nima bilasizlar?» Sahobalar javob berdilar: «O'g'rilik - harom. Uni Alloh Taolo va Uning rasuli harom deb ataganlar». Nabiy muhtaram (s.a.v.) dedilar: «O'nta xonadondan o'g'rilik qilish bitta qo'shni uyidan o'g'rilik qilishdan yengilroqdir».

Nima uchun qo'shnilar bilan yaxshi munosabatda bolishga ko'p ahamiyat beriladi? Sababi: yon qo'shnisiga mehribon bo'lolmagan insondan uzoqdagi notanish odamga mehr-oqibat kutish qiyin. Qo'shnilarga yaxshilik qilish - jamiyatdagi insoniy aloqalarni mustahkamlashga, jamiyatni kuchli-qudratli qilishga xizmat etadi. Donishmandning «Qo'shnisi yaxshi qarimas», degan hikmati ayni haqiqatdir. Yomonga qo'shni bolgan odam dengiz sayyohiga o'xshaydi. U g'arq bolishdan qutulsa ham, qo'rquvdan qutula olmaydi. Hasan Basriy hazratlari aytdilarki: «Yaxshi qo'shni senga ziyon va tashvish yetkazmaydigan qo'shni emas (aslida bunday qo'shni ham yaxshi), balki sening yomonligingga chidab yashaydigan qo'shnidir». Bu hikmat asosida har birimiz o'zimizning xulqimizga chetdan nazar tashlab ko'rsak yaxshi bolardi. Qo'shnimizdan yaxshilikni talab

qilaveramiz yoki uningyomonligidan noliyveramiz. Xo'sh, o'zimiz yaxshimizmi? Bizning yomonligimizdan qo'shnimiz o'zgalarga hasrat qilmayotibdimi? «Awal o'zingga boq, keyin nog'ora qoq» maqoli ayni bizga atalmaganmikin?

Bir odam qo'shnisidan narvon so'raganda bermasa, yo biron bahona qilsa, u ham vaqti kelganda o'sha qo'shnisiga ketmonini berib turmaydi. Bu hoi qo'shnilar orasidagi sog'lom munosabatni bUzadi. Narvon ham, ketmon hamyeyilib qolmaydi. To'g'ri, sinib qolish ehtimoli bor. Ammo bu fojia emas. Tuzatsa boladi yoki yangisini sotib olish mumkin. Singan buyum egasi saxovatli bolsa, qo'shnisini xijolat qilmaydi: «O'zi sinay-sinay deb turuvdi, kelgan balo-qazo shunga ursin», deb qo'ya qoladi. Iymoni zaif bo'lsa, qo'shnisiga malomat toshlari yog'dirib, buyumning yangisini sotib olib berishini talab qiladi. Agar singan narvon egasi kamxarjroq bolsa, tolashni talab qilmasa ham, sindirgan qo'shni insof yuzasidan yangisini sotib olib bergani durust.

Qo'shni biron narsa so'rab chiqqanida berib turilsa savob. Qo'shnidan biron buyumni qizg'anish yaxshi odamlarning xulqidan emas. Balki riyokor kishilarning ishidir. Lekin bu go'zal xulqni suiiste'mol qilish ham yaxshi emas. Shunday xonadonlar bor-ki, tez-tez ishlatib turiladigan ro'zg'ortalab buyumlarni o'zlari sotib olmaydilar. Qo'shnilardan qayta-qayta so'rayveradilar. Dazmol kuyib qolganida to tuzatilgunicha yoki yangisi olingunicha so'rashning aybi yo'q. Lekin bu so'rash uzluksiz davom etmasligi kerak. Ayrim xonadonlarda tova yoki go'sht maydalagich yo'q. Holbuki, shu buyumlarni sotib olishga qurbilari yetadi. Bir latifa bor: ota o'gliga «Qo'shnidan tesha olib chiq», deb buyuradi. O'g'il «Qo'shnimiz teshasini bermadi», deb quruq qaytganda ota achchiqlanib deydi: «Juda baxil-da, bular! Bor, yertoladan o'zimizning yangi teshani olib chiq!»

Ertami-indin biron qutlug' xonadonga kelin bolib tushuvchi qizlarimiz qo'shnilar masalasida ayniqsa ziyrak

bo'lishlari shart. Qaynona-qaynotalari yoki xonadonning boshqa a'zolariga qanday shirin muomala qilsalar, qo'shnilar bilan ham o'shanday, balki undan ziyoda xushmuomalada bo'lishlari talab etiladi. Uydagi muo- malalarida xatolikka yol qo^salar, bir-ikki tanbeh bilan masala hal boladi. Lekin qo'shnilarga nisbatan biron burchni bajarmasalar, bir kamchiliklari yoniga yana beshtasi qo'shilib, atrofga doston qilinadi. Shundan ehtiyot bolsalar - marra ularniki!

Qo'shnilar bilan ahil-inoq bo'lib, mehr-oqibat quyoshi ostida baxtli umr kechirganimiz nur alannurdir. Xonadoningizga bir necha soatga yoki bir necha kunga keluvchi mehmonlar ham bor, a? Ular bilan muomalangiz qanday bo'lyapti? Mehmonlar haqingizga duo qilib, oilangizni maqtab ketyaptilarmi yo ko'ngillari g'ashlanib qaytyaptilarmi? Suhbat mavzuyini bu tomon buraman.

«Uy - fonus, mehmon sham-u men esam parvonamen...»

Qudsiy hadisda aytiladi: «Ey Odam farzandi! Agar uyingga mehmon kelmay qolsa, Parvardigorga «La'nati shayton yomonligidan meni O'zing saqla», deya iltijo qil».

Umidimiz yulduzlari, xonadoningiz fayzi shundaki, siznikidan mehmon arimaydi. Mehmon kutaverib ba'zan charchab ham ketasiz, to'g'rimi? Charchay-charchay, ba'zan kimgadir noligingiz ham keladi. Lekin nolimaysiz va to'g'ri qilasiz. Siz yaxshi tarbiya ko'rgansiz va mehmonning Alloh Taolo tomonidan yuborilganini bilasiz. Qaysi bir xonadonga mehmon kelmay qo^ygan bolsa, demak ujoyga shayton uya quribdi ekan.

Endi birgalikda o'ylaylik-chi: kimning uyiga mehmon oyoq bosmay qo^adi? Do'stlari, hatto qarindoshlari ham kelmay qo^yishadi? Faqat farishtasiz uyga! Kim shayton yetovida ekan, kim shayton vasvasasiga bandi ekan, uning uyiga birov kelmaydi. Yo'qlamaydi, ziyorat qilmaydi. Birov birovnikiga ovqat ilinjida, non umidida bormaydi. Dono

xalqimizda «Shirin noning bolmasa ham, shirin soʻzing bolsin», degan maqol bor. Mol-u mulki hisobsiz bolsa- da, himmati bolmasa, bu insonda hilm, lutf, bagʻrikenglik bolmasa - hammasi bekor!

Hadisi qudsiyda yana marhamat qilinadi: «Ey Odam farzandi! Sen huzuringga kelgan Mening mehmonlarimni siyla, Men ham huzurimga kelgan sening mehmonlaringni (*ya'ni senga tegishli kishilar vafot etib kelishganida*) siylayman». Diqqat qilaylik: biznikiga keluvchi odam shunchaki oddiy mehmon emas ekan. «Mehmon atoyi Xudo» deyilishi bejiz emas ekan. Demak, siz-u biz Alloh Taolo yollagan mehmonni siylashimiz kerak ekan. Ana shunda Tangri Taolo huzuriga biz tomondan borgan yaqinlarimizni aziz mehmon martabasida siylar ekan. Bu nima degani? Ya'ni, yaqinlarimizni - vafot etgan ota- onalarimiz, qarindoshlarimiz, do'stlarimiz, qo'shnila- rimizni... Alloh Taolo o'z mag'firatiga oladi, deganidir. Rabbimiz biz - bandalariga shunday iltifot qilyapti. Qarang, arzimas bir harakatlarimiz, xarajatlarimiz evaziga Yaratgan qanchalar mukofot va'da qilyapti! Taʼbir joiz bolsa, bir mehmonni siylash bilan biz aslida o'tgan ajdodlarimiz, duo talab yaqinlarimiz ruhlarini siylayapmiz ekan.

Rivoyat. Bir chavandozning tengsiz tulpori bolar ekan. Otga ko'p xaridor chiqibdi, hatto jonivoming bo'yi baravar tilla ham va'da qilishibdi, chavandoz tulporini sotishga ko'nmabdi. Boshqa bir shahardagi chavandoz otning shuhratini eshitib, butun dunyoyimni berib bolsa ham sotib olaman, degan niyatda yolga chiqibdi. Bir necha kun yol bosib, shuhratli ot egasining uyiga kelibdi. Qorong'ida eshik taqillatgan mehmonni chavandoz xushtavozelik bilan kutib olibdi. Ba'zilarga o'xshab «Kechasi birovnikiga kelib bezovta qilishga uyalmadimi?!» degan ma'noda labini burmabdi. Tongga qadar ziyofat qilibdi. Kunduz bo'libdi. Mehmon kelishi sababini aytmabdi, mezbon so'ramabdi. Mehmondorchilik uch kun davom etibdi. Mehmon izzati bitgan kuni muddaosini

bildiribdi. Buni eshitgan himmatli mezbob boshini eggan holda: «Men otimni sizga sota olmayman#, debdi. Mehmon har qancha yalinsa ham ko'nmabdi. Sababini esa aytmabdi. Mehmon chavandoz ham alam, ham afsus bilan iziga qaytibdi. Oradan vaqt o'tib, tulporning shuhrati so'ngandan keyingina mehmondorchilik bilan o'tgan o'sha uch kunda nima voqea yuz berganini anglabdi. Chavandozning bisotida faqat birgina bebaho oti bor bo'lib, o'zi nochor yashar ekan. Mehmon kelganida dasturxonga qo'yadigan hech narsasi bolmagani uchun hech kimga sotmayotgani, jonidan ortiq ko'ruvchi o'sha tulporni so'yib, mehmonni siylagan ekan...

Qissadan hissa chiqarishni o'zingizga havola qilib, yana Qudsiy hadisga murojaat etamiz: «Ey Odam farzandi! Barcha mol-dunyo Mening mulkimdir. Sen qulimsan. Sening kulbangga taklifingsiz kelgan mehmon esa, Mening elchimdir. Qo'lingdagi o'zim bergan ne'matlarimni qaytarib olib qo'yishimdan qo'rqmay- sanmi?!»

Tushungandirsiz, xonadonimizga kirib kelgan ne'matlarda mehmonlarning ham rizq-u nasibasi bor ekan. Mehmon bizning nasibamizga sherik bolmas ekan. U o'z rizqining egasi ekan. Undan qizg'ansak, og'rinsak, Yaratganning qahri kelib, ne'matlarni qanday bergan bo'lsa, shunday qaytarib olib qo'yishi mumkin. Shunisidan O'zi asrasin!

*Kimni ko'rsang bu jahonda o'z rizqin teradir,
Xoh sening uyingda bo'lsin, xoh o'z ayvonida.
Sen karam xonini yoz, ham shukr qil, Parvardigor
Berdi osh-u non do'stga do'st dasturxonida.*

Hikoyat. Bir kishi safar chog'i dala-dashtda yolini yo'qotib adashdi. Qosh qoraya boshlaganda bir uyga ko'zi tushib, najot topganidan quvondi. Umid bilan borib, eshikni taqillatdi. Xonadon egasi yo'q ekan, xotini chiqib: «Kimsiz?» deb so'radi. U kishi musofir ekanini, yolda

adashganini bildirib, agar ruxsat etilsa, tong otguncha shu uyda panoh topishga umidi borligini aytdi. Ayol ochiq yuz bilan:

- Xush keldingiz, aziz mehmon. Erim bir yerga ketgan edilar, hozir kelib qoladilar, marhamat qiling, - deb ichkariga taklif etdi. Musofir otni otxonaga boglab, ichkari kirdi. Ayol choy-non keltirdi. Musofir ovqatlanib o'tirganida xonadon sohibi keldi. Musofirni ko'rib, uning kimligini so'radi. Xotin «Alloh yuborgan mehmon», degach, uning jahli chiqdi.

- Nega uyga qo'yding? Menga mehmonning keragi yo'q!
- deb baqirdi.

Musofir uzrini aytdi-yu, chaqqon turib uydan chiqib ketdi. Tunni dashtda o'tkazdi. Ertasi kuni yana yol yurib, qosh qorayganda bir uy qarshisidan chiqdi. Eshikni taqillatgan edi, bir xotin chiqdi. U kishi musofirligini bildirgan edi, u achchiqlanib:

- Bizga mehmonning keragi yo'q. Sizni mehmon qila olmaymiz, boring, keting! - deb eshikni yopmoqchi bolganida eri kelib qoldi. Xotinidan bu kishining kimligini so'radi. Xotini musofir ekanini aytgach, xonadon sohibi ochiq yuz bilan:

- Xush keldingiz, aziz mehmon! Sizni biz tomon yo'llagan Alloh Taologa shukr! - deb musofirni uyiga boshladi. Ichkari kirib o'tirishgach, shirin muomala bilan hol-ahvol so'radi. Totli taomlar bilan ziyofat qildi. U Nabiy muhtaram (s.a.v.)ning: «Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bolsa, mehmonini ikrom etsin», degan hadislariga amal qildi.

Musofir bu uydagi va kechagi uydagi muomalalarni taqqoslab, jilmaydi. Uy egasi bu jilmayish boisini so'radi. Musofir aytdi. Shunda uy egasi dedi:

- Mehmon, ajablanmang. Kecha siz tushgan uydagi xotin mening singlim boladi. Xotinim esa sizni uydan quvgan odamning singlisidir...

Bu hikoyatdan ibrat shuki, mehmondo'st oilada ulg'aygan o'g'il-qizlar har qanday mehmonni xursand-

chilik bilan kutib oladigan bo'lishadi. Mehmondan bezor, «mehmon kelmasa edi», deb zirillab turuvchi oiladagi farzandlar mehmondo'st bolib ulg'ayishlari mumkinmi? «Mehmon tezroq tura qolsa edi», deb har xil ishoralar bilan muddaolarini ayon qilishga tirishuvchi otanalar farzandlariga nimani o'rgatar ekanlar?

Endi hikoyatda jiddiy ravishda e'tibor qilinishi lozim nuqtaga diqqatingizni tortmoqchimiz: agar shariat nuqtayi nazaridan qaralsa, eri yo'qligida mehmonni kutib olib, ichkariga boshlagan xotin noto'g'ri ish qilgan boladi. Er yo'q uyga kirgan mehmonni ham befarosat deyishimiz mumkin. Agar eri uyda bolmasa, xotin begona musofir u yoqda tursin, qarindoshlar orasidagi nomahram er kishi kelsa ham, eshikni ochmasligi kerak. Eshik ortidan turib: «Xo'jayinim (yoki «bolalarimning dadalari») uyda yo'q edilar», desa kifoya. Mehmon xotinni gapga solmasdan darrov iziga qaytishi kerak. Qur'oni Karimda buyuriladi- ki: «E iymon keltirganlar! O'z uylaringizdan boshqa uylarga to'z so'ramaguningizcha va ularning ahliga salom bermaguningizcha, kirmang. Ana shunday qilmog'ingiz siz uchun yaxshidir, shoyadki eslasangiz» («Nur» surasidan). O'rni kelganda birovnikiga kelganda chaqirish odobini ham yodga olaylik:

- Kar kim bir kishining eshigiga borib kirishni istasa, awalo u kishiga o'zining kelganini eshik orqasidan ohista taqillatish yo qo'ng'iroq chalish yo yo'talish tariqasida bildiradi. Eshik qattiq, asabiy ravishda qoqilmaydi, qo'ng'iroq ham ketma-ket chalinmaydi.

- Agar ichkaridan ovoz berilsa «Ichkariga kirsam boladimi?», deb so'raladi. Bunday izn so'rash adadi uch martagachadir. Har izn so'raganidan keyin to'rt rikat namoz o'qish miqdorida (tahminan ikki daqiqa) sabr qilib kutiladi. Qo'ng'iroq chalish, taqillatish orasidagi fursat ham shu miqdorda bolgani yaxshi.

- Agar uch bora chaqirganda ham uy egasining ovozi chiqmasa va kirishga izn berilmasa, kutib turilmay, orqaga qaytiladi.

- Agar uy egasi «Siz kim bolasiz?», deb so'rasa, javobiga ismini aniq qilib aytadi. Gumonli yoki mavhum qilib: imenmam yoki «o'zingiz bilgan odam» yoki «sizning qarindoshingizman yo do'stingizman», deyilmaydi.

- Agar uy egasi hamrohligida kelinsa, yuqorida zikr etilgan tartiblar bilan emas, sharoitga qarab ish qilinadi.

(Lekin, togli yoki cho'l qishloqlarida azal-azaldan saqlanib kelinayogan boshqacharoq urf-odat ham bor. Bu odatga ko'ra, er uyda yo'q paytida mehmon kelsa, xotin tomonidan izzat bilan kutib olinaveriladi.)

Mashhur arab sayyohi Ibn Battutaning ajib xotirasi bor. U karvonlari bilan Turkiyaning Onado'li deb atalmish Osiyo qismidagi Denizli shahriga yaqinlashganida shopmo'ylovli barvasta bir odam yoldan chiqib, otining jilovini mahkam tutadi-da, «yur, ketdik!» degan ishora qiladi. Sayyoh turkchani, u odam esa arabchani bilmaydi. Yoniga qilich osgan shop mo'ylovli bu odamni sayyoh qaroqchi deb oyiab, qo'rqib ketadi. Bu hamyetmaganiday, besh-o'n daqiqadan so'ng yana bir pahlavon odam paydo bo'lib, otning chap tomonidan jilovini ushlaydi. O'zaro nimalardir deb gapirib, biri otini u tomonga, ikkinchisi bu tomonga tortqilayveradi. Gap nimada ekanini bilmagan sayyohning qo'rquvi ortaveradi. Tortishuv sababi esa oddiy edi: awal kelgan shopmo'ylovli pahlavon aytadiki: «Mehmon - atoyi Xudo! Birinchi bo'lib uni men ko'rdim. Shuning uchun uni biz mehmon qilamiz». Ikkinchi bolib jilovni ushlagan pahlavon esa unga e'tiroz bildiradi: «Birinchi bolib ko'rganing to'g'ri, lekin birodar, bu yerlar bizniki-ku axir! Bizning mehmonimizni sen boshlab ketsang bizga uyat emasmi! Insof qil! Bu mehmonni Alloh Taolo bizga nasib etgan. Biz uni yediramiz, ichiramiz, yotog'ni tayin qilib beramiz. Duosini, savobini ham biz olajakmiz».

Azizlar, bu voqea sizga ertakday tuyulgandir? Lekin bu ertak emas, haqiqat!

«O'zbeklar - mehmondo'st xalq», deb faxrlanamiz. Xuddi shunga o'xshagan gapni, ya'ni «arablar meh-

mondo'st xalq» yoki «ispanlar mehmondo'st» degan faxrni ham o'sha joylarga borib qolsak eshitamiz. Har bir xalqning mehmondo'stlik odati o'zi uchun yoqimli, o'zi uchun suyumli. Dunyoda nechta qishloq, shahar, yurt mavjud bolsa, mehmondo'stlik ko'rinishlari ham shuncha. Xususan, «o'zbeklarga xos mehmondo'stlik» deganimiz bilan bu mehmondo'stlikning ko'rinishlari ko'p. Andijonda o'ziga xos, Jizzaxda yoki Buxoroda... xullas, har joyda o'ziga xos chiroyli ko'rinishlari bor. Bu ko'rinishlarning biri ikkinchisiga o'xshamaydi. Yanada sinchiklab kuzatsak, aytaylik, Surxondaryoning Denov shahridagi mehmondo'stlik bilan Boysundagi lutfning orasida farqlarni sezamiz. Bu odatlar har bir joyning shart-sharoitlari, imkoniyatlaridan kelib chiqib, shakllangan va qat'iy urf-odatga aylanib qolgan. Ayrim urf-odatlarga hozir ham qattiq amal qilinadi. Ba'zilar esa e'tiborsizlik natijasida unutilyapti.

Odatlar, yashash sharoitlari turlicha bolgani uchun «o'zbekcha mehmon kutish faqat shunday boladi», degan yagona va qat'iy qoidani tavsiya etish mumkin emas. Har bir mahalla, qishloq, shahar, viloyat azaliy odatlari boyicha mehmon kutadilar. Lekin barcha uchun umumiy bolgan mehmon kutish odatlari bor-ki, bu haqda ulug' allomalarimiz, donishmand bobolarimiz ko'p va xo'p aytib ketishgan. Bu haqda sal keyinroq batafsil so'z yuritamiz. Hozir esa Ibn Battutani qarshilagan mezbolar haqidagi hikoyatga qaytsak.

Bunday mehmondo'stlik bizda ham mavjud. Ayniqsa qishloqdagi bir xonadonga mehmon kelsa, uni uyiga chorlovchi mezbolar ko'payib ketadi. Bir kunni moljallab kelgan mehmon o'n - o'n besh kun qolib ketishi hech gap emas. Shuning uchun ham xalqimizni «mehmondo'st» deb sharaflashadi. Bunday mehmondo'stlikni ko'p ko'rgan- man va hamisha shu xalq farzandi ekanimdan faxr- langanman. Bunday faxr boshqa odamlarda ham borligi aniq. Lekin faqat faxr bilan cheklanish kifoya emas. Balki bu go'zal odatning yanada go'zallashuviga o'z hissasini

qo'shmog'i, farzandlarini shu odat bo'yicha tarbiya etmog'i lozim.

Aytish joizki, joylardagi mehmondo'stlikning birini ikkinchisiga taqqoslab, birini ikkinchisidan afzal qilib ko'rsatish aqlan emas. Har bir joyning odatini boricha qabul qilib, izzatlash kerak. Masalan, Farg'ona vodiysida mehmon ostona hatlashi bilan qoliga suv quyadilar. Dasturxon to'riga o'tqazadilar. Fotihadan so'ng o'rinlaridan turib, qo'l qovushtirib «Xush kelibsiz, qadamingizga hasanot!» deyilar. Mehmon ham hurmat yuzasidan o'midan turib «Xushvaqt boling», deb lutf qiladi. Mehmonlarga yarim piyoladan kamroq miqdorda choy quyib uzatadilar. Choy quyishda piyolaga shama tushirmaslikka urinadilar. Mehmon ketishga izn so'rsa, darrov ruxsat bermaydilar, «men hali sizning diydoringizga to'g'anim yo'q», deb yana bir oz suhbatga tutadilar. Mehmon ketishga ruxsat so'rashi bilan qolni fotihaga ochish odobsizlik sanaladi. Xuddi mehmonning tezroq daf bolishini istayotganday qabul qilinadi. Ziyofat mobaynida mezbon «oling, oling», deb ba'zan mehmonlarni qiynab ham qo'adi.

Bir ustozni shogirdlari mehmonga taklif qilishganida u kishi: «Uch shartim bor: meni to'rga o'tqazib olib kaltaklamaysan, so'ng urush maydoniga tashlamaysan, keyin qamab qo'ymaysan», degan ekan. Ustozning shartlari bu ma'noda edi: to'rga o'tqazib kaltaklash - hadeb «taomdan oling, oling», deyaverib holdan toydirish. Bu xususda bir latifa: mezbon «somsadan oling», deb qistayverdi. Mehmon: «Rahmat, somsa bag'oyat shirin bolibdi, to'rtta yedim, Xudoga shukr, to'Vdim», desa, mezbon yana lutf qilibdi: «Beshtayedingiz, yana bitta oling, juft bola qolsin».

Ustozning ikkinchi sharti - jang maydoniga tashlamaslik - mehmondorchilik paytida, ayniqsa, suhbat vaqtida atrofda bolalarning shovqin qilmasligi edi. Bola - bola-da! Mehmon kelsa, kattalardan ko'ra ular ko'proq quvonadilar, o'ynaydilar, sho'xliklari avjga chiqadi.

Mehmonning izzati uchun shovqin qilmaslikni bolaga mehmon kelmasidan awal tushuntirish, o'rgatish kerak. Bu odobni bola bitta gap bilan qulog'iga ilmaydi, bu sohadagi tarbiya uzluksiz davom etishi kerak. Ba'zi hollarda bolaning sho'xligi ortsa, uni tinchitish uchun onalari uradilar. Shunda bolaning baqirishi ayjga chiqib, mehmon noqulay ahvolga tushadi. «Mening tashrifim yoqmagani uchun bolani urib alamdand chiqyapti», deb o'ylashi ham mumkin. Mehmon huzurida mezbon oilaning katta-yu kichigi g'azablarini yoki tashvishlarini oshkor qilib qo'Vishdan saqlanishlari kerak. «Mehmon huzurida hatto mushugingni «pishb» demagin», maqoliga amal qilmoqlik xayrlidir. Mehmon baodob, ilmi, suhbat shirin odam bo'lsa, taomdan keyin, bolalarni uning suhbatiga chorlash ham yaxshi odat. Suhbatdan so'ng mehmon bolalar haqiga xos duo qilsa yanada yaxshi.

Ustozning uchinchi sharti - «qamab qo'y maysan», deyishi «ketadigan bo'lsam «yana o'tiring», deb qistayver maysan» degan ma'noda edi. Kelmak - irodat, ketmak- ijozat bilandir. Bu «Mehmonning kelish ixtiyori o'zidan, ketish ixtiyori esa mezbondan» degani. Lekin mezbon bu ixtiyorni haddan ziyod suiiste'mol qilmasligi kerak. Ingiizlarda mehmon yeb-ichib, gapini gapirib, ko'ngli tolgach, indamay turib ketaverarkan. Bu odat inglizlarning o'zlariga buyursin. Biz mehmonni ko'chagacha kuzatib chiqmasak, ko'nglimiz joyiga tushmaydi. Uzoqdan kelgan mehmonni bekatgacha kuzatamiz. Lekin ko'p qavatli uylarda kuzatish odobida andak nochorlik sezilib qoladi. Mezbon uy ostonasidayoq xayrlashadi, zinadan tushib-chiqishga erinadi. Agar mezbon to'qqizinchi qavatda yashasa-yu, lift ishlamayogan bolsa bosh gap.

Mehmondorchilikda «oling-oling»ga o'rgangan kishi Xorazm tomonlarga borib qolsa, ajablanishi mumkin. U yoqlarda har bir mehmon oldiga bir choynak, bir piyola qo'yiladi. Mehmon choyni o'zi quyib ichadi. Bu odatda mehmonga nisbatan hurmatsizlikni ko'rmaslik kerak.

Kaminaga o'xshab kam choy ichadiganlar uchun ayni shu odat yoqimli. Chunki vodiy tomonda choy quyib uzataverishgach, mezbanning qolini qaytarishdan xijolat bo'lib, ichishga majbur bo'laverasiz. «Oling, yeng» deb taklif qilmoqlik mustahab, ya'ni savob ish. Lekin buning chegarasini bilish kerak.

Mehmon kelsa, birinchi galda dasturxon yozamiz. Undan hech qachon «qomingiz ochmi?» deb so'ramaymiz. Bilasiz, ruslarning odati shunaqa, biz uchun esa uyat. Bir odam mehmonidan: «Ochmisiz, tashnamisiz yo uyqungiz kelyaptimi?» deb so'rabdi. Mehmon hazil yo'sinida javob beribdi: «Buloq boshida to'yib uxlab keldim». Bu javobni eshitib mezbon o'ylanibdi: «Demak, buloq boshida toyib suv ichgan, to'yib uxlagan. Faqat... qorni och ekan...»

Mehmondan so'rab o'tirmay, taom keltiriladi. Yesa - yegani qadar yer. Yemagani - mehmondan qolgan taom shifodir, deydilar. Bizning odob shunday. Abul Alo al- Maariy dedilarki: «Uyingga kelgan mehmonga tushlik ovqatni bergan bolsang, kechda unga «Ovqatlanishga ishtahangiz bormi?» deb so'rama. Mehmon och bolsa-da, uyalganidan «Ishtaham yo'q», demogl mumkin. Shuning uchun qanday taoming bolsa-da, taqdim qil». Ya'ni: «So'rab bergandan ko'ra, urib ber». Bir xasisning qovurilgan tovuqni uch kundan beri dasturxonga qoyib, ammo yemasdan olib ketayotganiga razm solgan mehmon: «Bu tovuqning qovurilgandan keyingi umri tirikligidan ham uzunroq shekilli?» deb o'vlagan ekan.

Mehmonning haqi baland sanaladi. Podsho zamonida tog' qishloqlarining birida ibratli voqea sodir bolgan.

Rivoyat. Mirshablar ta'qibidagi odam qochib kelib, bir uyga kirib yashirinadi, Uy egasi qarasa-ki, o'zining dushmani panoh izlab kiribdi. Uy egasi xunxo'r edi, bu kishini oldirib, qasos olishi zarur edi. Lekin ostonasini hatlab kirgani uchun u odam mehmon martabasiga chiqqandi. Uni o'z uyida oldirishi mumkin emasdi. Hatto mehmonni mirshab qoliga topshirishga ham haqi yo'q

edi. Mehmon martabasidagi dushmanini himoya qilishni xalqining mehmondo'stlik qonunini talab etardi. Uy egasi yozilmagan, ammo asrlar boyi ota-bobolari itoat etib kelgan bu qonunga boysundi. Mehmonni mirshablardan himoya qilib, o'zi halok boldi...

Hikoyat. Himmatli va muruwatli bir odam o'z bog'iga yor-u do'stlarini da'vat qilib, ziyofat berdi. U kishining go'zal va axloqli, tarbiyali bir o'gli bor edi. U kechgacha mehmonlar xizmatida bolib, juda charchadi. Kechqurun dam olish uchun boloxonaga chiqqan edi, bexos munkib, pastga yiqildi-yu jon berdi. Ota bechora bu qayg'uli holni ko'rib, yurak-bag'ri ezildi, ko'zigayosh olib, o'gliga kelgan falokatni xotiniga va oila a'zolariga sekingina xabar qildi- da:

- Hech qaysingiz tovush chiqarib yig'lamang, o'glimning vafot qilganini mehmonlar sezmasin,- deb tayinladi.

Mehmonlarga sezdirmasdan marhum o'glini yuvdirib, kafanlatib qo'ydi. Keyin mehmonlar huzuriga chiqib, ular bilan suhbatlashib o'tirdi. O'glining vafotidan mehmonlar xabarsiz edilar. «O'glingiz qayerda, nima uchun ko'rinmay qoldi?» deb so'radilar. Ota bechora mehmonlarning kayfiyatlarini buzmaslik uchun fojiani yashirdi: «O'glim sal charchabdi, uxlayapti», degan javob bilan cheklandi. Mehmonlar muruwatli kishining bog'ida tunadilar. Ertalab bomdodni o'qib, nonushta qilishgach, ketishga izn so'radilar. Shunda ota ko'zlariga yosh olib dedi:

- Do'stlarim, o'glim kechki payt boloxonadan yiqilib vafot qildi... peshingajanoza...

Bu to'qima voqea emas, hayotda uchrab turadigan hoi. Olim fojiasi sodir bolmasa-da, mayda-chuyda tashvishli ishlar ham mehmonlarga bildirilmaydi. Mashhur yozuvchi Olmas Umarbekovning kitoblarini nashrga tayyorlash jarayonida bir hikoya diqqatimni tortdi. Undagi bayonga ko'ra, shaharlik ziyolilar tog'dagi qishloqqa sayr qilgani boradilar. Sayr tashabbuskori qishloqdagi tanishi yashaydigan uy eshigini taqillatadi. Bir ayol eshikni ochib,

mehmonlarni ichkariga taklif qiladi. Uy sohibini so'rashsa, «Hozir kelib qoladilar», deydi. Dasturxon yozib, shaharliklarni mehmon qiladi. Mehmonlar oshni yeb bo'lishib yana uy sohibini so'rashganda ayol uy sohibining o'tgan yili vafot etganini aytadi. Ma'lum bo'lishicha, shaharliklar boshqa ko'chaga kirib qolib, boshqa eshikni taqillatishgan ekan. Eshikni ochib, mehmonlarni ko'rgan ayol «sizlar izlab kelgan kishi nariga ko'chada turadi», demay, ularni ochiq chehra bilan qarshilashining sababi: uning marhum eri tiriklik choqlarida mehmondo'stlikni qadrlaydigan kishi bolgan ekan...

Bu hikoyani o'qib, «bo'lgan voqeaga o'xshaydi», deganimda yozuvchi tasdiqlab, yana bir voqeani aytib bergan edilar. Yozuvchining hikoyalari ruschaga tarjima qilinib, Moskva nashriyotiga yuborilgach, u yerdan «asardagi voqealar yolg'on, hayotiy emas», degan javob keladi. Oradan qanchadir vaqt o'tib, Moskvadan bir yozuvchi mehmon bolib keladi. Uni O'zbekiston bo'ylab sayr qildirishni Olmas Umarbekovga topshiradilar. Sayr-u sayohat nihoyasiga yetgach, moskvalik yozuvchi Olmas akaga uzrli ohangda bunday debdi:

- Sening hikoyalaringni o'qib, rad javobini yozgan edim. Undagi mehr-muruwatga doir voqealar menga sun'iy tuyulgan edi. Chunki bunday insoniylikni ko'rmagan edim. O'zbekistonda yurib, sening tasviringdagidan afzalroq mehr-muhabbatga guvoh boldim. Kitobingni ber, olib ketib, rus tilida chiqaraman, rus o'quvchilariga ibrat bolsin.

Mehmon huzurida mezbon qanchalik burchli bolsa, mehmon ham mezbon xonadoniga nisbatan burchlidir, uning moliga, ahli ayoliga yoki oilaning boshqa a'zolariga yomon nazar bilan qaramasligi shartdir. Bir o'g'ri uyni ship-shiydon qilib chiqib ketayotganida ayvonda bir qopni ko'ribdi, qorong'uda uning ichida nima borligini bilolmay, yalab ko'ribdi. Bilsa- tuz ekan. «Men bu uydan tuz totib, xonadonning mehmoniga aylandim, uning molini

o'g'irlash men uchun harom», deb olgan narsalarini tashlab chiqib ketgan ekan. Quyidagi rivoyatda esa buning aksi bolgan.

Rivoyat. Uqayl urug'idan bir kishining orqasida nashtar zaxmiga o'xshagan chandiqlar bor edi. Buning sababi so'ralganda u bunday hikoya qildi:

«Amakimning qiziga ishqim tushgan edi. Uning labi ustidagi xoli meni ishq alangasiga tashlab, sabrimni tugatdi. Men qizni nikohimga oldim. Shundan so'ng amakim menga dediki: «Qizimning mahri bir otdir. «Shabaka» deb nom berilgan bu ot Bani Bakr qabilasi amaldorlaridan biriga tegishli. Agar o'sha otni olib kelib bermasang, mahr mashaqqatidan xalos bolmaysan».

Men maqsadimga yetmoq uchun Bani Bakr qabilasiga bordim. Bir muncha vaqt u yerda bolib, otni qayerga bog'lashlarini kuzatdim. U shunday baytal edi-ki, chopqirikda shamolga bas kela olar, hech qanday otni oldinga o'tkazmas edi. Ikki yashar toychog'i ham bolib, o'zi dan ham xushbichimroq va chiroyliroq edi.

Kechasi otni o'g'irlashga qaror qildim. O'sha kecha shunday qorong'i edi-ki, hatto o'z panjangni ham ko'rolmasding. Men ohista kelardim. Uy o'rtasiga titilgan yung g'aram qilib qo'yilgan edi. Men yung g'arami orasiga qirib berkindim. Biror soatdan so'ng uy sohibi taom so'radi. Taom keltirilgach, er-xotin yeyishga mashg'ul bo'ldilar. Nima uchundir chiroq yoqmadilar. Men och edim. Ohistagina surilib, ularga yaqin kelib tovoqlariga qol uzatib, birga ovqatlana boshladim. Nogoh qolim uy egasining qoliga tegib ketdi. U qolimni mahkam ushlab oldi. Men esam xotining qolini mahkam ushladim. Xotin mening qolimni erining qoli deb gumon qilib «Begona qol deb o'yladingizmi?» dedi.

Ovqatlanib bolishgach, xotin zanjiri otning oyog'iga solib qulfladida kalitni yostig'ining ostiga yashirdi. Tun yarimlaganda qul uyga yaqinlashib, eri yonida uxlab yotgan xotin tomonga kichik bir toshchani otib, uni uyg'otdi. Xotin erining qo'nidan chiqib, qulga ergashdi

va qo'shni uyda aysh-u ishratni boshlab yubordi. Men esam fursatni g'animat bilib, o'rnimdan turdim. Yostiq ostidagi kalitni olib, otning oyog'idagi zanjirni yechdim. Yungdan eshilgan arqonni otning boshiga solib, asta yetaklab tashqariga olib chiqdim. Keyin mindim-u qamchi bosdim. Buni ko'rib qolgan xotin qulning quchog'idan chiqdi-yu, «Otni olib qochishdi!» deb dod soldi. Uy egasi, meni quva boshladi. U mingan ot ham chopag'on ekan, oramizdagi masofa bir nayza bo'yidek masofaga qisqardi. U nayzasining uchi bilan orqamni jarohatladi. Ammo otdan yiqitishga kuchi yetmadi. Banogoh chuqur bir o'zangayetdik. Men otga qamchi urgan edim, sakrab oldi. Uy egasiningjur'atietmay, to'xtadi-da ortimdan: «E yigit, o'n ming dinorli otni o'g'irlading. Hargiz arzonga sotmagin!» deb qichqirdi. «Bu ot menga sen aytgandan ko'ra qimmatroqqa tushdi, men jonimni garovga qo'yib kelganman bu yerga», dedim. U: «Otni qanday qilib o'g'irlading?» deb so'radi. Men bir tovoqda ovqat yeganimizni, so'ng qul bilan xotining kirdikorlarini aytib berdim. Shunda u: «La'natlar bolsin senday mehmonga- ki, taomni yeding, otimni o'g'irlading va uyimni buzding!» deb meni qarg'ab, iziga qaytdi. Otni olib kelib, muddaomga yetdim, biroq orqamdagi zaxm ketmadi, uy egasining qarg'ishi esa hanuz qulog'im ostida jaranglaydi. Qarg'ishning amalga oshishini qo'rquv bilan kutib xavotirda yashayapman...

Endi mehmon kutish bobida donishmand bobolarimiz bizlarga vasiyat qilib ketgan odoblar haqida gapiraylik. «Manba'ul-maorif» asarida bayon qilinadi:

«Har mo'min uyiga mehmon kelsa, uy egasiga ham uch narsa vojib bolur va mehmonga ham uch narsa vojib bolur. Uy egasiga vojib boladurg'on uch narsaning biri shulki, ani xizmatga taklif qilmaslik, ikkinchisi shulki, mehmong'a bergan taomini haloldin kasb qilib topib bermoqlik, uchinchisi shulki, mehmon uchun namozni muhofaza qilmoqlik, ya'ni namoz vaqtida mehmonga xabar berib, ani obitahoratidin xabardor bo'lmoq lozimdur.

Mehmong'a vojib bo'lg'on uch narsaning biri shulki, uy egasi ani qaysi joyg'a taklif qilsa o'shal joyg'a olturmoq, ikkinchisi shulki, ani oldig'a uy egasi nima taom qo'sa, anga rozi bolmoq, uchinchisi shulki, ketar vaqtida uy egasini duo qilib ketmoq vojibdur».

Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Yaxshi kishilar odobi» («Odob as-solihin») asaridan mehmondorchilik odobi bayonini o'qiyimiz:

«Adabi awal - faqirlar mehmon qilinadi. Boylarni mehmonga maxsus chaqirilmaydi-ki, Payg'ambar (s.a.v.): «Yomon taom u taom-ki, boylarni xos chaqirib berilsa va qashshoqlarni chaqirilmasa», deb aytibdurlar. Yana bir sharti shuki, bir uydan otasini chaqirsa, bolasini ham chaqirsin yo u uydan chaqirilgan kishining yaqin qarindoshi bolsa, uni ham qo'shib chaqirilsin, uni mahrum qilinmasin-ki, bu ish jafodur. (*Husayn Voiz Koshifiydan nasihat buki.: mehmonga halol va pokiza taom taqdim etiladi, mehmon biror g'arazli maqsad va riyo uchun kutilmaydi.*)

Ikkinchi adab — mehmonni ko'p ikrom va ehtirom qilinadi. (*Mehmon qancha ko'p kelsa ham ranjimay, aksincha, quvonish kerak.*) Mehmon ikromining muddati uch kungachadir, to'rtinchi kuni ko'p takalluf qilinmasa ham boladi. (*Keyingi nasihatga kichik bir izoh: mazkur adab sharaflari hadis asosida aytilgan. Nabiy muhtaram. dedilar: «Kim Allohga va oxiratga ishongan bo'lsa, mehmonini izzat-ikrom qilsin. Mezbonning bir kecha- kunduz ko'rsatgan izzat-ikromi, qilgan ziyofati mehmon uchun bir mukofot tariqasida bolsin. Asli mehmonning izzati uch kundir. Bundan ortig'i mehmon uchun sadaqadir». Hamonki, sadaqa ekan, takalluf ham davom etgani xayrli. Ammo mehmon bu takalluflarni suiste'mol qilmasligi kerak-ki, sharaflari hadisning davomida: «mehmon uyda to mezbon haydab chiqarmagunicha turib qolmasin», deb uqtirilgan. Mehmonni uzzat qilish kutib olishdan boshlanadi. «Qobusnoma»da nasihat qilinadiki: «Mehmonlar sening uyingga qadam qo'ysalar, sen har*

uaqt barcha odamlariga bilan ularning oldilariga chiqqil, yaxshi so'z bilan qarshi olgil, toki ular senga minnatdorchilik bildirsinlar.» Mehmenni ko'rish bilan, omonlashishga qo'l uzatmay turib: «Kelsinlar, kelsinlar! Qadamlariga hasanot! Ostonamga yaqinlashishingiz bilan uyim charog'on bo'lib ketdi-ya!» kabi lutf qilish ikromning bir ko'rinishi. Kam keladigan mehmonga nisbatan: «le, bugun quyosh qayerdan chiqdi?» yoki «Hay- hay, kelishingizga kattaroq xodani sindirib yuborsam bo'larkan» kabi hazil yoki piching gaplarni aytish yaxshi emas.)

Uchinchi adab - uying devorlarini mehmon uchun parda va palos bilan yasatilmaydi-ki, makruhdir. Lekin mehmon ostiga naqshli to'shaklar yozsalar, basharti ipak yoki yirtqich hayvon terisi bolmasa, joizdir.

To'rtinchi adab - mehmonga taomni ko'p kechiktirilmay tez keltiriladi. Yana non yumaloqligi katta-katta qilin- maydi-ki, mutakabbirlar rasmidir. Va yana dasturxon ustiga hozirlarga kifoya qilgudek non qo'yiladi, ziyoda qo'yilmaydi-ki, isrof va xorlash boladi. Sindirilgan non bo'lsa, yana bir non sindirilmaydi, bu ham isrof va xorlashga kiradi (*izoh: ko'p joylarda xursandchilik mehmondorchiligida juft non qo'yiladi, ta'ziyaga doir marosimlarga esa toq non qo'yish odati bor. Shu yo'sinda ziyofat ikki turga ajratiladi. To'yda toq non qo'yilsa, ayb sanashadi. Aslida buning yomon tomoni yo'q. Islomda ko'p ishlar toq ravishda amalga oshiriladi. Bu Allohning yagonaligiga bir ishora. Dasturxoniga toq yoki juft non qo'yilishi har birjoyning azaliy odatiga binoan bo'laversa zararli emas. Bu narsadan muammo yoki bahs keltirib chiqarmaslik kerak. Nonning isrofi haqida esa awal gapirgan edik, bu masala vijdon egasining yodidan ko'tarilmasligi shart).*

Beshinchi adab - mehmonga taom qoyilgandan so'ng tanovulga izn beriladi. Basharti mehmon begona bolsa, awal uy egasi taomga qol uzatadi, yana qolini hammadan oxiri tortadi. Agar o'z oshna va birodarlari bolsa, awal

ularni hurmat qiladi, ulardan ilgari qol uzatmaydi (izoh: agar kichikroq davra bo'lsa, mezbon kirib o'tiradi. Davrada o'ttiz-qirq kishi bo'lsa, ba'zan mezbon tashqaridan turib xizmat qiladi. Bu odob har bir joyning o'z odatiga bog'liq. «Qobusnoma»da bu borada bunday nasihat qilinadi: «Mehmonlar bir-ikki so'ramagunlaricha sen o'tirma. Mehmonlar «biz rozimiz, o'tir», desalar «meni qo'yinglar, sizlarga xizmat qilayin», deb aytgil. Yana takror aytsalar, undan keyin o'tir. Ularning roziligini olgil va hammadanpastda o'tirgil. «E falonchi, taomni yaxshi ye (yoki «hech nima yemading»), men senga loyiq hech nima qila olmadim, inshaalloh, keyin buning uzrini yaxshiroq qilaman», deyavermagil. Bu so'z ulug'lar, boobro' kishilarning so'zi emasdir, balki bozorчилarning va bezorilarning so'zidir. (Bunday odamlar bir necha yilda bir marta mehmon chaqiradilar.) Bularning mehmonlari xijolat yeydilar, taom yemaydilar, mehmondorchilikdan to'ymasdan turib ketadilar. Bizlarning Gilonda yaxshi odatlarimiz borki, mehmon chaqirsalar, dasturxon yozib, taomlarni keltirib qo'yadilar va ko'zalarda suv ham keltirib, dasturxon chetlariga qo'yadilar va barcha mehmonlarni dasturxon atrofiga o'tqazib, o'zlari chiqib ketadilar. Bir kishi lagan va kosalarni saranjomlash uchun qoladi. Mehmon taomdan ko'ngli xohlaganicha yeydi, undan keyin mezbon o'tirishga kiradi. Arab xalqining dasturxonini ham shundaydir». Azizlar, yurtimizda, deyarli barchajoylarda mehmon kelganda bolalarning, ayniqsa, kelinning kirib o'tirishi odobdan sanalmaydi. Ular tashqarida xizmatda bo'lishadi. Agar mehmonxonada nomahramlar o'tirgan bo'lishsa, qizlar yoki kelin ichkariga choy-non ko'tarib kirishmaydi, ostonaga qo'yib, ovoz berishadi. Ichkarida xizmat qilayotgan kishi chiqib, bu ne'matlarni oladi. Xonadonga yaqin qarindoshlar kelsalar ham, hatto mehmonlar yaqin qarindosh ayollardan iborat bo'lishsa ham, kelin ularning qatorida o'tirib ovqatlanmaydi. Mehmondorchilik boshlanishida ularning hurmatlari

uchun birpiyoladan choy uzatib, so'ng tashqariga chiqib, xizmatini davom ettiradi. Mehmonlar suhbatiga aralashish, ular bilan bir tovoqdan osh oshalash kelinning husni emas. Choy tavoze bilan uzatiladi).

Oltinchi adab - mehmon taomga haddan ortiq targ'ib qilinmaydi, balki uch martagina targ'ib qilinadi, undan ziyoda zo'rlanmaydi.

Yettinchi adab - taom yeyishda mehmonga sherikchilik qiladi. Agar nafi ro'zaga niyat qilgan bo'lsa ham. *(Solmoni Forsiy (r.a.) Abu Dardoning (r.a.) uylarida mehmon bo'lganlarida shunday holat yuz bergan ekan. Abu Dardo mehmonning hurmati uchun nafi ro'zasini ochishga majbur bo'lib, keyin Rasullulloh (s.a.v.)ga shikoyat qilganlarida Nabiy muhtaram (s.a.v.) nafi ro'zaning ochilishini ma'qullaganlar. Agar ro'zador mehmondorchilikka chaqirilsa, ovqatlanmay o'tirishi mezbonga va boshqa mehmonlarga malol kelmasa, ovqat yemagani ma'qul. Agar malol kelsa, nafi ro'zani ochib, boshqa kuni tutib beradi. «Og'iz ochishni istamagan kishi ochmasin, lekin ochishi afzaldir», deyiladi.)*

Sakkizinchi adab - lazzatli va latif taom mehmonga yediriladi va bundayrog'ini o'zi yeydi. Agar taom oz bolsa va mehmonning ochligini anglasa, o'zi kamroqyeb, aksar taomni mehmonga yediradi. Mehmon taomlanganidan so'ng ketmoqchi bolsa, kelgan vaqtida oldiga chiqqanday ijozat berib, to eshikkacha birga kuzatadi. *(Ayrim odob kitoblarida yetti qadam yurish tavsiya etilgan. Mehmondorchilik davomida mehmon tashqariga chiqishni ixtiyor etsa, mezbon ham birga chiqadi. Bu holda ham yetti qadam birga yurishni odobdan, deganlar.)* Xayrlashar vaqtida «Meni hurmat qilibsizlar, sizlami Alloh siylasin!», deb duo qilinadi.

To'qqizinchi adab - uyda nima narsa bor bolsa, mehmon oldiga qo'qiladi. *(Baxillik qilinmaydi, mehmondan narsa qizg'anilmaydi. Yasama iltifot ko'rsatilmaydi. «E farzand, mehmonga minnat qilmagil, ochiq yuz bilan gapirgil. Har bir kishi sening mehmoning bo 'Isa, shodlik bilan taomingni yesin.)*

O'ninchi adab - taomda takalluf qilinmaydi, agar yaxshi niyat va durust qasd bilan takalluf qilinsa mumkin. (*Minnat qilmang, balki aksincha, mehmon dastur- xoningizdan non yeganidan quvonib, Allohga shukr qilib, mehmonga esa minnatdorchilik bildiring.*)

Mezbonning burchlari bu o'n adabda belgilangan vazifalar bilan cheklanmaydi. Shart-sharoitga qarab yuzaga chiqadigan masalalarda mehmonga malol kelmaydigan tomonlar olinaveriladi. Masalan, haftada yoki oyda necha marta mehmon chaqirish har bir oilaning o'z imkoniyati va shart-sharoitiga bog'liq. Shunga qaramay, donolar bu haqda ham nasihat qilganlar: «E farzand, har kuni begona odamlarni mehmon qilmagil, chunki har kun mehmon chaqirsang, mehmonga loyiq ishlarni ko'ngling to'lguncha qila olmaysan. Ko'rgilki, ko'ngling har oyda necha marta mehmon chaqirishni tilaydi. Agar uch marta chaqirishni tilasa, bir marta chaqirgil, uch marta qiladigan xajingni bir martada qilgil, bu bilan dasturxonning aybsiz bo'lg'ay, ayb qilib ketuvchilarning **tili bog'liq bo'lg'ay**». Bu nasihatda jon bor, biroq uning ziddiga bir hikmat ham mavjud: Ibrohim (alayhissalom) dan «Qaysi fazilatlarinigiz uchun Alloh sizni O'ziga do'st qilib oldi?», deb so'ralganida uchinchi sababni bayon qilib dedilarki: «Kunduzgi ovqatni ham, kechki ovqatni ham mehmon bilan baham ko'rganim uchun». Bu hikmatning ma'nosi: taomni mehmon bilan **baham ko'rishda**. Alohida mehmon qilib chaqirib, alohida to "kin dasturxon yozishda emas.

Mehmondorchilik uchun dasturxon ustini to'ldirib tashlashga harakat qilamiz. Ammo bilish kerak-ki, eng go'zal dasturxon kamtarona dasturxonidir. Dasturxonni to "kin qilaman, deb birovlardan qarz olish ham yaxshi emas. Borini baham ko'rish kerak. Bir kishi xotiniga: «Boydoq mehmonga kelganida butun non qo'», deb tayinlabdi. Xotini buning sababini so'raganida u debdi: «Oilali, ro'zg'orli odam yetishmovchilikni, ro'zg'orda hamma narsa tola-tokis bolmasligirri biladi va uyida ham

shunday holatlar bolib turgani uchun sir saqlabf qanoat qilib birovga gapirmaydi. Bo'ydoq esa oiladagi kamchiliklarni anglamagani, bilmaganidan «siniq non qoydi», deb malomat qiladi».

Uy egasi - mezbanning vazifalarini bilib oldingiz, endi **mehmon riya qilishi zarur bo'lgan odoblar** bilan ham tanishaylik. Chunki bugun siz mezbon sifatida xizmat qilsangiz, ertaga mehmon martabasida bolib, o'zgalardan izzat talab qilasiz. Kattalar orasida mehmonlik odobini bilmaydiganlar uchrab turadi-ki, ular awalo talabni oshirib yuborib, davra to'rini egallab, taltayish darajasiga yetadilar. Talablari tola-to'kis bajarilmasa, mezbondan ranjib ketadilar.

Mehmondorchilikka tayyorlanayotgan ayollarni pardozga berilishda ayblab tanqid qilishga o'rganib qolganmiz. Pardoz haddan ziyod oshsa, albatta, tanqidga loyiq. Lekin mehmonga tayyorgarliksiz borish ham yaxshi emas. Tayyorgarliksiz borish erlarda ko'proq uchraydi. Hovlida qaysi kiyimda yurgan bolsalar, o'sha ahvolda ketaveradilar. Aftlariga qarab qo'yishni ham unutadilar. Bu ham mehmonga jam bolgan jamoaga, ham mezbonga, ham kishining o'ziga bolgan hurmatsizligidir. Ba'zan kuzatamiz: xotin binoyi kiyingan, pardoz qilgan, yonidagi erning kostumiga esa dazmol urilmagan, koyiaginging yoqasi buralib qolgan, poyabzali chang...

Endi donishmandlarning mehmonga boruvchi zimmasiga yuklagan vazifalariga diqqat qilaylik.

Adabi awal - xususan yaxshi va faqir kishi, garchi qoyning bir pochasiga chaqirsam ham qabul qilib, albatta boriladi. *(Qanday ovqatlar tayyorlanishi so'ralmaydi. Ba'zilar «Chaqirilgan joygagina boring» degan sharaflari hadisga asoslanib, chaqirilgan joyga borishni vojib (zarur) hisoblab, uni tark qilmaslikni aytishgan. Lekin aksari ulamolar buni vojib emas, balki ta'kidlangan sunnat deyishgan.)*

Ikkinchi adab - bilgilki, nikoh uchun qilingan taomga chaqirsalar ro'zador bolsa ham qabul qilinadi-ki, ba'zi

ulamolar buni vojib deydilar va ba'zi ulamolar o'zga chorlovga o'xshash mustahab deydilar. Agar kim shar'iy uzr bilan bormasa, gunohkor bolmaydi.

Uchinchi adab - agar taomga zolim, fosiq, riyokor, bid'atchilar chaqirsalar bormag'ay-ki, mustahabdur. (*Faqih Abu Lays Samarqandiy (rahmatullohi alayh) aytganlarki: «Agar bir mehmondorchilikka borsang, agar shu ziyofat moli harom bo'lmasa, unga fisq-u fujur aralashmagan bo'lsa, borishingdan zarar yo'qdir. Agar aksi bo'lsa, norozi ekaningni bildirib bormay qo'yauer. Faqat chaqirilgan joygagina borish lozim. Ziyofatga borsang-u bir munkar ishni ko'rsang, u yerdagilami bu ishdan qaytar, agar ko'nmasalar, ziyofatni tark et. Bordi- yu sen ular bilan o'tiraversang, ular seni shu ishdan rozi ekan, deb o'ylaydilar va yana shu ishni davom ettiraveradilar».*

«Futuvvatnomayi sultoniy»da mehmonga borish odob qoidalari bunday bayon qilinadi: «yaxshi, halol odamlar uyiga mehmon bo'lib borish; fosiq, kishilar haqini yeydigan haromxo'rlar uyiga qadam qo'ymaslik kerak, ulardan hazar qilish kerak. Shariatga xilof ishlar sodir bo'ladigan majlislarga bormaslik lozim. Ammo sening hurmating uchun g'ayri shar'iy ishlar tark etiladigan bo'lsa, borish mumkin».

To'rtinchi adab - chaqirilmasdan bir kishining taomi ustiga borilmaydi. Agar ikki kishi chaqirgan bo'lsa, qaysinisi yaqinroq qo'shnilardan bo'lsa, awal o'shanga boriladi. Ikki yaqin qo'shni barobar chaqirgan bo'lsa, qaysinisining oshnoligi ko'proq bo'lsa awal shunga boriladi. Yana shuki, taom egasining iznisiz chaqirilmagan kishini qo'shib olib bormaydi-ki, makruhdir, agar chaqirilgan kishining orqasidan o'zi qo'shilib borsa, taom egasining eshigiga kelganda, «bu kishi o'zi keldi, agar izn bo'lsa kirsin, bo'lmasa qaytsin», deb aytiladi.

(Izoh: albatta bunday deyish og'ir, lekin chaqirilmagan joyga borayotgan odam aqlini ishlatishi kerak. Chunki mezbon taklif etgan odamlar soniga qarab tayyorgarlik

ko'rgan bo'ladi. Chaqirilmagan mehmonga joy yetmay qolishi mumkin. Yoki davraga ko'ngillari ko'ngillariga yaqin kishilar chorlangan bo'lsa-yu, chaqirilmagan kishi ularga yoqmasa, mehmondorchilikka putur yetadi. Donolar dedilarki: «To'y, majlis kabi yig'in jeylariga chaqirilmagan bo'lsang, borma. Borsang, o'z obro'- hurmatingni to'kkan bo'lasan. Boshqalaming taomiga beruxsat qo'l uzatma. Uzatsang, izzat va e'tiboringni yo'qotasan.

*Istamas ersa kishi, sen unga mehmon bo'lmagil,
Gavhaili qiymatbahosan, sangi dandon bo'lmagil!»*

«Futuvvatnomayi sultoni»da ta'kidlangan adabga ko'ra, chaqirilmagan mehmon ko'proq hurmat qilinishi kerak ekan. Agar mehmondorchilikda buning imkoni bo'lsa, bu ham to'g'ri. Yana birhaqiqat borki, mehmonga chorlash vaqtida ayrim yaqin odamlar yoddan ko'tarilib qoladi. O'sha yaqinlar kelib qolishsa, albatta, izzatlari yuqori bo'lg'ay. Chunki ularni chorlash dilda bo'lgan-u, yodda bo'lmagan.)

Beshinchi adab - mehmon bolgan joyida kishilar orasida hirs va yoqimsizlik bilan taom yemaslik uchun mehmon o'z uyida bir oz taomlanib borgani yaxshi. (Izoh: «To'yga borsang - to'yib bor», degan maqolning ma'nosi ayni shundaydir. «To'yib bormasang, to'y da och qolasan», degan ma'noda emasdir. Bu xususda ham «Qobus- noma»da nasihatlar mavjud: «Ey farzand, har qanday kishinikiga mehmon bo'lib boraverma, chunki hashamat va shavkatingga zarar yetkazadi. Agar biror yerga mehmon bo'lib borsang, ko'p och bo'lib bormagil, qattiq yurib ham bormagilki, taom yeyishdan uzrli bo'lib o'tirsang mezbon ozor chekadi. Agar taomni ko'p yesang, xalqning ko'ziga yomon ko'rinasan. Mezbon uyiga kirsang, hatto oshnangniki bo'lsa ham, o'zingga munosib joyda o'tir va taom ustida buyruq ham bermagil, ya'ni mezbonning xizmatkorlariga: «E falonchi, bu uy o'zinning

uyimdir, tovoqni u yerga qo'y, boshqalarning taom va kosasiga qo'l urma», demagil. O'z chokarlaringga biror burda non olib bermagil, debdirlarki, mezbonning uyidan biror narsa olish - uyat».)

Oltinchi adab - mehmonga borganida mezbondan oldin yurmaydi. *(Mehmon xushnudlik bilan kutib olingach, ichkariga taklif qilamiz. Shu o'rinda ba'zilar yanglishadilar. Mehmonni g'oyatda izzat qilganlari uchun ichkariga awal uni kirishga da'vat etadilar. Bu da'vat yaxshi, ammo ichkariga mehmon oldinroq kirib borsa, hovlida va uyda biron noqulay sharoit bo'lsa, u ham noqulay ahvolga tushib qolishi mumkin. Mezbon oldinroq yurib, hovli dagilarni, uydagilarni mehmonning tashrifidan ogoh qilishi kerak. Hamma xonadonda sharoit bir xil emas. Ba'zi uylarda alohida mehmonxonaga bo'lmasligi mumkin. Demak, mehmon uchun shoshchiq ravishda joy hozirlash kerak. Bunday hollarda mezbon uzrini aytib, mehmon bilan bir oz suhbatlashib turishi ham mumkin. Joy hozir bo'lgach, xonaga ham awal mezbon kiradi. So'ng tavoze bilan mehmonni qarshilab, unga joy ko'rsatadi.)*

Mehmon uyga awal o'ng oyoqni qo'yib kiradi. Uyga kirganida salom beradi. Uy egasi qayerni ko'rsatsa, o'sha joyga o'tiradi, har nima keltirsa tanovul qiladi. *(Keltirilgan taomning aybini topmasdan, balki maqtab-taqtab yeyish odobdandir.)* Ko'zini har qayerga qarashdan saqlaydi. *(Ayniqsa, taom keltiriladigan tomonga hadeb qarayverishdan saqlanish kerak. Agar hovlida ayollar yurgan bo'lishsa, deraza orqali u tomon qarash ham yaxshi emas.)* Na taom jihatidan va na o'zga vajhdan uy egasiga hukm qilmaydi, agar bir-birlari bilan ilgaridan sirdosh bolsalar, hukm qilishining aybiyo'q.

Yettinchi adab -xodimga va oshpazgajoiz bo'lsa ham, birodarlik shundayki, mehmonlar bir-birlariga luqma bermaydilar va gado, it, mushukning hukmi ham shunday.

Sakkizinchi adab - taom egasining iznisiz nasiba ko'tarilmaydi, taom olib ketish uchun emas, yeyish uchun qo'yiladi. (*Izoh: ba'zi to'y-hashamlarda ayollar yeganlaricha yeb, qolganlarini tugunlariga tugib oladilar- ki, bu xunuk odatdir.*)

To'qqizinchi adab - dasturxon yig'ishtirilgandan keyin mezbonning haqiga xayrli duo qilinadi. Xayrlashuv vaqtida shukr qiladi, shikoyat qilmaydi.

O'ninchi adab - taomdan so'ng «Ovqat yeb bolding- larmi, endi tarqalishinglar ham mumkin» hukmiga binoan ko'p so'zlashib o'tirmay, ketishga ijozat so'raladi, beijozat va beruxsat ketilmaydi. Sharafli hadisda aytilgan: «Har vaqt bir majlisdan turub ketmoqni iroda qilsangizlar, awal majlis ahliga salom berib, andin so'ng turingizlar, chunki u suhbatda ba'zi noshoista so'zlar so'zlag'on bolsangizlar bergan salomlaringiz anga kafforat bolur va sizlar uchun farishtalar anga istig'for ayturlar va sizlarga rahmat nozil bolur», talddiga amal qilinsa yanada yaxshi.

Shuningdek, mehmondorchilik paytida ikki kishi so'zlashib .o'tirganda oraga suqilish, ularning so'zlarini bo'lib so'zga kirishish, o'z martabasi, darajasidan yuqoriga chiqib o'tirish - insonga tubanlik keltiradi, obro'sini tolcadi.

Hikoyat. Mo'tabar odamnikiga muxlislari mehmon bolib kelishdi. Mezbon ularni kutib olib, ichkariga boshlab kirgach xizmatkoriga «Dasturxon olib chiq!» deb buyurdi. Xizmatkor ancha hayalladi. Mehmonlar buni sezmaganday o'tirishdi. Xizmatkor bir soatlardan keyin dasturxonni ko'tarib kirganda uy sohibi «Nega shuncha qolib ketding?», deb unga tanbeh berdi.

- Banda dasturxonni ochib qarasam, chumoli bosib yotgan ekan, - dedi xizmatkor uzrli ohangda. - Uni shu holda mehmon oldiga olib chiqsam, odobdan bolmas, dedim. Yana nonni bechora nonxo'rlardan tortib olishni muruwatsizlik deb bildim va chumolilar dasturxonni tark etmagunlaricha kutdim.

Bu gapni eshitib, mehmonlardan biri duo qildi:

-Tangri taolo dasturxoningizga baraka ato etsin, ustoz! Chunki U shuncha chumoliga taom beribdi...

«Mehmon izzatini bilsin», degan gapni ham eshitib qolamiz. Ha, mehmonning martabasi har qancha baland bolmasin, izzati chegarasini bilishi kerak. Ba'ziar hali u, hali bu narsani so'rayverib, mezbonni xijolat qiladilar. Shunday beta'sir odamlardan biri oshnasinikiga kelib, yotib qolibdi. Mezbonning uyida bittagina ko'rpacha, bitta ko'rpa-yu yostiq bor edi, mehmonga solib beribdi. Bir ozdan so'ng mehmon sovuqdan junjikib, yotgan joyida mezbondan: «ustimga biron nima tashlab qo'», deb iltimos qilibdi. Mezbon o'z ostiga tashlab yotgan bo'yasini olib, mehmon ustiga tashlabdi. Mehmon bunga qanoat qilmay, yana so'rabdi. Mezbon tashqarida turgan narvonchani olib kirib tashlabdi. Mehmon yana so'rabdi. Uyda bir chelak suvdan boshqa hech narsa qolmagan ekan. Mezbon uni olib narvoncha ustiga qo'yibdi. Mehmon qimirlagan onda chelakdagi suv to'kilibdi. «Hoy, ustimdagi ko'r- palaringni olib qoy, uying isib, juda terlab ketdim», degan ekan mehmon.

Mehmonlar orasida o'z izzatini bilmaydigan beta'sirlari tez-tez uchrab turgani uchun ham ular haqida ko'p masallar to'qilgan.

Masal. Maymun odati bo'yicha anjir daraxtiga chiqib ovqatlanayotgan paytda ovchidan qochgan to'ng'iz paydo bo'lib qoldi. Maymunning anjir chaynayotganini ko'rib, uning ham ishtahasi ochilib ketib, «mehmon qilarmikin», degan tama'da salom berdi.

- Agar ilgariroq odam yuborib, xabar bersalar edi, ziyofat tayyorgarligini ko'rib qoyar edik. Endi yaxshi kutib ololmasak, aybga buyurmaysiz, - dedi maymun istehzo bilan.

To'ng'iz bu pichingni anglamay dedi:

- Men uzoq yoldan kelyapman, nima bo'lsa ham ishtaha bilan yeyaveraman. Takalluf qilmay, bor narsangni beraver.

Maymun bir talay anjir qoqib berdi. To'ng'iz ishtaha bilan yeb oldi, lekin to'ymadi.

- Ey marhamatli mezbob, bergan anjiring qomimga yuq ham bolmadi, nafsim qonmadi, endi boshqa daraxtga o'tib qoqib ber.

Maymun og'rina-og'rina boshqa daraxtni qoqib berdi. To'ng'iz bir pasda barcha anjirni yeb bitirdi. Keyin yana boshqa daraxtga ishora qildi.

- Ey aziz mehmon, insofni unutma. Bir oylik ovqatimni senga herdim. Bundan ortiq karam ko'rsata olmayman, - dedi maymun.

Bu gapni eshitib to'ng'izning g'azabi qaynadi:

- Sen necha yillardan beri bu anjirlarni yeysan. Endi o'rmondagi barcha mevalar mening nasibamdir!

- Birovning mulkini zo'rlik bilan olish shumlik hisoblanadi. Zo'ravonlikning oqibati yaxshi bolmaydi. Zaiflarga ozor berish, begunohlarni ranjitish yaxshi emas,

- deb maymun uni insofga chaqirdi.

Lekin to'ng'iz uning tanbehini eshitishni istamadi. «Seni pastga tushirib, adabingni beraman!» deb daraxtga tirmashdi. Bitta shoxga oyoq qo'ygan edi, shox sinib, to'ng'iz yiqilib tushdi-yu o'sha zahoti halok boldi...

Masaldan olinadigan ma'no shuki, izzatini bilmagan mehmon halokati jismonan emas, balki u o'z obro'yini o'zi mahv etgan boladi.

Bugungi mehmondorchiliklarda gunoh ishlar aralashib qolganiga ham guvoh bolypmiz. «Mastlikda ko'p so'zlash, hushyorlikda yiglash - devonalik», deyдилar. Mastlik chog'ida turfa xil devonaliklar yuzaga chiqadi, xilma-xil qiliqlar uyg'onadi. Birovlar chapak chala- veradilar, depsinadilar, kulaveradilar, yiglaydilar, ashula aytadilar... xullas, ahmoqlikning barcha ko'rinishlariga guvoh bo'lish mumkin. Ko'pchilik qimmatbaho aroq- konyaklarni dasturxon husni deb o'ylab yanglishyapti. Harom narsa hech mahal husn sanalmaydi. Afsusli yeri shundaki, ayollar ishtirokidagi mehmondorchiliklarda ham dasturxon man etilgan ichimliklar bilan tola

bolyapti. Yanada afsusli yeri shundaki, bu davralarda ayollar ham erkaklar bilan baravar ichishyapti.

Hayoli qiz-juvonlar bunday davraga borib qolsalar ularga juda og'ir boladi. Boshlab borgan ota-onalari, erlari yoki qaynonalarining nodonligi uchun ular aziyat chekadilar. Xudo ularga sabr bersin! Bilib turibman, bu davrani tark etish ularga oson emas. O'tiraversalar yanada qiyin. Shunday ekan, yuqoriroqda aytilganiday, vaziyatga, sharoitga qarab ish tutishdan o'zga chora yo'q. Biron nimani bahona qilib chiqib ketishga urinib ko'rganlari ma'quldir?

Siz aziz yoshlarimizga aytar gapimiz: sizni nobop davraga boshlab borsalar zinhor o'chakishmang, u davrada halol va harom haqida gapirib ovora ham bolmang. Buni uyga qaytganingizda ota-onangiz, eringiz yoki qaynonangizga alohida tushuntirishga harakat qiling. Agar «Sizlar gunohga botyapsizlar, sizlar bilan gunohkor bolishni istamayman!» deb davrani tark etsan- giz, eng yaqin odamlaringiz ham sizni tushunmasliklari, oqibatda oilangiz mustahkamligiga darz ketishi mumkin.

Aroqxo'rlik bor joyda buzuqlikka ixtiyor ham uyg'o- nadi. Ayrim erkaklar o'z do'stlarining xotinlariga ham ishrat ko'zi bilan boqishdan toymaydilar. Buni sezgan ayol davrani tark etish chorasini tezlashtirgani durust. Keyingi safar bu davraga kelmaslik bahonasini ham topsin. Biroq, eriga «falonchi menga buzuq qarash qildi», deb aytmasin. Aytsa, ikki do'st yoki qarindosh orasi buzilishidan tashqari, eri unga gumon bilan qaray boshlaydi.

Bugungi mezbon ertaga qayergadir mehmon bo'lib boradi, shundaymi? Demak, har bir odam ham mezbon, ham mehmon odoblarini o'zida jam qilishi lozim. Shuning barobarida, taomlanish odobi ham mayjud-ki, buni bilish zarurdir. Bu haqda awalgi suhbatlarda bir oz so'z yuritilgan edi, mavzugayana qaytishga hojat sezildi.

- Ilgariroq aytilganidek, taomni kam yeyish foydali. Agar ochlik sezilmasa, taom yeyilmagani durust. Shuningdek, haddan tashqari toyib yeyilmaydi-ki, bunga

amal qilinmasa, odamlar «boldb qolguncha yedi», deb malomat qiladilar.

- Agar zarurat jihatidan shubhali taomga ro'para bolsa, o'zini saqlab, ko'nglida pushaymon bolib, imkon darajasida oz yeydi. Shubhali taom shuki, fosiqnikimi- zolimnikimi, zohirdan bilib bolmaydi.

- O'z nafsi uchun xodimlari taomidan boshqa faqat o'zi uchun maxsus shirin taom tayyorlatmaydi.

- Agar xush va laziz taom betakalluf hozir bolsa, sunnatga muvofiq u tanovul qilinadi. Lekin go'sht doim yeyilmaydi va tark ham qilinmaydi.

- Shunday taomlar bor-ki, tanovulida birining ustiga ikkinchisi yeyilmaydi-ki, zero sunnatga xilofdir va sogliq uchun zararlidir: baliq bilan sutni; sut bilan nordon narsani; sut bilan tuxumni; sut bilan go'shtni; qovurilgan go'sht bilan qaynatilgan go'shtni; eski go'sht bilan yangi go'shtni; ikki issiglik narsani va ikki sovuqlik narsani; ikki muloyim-yumshoq taomni va ikki qattiq botuvchi taomni; ikki qotiruvchi va ikki suruvchini; biri qotiruvchi ikkinchisi suruvchini; tez hazm boluvchi taom bilan uzoq hazm boluvchini. Yana hidlangan taom, xom piyoz va sarimsoq ham yeyilmaydi.

- Taom o'tirib yeyiladi. Uch xil o'tirish sunnat hisoblanadi: awali, ikki tizza bukib o'tiriladi. Lekin yuztuban tushganga o'xshash qorinni tizzaga yetkazilmaydi. Ikkinchisi - o'ng tizzani ko'tarib, chap oyoq bukib o'tiriladi. Uchinchisi - ikki tizzani ko'tarib qoringa yopishtirib o'tiriladi. (Bugun ko'p xonadonlarda stol- stulga joy qilinadi. Bunda o'tirishning ham odobi mavjud: stolga ikki tirsakni tirab o'tirish, yoki yonboshlab olish yoki oyoqlarni chalishtirib olish yaxshi emas.)

- Uluglar taomga qol uzatmaguncha majlis ahli qol uzatmaydi. Majlisda agar o'zi ulug' kishi bo'lsa, boshqalami muntazir qilmay, taomga tezroq qol uzatadi.

- Yeb-ichish o'ng qol bilan bolishi lozim. Choyni qaytarish, uzatilgan choy yoki taomni olish (yoki uzatish) ham o'ng qo'lda amalga oshiriladi. Taom qoshiq yoki

sanchiqda emas, qoldayeyilsa, uch barmoq: bosh barmoq, ko'rsatkich barmoq, o'rta barmoqda yeyilmog'i sunnatga muvofiqdir. Goho to'rtinchi barmoqni qo'shsa ham joizdir. Ikki barmoq bilan yeyish ma'n etilgan. (*«besh barmoqni og'ziga tiqdu degan ibora faqat taom yeyishga taalluqli emas. Bu ko'proq «boylikka berilib, nafsini tiya olmadi», degan ma'noni anglatadi.»*)

- Agar taom bir tovoq (lagan)da o'rta qo'yilsa, o'z oldidan oladi. Mevalarni har qaysi tomondan olish mumkin. (*«Qutadg'u bilig»da bu xususda deyiladiki: «Mehmonga taklif etilsang, oshni odob bilan ye. Birovning oldidagi ovqatga qo'l cho'zma. O'zingga yaqin turgan joy dan ol. Pichoq o'ynatmagin. Qo'lingga suyak olib, kemirib o'tirma. Boshqalarning osh-ovqatlarini tatib ko'rishdan asralish lozim. O'zgalarni zo'r lab-qistash yaramaydi. Ayollarga o'xshab bemalol yemagin, ammo shoshilish ham zarar. Ayollardek seriltifot bo'lish ortiqcha. Bularga mulohaza yurit. Qanchalik to'q bo'lsang ham, taklif qilingandan keyin ovqatdan yeyish lozim. Bu sening qadringni oshiradi.»*)

- Non ikki qo'l bilan sindirilib, bo'laklari ikrom qilinadi, garchi yemoqchi bo'lsa ham, qolyog'i nonga surilmaydi. Og'izdan yoki qoldan tushgan non ushug'i yo o'zga donlar takabburlik va xudparastlik bilan tashlanmay, darhol terib yeyiladi-ki, unda xosiyat ko'pdir.

- Taomlanish paytida, agarchi och bo'lsa ham, tez-tez va shitob bilan yeyish «ko'ngilning qotishi, ko'rliqi, hatto olishiga bois boladi», deyilar.

- Luqma katta ham, kichik ham emas, o'rtacha olinadi va og'izdagi luqma yaxshi chaynab, ohista yutiladi. Taomga og'iz andozadan ziyoda ochilmaydi. Taomni o'ng taraf tishlari bilan chaynash sunnatdir. Agar o'ng tarafda tish og'rig'i va boshqa uzri bo'lsa, chap tarafda chaynasa ham boladi. Og'izdagi luqma yutilmagunicha taomga qayta qol uzatilmaydi. Tishlangan taom yana idishga qo'yilmaydi. Agar taom issiq bolsa, bir oz kutib turiladi. Taomlik qol kosaga yoki laganga silkitilmaydi. Yogliq

luqma yoki go'sht parchasi sirka yoki shunga o'xshashga botirib olinmay, balki quruq luqma sirkaga botirilib, go'sht o'shaning ustiga qo'yib yeyiladi. Ilikni qoqish uchun suyakni kuch bilan nonning orqasiga yo yuziga yo tovoq labiga yo dasturxonga urilmaydi. Agar go'sht yaxshi pishgan bo'lsa, sunnat shuki, qol bilan mayda-mayda qilinadi, pichoq ishlatilmaydi.

- Taom ustida boshdan-oxirigacha xomush o'tirish man qilingan (makruhdir). Yana har xil odamlar, hayvonlar haqida dahshatli va yoqimsiz so'z ham deyilmaydi-ki, bu kabi so'zlar ham makruhdir.

- Agar imkon bolsa, taom tanho yeyilmaydi. Negaki, ko'p qol uzatilgan taom barakali taomdir, deydilar. Yaxshiroq taom hamkosa va hamrohiga qo'yiladi-ki, buni in'omu ehson deyilib, savobi ko'pdir.

Hikoyat. Dono bir qariya dasturxonga turfa noz- ne'matlarni qo'yib, ovqatlanishga o'tirgan onda ko'cha eshikdan bir mehmon kirib keldi. Mezbon uni xur- sandchilik bilan qarshi olib, iltifot qildi: «Keling aziz mehmonim, keling, qadamingizga hasanot! Hikmatda aytadilar-ku «yaxshi mehmon osh ustiga», deb. Qarang, bir o'zim o'tirib tanovul qilishga uncha rag'bat-xohishim bolmay turgandim, xush keldingiz, birga ovqatlanadigan bo'ldik». Dono mezbonning shirin so'zlaridan mehmonning bahri-dili yayradi. Ikkovlari: «Oling, oling», «Xo'p shirin bo'пти», «Osh pishirganning qo'li dard ko'rmasin», deb ishtaha bilan ovqatlanishdi-ki, bu ham tiriklikning bebaho lazzati edi.

- Suhbat ahliga to suhbat tugaguncha ittifoqchilik qilinadi. Agar zarurat bolmasa, dasturxon yig'ilmasdan ilgari joydan turilmaydi.

- Donalab sanaladigan yemishlarda toq sanoqqa rioya qilinadi. Chunonchi, xurmo, anjir, chuchvara bolsa, bir yo uch yo yettita olib yeyiladi - toq adad ixtiyor qilinadi. Qoshiq bilan taom yeyishda ham toq adad rioya qilinsa yaxshiroqdir. Ikki kishi bir tovoqda sherik bolsalar, qoshiq bilan navbatma-navbat osh ichsalar, har qaysilar bir

qoshiqdan yo uch qoshiqdan ichadilar, agar tanho bolsa, ichishni toq bilan tugatadi. Yana qoshiqni toldirib ichilmaydi-ki, hirs-u ochko'zlik alomatidir. Oz ham ichilmaydi-ki, o'zni katta olish va kibr alomatidir, demak, o'rtacha olinadi. Yana qoshiqdan sho'rva va osh dasturxonga, libosga tommasligi uchun ehtiyot qilinadi. Qoshiqdagi yarmi ichilgan oshning qolgani kosaga qaytarilmaydi. Qoshiq bilan ichishda to'rt oyoqlilarga o'xshab og'zini kosadagi oshga ko'p yaqin keltirilmaydi. Yana qoshiq uchun og'izni ko'p katta ochmaydi, qoshiq og'iz ichiga eltilmaydi. Yana qoshiq bilan ichishda og'izdan noxush ovoz (xo'rillatish) chiqarilmaydi. Qoshiq tovoqqa to'nkarib qoyilmaydi-ki, agar taom qatralari qolgan bolsa, unga tommasin.

- Taom idishi va barmoqlar yalanganidan keyingina qol yuviladi. Qolni dasturxonga artilmaydi-ki, makruhdur. Awal o'rtta barmoq, undan so'ng bosh barmoq, keyin bosh barmoq yonidagisi yalanadi.

- Agar kishi po'stli va donali mevalami yemoqchi bolsa, adab shudir-ki, uning po'choqlari mevali idishga qo'yilmay, balki dasturxondan uzoqroq va chetroq yerga tashlanadi. Agar majlis tang bolsa, uzoqroqqa tashlashga imkon topilmasa, ularni ro'molga yo biron narsaga o'rab saqlaydi. Majlis ahlining ko'zidan pinhon tutadi. Agar ro'molchasi bolmasa, chap qolida saqlaydi. Fursat topilganida chap tarafidagi xoliroq yerga tashlaydi. Tashlashda ehtiyot qilinadi-ki, oyoq kiyimlarining ichiga tushmasin. Ziyofat mahalida bunday noqulaylik vujudga kelmasligi uchun po'choq tashlash uchun maxsus idishlar qo'yib qo'Vilsa yaxshi boladi.

Bizda dasturxon usti haddan tashqari ne'matlarga toldirib tashlanib, bo'sh idishga joy qolmaydi. Ba'zi joylarda chekuvchilarning hurmati uchun kuldon qo'yiladi, ammo afsuski, po'choq uchun bo'sh idish qo'Vish xayollariga kelmaydi. Yana ayrim ziyofatlarda yong'oq yoki bodomni butunicha qoyishadi-ici, uni chaqish oson bolmajrdi. Dasturxon o'rtasiga mushtday-mushtday

keladigan nowotlarni ham qo'yadilar-ki, «ko'rmoq bor-u yemoqyo'q», deganlari ayni shudir.

- Yangi mevaga yetishgan chog'da duoyi barakat qilinadi. Keyin kichik bir bolani chorlab, uning qoliga beriladi.

- Taomdan so'ng ba'zilarida tishni cho'p bilan kavlab, tozalashga hojat seziladi. Davrada og'izni baralla ochib tish kavlash g'oyat xunuk odatdir. Iloji boricha davra tarqalganida, xoli joyda tozalangani ma'qul. Tozalashga tabiiy zarurat kuchli bolsa, u holda chap qol kafti bilan og'iz to'sib turiladi. Tishdan til bilan chiqarilgan taomni yeyish makruh emas, ammo tishkavlagich bilan chiqarilganini yutish makruhdur. Tishning orasi ko'p kavlanmaydi, toki milkka zarar yetmasin.

- Qol taomdan ilgari ham, keyin ham yuviladi. Suv qatralari to'shak va libosga sachramasligi uchun yuvilgan qo'l silkitilmaydi. Taomdan so'ng majlis ahlidan ba'zilarining ko'ngilini aynitmaslik uchun qol yuvilganda og'iz chayqalib, chilobchiga qaytarib to'kilmaydi. Taomdan so'ng qol yuvilganida toza sochiqqa arilib, xizmatdagi kishi xayrli duo qilinadi. Odob shuki, taomdan oldin o'ng tomondan boshlab qo'lga suv quyiladi. Taomdan so'ng esa awal davradagi uluglar qoliga suv quyiladi, so'ng tartib bilan o'ng tomon qarab yuriladi. Har qaysi kishiga uch marotaba suv quyiladi. Awal ozroq, ikkinchisida undan ko'proq va uchinchida uzilmay suv quyiladi.

- Taom yeb bolingach, hamd aytiladi, so'ng dasturxon egasi duo qilinadi.

Taomlanishdan tashqari suv ichishga xos odoblar ham bor:

- Suvni o'tirib ichish kerak. Agar uzrli sabab bilan noqulaylik bolsa, turib ichish ham mumkin. Zamzam suvini esa turib ichish mumkin.

- Suvni uch navbat nafas olib, har nafasda piyola yoki kosani og'izdan judo qilib ichiladi. Awalida bir ho'plam, ikkinchi nafasda uch ho'plam, uchinchi nafasda besh

ho'plam ichiladi. Suvni birdaniga simirish makruhdir. Tibbiy nuqtayi nazardan qaralsa, zararlidir. Ayniqsa, issiq kunlarda chanqab kelib muzdek suv simirishning oqibati nima bo'lishini hamma bilsa kerak. Ammo, afsuski, ko'pchilik bilsa-da, sabrsizligi tufayli bu yaxshi va foydali odatga amal qilmay, oqibatda o'zini o'zi qiynaydi.

- Suv ichilavotganda unga nafas urilmaydi.

- Ichishni boshlamasdan ilgari xas yo o'zga narsalar tushgan bo'lmasin uchun idishdagi suv yaxshilab tekshirilishi kerak. Ichayotgan paytda uning qatralari libosga tommasligi choralari ko'riladi. Agar qorong'i bo'lsa, idish labiga yupqa matodan parda tutib ichiladi. Bir sabrsiz odam chanqab kelib shisha idishning qopqog'ini ochiboq ko'tarib icha boshlagan ekan. Yarmidan ko'pini ichib qarasa-ki, idishda sichqonning oligi bor ekan... Besabrning ahvolini tasavur qilavering.

- Agar og'zi yoki qoli yogli bo'lsa, u bilan ko'za yoki obdastaning dastasi ushlanmaydi, agar zaruratdan ushlanmoqchi bolinsa, jimjiloq va nomsiz barmoq bilan ushlanadi, agar dastasi bo'lmasa, awal qo'lini va og'zini artib tozalab, undan so'ng suv ichiladi.

- Ko'za va kosaning darz ketgan yoki uchgan joyidan suv ichilmaydi-ki, unda chirkklar jam boladi. Boshni suvga yetkazib ichish ham makruhdir.

- Sharbatni yoki suvni qo'gan odam g'oyatda tashna bolsa va tashnaligi tola qonmagan bolsa-da, hammasini o'zi ichib ado qilmaydi, boshqalarga ham beradi-ki, bu ham in'om-ehsonga kiradi. Kishi suv ichganidan so'ng garchi chap yonida ulug' odam o'tirgan bolsa-da, kosani o'ng yonidagisiga uzatadi.

- Suv olib kirgan kishi duo qilinadi.

Umidimiz yulduzlari, uyingizga mehmon kelganda siz xizmatda bolasiz. Mehmon kutib olishdagi chiroyli xizmatlaringiz yoki mehmondorchilikka borganingizda o'zingizni baodob tutishingiz faqat o'zingizga emas, ota-onangizga ham sharaf keltiradi. Aksincha, mehmonlarni kutishda e'tiborsizlik yoki yalqovlik qilsangiz, totli taom

pishirib berolmasangiz, mehmonga borganingizda esa odob bilan o'tir a olmasangiz, sizdan oldin ota-onangizni malomat qiladilar. Shu bois ham bu suhbat bayonini batafsilroq qildik. Odoblarni bir o'qishda eslab qolish, ehtimol, qiyindir. U holda erinmay qayta-qayta o'qing va bilganlaringizni amalda qo'llang-ki, shunda baraka topasiz. Bu to'rtlikni yodlab olsangiz yanada yaxshi:

*Xonamiz do 'stlar oyog'idan topar nuri ziyo,
Uy -fonus, mehmon sham-u men esam parvonamen.
Mehmon har qancha tursa, xizmatin aylay bajo,
Ketsa mehmon men misoli majnuni devonamen.*

Doka ro'mol qachon quriydi?

Umidimiz yulduzlari, qalbingizda sevgi tuyg'usi uyg'onganini ota-onangizga aytishdan uyalasiz. Ko'nglingizga bir qiz (yoki yigit) yoqadi, biroq uni ochiq ayta olmaysiz. Bu ham yaxshi odob, lekin qalbda uyg'ongan tuyg'u tabiiy jarayon. Ota-onangizda ham o'smirlik yoshlarida shunday tuyg'ular jo'sh urgan, demak, sizning ahvolingizni to'g'ri tushunadilar. Bizda o'g'ilni o'n sakkiz yoshdan keyin uylantirish odat bolgan. Agar oilangizdagi sharoit ko'tarsa, shu yoshga yetganingizda to'vga harakat boshlanadi. Siz hozir o'sha saodatli kunlarni orziqib kutyapsiz. Ilohim, fayzli chimildiqda o'tirish baxti sizga nasib etsin. Unga qadar esa «oila» deb ataluvchi baxt saroyi qanday bolishi haqida fikrlashib olaylik. Bu suhbatni ota-onangiz bilan birga o'qisangiz yaxshi bolardi. Chunki suhbat davomida kattalar e'tibor berishi shart bolgan masalalar haqida ko'p fikrlar bildiriladi.

«Er-xotinning urushi - doka ro'molning qurishi» degan maqolni ko'pchilik biladi. Er-xotin orasida nizo chiqsa qisqa muddatda bartaraf boladi, degan ma'nodagi bu maqol ayrim hollarda haqiqatga aylanmay qolyapti. Yosh oilalardagi janjal «ajralish» degan fojia bilan yakun

topyapti. «Fojia» deb baho berishimizni ba'zi birodarlar ma'qullamasliklari mumkin. «Taloq Alloh tomonidan ruxsat etilgan, oilaning buzilishi ko'ngilsiz hoi, lekin fojia emas», deguvchilarga biz deymizki: «Azizim, soatingiz buzilsa necha marotalab bolsa ham tuzatish uchun ustaga olib borasiz. Hech iloji bolmasa tashlab yuborasiz. Bu fojia emas, shunchaki ko'ngilsiz hoi. Lekin oila buzilsa, ikkiyoshniyarashtirishga harakat qilamiz, yarashishning chorasi qolmasa o'rtaq taloq tushadi. Lekin bu oilani buzilgan soat singari tashlab yubormaymiz. Ya'ni jamiyatdan surib chiqarmaymiz. Er ham xotin ham boshqa oila qurib yashayveradi. Lekin bolalar-chi? Tirik yetimlaming ohi fojia emasmi? Qalblarining parchalanishi fojia emasmi? Oilani jamiyatning dur-u gavhari deb ulug'laydilar. Uyimizdagi dur va gavharlarni ardoqlab asraymiz. Oilani-chi?

Oilani mo'jazgina bir jamiyatcha deb faraz qilsak, butun insoniyat jamiyatining daxlsizligi aynan shu «jamiyatcha»ning jipsligiga bogliq. Demak, qaysiki jamiyatdagi oilalar mustahkam emas ekan, bu jamiyat harbiy qudrati va boyligidan qat'i nazar, halokatga mahkumdir. Oilaviy muhabbat odamlar orasida keng tarqalgan eng mustahkam muhabbatdir. Shuning uchun ham u kishilar hayotiga ta'sir ko'rsatish jihatidan odamning eng muhim va eng hayotbash tuyg'usidir. O'z uyida baxtli bolgan kishigina chinakam baxtlidir. Xarob uydagi baxtsiz odamlardan tashkil topgan jamiyatning halokatga mahkumligi shundan kelib chiqadi. Har bir insonning oila oidida, oilaning jamiyat oidida mas'uliyati bor. Bu ikki ijtimoiy tushunchani bir-biridan ayirish qiyin. Awalgi boblarda zikr etganimiz - ota-onaga muhabbat, silayi rahm va do'stga muhabbat ham jamiyat ma'naviy olamiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ammo oila bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Soddaroq qilib aytilsa, oilasida halovati yo'q odamning xizmat joyida ham halovati bolmaydi. Demak, ishidan bar aka ketadi, xizmatdoshlari bilan qo'pol muomalada bola boshlaydi. Yoki aksincha,

ishda omadi yurishmagan, xo'jayinlardan solcish eshitgan odam uyga qaytganda alamini oila a'zolaridan oladi. Agar hayotimizning barcha maqsad-mazmuni oiladagi shaxsiy baxtimizdan iborat bolganida, shaxsiy baxtimiz birgina oiladagi nxuhabbatda o'z ifodasini topganda edi, unda hayot deganlari chindan ham qop-qorong'u sahroga aylanib qolgan bolardi. Inson uchun yurakning ma'naviy olamidani tashqari hayotning yana bir buyuk olami - ijtimoiy faollik olami ham bor. Buni inkor etish yoki chetlab o'tishga urinish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun ham ahli kitoblar Allohning bu masaladagi buyruqlariga g'oyat jiddiy munosabatda bo'lganlar. Payg'ambarlar ummatlarini pok va halol oila qurishga da'vat etganlar. Insoniyat tarixi davomida yashab o'tgan donishmand faylasuflarning diqqat-e'tiborlaridan ham bu masala chetda qolgan emas. O'tmish ustozlarning fikrlari bizlar uchun hamisha qadrlil. Ammo ular o'z davrlaridagi jamiyat talablaridan kelib chiqib, oilaga turlicha talablar qoyganlar. Masalan, «Oilaviy hayot inqilobchining g'ayrat- shijoatini susaytiradi», degan ahmoqona fikr yigirmanchi asrda yuzaga chiqdi va o'zbek tilidagi axloqqa oid kitoblarda qayta-qayta zikr etildi. O'tgan asrning yigirmanchi-o'ttizinchi yillaridagi badiiy asarlarda sevishtganlar toy haqida so'z ochishsa, «Shoshilma, awal jahon inqilobi g'alaba qilsin!» deb inqilobga sodiqliklarini namoyish qilishgan. Bunaqa tentaklaming qanchasi jahon inqilobining g'alabasini kutib, toy ko'rmay o'tib ketdi ekan. Esizgina umr! Shunga o'xshagan holat bizda ham uchrardi. Faqat bizdagi oshiq-ma'shuqlar toyni jahon inqilobi g'alabasigacha cho'zishmasdi. Ashulalar bolardi: «Boyiarangga boyiari, qachon bolar toyiari?» deb so'ralsa «Awal paxta mavsumi o'tib olsin», deb javob berishardi. Yigit bechoraning to kech kuzgacha, ehtimol, qishga qadar yulduz sanab yotishdan o'zga chorasiyo'q... Agar sevgan qizi suluv bolsa-yu, biron chaptast yigit chiqib, paxta mavsumi oxirlashini kutib o'tirmay, uni ilib ketsa-chi?! Bu hozir bizga kulgili tuyuladi, lekin oila bilan jamiyat

manfaatini bu xilda talqin etish befahmlikning oddiy bir ko'rinishi edi.

Jamiyat manfaati birinchi o'rinda turadimi yoki oila manfaatimi, degan savolga bir xilda, qat'iy javob berish ham mumkinmas. Chunki ayrim o'rinlarda oila, ba'zan esa jamiyat manfaatlari birinchi darajali masala bo'lib qoladi. Ayrim hollarda jamiyatning oiladan so'rovlari bor, yana bir hollarda oilaning jamiyatdan talablari boladi. Bu masalani ham bitta qolipga solib taqdim etish mumkinmas.

Oila o'z xohishicha yashashi kerakmi yoki jamiyat talablarini bajarishga majburmi? Agar jamiyat talablariga bo'ysunib yashashi shart bolsa, oilaning hech qanday haq-huquqi yo'q ekan-da? Bu o'rinda ham savol umumiy tarzda emas, aniq masalalar bo'icha o'rtaga qo'yilishi kerak. Ya'ni: jamiyat oilaning pok bolishini talab etadimi, demak, bu talabga boysunishi shart. Jamiyat oiladan oqil farzand tarbiyasini talab etadimi, demak, bu talabni ham so'zsiz bajarmog'i zarur. Lekin bu talablarni barcha oilalar bir xilda bajarmaydilar. Chunki barcha oilalarning bu sohalaridagi tushunchalari, hayotiy tajribalari turlicha. Har bir xalqning, hatto har bir mamlakatdagi har bir viloyat, shaharning o'ziga xos urf-odatlari oila va jamiyat orasidagi munosabatlarni o'ziga xos ravishda belgilaydi.

Ruslarning ulug' yozuvchisi Lev Tolstoyning «Anna Karenina» deb nomlangan asari shunday satrlar bilan boshlanadi: «Baxtli oilalarning hammasi bir-biriga o'xshaydi, baxtsiz oilalarning esa har biri o'zicha baxtsizdir». Bu yaxshi falsafiy fikrga o'xshagani bilan bahslashish mumkin. Chunki baxtni ham har bir oila o'zicha tushunadi. Masalan, harom yollardan qaytmay boy yashayotgan oila haromdan parhez qilib, oziga qanoat qilayotgan qo'shnisini baxtsiz deb hisoblaydi. Bu qo'shni esa uning oxiratini o'ylab, baxtsizligidan afsuslanadi. Demoqchimanki, oilalarning baxti va baxtsizligi ham faqat o'zlariga xos, bir-biriga o'xshamaydi. Hatto bir oila a'zolarining baxt haqidagi tushunchasida ham farq

boladi. Er baxtni ilm olishda, deb bilsa, xotin bilakni bezovchi tilla bilaguzukda deb hisoblaydi. Qani, barcha tushunchalarni bitta qolipga solib ko'ring-chi!

Turli xalqlardagi oila va baxt tushunchasi haqida so'z ochdim, asosiy gaplarimizga o'tishdan oldin kichik bir misolga murojaat qilay.

Tilga olganimiz asardagi Anna Kareninaning oilasi va uning o'limi bilan «O'tkan kunlar»dagi Kumushbibining oilasi va o'limi orasida qanday farq bor?

Ikki yozuvchining tasviriga qaraganda, bu ayollarning ikovi ham g'oyat go'zal, ikkovida ham muhabbat bor, ikkovlari ham sevgi qurboni. Har ikki asar ham lobarlarning o'limlari bilan nihoyasiga yetadi. Lekin ularning muhabatlari va oilaga sadoqatlari bir xilmi? Anna - oilali juvon, begona erkakni sevdi. Oqibatda o'zini halok qildi. Uning bir gunohi ikki bo'ldi. Kumushbibi - ma'suma ayol. U jufti haloliga sodiq. Uni hatto kundoshidan ham qizg'anadi. Balki ana shu qizg'anishi, rashkining chegarasidan chiqqani uchun olim topgandir? Bu ikki ayol o'limi sababchilari - Annaning sevgilisi (eri emas!) bilan Kumushning kundoshi - Zaynab taqdirida qanday yaqinlik bor? Hech qanday! Kumush-zaynablar taqdirini yevropaliklar hayotidan izlab topolmaymiz. Keling, ikki o'limga doir ikki bayonga diqqat qilaylik:

«...yaqindagina hayot jo'sh urib turgan, endi esa kazarma stolida, yot-u begonalar ko'zida Annaning jasadi ibosiz bir ravishdai qonlarga belanib yotardi; sog' qolgan chakkalari, gajakli boshi, og'ir kokillari orqaga tashlangan; go'zal chehrasida, yarim yumuq qizg'ish lablarida achinarli, tinib qolgan ochiq ko'zlarida vahimali birifoda bor edi; bu ifoda urishib qolishganda Vronskiyga «Shoshmang, hali pushaymon bo'lasiz», degan o'sha dahshatli so'zni. aytib turganga o'xshardi...»

Bu bayondagi «Annaning jasadi ibosiz bir ravishda qonlarga belanib yotardi», degan tasvirga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Muhabbat degan bahona bilan oilaga xiyonat qilgan, ibosiz hayot kechirgan ayolning jasadi ham

begonalar ko'zi oidida ibosiz holatda yotardi. Bu ham ibosiz hayot uchun berilgan bir mukofot emasmi! Endi bu tasvirga diqqatingizni tortaman:

«...Hoji Kumushning boshiga kelib o'turdi. Otabek va onasi oyoq ustida edilar. Kumushning ko'zi yumuq, sochlari yuzi ustida parishon edi. Hoji o'z qo'li bilan sochlarini tuzatib Kumushning ko'kimtil tovlangan yuzini ko'rdi. va va manglayini bosdi...

- Oyim... Oyim! - dedi Hoji. Kumush ko'zini ochib, besaranjom unga nazar tashladi va tanib... qo'zg'almoqchi bo'ldi.

-Qo'zg'almang, oyim... qo'zg'almang!

Kumushning ko'z yoshisi chakkasidan oqib tushdi... Hoji ham o'zini to'xtatolmay, Kumushning yoshini. artib, boshini siladi:

- Xudo shifo berar, bolam!

Kumush jomga qo'zg'aldi, Otabek kelib qo'litiqladi, Hoji ham. uning boshini tutdi... Bu gal qusuq qonga aylangan edi, bumidan ham bir necha tomchi qon oqdi... Qusub yotgach, ko'zi yarqillab ochilib ketdi va tevaragiga betoqat qarandi:

- Oyi... dada... - so'ngra, - begim., - deb ingrandi... Erining yuzini yuziga qo'ydi, uyalgansumon ko'zini yumdi...»

Ustoz Abdulla Qodiriy qalamlaridan ko'chgan bu tasvirning har bir nuqtasiga diqqat bilan razm solaylik. Biz istaymizmi, istamaymizmi, oila masalasini anglashda g'arb va sharq tushunchalari orasida keskin farqlar borligini tan olishga majburmiz. Buni yuqoridagi ikki bayon ham tasdiqlab turibdi.

Kumush «erining yuzini yuziga qo'ydi, uyalgansumon ko'zini yumdi...» Bu holat oddiy muhabbat tasviri emas, balki o'limi oldidan ham erining martabasiga rioya qilinishining ifodasidir.

Oilangizda dadangiz qay paytda ayangizni yoniga chaqirsa, ayangiz albatta itoat qiladilar va har qanday ishni to'xtatib, yonlariga boradilar, to'g'rimi? Sharqdagi oilalar

asrlar bo'li shu odat bo'yicha yashaganlar. Bu odat buzilgan oilada ixtilof chiqqan. Hozirgi kunimizda ayrim ayollarimiz yoshlik qilibmi, yoki g'arbning ta'siridami, bu odatni rad etishga intilishadi. Er chaqirganda «hozir» deb qo'yadilar-da, ishlarini qilaveradilar. Biron ish bilan mashg'ul bo'lishsa, uzrlidir, lekin telefondagi uzundan uzoq gaplarini bas qilmasliklari, televizordagi Meksikaning behayo filmlaridan ko'z uzgilari kelmay o'tirishlari ayb sanaladi. Bu gaplarni osmondan olib yozayotganim yo'q, yosh oilalarning qo'ydi-chiqdilarida ishtirok etganimda deyarli har birida xotinga nisbatan shu ayb aytiladi. Bu o'rinda «demak, er xo'jayin, xotin - cho'ri martabasidami?» degan fikrdan uzoq bo'lish kerak. Erga xizmat qilish cho'rilik emasligini toy dan oldin qizlarimizga yaxshilab tushuntirib qoyishimiz kerak. Afsuski, biz qizlarimizga sep to'plashga berilib ketib, odob boyligini berishni unutib qo'yamiz. Oiladagi er o'rnini to'rt-besh erkak bamaslahat belgilab bermagan. Bu martaba Allohning irodasi: «Erkaklar xotinlari ustidan (oila boshlig'i sifatida) rahbardirlar. Bunga sabab Alloh ularning birovlarini birovlaridan (ya'ni erkaklarni ayollardan) ortiq qilgani va erkaklar (xotinlari va oilalari uchun) o'z mol-mulklaridan sarf-xarajat qilganlaridir. Bas, ibodat-itoatli va (erlari) yo'qligida Allohning hifzi himoyati bilan (erlarining mol- mulklarini va o'z iffatlarini) saqlovchi xotinlar - yaxshi xotinlardir» («Niso» surasidan). Qayerdagi, Allohning bu irodasiga qarshi chiqilsa, yoki isloh etishga urinish bolsa, bilingkim, bu oilani awalo totuvlik tark etadi, oqibat esa ajralishgacha borib yetadi. Yangi turmush qurayotgan farzandlarimizning barchasi bu oyatni bilishlari kerak. Chunki mazkur oyati Karimada oiladagi er bilan xotinning o'rni aniq belgilab berilgan. Shariat hukmicha, er awalo oilaning barcha moliyaviy va ma'naviy taraflariga javobgar, uni chetdan boladigan har qanday xurujlardan himoya qiladigan shaxsdir. Mana shular evaziga va erkak kishi uchun fazilat sanalmish og'ir-bosiqlik, oila tebratishdagi tadbirkorlik kabi sifatlar sababli u oilaning boshlig'i

sanaladi. Yaxshi xotin esa diyonatli, erning uyini obod qiladigan va unga bir umr sadoqatli bolgan ayoldir.

Demak, oilada erning ayoliga nisbatan ota jiddiy o'z mas'uliyati bor ekan. Ayolning yeb-ichishi, kiyinishi va uy-joy bilan ta'minlanishiga mas'ul ekanliklarini unutgan ayrim birodarlarimiz borki, ularni g'aflet uyqusidan uyg'onishlari vaqti kelmadimikin? Takror va takror eslatamiz: oilani moddiy jihatdan ta'minlash ham erning vazifasi. Odamiylik talabiga ko'ra, er kuch va quwatli deb, ayolni er tarafidan ezdirilmaydi; ayolni axloqsiz va beor bolishiga ham yol qo'qilmaydi. Ba'zi bir erlar deyishsaki: «Men xotinimning haqini bilmayman. Men xo'javinman. Ikki gapning birida so'kmasam, xumordan chiqmayman. Urmasam, qolim qichib turadi». Shundaymi? Yaxshi, istagancha xo'rlayversinlar. Ammo bu uchun oxiratda albatta jazoga tortilishlarini bilmasmikinlar? Allohning bu ogohlantirishini-chi: «U kunda kishi o'z og'a-inisidan ham, onasi va otasidan ham, xotini-yu bola-chaqasidan ham qochur». Ajab! Nega oxirat kuni er o'z xotinidan qochar ekan, oyiab ko'rmaganmisiz? Chunki foniy dunyoda uni nohaq urdi, unga to'g'ri yolni ko'rsatmadi, moddiy ta'min etmadi... Endi vaqt keldi-ki, xotin haqini talab etadi. Xotini haqiga rioya qilmagan erning oqibati yaxshi bolmaydi. **«Xotinlarning haqlariga rioya etingiz. Ular bilan xnehr- shafqat ila muomalada bo'lingiz. Ularning haqlari xususida Allohdan qo'rqingiz. Xotinlar sizlarga Parvardigorning omonatidir».** Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning Vado xutbalaridagi bu vasiyatni har bir er doimo dilida saqlashi va amal qilishi shart. Bu Parvardigorning omonatlariga xiyonat qilishdan o'zni saqlamak kerakdir, degani boladi.

Eshitgan edim, rostmi yolg'onmi, bilmayman: lolilaming qaysi bir urug'ida toy chog'i kuyov bola gulxan atrofida o'tirar ekan. Kelin esa bo'yniga xurjun osib olib uning atrofida aylanib «Olgunimcha seni boqaman», deb qasam icharkan. Shu zaylda uch marta aylanib, qasam ichgach, kuyov unga uylanishga rozilik berarkan.

Bozorlarda katta-katta va og'ir-og'ir xaltalarni ko'tarib yurgan ayollarimizni ko'rganimda shu odat esimga tushadi. Bizda nikoh chog'i er zimmasiga oila tashvishi yuklanadi. Agar uzoq safarga otlansa ham, ta'minotni mukammal qilib ketishi kerak. Ayollarning ro'zg'or xarajatlarini ko'tarib chiqishlari er uchun bir uyat bo'lsa, tijorat maqsadida begona yurtlarga begona erlar bilan yuborishi undan battar uyatdir. Tijorat maqsadida uzoqqa borgan ayollarimiz haqida turli mish-mishlar yuradi, biz ularni ma'qullamoqchi emasmiz. Agar shunday desak, pokiza opa-singillarimizga tuhmat qilib qolgan bolamiz. Lekin rizq qidirib uzoqqa bormaslik va yolg'iz yurmaslik haqidagi buyruqlarga amal qilsalar, o'zlariga nisbatan ortiqcha isnodli gap orttirib olmaydilar. Undan tashqari bizni ranjitadigan narsa - ayollar musofirlikda qiynalib, og'ir yuklar ko'tarib yuradilar, yol azobini ko'radilar, o'z mas'uliyatiga rioya qilmayotgan erlar esa choyxonada oshxo'rlik qilib yotadilar.

O'tgan asrda Yevropada er-xotin o'rtasida tenghuquqlilik degan masala ko'tarildi. Sovet jamiyati bunga alohida e'tibor berdi. Ammo ayollarni erlar bilan tenghuquqli qilaman, deb ularni aksincha cho'ridan battar holatga aylantirdi. Tenghuquqlilik degani er nima ish qilsa ayol ham bajarsin, degani emas. Er qurilishda g'isht terdi

- ayol ham, beton quydi - ayol ham, traktor mindi - ayol ham. Bu o'taketgan insofsizlik-ku! Yevropada ko'tarilgan masala boshqacha edi. O'tgan asrlarda zavodda aynan bitta ishni bajargan erga ko'proq, ayolga esa kamroq haq tolangan. Ayollarning xalqaro harakati haq tolashdagi tenghuquqlilikni talab qilgan. Afsuski, tenghuquqlilikni noto'g'ri tushunish hozir ham davom etib kelyapti. O'mi kelganda aytib ketay: shtanga, kurash, boks, futbol kabi og'ir jismoniy kuch talab etadigan sport turlarida qiz- juvonlarning qatnashishlari durust emas.

Agar diqqat qilib kuzatsak, bugungi jamiyatlarda adolatli muvozanatlarning buzilishi kuzatilmoqdi. G'arbda ayollar o'ta axloqsiz, behayo bolib ketishgan. Yuz yil awal

Anna Kareninaga o'xshaganlar barmoq bilan sanarli bo'lsa, endi kishining aqli hisobdan adashib ketadi. Bunday holatlarni biz xorijga qilgan safarlarimiz davrida o'z ko'zimiz bilan kuzatdik. G'arbning kinofilmlari ham fikrimizni isbotlaydi. G'arb ayollari o'zlarini erlar bilan teng huquqli deb bilishadi. Bizda bunday emas. Oilada er va ayolning o'z o'rnini muvozanat va adolat bilan belgilab berilgan. Bu muvozanat buzilgan jamiyatlarda «erkin muhabbat» degan ahmoqona, aytish mumkin-ki, hayvonlarga hos tushunchalar tug'ildi. Ya'ni er-xotin birgalikda yashayveradi, ammo xotin ko'ngli tusagan erkak bilan, er esa ko'ngliga yoqqan ayol bilan zino qilaveradi. Agar bola tug'ilsa, qaysi erdan tug'ilganini aniqlash uchun irsiyat sohasidagi mutaxassislarga murojaat qilishadi. Bu ham yetmaganday, erkakning erkak bilan, ayolning ayol bilan nikohlarini rasmiy- lashtirish boshlandi va bu hayvoni qo'shilishni ham muqaddas nom - «oila» deb atayaptilar. (Bu haqda qisman so'z yuritib edim, eslaysizmi?)

«Uylanishdan, xotin olishdan hammaning maqsadi bir xil emasdir», deyilsa, bu fikr dastlab g'alati tuyulishi mumkin. Ba'zilar aysh-ishrat qilish, shahvat nafsini qondirish uchun uylanmaydilar? Shu niyatda eng suluv qizlarga yetishmoq uchun ne-ne shumliklar qilmaydilar? Bu shumlikning oqibatini biz «oila» deya olmaymiz. Ba'zilar esa boy bolish maqsadida boy xotinga tuzoq qo'yadilar. Buning natijasi ham «oila» emas. Yana bir xil odamlar farzandtalab boladilar va shu maqsadda oila quradilar. Ba'zi odamlar gunohdan saqlanish uchun uylanadilar. Yana bir qanchalari uy-ro'zg'or, saranjom- sarishtaliklari uchun uylanadilar.

Oila qurishda ulug' savoblar borligini yana ta'kid etamiz. Shunday insonlar bor-ki, savob uchun atayin uylanishadi, savob istagida turmushga chiqishadi. Bir ilmli odam bir qizni so'rab sovchi yuboradi. «Allohning amri, hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.) sunnatlariga muvofiq qizingizga uylanmoqchilar. Biz roziligingizni olmoqqa

keldik», deyishadi sovchilar. «U kishi jonimni so'rasalar, jonimni beray, ammo qizim u zotga munosib emas. Chunki qizimning ikki oyog'i shol. U muhtaram zotga esa xizmatlarini ado etuvchi soglom jufti halol kerak», deydi qizning otasi uzr bilan. Sovchi qolgan kishi qizning ahvolidan xabardor edi. «Bu qiz nogiron bolgani sababli unga hech kim uylanmaydi. Men shu bechoraga uylanib, ko'nglini ko'taray», degan qaroridan qaytmaydi.

Uluglik deganimiz ham shu, qahramonlik deganimiz ham shu! Oilaning muqaddas tushuncha ekaniga ham misol shu.

Tilimizda «oila qurdi» yoki «oila barpo etildi» kabi iboralarni ko'p uchratamiz. Shuning qatorida «oila buzildi» yoki «oilasi barbod boldi» deganlari ham bor. Demak, oila umr yolidagi go'zal bir saroyga o'xshatilyapti. Demak, uni qurish kerak. Qurganda ham poydevorini mustahkam qilib, turmushning zilzila-yu dollariga bardosh beradigan tarzda bino qilish shart. Demak, «oila» yoshlar qoliga tantana bilan tutqaziladigan zarqog'ozga o'ralgan shirinlik emas. Afsuski, ayrim badavlat ota-onalar oilani shunday tushunadilar va farzandlarini moddiy tomondan tola- tolds ta'minlab qo'ish bilan kifoyalanib, «oila qurildi», deb xotirjam boladilar. To'g'ri, oila saroyini qurishda ota- onaning vazifasi mavjud. Ammo tolaligicha qurib bera olmaydi. Bu qurilishda er-xotinning o'zi ham faol ishtirok etmas ekan, bu saroy dastlab shokolad kabi bolishi mumkin, ammo sal vaqt o'tib, eriy-eriy yo'q bolib ketadi. O'zicha erib ketsa, taqdirga tan berilar, ammo bu shokolad qasrni yalashga ishqibozlar ham topilib qolsa-chi?

«Uylanishdan oldin ikkala ko'zingni katta och, uylanganingdan keyin bittasini yum», degan tagdor bir hikmat bor-ki, ko'pchilik unga amal qilmaydi. Awalo, yigitning ham, qizning ham ko'zlarini katta ochishlariga ota-onalari yol qo'ymaydilar. Keyin esa yosh xotinning harakatlarini kuzatishda bitta ko'zni yumish o'rniga to'rt- beshta ko'z bilan qaray boshlaydilar. Ahmad Donish aytgan ekanlarkim: «Agar kelin-kuyov birovlarining

gaplariga, fisq-u fasodlariga kirar ekanlar, ularning shirin turmushlari buziladi, oralariga sovuqlik tushadi».

Yigit va qiz yostiqdosh bolgunlariga qadar bir- birlarining odatlari, fe'l-atvorlari va ruhiyatlarini mukammal o'rganishmasa, oilani baxtiyorlik poydevoriga qurishlari oson bolmaydi. Chunki yaxshi oila qurish uchun birgina muhabbat kifoya emas. Orada do'stlik va ishonch ham bolishi kerak. Shunday oilalarni uchratamiz-ki, er-xotin bir-birini sevadi, turmush qurishni esa bilmaydi. Oila qurishda malum bosqichlarda birgalikdagi kurash, mashaqqatlarni birgalikda yengib o'tish talab etiladi. Deydilarki: «Muhabbatning ko'zi ko'r boladi». Ya'ni bir-biriga ko'ngil qo'vgan yigit va qiz uncha- muncha xato va kamchiliklarni sezmaydilar, sezsalor ham e'tibor bermaydilar. Muhabbatning ko'zi ko'r bolsa, oilaning ko'zlari hamisha ochiq boladi. U hatto tunlari ham yumilmaydi. Ilgari arziyas hisoblangan kamchiliklar jiddiy ahamiyat kasb eta boshlaydi. Ota-onalarning esa boshlari qotadi: axir bir-birlarini yaxshi ko'rishardi-ku? Yigit «shu qizdan boshqasigauylanmayman», deb qancha «nomzod»larni rad etgan edi-ku? (Qiz ham boshqa yigitlarni xushlamagan edi!)

Bir-birini bilish - bir-biri haqida hamma narsani bilish emas. Bu bir-biriga nisbatan ishonchli va yoqimli munosabatda bolish, bir-biriga ishonish demakdir. Odam boshqa shaxsning ruhiy olamiga bostirib kirishga urinmasligi kerak. Ayol bilan tanishish uchun bir necha daqiqa yetarli, imi yaxshi bilish uchun esa yillar kerak. Ayrim «dono»larning fikricha, ayolni toliq bilish uchun u bilan ajralish kerak ekan. Albatta, biz bu fikrni hazil ma'nosida qabul qilamiz. Lekin, ayrim er-xotinlar ajralishib ketishganlaridan so'ng, ayniqsa, boshqa oila qurganlaridan keyin bir-birlarining qadrlariga yeta boshlaydilar. Aksariyat yaxshi erning qadriga yetmagan xotinga Alloh yanada zolimroq erni, soliha ayolning qadriga yetmagan erga esa kuydirguvchi xotinni ro'para qilib qo'yadi. Chunki er yoki xotin shayton vasvasasiga

kirib, Rahmonyolini unutganlari, aziz farzandlarini tirik yetim qoldirganlari uchun shunday jazoni olishlari tayin. Alloh buyuradi-ki: «Xotinlaringiz bilan totuv turmush kechiringlar. Agar ularni yomon ko'rsalaringiz (bilib qoyingki!) balkim sizlar yomon ko'rgan narsada Alloh (sizlar uchun) ko'pgina yaxshilik paydo qilar» («Niso» surasidan). Demak, odamiylik shartlaridan biri bolmish oila haqiga rioya qilish, totuv yashash, bolar-bolmasga janjal chiqarmaslik, xotinni (yoki erni) yangilashga oshiqmaslik zarur ekan. Oilani qayta-qayta buzish vijdotsizlarga xosdir.

Yevropaliklarda «erlar ayollar uchun birinchi bolishni, ayollar esa erlar uchun so'nggisi bo'lishni orzu qiladilar», degan gap bor. Bir qaraganda aqlli gapga o'xshaydi. Ammo bu o'sha tomon uchun aqlli, ularning oila haqidagi buzuq tushunchalariga mos keladi. Deyilmoqchiki: er uylanmoqchi bo'lgan qizning awal boshqa erkak bilan bolmaganini orzu qiladi. Agar zinoga aralashgan bolsa, farqi yo'q, bu yog'iga halol yursa bas. Xotin esa «erim mengacha yurgan bolsa yurgandir, endi yurmasin», deb orzu qiladi. E'tibor beryapsizmi, orzu qilyapti! Bizda esa bunday buzuq holda oila qurish man etiladi. Oila nomusiga gard ham qo'nmasligi kerak.

Hozirgi kunimizda g'arb mamlakatlarida oilaga munosabat yomon tomonga o'zgarib ketgan. Holbuki, awalgi zamonlarda ularda ham oila muqaddas deb hisoblangan. Oilaga «erkinlik» martabasini berilishi jamiyatni ham bora-bora izdan chiqaradi. Chunki «erkinlik» tushunchasi «nima istasang qilaver», degani emas. Alloh «Mendan **uyalmasang**, nima istasang qilaver», deb bekorga ogohlantirmagan. Allohdan uyalmadimi, demak, ota-onasidan ham, qarindoshlari, atrofidagi boshqa odamlardan ham uyalmaydi, kengroq ma'noda olsak, jamiyatdan uyalmaydi. Uyalmadimi, jamiyat oldidagi burchini unutadi. Jamiyat qonunlaridan yuz o'g'irgan oilalar ko'paysa, bu jamiyatning holiga voy emasmi!

G'arbda bugungi kunda oila bobidagi bir qancha buzilishlar mavjud (G'arb hayotiga mahliyo bolayotgan yoshlar bunga alohida e'tibor berishlari kerak):

- Odamni hayvondan ajratib turuvchi narsa ongli ravishda pokiza oila qurish. Oila deganda biz er va ayolning qo'shiluvini anglaymiz. Lekin erkak bilan erkakning, ayol bilan ayolning qo'shiluvini «oila» deb atash odamzotni hayvonot olami bilan teppa-teng qilib qo'yamaydimi? Bu fikrni ikkinchi bor qavta ta'kid etishim bejiz emas. Bu holatni hayvonot olamiga o'xshatyapman-u, ammo urg'ochi bilan urg'ochining, nar bilan naming qo'shiluvi hayvonlarda ham yo'q. Erkakning erkakka intilishi ko'p yuz yillardan beri mavjud, biroq jamiyat bundaylardan nafratlanib kelgan, ko'payishiga yo'l qo'ymagan. Lut alayhissalom qavmlariga yuborilgan ofatni eslasak kifoya qilar? Endilikda esa bunday «oila» qurishga turli mamlakatlarda qonun yo'li bilan ruxsat berishga intilish borkim, bu g'oyat. taassufli holdir. Ishonchim komilki, bu jamiyatlar yaqin kelajaklarida ko'p-ko'p pushaymon- lildarga duch kelishadi. «So'nggi pushaymon - o'zingga dushman» degan maqolning amaldagi isbotini ko'rishlari ham aniq.

- Oila qurmay yakka-yolg'iz yashashga intilish kuchli. MaTumotlarga ko'ra, jahon boyicha amerikaliklar bu sohada ham peshqadam ekanlar. Erkakning yoki ayolning oila qurishdan boyin tovlab, yolg'iz yashashi ham oqibatdajamivatni jaryoqasiga keltirib qoyadi. Ilgarilari sobiq ittifoqning yevropa qismida shunday odamlar rag'batlantirilardi. «Mat odinochka» deganlari bo'lardi. Ya'ni bolaning onasi bor-u otasi yo'q. Bu xonimcha mutlaqo oila qurmasdan, kimdandir bola orttirganlar. Shu uchun unga navbatdan tashqari uy berishgacha borganlar. Mana endi Rossiyada aholi keskin kamayib ketyapti, deb bong urib o'tirishibdi. O'tmish g'arb faylasuflaridan Engels xotinning erga boysunishi faqat iqtisodiy qaramlikka bog'liq, ya'ni er moddiy ta'minotchi, agar xotin o'zini o'zi ta'minlay olsa, erga boysunmay

qo[^]adi, degan g'oyani ilgari surgan edi. Bu g'oya hozirgi kunlarda o'sha tomonlarda o'z isbotini topyapti. Lekin bu g'oyani hayotiy haqiqatga asoslangan, deb bolmaydi. Qaysiki oilada ruhiy-ma'naviy tushkunlik hukmron bo'lsa, bu g'oya ham yashaydi. Tanho yashovchi odamning (u xoh erkak, xoh ayol bolsin) hayoti qanchalik yaxshi ta'minlaganidan qat'i nazar, qashshoqlikdan iboratdir.

- Biz tomonlarda oila buziladigan bo'lsa, er taloq qiladi yoki xotinni er tashlab ketadi. Yevropada esa aksi: erni xotin tashlab ketadi. Ruslarda «Broshenniy muj» degan ibora bor. Ularda xotini tashlab ketgan er nima qilishi kerak, degan muammo ham mavjud. Xotin erni tashlab ketdi, degani otasining uyiga borib turibdi, degani emas. Xotin erni nima uchun tashlaydi? Sevmay qolgani uchun. Ularda sevib qolish ham oson, sevgidan aynish ham oson. Xotinga boshqa erkak yoqib qolsa, eriga: «ranjimagin, men boshqani sevib qoldim», deb ketaveradi. Bu o'rinda oila faqat buzuqlik tufayli buziladi.

Birinchi holat ham, ikkinchi-uchinchisi ham yuqimli xastalikka o'xshaydi. Tez tarqaladi, davosi esa g'oyat mushkul. Oqibat esa millatning yo'q bo'lib ketishigacha olib borishi hech gap emas. Demoqchimanki, bizda ham bu kasallik nishonalari ko'rinib qolyapti. Ziyraklikni boy bersak, kechikib qolishimiz mumkin. Qishloqlarda sezilmaydi, ammo shaharlarda erdan ajralganidan keyin «agar er shunaqa bo'lsa, beti qursin, jonimni qiynamay, ersiz o'taman bu dunyodan», deb boshqa turmush qurmay yashovchi ayollar uchrab turibdi. Biz bu ayollarni buzuqlikda ayblashdan yiroqmiz. Lekin oila bilan yashasalar, o'zlari uchun ham, jamiyat uchun durustroq boladi. Yashirishning hojatiyo'q, agar kim «falonchining qizi erdan ajrab ko'p qavatli uyda yolg'iz yasharkan», deb eshitsa, xayoliga darrov shum fikr keladi. Qo'shni ayollar ham yolg'iz yashovchi bu xotinni tinmay kuzatishadi. Agar biron begona erkakning mehmon bolganini bilishsa, tamom «mish-mish dostonlari» bitilaveradi.

Turmush qurmay yolg'iz yashash g'arbliklar uchun yangilik emas. Nasroniy dini tobelari orasida tarki- dunyochilik odati bor. Nasroniylar buning uchun maxsus dayr (rohblar yashaydigan monastir)lar quradilar. Rohblarga uylanish, rohibalarga turmushga chiqish man etiladi. Ular «Uylanish va farzand orttirish kishini Haq xizmatidan va Xudoga yaqin bo'lishdan chetlashtiradi», degan aqidaga asosan turmush qurmaslikni komillikdan deb biladilar. Oila qurish, uning tashvishlari muqobilida erkin yashash rohati turadi. Agar odamzod ixtiyori o'zida bo'lganida shu rohatdan boshqasini istamagan bo'lardi. Ammo Yaratgan Alloh ham er, ham ayol mijoziga shahvatni qo'shib berkan-ki, ana shu shahvat taqozosiga ko'ra birga bo'lishni istab, oila quradilar. Shu sababli bashariyat nasli oxiratgacha saqlab qolinadi. Shahvat taqozosi deyilishi bir sabab. Aslida oila qurishni, nasi qoldirishni Alloh iroda etgan, bandalarga farz qilgan. Rasululloh (s.a.v.) «Sizlarning eng yomonlaringiz xotin olmagan kishidir», deb marhamat qiladilar. Uylanishni istamaganlar ilohiy qonunlarga qarshi ish tutganlari sababli shunday qattiq hukm chiqarilgan. Nabiy (s.a.v.): «Uylaninglar va o'z nufuzlaringizni ziyoda qilinglarkim, Qiyomat kuni men sizlarning ko'pligingiz bilan faxr qilaman», deganlar. Bu bejiz emas. Chunki millatlarning kuch va shavkatu e'tibori ularning nufuziga ham bogliq. Yevropaliklar buni yaxshi anglaganlari uchun ham doimiy ravishda aholisi o'sishini kuzatib boradilar. O'sish yetarli bo'lmasa, olimlari: «Hoy vatandoshlar! Ko'zingizni oching, millatimizning sharaf-u e'tibori susaymoqda. Bu ketishda millatimiz nest-nobud boladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun arzanda farzandlarni ko'paytiringlar!» deb jar soladilar. Tarixda Pol Demar ismli fransuz sotsiologi va iqtisodchisi yashagan. U millatining o'n to'qqizinchi asrdagi, ya'ni yuz yillik davridagi sonini tadqiq qilgan ekan. Uning hisobicha, aholining o'sishi bo'vicha fransuzlar ingliz yoki

olmonlardan ortda qolishibdi. 1810 yilda Fransiya aholisi 28 million, Angliyaniki 10, Olmon aholisining soni 18 million ekan. Yigirmanchi asr boshiga kelib Olmon aholisi 59, Angliya aholisi 62 millionga yetibdi. Fransiya aholisi esa 39 millionga yetibdi. Bu degani 80 - 90 yil mobaynida inglizlar 52, olmonlar 41 million oshganlari holda fransuzlar 11 millionga oshibdi. Olimni bu hisob qoniqtirmay, millat qayg'isida shunday yozgan ekan: «Agar ahvol shunday davom etaversa, biz nafaqat vatan muhofazasidan, balki hayot orzusidan ham mahrum bolamiz. Bugun biz - fransuzlarning mamlakati va millati jar yoqasiga kelib qolgan. Bu chuqurga tushib ketishimizga oz qolibdi. Lekin hali ham kech emas, millat va vatanni bu halokatdan qutqarish uchun himmatimiz va say-harakatimiz kerak». Yevropa olimlari millatlarining kamayishidan shu darajada qo'rqadilar. Endi Pol Demarning tadqiqotini davom etirsak, bu holatga duch kelamiz: o'tgan asrning yetmishinchi yillariga kelib Angliyadagi aholi soni 45,3 milyon, Germaniyada 76,5 milyon Fransiyada esa 53 milyonni tashkil etgan. Bu raqamlarni solishtirishdan awal orada ikki marta jahon urushi bolib o'tganini, millionlab odamlar oldirilganini hisobga olishimiz kerak. Demak, keyingi 60-70 yil ichida Angliya aholisi kamayibdi, olmonlar va fransuzlar esa ko'payibdi. Lekin shunga qaramay, ularning olimlari hanuz tashvish bilan bong uradilar. Chunki ko'payish ayni shu millat vakillari hisobiga bolmayapti. Ikkinchi jahon urushidan keyin bu mamlakatlarga boshqa qit'alardan odamlarning ko'chib kelishi ko'paydi. Garchi millionlab osiyoliklar, afrikaliklar ham shu mamlakat fuqarosi hisoblansalar-da, ayni shu millat sha'nini belgilamaydilar. Fikrimning isboti uchun shu mamlakatlar futbol terma komandalariga nazar tashlaylik: asl inglizlarga nisbatan kelgindi xalqlar vakilini ko'proq uchratamiz. Ilgari bu mamlakatlarning mustamlakachilari osiyolik va afrikaliklarni zo'rlab, qul qilib haydab kelgan bo'lsalar, endilikda bu qit'alardan yopirilib

kelayotganlarning yolini to'solmay garanglar. Ta*bir joiz bo'lsa, qadim qullarning avlodlari bugunga kelib quldorlar yurtini zabt etyaptilar.

Yaqinda Germaniyada chiqadigan «Veit» gazetasi otkazgan bir tadqiqot bilan tanishib qoldim. Bu tadqiqotda 35 yoshgacha bolgan nemis ayollari ishtirok etganlar. Muxbirlar ularga bittagina savol bilan murojaat etishgan: nemis ayollari nima uchun farzand ko'rishni mumkin qadar orqaga cho'zishadi (paysalga solishadi)? Bu savol bekorga kun tartibiga qo'yilmagan. Kuzatuvlarga qaraganda, nemis ayollari keyingi yillarda birinchi farzandlarini 29 yoshga yetganlarida ko'rishar ekan. Vaholanki, o'n besh yil muqaddam bu ko'rsatgich ancha past bolgan. So'rovga javob berganlarning 44 foizi er va ayollarning bir-biriga bolgan ishonchsizligini va ijtimoiy- siyosiy hayotdagi bandiligini asosiy sabab sifatida ko'rsatishgan. Germaniya hukumati farzand ko'rayotgan onalarning ijtimoiy himoyasini yildan-yilga kuchaytirib borishiga qaramay, ahvolning bu darajaga tushib qolishi jamiyatni tashvishga solyapti. Chunki Germaniya demografik ko'payish jihatidan dunyodagi oxirgi o'rinlardan biriga tushib qolibdi. «Nahotki pul topishga bolgan qiziqish oilaviy baxtdan yuqori tursa?» «Berliner saytung» gazetasi jamiyat tashvishini shu savol orqali kun tartibiga qo'yibdi.

Yuqorida Rossiya aholisining kamayib borishidan mamlakat rahbariyatining tashvishlanayotganini bayon qilib edim. 1982-yili Latviyada bo'lganimda, shu yerlik bir yozuvchi «yaqin yuz yil ichida mening millatimdan nom-nishon qolmaydi», deb afsuslangan edi. Chindan ham o'sha paytda latviyaliklar soni bir millionni tashkii qilar, tug'ilish darajasi esa past edi. Millatni saqlab qolish uchun har oila kamida uch farzandni dunyoga keltirishi kerak. Ikkita farzand - o'ringa o'rin qoldi, demak. Bitta farzand - millatning keskin kamayishidan darak. Oilada farzand ko'rishni istamaslik - millatning fojiasi. Yevropa olimlari o'z millatlarining taqdiridan tashvishlanib,

ko'payish jihatdan sur'ati tez millatlarda tug'ilishni kamaytirish choralarini ko'rishga harakat qiladilar. Shu niyatda turli xalqaro anjumanlarga yig'ilishib, talay xalqaro bitimlar, qarorlar imzolaydilar.

Shulardan biri ayollarning homilador bo'lishlari oldini olish, abortga rasmiy ruxsat beruvchi qonunlar qabul qilishga da'vat qilish kabi urinishlardir. Bu harakatlarga Islom olami qat'iy qarshilik bildirdi. Rim papasi ham bu urinishlarni Xudoning xohishiga qarshi harakat sifatida baholadi. Zotan, xotin va farzand Xudovandi Karimning ulug' ne'matlaridan sanalgani uchun bu ne'matlarga kufr keltirmoqlikdan saqlanish shart. Xulosa chiqadi-ki, farzandlar balog'at yoshiga yetganida ularni uylantirish (turmushga uzatish) ota-ona zimmasidagi qarz, bajarilishi shart bolgan vazifa. Agar ota-ona vafot etgan bolsa, bu qarz yaqin qarindoshlar zimmasiga o'tadi. Agar ular ham bolmasa, bu vazifani mahalla, qo'ni-qo'similar, do'stlar bajaradilar. Hozir ayrim ota-onalar bahona topadigan bolib qolganlar. «Awal o'qishini bitirib olsin», «Bir-ikkiyil ishlasin»... O'qishni bitirish, ishlash orqaga surilsazarari yo'q. Lekin uylanish - tabiiy zarurat, uni orqaga surish o'ila uchun uyatli holatlarga olib kelishi mumkin. Toysiz, nikohsiz, ota-ona roziligisiz uylanib olayotganlar boshqalarga ibrat bolmaydimi? Bir birodarimiz qiziga kelayotgan sovchilarni sababsiz qaytaraverar ekan. Aytishicha, qiziga hali mebel olmabdi. Shu qizi sevgan yigiti bilan mebelisiz, eng muhimi, ota-ona roziligisiz nikohdan o'tib olsa, kimni ayblash kerak boladi?

Oilaning barpo etilishi go'zal hodisa: to'y-u tomoshalar bilan nishonlanadi, bu kunlarga yillab tayyorgarlik ko'riladi. Barbod etilishi esa xunuk manzara, bunga ham uzoq oylar yoki yillar tayyorgarlik ko'riladi. Faqat odamning o'zi buni sezmaydi. Hech kim ozgina birga yashab, keyin ajralishib ketayin, degan maqsadda o'ila qurmaydi. Lekin...

Lekin nima uchun o'ila buziladi? Bunga aniq bir javob berish qiyin. Har bir holatda o'ziga yarasha sabab yoki

bahona boladi. Lekin alohida bir sabablarni umumiy tarzda birlashtirib turuvchi sabablar ham mavjudkim, shular haqida fikrlashsak.

Sir emas, oilalarning buzilishi hollari bizda ham ko'payib boiyapti. Buni ayrimlar iqtisodiy qiyinchiliklar bilan boglashyapti. Lekin men bu fikrga qo'shilmayman. Bu fikr bizni oilaga xos bolgan asosiy masalalardan chalg'itishi mumkin. Yaqin tariximizda mashaqqati jihatidan g'oyat tengsiz hisoblanuvchi qahatchilik, ocharchilik, qimmatchilik, urushyillari bolgan. Bu balo-yu ofatlar mashaqqatlarini o'z boshlaridan kechirgan otaxonlar-onaxonlar aytishsin: o'sha og'ir yillarda oilaning buzilishi bugungiday ko'p bolmagan-ku? Men buni o'z oilamiz misolida ham aytyshim mumkin. Dadam rahmatli Marg'ilondan, ayam rahmatli Andijondan Toshkentga o'qishga kelishib, shu yerda turmush qurgan ekanlar. Besh farzand ko'rib, barchalarini o'qitganlar. Kamina beshinchi farzand man. Qariyb yigirma besh yil mobaynida bizning o'z ujdemiz bo'lmagan. Ijara uylarda yashab kelganmiz. Oilaning yagona bisoti eski sandiq uydin uyga ko'chaverish natijasida shalag'i chiqib ketayozgan edi. Gilam degan matohni orzu ham qilmaganmiz. Men o'sha otmishni eslasam, «hammamiz ijara uylarda tug'ilganmiz», deb hazillashib qoyaman. Holbuki, bu hazil emas, haqiqat edi. Hukumat tomonidan hovli berilib, bir uy, bir dahliz qurib, ko'chib kelganimizdan keyin ham mashaqqatlar davom etgan edi. Kuz, qish, bahor chakka o'tgan uylarda diydirab yashardik. Men bu o'rinda shunchaki xotiralarni bayon qilayotganim yo'q. Bizga o'xshab azoblanib yashagan oilalar juda ko'p edi. Lekin «qiyinchilik vajahidan oilasi buzilibdi», degan gaplarni kam eshitardik. Ota- onalarimiz qurgan oilani nima ushlab turardi? Sabr-bardoshmi? Bir qishloqda aytyb berishgan edi: qiyinchilik yillari qishloq raisining uyida bitta atlas ko'lak bilan bitta toza to'n saqlanarkan. Turmush qurayotgan kelin va kuyov shu sarponi bir kunga olib turishar ekan. Shunday holatda oila qurganlarning nabiralari endi nikohga

«mersedes», «limuzin»larda borishni talab qilishyapti. Mayli, borishsa borishsin. Biz farzandlarimizga qiyinchilik tilamaymiz. Bizning uyimizda gilam bolmasa, ularning uylari qo'sha-qo'sha gilamlar bilan tolsin. Lekin bu moddiy ta'minot nima uchun farzandlarimizning baxtli turmush kechirishlarini ta'min eta olmayapti? Biz shu haqda ko'proq o'ylashimiz shartga o'xshab qoldi. «Kimga yaxshi kuyov uchragan bolsa, u odam o'g'illik bolibdi. Kimga yaramas kuyov yoliqqan bolsa, u odam qizini yo'qotibdi», deydilar. Xuddi shuni «Kimning uyiga yaxshi kelin. kelsa, qizlik bolibdi, yomon kelin kelsa o'g'lidan ajrabdi», deb izohlasak ham boladi. Kelin va kuyov tanlash huquqi biz - ota-onalarda bolaturib, nega shoshilamiz, nega o'lamay qadam bosamiz? Yoshlarni-ku, hayotni bilmaydi, g'o'r, deymiz. O'zimiz-chi? O'zimiz ham hayotni bilmaymizmi?

Har qanday quvonchli toy arafasida ota-ona ko'nglining bir chetida «kelinning qadami qutlug' kelarmikin, oilamizning chin a'zosi bolib kirib kelarmikin, mehr- muhabbatimizga yarasha oqibat bolarmikin?» degan xavotir yashirib yotadi. Shunday ekan, kelajakda sodir bolishi ehtimoli mavjud tashvishning oldini olish uchun sizlarning diqqatingizni bu masalaga ham qaratishni lozim ko'ryapman.

Yevropa mamlakatlarini hozir uchinchi jahon urushi muammosi emas, jamiyatning ichdan yemirila boshlagani ko'proq tashvishga solyapti. Oilaning mo'rtligi, arzimas kichik bir turtki bilan parchalanib ketishi - aynan jamiyatning ichdan yemirilishi demakdir. Yoshlar oilaning muqaddas ekanini tan olmay, yengil-yelpi munosabatda bolishyapti. Ularning nazarida oila faqat jinsiy ehtiyojni qondirish vositasidan iborat bolib qolyapti. Yana takror aytaman-ki, ayrimlar umuman oila qurmay yashashni ma'qul ko'rishyapti. Oila qurmay turib bola tug'ish turlari ham ko'paydi. Xullas, hayvonot olamida uchramaydigan ahmoqona qiliqlar yigirmanchi birinchi asrning ma'naviy olatiga aylanib boryapti. Oqibatda, bu mamlakatlarda

tug'ilish kamayib, olim esa ko'p ayib, aholi soni sezilarli darajada kamayyapti.

Rossiya axborot manbayida xabar qilinishicha, yosh oilalarning salkam oltmish foizi bir yilga bormay barbod bo'lyapti. Ayrim hududlarida bu ko'rsatgich sakson foizgacha chiqyapti.

Bir oilaning buzilishi bir xonadonning tashvishi yoki fojiasi emas. Oilani inson tanasiga o'xshatsak, tanaga kirgan kichkinagina zirapcha, isitma chiqarib, vujudni larzaga soladi. Buzilayotgan oilalarning ko'payishi sodir etilayotgan jinoyatlarning ko'payishiga sabab bo'lyapti deb o'ylayman. Mutaxassislarning tahliliga ko'ra, qasddan odam o'ldirish yoki unga suiqasd qilish jinoyatining oila davrasida sodir etilishi keyingi besh yilda ko'paygan. Endi bu jinoyatlarni keltirib chiqargan sabablarga diqqat qilaylik: murosaga kelisholmaganlik oqibatidagisi - 73 foiz, mol-mulk talashishdan kelib chiqqan mojaro sababli -13, rashk tufayli -11, o'ch olish maqsadidagi jinoyat - 3 foizni tashkil etibdi. Endi bu jinoyatlar kimlar tomonidan sodir etilganiga qaraylik: qarindoshning-qarindoshga suiqasd qilishi, o'ldirishi - 38 foizni, erning xotinni oldirishi yoki suiqasd qilishi - 33, aka-ukalarning bir-biriga qotilliklari - 10, qo'shnilar orasidagi g'avg'o tufayli roy bergan qotillik- 10 foizni tashkil etgan. Hayratlanarli tomoni shuki, xotinalarning erlariga suiqasd qilishlari yoki oldirishlari bu jinoyatlarning to'qqiz foizini tashkil etyapti!

Jinoyat kodeksiga binoan nisbatan yengilroq hisoblanuvchi, odamiylik jihatdan esa zulm deb baholanuvchi badanga qasddan og'ir yoki o'rta darajada shikast yetkazish ham, ko'cha tilida gapirilsa, ayovsiz do'pposlab urish ham keyingi besh yil ichida 1,33dan

1,62 foizga ko'tarilgan. Sabablariga kelsak, avvalgilaridan o'zgacha manzarani ko'rmaymiz: oila davrasidagi do'pposlashlarning 68 foizi murosaga kelisholmaganlik oqibatida yuz bergan. Mol-mulk talashish oqibati - 17, rashk -11, o'ch olish maqsadi 4 foizni tashkil etgan. Kimkimni urgan: er xotinni - 35 foiz, qarindoshlar bir-birlarini

- 28, qo'shnilar janjali - 18, aka-ukalar mushtlashuvi -
12, xotinning erni urishi (!) - 7 foizni tashkil etgan.

Bu raqamlarga ko'z yugurtirish bilan cheklanib qolmasligimiz kerak. Har bir foiz ortida necha-necha odamlarning ayanchli taqdirleri yotibdi. Er-xotin bir- birini, qarindosh qarindoshni do'pposlasa, oldirsa?! Qotil pichoqni bir necha soniyada sanchishi mumkin. Militsiya hujjatlarida «qotillik soat 16.1 Ida sodir etilgan», deb qayd etiladi. Lekin bu jinoyat sodir etish harakati oilada ancha haftalar, oylar hatto yillar awal boshlangan boladi-ku? Oddiy shamollash asoratiga e'tibor bermaslik natijasida vafot etgan odamining o'limiga kim aybdor? Bitta aksirish bilan boshlangan xastalik oylar va yillar davom etadi-ku?

Shu jinoyatlarning oldini olish mumkinmidi? Mumkin edi!

Bizda shu kunlarda ikki xil nikoh mavjud. Biri davlat tomonidan rasmiylashtiriladi. Nikohning muqaddasligini o'zi ham his eta olmagan, hali hayot tajribasiga ega bo'lmagan go'zal xonimlar ikki-uch daqiqaning ichida ishlarini bajaradilar. Diniy nikohimiz ham undan qolishmaydi. Domlaning qisqagina savol-javobi bilan xutbasi tahminan shuncha vaqt oladi. Duo qiladi-yu o'ziga atalgan tugunni qo'ltiqlab, jo'nab qoladi. Nikoh o'qiyotgan domlamiz muqaddas va muazzam saroy poydevorini qo'yishga vosita bolayotganlarini o'zlari ham his etmaydilar. Nikohlangan ayrim yoshlar iymon kalimasini ham bilmaydilar. Islomdagi nikoh va oilaning muqaddasligi nimalardan iborat ekanini tasavur ham qila olmaydilar. Ko'plarining fikricha, nikoh jinsiy aloqaga ruxsatdan iboratdir. Jinsiy aioqaning ijozat etilgan va man qilingan jihatlari mavjudligini bilmaydilar, tarbiya beruvchi otalari ham bundan bexabar bo'lsalar ehtimol. Xabardor bolgan taqdirlerida ham o'gli bilan bu mavzuda suhbat qurish odati bizlarda yo'qkim, bu afsusli holdir. Islom ilmidan oz bolsa-da xabari bor domla nikoh chog'ida Qur'on oyatlari asosida bu xususda malumot berib

qo'yishi shart deb o'y lay man. Chunki g'arbning behayo filmlarini ko'rayotgan yoshlarning ayrimlari jufti halollaridan o'sha kinoda ko'rganlariga o'xshash aloqani talab qiladilar. Bunday aloqani o'zi uchun sharmandalik deb bilgan kelinlarning uylariga qaytib ketib qolish holatlari ham uchrab turibdi. Ketib qolmagan taqdirida ham, kuyov bolaning tashqaridan nafsini qondirishga urinishi boshlanib qolyapti. Bizning yosh oilalarimizga g'arbdan shunday balolar daf qilyapti-ki, biz kattalar g'ofil bolmaylik. Bu o'rinda, otaning o'g'liga nasihati muhim. Shu bois, muhtaram dadajonlar, bu mavzuda so'z ochish uyat yoki odobdan emas, degan istiholaga bormang. To'g'ri, siz dafatan «sen shunday behayolik qilayotgan emishsan», deya olmaysiz. Bunga asosingiz yo'q. Kelingiz hech qachon sizga shikoyat qilmaydi. Agar shunday holatlar yuz berayotgan bo'lsa, u onasiga aytishi va qudalar orqali norozilik, hatto janjal ko'rinishida malum bo'lishi mumkin. Lekin bunday hodisa yuz berishini kutib o'tirish shart emas. O'g'lingiz bunday behayolikdan uzoq bolsa ham, umumiy tarzda «ba'zilar kinoda ko'rganlarini xotinidan talab qilar ekan, bu gunoh hisoblanadi» qabilida, eslatma tarzida aytib qo'yilsa zarar qilmaydi.

Nikoh o'qiyotgan domlamiz yoshlarga taloqning ma'nosini ham anglatib qoyishlari kerak. Nikoh o'qishdan oldin domla «mahmi tayyorlab qoyganmisiz?» deb so'rasa, kuyov bola «Mahrni ham, taloqni ham tappa-tayyor qilib, qotirib qoyganman!» debdi. Bunga nima deysiz?! Ko'pchilik taloqning ma'nosini bilmay yashaydi va kunlarning birida g'azablanib «uch taloqsan!» deb yuboradi. Shu bir og'iz hukm bilan oila buziladi. Keyin yarashmoqchi bolib borishsa, domlamiz «uch taloq» debsiz, qayta nikohlanmaydi, deb qattiq turib oladilar. Bu masalada ozgina mulohazamiz bor: bu oila shar'iy hukmlar asosida yashamadi, shariat nimaligini bilmaydi, shuning barobarida er ham, xotin ham taloq tushun- chasidan bexabar. Erning bilgani: «uch taloqsan, uyingga

jo'nal!» Xotin ham bitta bo'g'chasini tugib, bolasini yetaklab, yig'i-sig'i bilan otasinikiga qaytaveradi. Ularda «idda», «mahr» degan tushuncha ham yo'q.

Agar oila buzilsa, birinchi galda xotinni ayblashga ko'nikib qolganmiz. Qaysidir birodarimizning ajralish-ganini eshitsak, «xotini yomondir-da» deb qo'yamiz. Kamdan-kam hollarda «o'zi yomon-da» deymiz. Oila buzila boshlayotganini eshitsak, «er-xotinning orasiga ahmoq odam tushadi», deb o'zimizni olib qochamiz. Ardoqli otalar va onalar, bu ta'nani noo'rin deb bilasizmi? Unda eslab ko'raylik-chi, qaysi oilani o'nglab qo'yishga harakat qildik? «Battar bo'Tmaydimi!» - ba'zan shu to'xtamga ham kelamiz. Axloqqa doir ko'p kitoblar ko'rishga to'g'ri keldi. Oilaning buzilishi masalasi ko'rilganda ularda ham asosiy ayb xotinlar zimmasiga yuklanadi. Nahotki erkaklar farishta kabi beayb bolsalar? Kunda mast-alast yursa ham er «yaxshi». Xotini do'pposlama ham er «yaxshi» - xotin yaxshi bo'lsa kaltak yermidi! Xotini topib kelganini sovrursa ham er «yaxshi». Yaxshi... yaxshi... ming marta yaxshi! Hatto oilasiga xiyonat qilib, zino ustida qolga tushsa ham er «yaxshi». «Ha, endi yigitchilikda shunaqa sho'xlik bolib turadi-da!» deb qo'ya qoladilar. Hech mahal «Alloh zinoni harom qilgan edi, bu gunohi uchun jazolanishi kerak» demavmiz.

Oilaga rahbar qilib belgilangan erkakning zimmasiga moddiy ta'minot va jismoniy himoyadan tashqari xotiniga adolatli bolish, uning haqiga rioya qilish mas'uliyati ham yuklangan. Xotin kechki ovqatni pishirib qo'yib, erning kelishini kutadi, er ishi ko'pligi bahona, buzuqlikda yurmasa ham, oshnalari bilan choyxonada palovxonto'ra bilan tillashadilar. Nima deymiz, bu adolatdanmi? Er oilada hukmron ekanligini yaxshi angelaydi, hukmron martabasida turib, xotiniga faqat qo'pol muomala qiladi. Xotinning shirin so'z eshitishga haqi yo'qmi? Nima bolganda ham «Qars ikki qoldan chiqadi» degan gap bor. Agar oila buzilish jarioqasiga kelib qolsa, aybni har ikki tomondan izlash kerak. Shunda oilani saqlab qolish

imkoni kengayadi. Agar ayb bir tomonga ag'darilaversa, tarozining bir pallasi dosh berolmay qolishi mumkin.

Malumki, turli sabablarga ko'ra erda xotiniga nisbatan ko'ngilsizlik, hatto nafrat paydo bolishi mumkin. Natijada er xotinidan ajralmoqchi yoki undan yuz o'girib, taloq ham qilmay, muomala ham qilmay tashlab qo'yimoqchi. Xotin eridan ajrashnixohlamasa, yarashishga urinadi. Erning nafratiga yoki yuz o'girishiga sabab bo'lgan ishlarni bartaraf etish bilan uni rozi qilib, ajralmay qolishga tirishadi. Er o'z mas'uliyatiga, xotin o'z mas'uliyatiga teng javobgarligini his etish kerak. Teng huquqlilik shundan iborat. Er bilan teppa-teng gap talashish, teppa-teng olishish - tenghuquqlilik emas, nodonlik. Yengil vazndagi bokschi hech mahal og'ir vazndagi bokschi bilan olishmaydi. Oilada ham mana shu qoidaga amal qilinsa yaxshi.

Nikoh er va xotinning hayotda sherik bo'lishlari xususidagi ahd-paymondur. Ahd-paymon va sheriklik turli soha vakillarida ham uchraydi. Aytaylik, hunarmandchilikda, tijoratda, ziroatda... Agar sheriklar ahdlariga vafo qilsalar, xayrli ne'matlarga ega boladilar. Oraga xiyonat, g'araz yoki tama aralashsa ishlaridan baraka ketadi. Har ikki tomon ham zarar ko'radi. Nikoh bilan boglangan oila ham shunga o'xshashdir. Er ham, xotin ham ahdiga vafo qilsa, oilada baraka boladi va bunday oilani biz «farishtali xonadon» deb sifatlaymiz. Urush-janjaldan bo'shamagan oilani esa «shayton vasvasasidagi xonadon», deb ta'riflaymiz. Agar oiladagi nafrat o'ti mehr va muhabbat gulini so'ndiradigan darajaga yetsa, nikoh - dastlabki ahd-paymon bekor qilinadi va bu bitim shariat tilida «taloq» deb ataladi. Taloq xususida qisman so'zlagan edik, yana mavzuga qaytishga hojat sezildi. To'g'ri, oiladagi janjal toqat qilib bolmas darajaga yetgandan so'ng orada taloq bolmasa, erning ham, xotinning ham butun umri g'am va qayg'uiga sarf bolib qoladi. Islom dinida taloq er va xotinni shunday balodan asrash uchun qollaniladi. Ba'zan shunday

boladi: xotinning niyati yaxshi. Nodonligi yoki tajribasizligi, qaysarligi yoki uquvsizligi tufayli uy ishlaridami, yo bola tarbiyasidami, yoki eriga munosabatidami xato- kamchiliklarga yol qo'adi. Bunday ayollarni kechirish, ularga marhamat ko'rsatish kerak boladi. Lekin xotin eriga adovat va xusumatini doimiy ravishda kuchaytirib b or aver sa-chi? Bu holatda ham darrov taloq berilmaydi. Bu xususda Alloh buyuradiki: «...awalo ularga pand- nasihat qilinglar, so'ng (ya'ni nasihat kor qilmasa) ularni yotoqlarda tark qilingiz (ular bilan bir joyda yotmang, yaqinlashmang) so'ngra (shunda ham sizga boysunmasalar) uringlar! Ammo sizga itoat etsalar, ularga qarshi boshqa yol axtarmanglar. Albatta, Alloh eng Yulcsak va Buyuk bolgan Zotdir» («Niso» surasidan). Endi «Tafsiri hilol» yordamida mazkur oyat mag'zini tushu- nishga urinib ko'raylik: demak, xotin tomonidan oilaning yo er-xotinning tinch-totuvligiga rahna soladigan biron holat sodir bolsa, erning vazifasi birinchi galda nasihat qilib, to'g'ri yolga da'vat etishi lozim ekan. Ayollarning ko'ngillari tabiatan yumshoq va ehtirosli boladi. Ko'pincha ma'qul so'zlar va do'stona o'gitlardan ayollar ta'sirlanib, yomon ishlardan va amallaridan qaytadilar. Lekin nasihatlar foyda bermasa-chi? Unda jazo sifatida o'rnini boshqa qilib, unga ikki-uch kechayaqinlashmaydi va shu harakati bilan qattiq noroziligini bildiradi. Aqli bor xotin bu holatni qat'iy ogohlantirish o'rnida qabul qiladi. Chunki ikki-uch kun o'mini bolak qilgan er, oqibatda butunlay ajrashib ketishi ham mumkin. Demak, bu oddiy araz emas, ajralish ehtimolidan ogohlantirish. Endi dili qotib qolgan ayolga bu vosita ham ta'sir etmadi. U vaqtda xotinni **qattiq ozor bermaslik sharti bilan** urish joizdir. Har kim anglashi zarur-ki, xotin rohatlanish uchun urilmaydi, balki uni to'g'ri yolga solish maqsadidagina qol ko'tarishga ijozat beriladi. Lekin tabiiyki, erga itoat etishni o'zi uchun burch deb bilgan ayol va komil vijdon egasi bolgan er bu oxirgi choraga yetib kelmavdilar. «Urib, dabdala qilaman», degan fikrdan er nari bolishi kerak.

Unga hech kim xotinini dabdala qilishga ijozat bermagan. (Xotinni urish faqat bizda emas, taraqqiy etgan mamlakatlarda ham bor ekan. Yaqinda Yevropaning bir necha mamlakatida xotinini urganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish haqida qonunlar qabul qilindi.) Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Agarda xotinlaringiz shar'iy va savob ishlarda sizlarga boysunmasalar, ularni **majruh qilmasdan va ko'kartirmasdan, qattiq ozor bermasdan** uringlar», deganlar.

Xotin bu choralardan keyin bema'ni harakatidan tiyilsa, er boshqa bahona qidirmasligi, haddidan oshmasligi kerak boladi. Erkak bolganidan mag'rurlanib, asossiz gumonlarga borib, ayoliga zulm va jaf qilishi man etiladi. Asossiz jaf qilari ekan, jabr chekkan ayolning o'chini Alloh oladi. Ba'zi erlar xotinlarini tez-tez uradilar va bu harakatlarini oyat hukmi bilan izohlaydilar. O'tmishda ham shunday holatlar uchrab turgan ekan. Ustoz Abdurauf Fitrat bu haqda 1914 yilda shunday yozgan edilar:

«Niso» surasidagi o'ttiz to'rtinchi va o'ttiz beshinchi oyatlar tarjimasi va izohi bilan mashg'ul bo'lib o'tirganimda bir do'stim muloqot uchun keldi. Men shu mavzuda muloqot qilmoqni orziqib kutar edim. Shu masalani uning huzurida bayon qilib, oyatni o'qib berdim. U kulib aytdi: «Ey Abdurauf, xotinlarni urush va haqoratlash biz buxoroliklarni umumiy odatlarimizdir. Lekin bugungacha bu yaramas harakatimiz shariatga muvofiq ekanini bilmasdik. Shukrkim, bugun sen buning mumkin ekanini tushuntirding. Insha Alloh bundan keyin xotinlarimizni ko'proq va yaxshiroq uramiz». Dedim: «Azizim! Masalani to'g'ri tushuntira olmadim shekilli!? Islom dini ayollarni urishni man qiladi., balki erkaklarga xotinlaringizga marhamat va murosa-yu madora qilib, hurmat qilinglar deb amr qilgan. Yuqorida men bu masalani bayon qilgan edim. Lekin senga bayon qilgan bu masala alohidadir. Faraz qilaylikki, bir yomon xislatli va badaxloq ayol bor. Bechora er xotining unga adovati

*borligini bilib, uning halovatini buzayotganini tushun- tiradi. Xotin quloq solmaydi. Ikki-uch kun xotinidan uzoqlashadi. Xotin shunda ham xulosa chiqara olmaydi. Shunda siz ham bilasizki, erning xotiniga taloq berishdan boshqa iloji qolmaydi. Biroq Islom dini taloqni man qilmoqchi bo'lib, erga: «Taloq berishga shoshilmagin», deb amr qiladi. Xotinning a'zolarini mayib qilmay va lat bermay uni **ozgina urgin**, zora yomon ishdan tavba qilsa va munosabati o'zgarsa. Mening izohimdan bildingki, Qur'on hukmi **maslahat yuzasidan** bo'lib, ahli Islom. oilalari uchun, xususan, musulmon ayollariga buyuk marhamatdir». Men bu shaxsiy suhbatni shuning uchun yozdimki, boshqalar ham mening bayonotimni shu do'stinga o'xshab tushunib, xotinlarini urish uchun bahona qilib olmasinlar».*

Yuz jdl awal bayon etilgan bu flkr haligacha qadrini yo'qotmagan va Qur'on hukmini noto'g'ri anglab yur- ganlarga hali ham ibratdir.

Er oilani saqlab qolishning barcha choralarini ko'rdi, ammo foydasi bo'lmadi, birga yashashning sira iloji qolmadi. U holda, nachora, ajralishsin, taloqqa ruxsat beriladi. Ammo zaruratsiz, balki nafs havosining taqozosi bilan taloq berilsa, albatta, gunoh va haromdir, albatta, gunohkor jazosini oladi. Demak, taloqqa ijozat bor. Lekin Islom dinida xush yoqmaydigan muboh (mumkin) amallardan hisoblanadi. Bu haqda Ibn Umar (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda Nabiy (s.a.v.) marhamat qiladilar: «Alloh oidida eng yomon muboh - taloqdir».

Ba'zan oiladagi yomon sharoit, erning zulmi va boshqa qabih odatlari xotinning sillasini quritadi va uning o'zi eridan taloq talab qiladi. Bu jarayon tez bolmaydi. Har qanday ayol awaliga sabr qiladi. Ehtimol, yillar boyi bardosh berar. Oxiri sabr-bardosh to'g'oni o'pirilish darajasiga kelgach, taloq so'raydi. Lekin uning talablari ham asosli bo'lishi kerak. Birorta mish-mish yoki gumonlarga ishonib yoki boshqa erkakka ko'ngil qo'ngani sababli o'z eri bilan ajrashni qasd qilmasligi kerak.

Ayrim singillarimiz ota-onalarining xohishi bilan o'zlari ko'ngil qo'ymagan yigitga turmushga chiqadilar. Oilada keyinroq boshlanadigan kelishmovchiliklar zaminida xotinning aynan shu ko'ngilsizligi yotadi. Ayrim ayollar shu ko'ngilsizlik sababli xiyonat ko'chasiga ham kirib qoladilar. Ana shundaylarga soliha bir ayolning gaplarini eslatmoqchimiz: hakimlardan biri yosh va go'zal bir ayolni imtihon etish uchun bunday debdilar:

- Senday go'zal bir ayolning shunday xunuk eri bolishi yaxshi emas.

Bu go'zalning eri chindan ham xunuk, bu ham kamlilik qilganday hamisha kir yuradigan, noxush odam edi. Go'zal xotin ulamoning gapiga bu go'zal javobni berdi:

- Ey Hakim! Siz ko'p yanglish so'zladingiz! Gapingiz to'g'ri emas. Bunday so'zlarni sizday odamdan eshitib ko'p ranjidim. Chunki erimning Alloh Taolo oidida bir savobi borligidan bo'lsa kerak, meni ul savobga nisbatan bir mukofot olaroq nasib etgandir. Balki men biror ish qilgan bo'lishim mumkin. Haq Taolo bu gunohimning jazosi sifatida meni unga bergandir. Janobi Haqning bergan taqdiriga rozi bo'lish kerak.

Bu javobdan mamnun bolgan ul olim go'zal ayolga debdi:

- Bolajonim, men seni e'tiqodli va aqlli bir ayol ekanligingni sezgan edim. Shuning uchun imtihon qilib ko'rayin, degan edim. Qizim, ayollarda jannatga kirish uchun eng buyuk nishon - alomat erlarining yomon fellariga **sabr qilmoqdir**. Bu sabr ularni jannatga olib boradi. Jannatiy soliha ayolning nishoni va alomati eriga itoat etmog'i, erining xotirini xush tutishi, eri yo'qligida xayr-duo etmog'i va erining mol-mulkini saqlab, ehtiyot qilmog'i kabi xususiyatlardan iboratdir. Mening bu aytganlarim soliha ayolning jannatga kirishi uchun bir nishondir.

Er-xotinning ajrashi birgina oilaga xos masala emas. Oilaning buzilishiga jamiyat befarq qarab turolmaydi. Har tomondan oilani saqlab qolishga urinishlar boladi. Shu

o'rinda er-xotinning janjalidan o'zlarini olib qochuvchilarga bu amrni eslatib o'tishimiz joiz: «Agar er- xotinning oralari buzilib ketishidan qo'rqsangizlar, erning urug'-aymog'idan bir hakam, xotinning urug'-aymog'idan bir hakam chaqiringiz» («Niso» surasidan). Bu oyati karimada gap ham er, ham xotin tomonidan kelishmovchilik chiqqan paytida ko'riladigan chora haqida ketyapti. Shunday holat yuzaga keldi-ki, endi oilaning sirini tashqariga chiqarmasdan hal etishning iloji yo'q. Endi boshqalarning aralashuvi bilan oilani saqlab qolish choralari ko'rilishi shart. Er o'zi rozi bo'lgan qarindoshlaridan, xotin ham o'zi rozi bolgan qarindoshlaridan hakam tayin etadi. Agar oila hali yosh bolsa, bu vazifani ota-onalar bajarishadi. Mufasssirlar bu o'rinda «o'zi rozi bolgan» deb alohida ta'kid etishadi. Bunga sabab ular tayin etgan hakamlar da'volarni eshitib, shunchaki nasihat qilib qolish bilan cheklanishmaydi. Ular hukm ham chiqaradilar va er ham, xotin ham ularning hukmiga rozi bo'lishlari kerak. Hakamlar tanlanganida aqllari, turmushning past-u balandidan o'tib kelgan tajribalari inobatga olinadi. Eng muhimi, har ikki tomonning hakami adolatli hukm chiqarishga harakat qilishlari kerak boladi. Hakamlarning asosiy vazifasi er-u xotin orasini isloh qilishdir. Shuning uchun ham oyati karimada «agar ular isloh qilishni istasalar», deb ularga islohchilik nisbati berilyapti. Ayrim ulamolalar «Hakamlarga faqat yarashtirish

- isloh huquqi berilgan», deydilar. Yana ayrimlari «Isloh qilishning iloji yo'qligiga amin bo'lishsa, er-u xotinni ajratib qoysalar ham haqlari bor, shuningdek, ular tegishli jazo choralarini, mol-u mulkka oid masalalarni ham hal qilishadi», deydilar. Albatta, hakamlar o'zlarining insoniy cheklangan ilmlari va imkoniyatlari doirasida hukm chiqaradilar. Hakamlikka nomzod moljallanganida bular ham e'tiborga olinmog'i shart. Er yoki xotin tomon hakamlikka qarindoshlaridan birlarini tanlashgach, unga ajralishga sabab bolayotgan hodisa yoki gapni bayon qila boshlaydilar. Shubhasizki, mag'zava qarshi tomonga

ag'dariladi. Hakamlarni qiyin ahvolga solib qo'yadigan holat ham aynan shunda. Hakam donishmand bo'lsa, aytilganlarning mag'zini chaqib ko'radi, mantiq tarozisiga solib chamalaydi. Aravani quruq olib qochadiganlardan bo'lsa, qarshi tomonni ayblashdan bo'shamaydi. Ba'zan bir-biriga mutlaqo zid ravishda fikrlaydigan hakamlar uchrashib qoladilar-ki, yarashishga umid qilib o'tirgan er-xotin oqibatda tamoman teskari bo'lib ketadilar.

Shunday voqealardan biri: yosh oila yarim yil ichida buzilish jari yoqasiga kelib qoldi. Kuyov bola ajralishga asosiy sabab deb kelinning kiyinish madaniyatini ko'rsatadi. Ya'ni kelin shim kiyarkan, erning o'ranish haqidagi talabini rad etarkan. Bir qaraganda talab to'g'ri. Xotin er xohlaganday kiyinib yurishi lozim. Chunki xotin birinchi galda eriga chiroyli va yoqimli ko'rinish harakatida bolishi kerak. Bizda ko'pincha teskari holat kuzatiladi: ayollarimiz uyda o'zlariga qaramaydilar, ko'chaga chiqadigan bolsalar pardoz-andozni boshlab yuboradilar. Xullas, yigit tomon uning talablarini mutlaqo haq deb turibdi. Kelin tomondan tayinlangan hakam ellik yoshlardagi gapga chechan ayol zamonaviy tarzda kiyingan. Yoshigayarashmasa ham shim kiygan, boshda ro'mol yo'q. U shubhasiz-ki, o'z dunyoqarashi asosida kelinni himoya qiladi. Kuyov tomonni feodallikda ayblaydi. «Shu qiz birinchi uchrashuvga chiqqanida ham shim kiyib olgan edi, o'shanda nima uchun indamadingiz?», deb kuyovga savol beradi. Kuyov «keyinroq to'g'ri yolga solib olishga umid qilganini» aytadi. Durust, kuyovning shunday yaxshi niyati bor ekan. Ammo bir odamni o'zgartirish uchun yarim yil kifoya qilarmikin? So'fi Oллоhyor aytmoqchi:

*Zamona xotununi yo'lga solmoq
Erur oson ul ishdin jang qilmoq...*

Deyilmoqchiki, bu zamonda xotinlarni to'g'ri yolga solmoq bir qal'ani jang qilib olmoqdan mushkuldir.

Bu sharoitdagi ikki hakam go‘yo suv bilan olov kabi edi. Er-xotin chetda qolib ular o‘zaro dahanaki jangni boshlab yuborishdi. Bu jangda hech kim g‘olib kelmadi, oila barbod boldi, xolos. Demoqchimizki, hakamlikka gapga chechanlami emas, sermulohaza, dono odamlami tanlash kerak.

Shu xususda yana bir voqea: er xotinini buzuqlikda ayblab ajrashmoqchi. Aqlli odam bironing gapi yoki gumon bilan o‘z ayolini bunday ayblamaydi. Zino ustida ushlasagina, bu holni guvohlar tasdiq etsagina da‘vosi o‘yinli boladi. Ajrashmoqchi bolayotgan er ayblaydi, xotini bu aybni rad etib, qasam ichadi, ayni choqda erini tuhmatda ayblaydi. Hakamlar ishtirokidagi munozara uzoq davom etadi. Shunda mahallaning dono oqsoqoli hisoblangan hakamlardan biri erni tashqariga imlab chaqiradi-da, nimadir deydi. Er tashqarida bir oz oyianib turgach, iziga qaytib, xotini bilan yarashajagini malum qiladi. Bu hoi ko‘pchilikni ajablantiradi, oqsoqoldan «yigitga nima devdingiz?», deb qiziqishadi. Ammo oqsoqol oradagi simi ochmaydi. Oradan ko‘p yillar otdi, oila tinch- totuv yashadi, farzandlar ko‘rdi. To‘ylar qilishdi. Ajrashmoqchi bolgan o‘sha er avtomobil halokatida jon bergandan keyin, bir kuni otaxon menga simi ochdilar. Erni fikrdan qaytargan gap bunday ekan: «O‘glim, bu xotinni qo‘ysang, endi baribir senga bokira qiz tegmaydi. Bitta yoki ikkita erdan chiqqan xotinga uylanasan. Ehtimol, sen uylanadigan xotin eridan chiqqanidan keyin chakki yurib, yana qancha erkaklarni ko‘rgandir. Sen «xotinim bitta odam bilan yuradi», deb gumon qilyapsan. Gumoning to‘g‘ri chiqqanda ham shu xotining keyin keladiganidan pokizaroq emasmi? Undan ko‘ra gumonni boshingdan chiqarib tashla. Xotiningning chin so‘ziga ishon. Xudo ham shunga buyuradi». Otaxonning donoligi shunda-ki, bu gapni ko‘pchilikning orasida aytganida er quloq solmagan bolardi. Aksincha «Hali qarab turasiz, onasi o‘pmagan qizga uylanaman!» deb ko‘kragiga urgan bolardi.

Har bir oilada o'zaro rashk boladi. Aslida rashkning bolgani ham yaxshi. Chunki ulug'larimizdan So'fi Ollohyor aytmoqchi:

*Jami' jonvorlar tushsa ko'zga,
Hamiyyatlik bo'lur to'ng'izdin o'zga.*

Deyilmoqchiki, barcha hayvonlarda ham rashk bor, faqat to'ng'izdayo'q, modasini qizg'anmaydi.

*Taajjub fitnalikdur bu zamona
Tushubdur erlar ahvoli yamona.*

Deyilmoqchiki, ajab fitnalar ko'pdir bu zamonda. Erklar o'zlarini yomon ahvolga solganlar. Ya'ni ularda g'ayrat va rashkdan asar ham qolmay, xotinlarini bozorlarga pardasiz yuborurlar. Xotinini sira rashk qilmaydigan, bila turib begona erkakdan qizg'anmaydigan erni «dayus» deyдилar. Boshqacha aytsak, o'z xotiniga qo'shmachilik qiluvchi erkak dayusdir. Jannatga kirmaydigan uch toifadan biri, deb aynan shu dayus, bilib turib xotinini yomon yolg'a kirishiga yolg' qo'ygan erkak aytilgan.

Agar rashk butunlay bolmasa, erkak to'ng'iztabiatli hisoblanarkan. Biroq rashk o'ti haddan ziyod alanga olsa, illatga aylanadi. Er xotinning yoki xotin erning har bir qadamini kuzataversa, orada ishonch yo'qoladi. Ishonch yo'qolgan uydin fayz ketadi. Shu tufayli arzimagan narsadan janjal chiqaveradi. «Boshqasini topganga o'xshaysiz-da, mening hamma ishlarim ko'zingizga yomon ko'rinib ketyapti», deydi xotin. «Bitta yarimta xushtoring bormi, pardozlaring boshqacha bolib ketyapti», deydi er. Qarabsiz-ki, yaxshilikka xizmat qilishi kerak bo'lgan rashk oilani buzishga olib keladi.

«Agar sen xotiningga rashklik qilmasang, u senga samimiyat bila munosabatda bolur. U senga ota-onang va farzandingdin ham mushfiqroq bolur va senga undin do'stroq kishi topilmas. Agar unga g'ayrat ko'rguzsang,

senga ming dushmandin dushmanroq bolur va begona dushmandin hazar qilsa bolur, lekin undin hazar qilib bolmas». Kaykovusning bu pandi rashkni meyordan oshirib yuboradiganlarga ibrat bolishi lozim. Agar er xotiniga rashkni oshirib, uni ayblayvermasa, xotin unga o'z ota- onasidan ham mehribonroq bolar ekan. Meyordan oshsa, dushmandan ham battarroq dushmanga aylana ekan.

Bir oilaning buzilishiga sabab bolgan voqeani aytib berishgan edi.

Voqea. Uyga erning do'sti mehmon bolib kelgan. Xotin xizmatda. Erning ko'zi poyafzallarga tushadi. Qarasa-ki, mehmonning tuflisi yonida xotining kalishi turibdi. Xotinini chaqiradi: «Nega kalishing uning tuflisi yonida turadi?» Xotin, turgan gapki, bunga e'tibor bermagan. Shunda er boshqacharoq da Vo qiladi: «Nima uchun sening kalishing uning tuflisiga kulib qarayapti!» Bu holat sizga tentaknamo bolib tuyulyapti, a? Albatta, bu ahmoqona rashkning ko'rinishi. Shunga o'xshash voqealar takrorlanavergach, xotin ikki bolasini olib ajralib ketishga majbur boldi. Shundan so'ng o'sha rashkchi yana bir necha marta uylandi. Oxiri og'ir kasalga chalingach, so'nggi xotini uni qariyalar uyiga topshiribdi. Bundan xabar topgan o'g'illari otalarini uylariga olib kelib parvarish qilishibdi. Onalari bunga monelik qilmabdi. Ikki dunyo saodatiga yetuvchi xotin va farzandlar shunday bolishadi!

Oilada do'stning o'mi masalasi ham muhimdir. Do'stlik tarixi er-xotin tarixidan awalroq boshlangan, malum sinovlardan o'tgan boladi. Ayrim yigitlarning do'stligi bog'cha yoshidan boshlangan, ba'zilariniki institutdan. Yigit oila qurgach, do'stlardan bir oz uzoqlashishi mumkin, ammo butunlay uzilib ketmaydi. Ayrim do'stlarning toydan keyin ham awalgiday serqatnov bo'lishlarini kuzatamiz. Ayrimlari esa do'stining ahli ayoliga nomahram ekanliklarini anglab, bu xonadonga tez-tez kelishdan o'zlarini tiya boshlaydilar. Aqlli do'st deganda biz shundaylarni tushunamiz. To'g'ri,

nomahramlik nimaligini bilmaydigan serqatnov do‘st ko‘nglida shumlik yo‘qdir, qalbi tozadir. Do‘stining xotinini o‘z singlisiday ko‘rar. Ammo orada shayton bor, bu bir. Yana atrofdagilarning turli gumonlarga yoki ig‘Volarga asoslangan gap tarqatishlari bor. Ana shu ig‘Vo gaplar bir kunmas bir kun erga ta‘sir qilib, yomon oqibatlariga olib kelishi tabiiy. Do‘stlar birin-ketin oila qura boshlashgach, ayollarini ham yaqinlashtirish maqsadida «ulfat» tashkil qiladilar. Ayrimlar ayollar uchun alohida «ulfat» tashkil etsalar, ba‘zilar juft-juft bolib o‘tirishni ma‘qul ko‘radilar. Mana shu ikkinchi holatda ko‘p fitnalar tug‘iladi. Ayollar, awalo, bir-birlarini sinchkovlik bilan kuzatadilar, shuning barobarida yigitlar ham e‘tibor- laridan chetda qolmaydi. Yangi tanishgan yosh juvonlar orasida iboli, hayolilari ham, sho‘x yoki odobsizlari ham boladi. Yigitlar bilan baravar askiya aytishadiganlarni ham uchratamiz. Demak, davrada turli fel-atvorli ayollar to‘planishgan ekan, turli qiliqlar ham yuzaga chiqaveradi. Yigitlar orasida ham do‘stining xotiniga ko‘ngli sus ketuvchilar topilmaydi, deysizmi? Shunday «ulfatlar» sharofati bilan buzilgan oilalarni kuzatganmiz. So‘fi Ollohyor yozadilarkim:

*O‘shal xotunki, nomahram nazardur
Agar shams-u qamardur moxayi xardur.*

Deyilmoqchiki: xotin begona erlarga qaraguvchi bolsa, garchi o‘zi oydek, quyoshdek go‘zal bolsa-da, uni urg‘ochi eshak, demoq lozim.

Yaqinda noxush voqeaga guvoh boldim.

Yana bir voqea. Qashqadaryolik yosh olim yigitning oilasi barbod bolibdi. Qashqadaryodan kelib Toshkentda yashayotgan bu oilaning buzilishiga olim ukamizning oila xususidagi tushunchasi yetarli emasligi, erning vazifasi, burchi, mas‘uliyatini lozim darajada his qilmasligi sabab bolgan. Ikki xonali uyda do‘stining ham yashashini xotini ma‘qullamagan. Bu oilani saqlab qolish uchun ko‘pchilik:

ota-onalari ham, yigit xizmat qiladigan institut jamoasi ham, Qashqadaryodagi turli tashkilotlar ham g'amxo'rlik bilan harakat qilibdilar. Er xotini haqli talabini tushunishni istamasa, nachora?!

Tilimizda hamonki «yomon xotin» degan ibora mavjud ekan, demak, hayotda ham shundaylari bor ekan. Lekin biz «yomon xulqli xotin» deb izoh bersak to'g'riroq bolar. Yomon yoki yaxshi xotin degan tushunchalar ham nisbiydir. Malum bir xotin malum oila uchun yomon yoki yaxshi tuyulishi mumkin. Shuning uchun uzil-kesil xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak. Xotinning yomonligi kimlarga nisbatan bolishi mumkin?

- xotin er uchun yomon;
- xotin qaynona uchun yomon;
- xotin qo'shnilar uchun yomon;
- xotin erning qarindoshlari uchun yomon;
- xotin hamkasblari uchun yomon.

Nima uchun?

- erini hurmat qilmaydi, huda-behudaga janjal chiqaradi, rashk qiladi...

- qaynonasini mensimaydi, aytgan ishlarini vaqtida bajarmaydi, erigayomonlaydi...

- qo'shnilarni g'iybat qiladi, bir-biriga gap tashiydi, xasislik qiladi...

- qarindoshlarining mehmon bo'lib kelishini xohlamaydi, ular kelganda terslik qiladi...

- hamkasblarini g'iybat qiladi, boshliqqa kirib chaqadi...

Xotin eri bilan chiqishmasligi mumkin, ammo qaynona-qaynotasi, qayinsingillari bilan munosabati yaxshi. Bu masalani hal etish uncha qiyin emasdek tuyuladi. Qaynona-qaynota kelin tomon bolib, o'g'ilni tarbiya etishga urinishadi. Agar erning ko'ngli ko'chadagi jononda bolsa, uni qaytarish ancha qiyin. Xotindan birinchi galda sabr etish talab qilinadi. Er-xotin baxtli yashashlari uchun bir qoidaga qattiq amal qilsalar, olam - guliston! Bu qoidaning nomi - **bitta gapdan qolish!** Ha, aynan shunday. Xo'sh, kim bitta gapdan qolishi kerak? Birinchi

galda xotin. Eriga gap qaytarib, baxtli bolgan xotinni tarixda - ming yillardan beri hech kim uchratmagan, bundan kejdin ham uchratmasligi tayin. Er ham bitta gapdan qolishga majbur. Ehtimol, xotin bitta gapdan qolgan mahalda er ikkita, ba'zan uchta gapdan qolsa o'zi uchun ham yaxshi. Lekin xotin javrayversa-yu u indamay o'tiraversa, yaxshilik bo'lmaydi. Vaqti kelganda qaynonalar ham bitta gapdan qolganlari ma'qul, degan fikrimizni opa-singillarimiz ehtimol ma'qullamaslar. Lekin ba'zan murosa qilib, kelishmovchilik cho'g'ini janjal alangasiga aylantirib yubormaslik uchun qaynonalar ham bitta gapda qolib turganlari durust.

«Onangni otangga beparдоз ko'rsatma», degan gap bor. Orastalik, o'ziga me'yor qadar zeb berish yaxshi. Biz nima uchundir o'ziga qarab yurishni faqat ayollarga xos, deb bilamiz. Ayrimlar xotini, qizlarini chiroyli kiyintirib qo'adilar-u o'zlari oftobda kuyib ketgan do'ppida, yoqasi buralib ketgan kuylakda yuradilar. Bu yo'qchilikdan emas, ko'proq befarosatlikdan boladi. Befarosat deganda biz erni ham, xotinni ham nazarda tutamiz. Er kiyim- boshga e'tiborsiz bolsa, xotin ziyrak bolishi kerak, eriga qarashi kerak.

Shunday rivoyat qiladilar:

Bir kuni hazrat Umarning (r.a.) huzurlariga bir xotin eri bilan boshlashib keldi-da erini ko'rsatib:

- Yo Amiral mo'minin! Bu kishi mening erim boladilar. U bilan qurgan turmushimizni o'ylab ko'rdim. Uch oydirki, totuv yashash uchun ko'p harakatlar qildim. Ammo erimda ragloat ko'rmadim. Uch oy davomidagi turmushimizdan bir narsaga aqlim yetdi: biz bir-birimizni tushuna olmas ekanmiz, shuning uchun ajrashamiz.

Hazrati Umar (r.a.) qarshisida indamay turgan odamdan so'radilar:

- Sen nima deysan?

- Yo Amiral mo'minin! Mening hech qanday shikoyatim yo'q. Men ajralishni istamayman, - dedi er.

Hazrati Umar (r.a.) erning rang-ro'yi, kiyim-boshiga qarab ahvolni yaxshi tushundilar.

- Sen hozir uyingga ketgin-da, bir ozdan keyin kelgin. Ungacha biz ering bilan suhbatlashib olamiz.

Xotin ketgach, hazrati Umar (r.a.) u odamni ham- momga olib borishni, yuvintirib, toza kiyimlar kiyin- tirishni buyurdilar. Erkak pokiza bir holga keltirildi. Picha vaqt o'tgach, xotin kelib bashang kiyimdagi ozoda erini ko'rib, quvondi. U ajrashish haqidagi ahdini ham unutib, erini boshlab uyiga ketdi. Mo'minlarning xalifasi hazrati Umar (r.a.) shu yerda hozir bolganlarga qarab dedilar:

- Sizlar oilalaringizning (ayollaringizning) yaxshi va pokiza kiyinib, sizni kutib olishlarini sevganingiz kabi, ular ham sizni yaxshi va pokiza kiyinganingizdan zavq oladilar, sizlarni yasangan bir holda ko'rishni istaydilar.

Agar xotin eri bilan yaxshi bo'lib, qaynona bilan chiqishmasa, ko'pincha bu masalani ularning ro'zg'orini bolak qilish, ba'zan esa ularni boshqa uyga ko'chirish orqali hal qilishga urinadilar. Qaynona-kelin munosabati eng chigal, ayni paytda, mavhum masalalardan biri. Agar ularning da'volarini eshitsak, umumiylikni ko'ramiz. Qaynona deydi: kelin dangasa, ishyoqmas, uyning tozaligiga yaxshi qaramaydi, mug'ombir, onasiga gap tashiydi, kattalarga gap qaytaradi... Kelin deydi: qaynonam birinchi kundan meni chiqishtirmaydilar, har qadamimni o'lchaydilar, birpas dam olishimni ham ko'rolmaydilar, ovqatga tuzni o'zlari solib, erimning oidida «sho'r qilib qo'yibsan», deb urishadilar... Qaynona-kelin munosabatida bir narsani unutimiz: qaynona bilan kelinning yosh jihatdan kamida yigirma yillik farqi mavjud. Ba'zi qaynonalar kelinlari bilan urishib qolsalar «Mendan yoshku, o'zimni hurmat qilmasa ham yoshimni hurmat qilmaydimi!», deb noliydilar. Biz farqni faqat yoshda, yillarda ko'ramiz. Aslida oradagi yigirma yillik farq - dunyoqarashdagi farq degani. 40 - 50 yoshdagi ayolning hayot tajribasi o'ziga yarasha dunyoqarashini shakllantirgan. 20 yoshli juvon zamonning ta'sirida bu dunyoqarashni inkor etishi ham mumkin. Bundaylar orasida «qaynonamning fikrlari eskirib qolgan», degan

gaplarni eshitamiz. Bu nuqtada ikki shaxsning to'qnashuvini shunchaki oilaviy mojaro emas, ijtimoiy masala sifatida o'rganishimiz va hal etishimiz kerak bo'ladi. Bularni biz bedavo dard emas, tuzatish imkoniyatlari mavjud arzimagan kamchiliklar deb qabul qilishimiz kerak. Bu kamchiliklar tufayli oila buzilsa, birinchi galda qaynonani ayblashga haqlimiz. Ba'zan kelin kamchiliklarini tan olib tuzatishga kirishsa ham, qaynona bo'sh kelmaydi, talablarini yanada kuchaytiraveradi. Shu o'rinda bir fikrimiz borki, buni ham opa-singillarimiz rad etishlari mumkin. Xalqimizda «Qizil oyoq kelib, qizil yuzdan judo qildi», degan maqol bor. Bu kelin kelib, o'glimni o'ziniki qilib oldi, degani. Ayrim ayollarda o'glini qizg'anish hissi boladi. O'g'iluylanib, kelin bilan yotog'iga kirib ketganidan keyin ona qalbida bir uzilish boladi. Ya'ni, hamisha yonida bolgan o'g'il endi o'zganing ihtiyorida. Balki shu his onada kelinga nisbatan norozilik uyg'otar? Bu ruhiyat muammosi. Fikrni birdaniga rad etmaylig-u o"ylab ko'raylik. Qaynona-kelin muammosini hal etishda shu ruhiy holatni ham nazardan chetda qoldirmaylik. Ayniqsa, o'g'il farzandlar shu masalada ehtiyot bolishlari kerak. To'ydan keyin onaga bolgan e'tiborni zarra qadar ham kamaytirmasliklari shart.

«Ko'cha xandon, uy zindon» degan ta'rifni eshitganmiz. Garchi bu ibora ko'proq erkaklarga nisbatan qollanilsa- da, ba'zan ayollarga nisbatan ham aytish mumkin. Chunki ayrim ayollarga uy zindon, ishxona esa jannatday ko'rinadi. Nega? Ayolning feli shundaymi yoki uydagi sharoit chindan ham zindon, ishxonadagisi jannatdaymi? Agar ayolning feli ko'chaga moyil bolsa, uning tarbiyasi oson kechmaydi. Agar uydagi sharoit yomon bolsa, uning muolajasini qilish shart.

Yomon xulqli xotinning mavjudligi zamonga, jamiyatga ham, xonadonning boy yoki kambag'alligiga ham qaramaydi. Agar kambag'allik yomon xotinlarni yuzaga chiqarsa, dunyoni yomon xotinlar bosib ketardi. Holbuki, kambag'al oilalarda yomon xotinlarni kamroq uchratamiz.

Agar oilaning baxtini boylik belgilaganda edi, bironta boy xonadonda oilaviy janjal ko'tarilmas edi. Holbuki, boy xonadonlardagi oilalarning buzilishi ko'proq kuzatilyapti. Bu holat faqat bugungi kunimizga xos emas. Keling, tarixga nazar tashlaylik.

Bobur hazratlari «Bobumoma»da Husayn Boyqaroning xotinlari haqida yozadilar: «...*awal olg'on xotuni Beka Sultonbegim edi, Sanjar mirzo Marviyning qizi edi. Badiuzzamon mirzo mundin tug'ib edi. Ko'p kajxulq edi. Sulton Husayn mirzoni ko'p og'ritur edi. Kajxulqlig'idin mirzo batang keldi, oxir qo'ydi va xalos bo'ldi, ne qilsun haq mirzo jonibi edi.*

*Zani bad dar saroyi nako'
Ham dar in olam ast do'zaxi o'.*

Deyilmoqchiki: yaxshi kishining xonasidagi yomon xotin shu dunyoning o'zidayoq uning do'zaxidir.

Tangri hech bir musulmong'a bu baloni solmag'ay. Yomon xo'yluq, kajxulq xotun ilohiy olamda qolmag'ay».

Malikaning nima uchun yomon bolgani bizga malum emas. Bobur mirzo ham buni boshqalardan eshitib yozgan bolsalar ajab emas. Ehtimol, malika erining ketma-ket xotin olaverishidan, bu ham yetmaganday kanizaklar bilan maishat qilaverishidan bezib, janjal qilgandir?.. Mashoyixlar erlarni yomon xotin balosidan bot-bot ogohlantirib kelganlar. Mana, shulardan biri: «...do'st bolmagbnxotindin qochg'il, nedinkim, debdurlar: «Kadbonu (ishchan uy bekasi) bolmag'on tezroq band bolur, ammo u masobada (holatda) ermak. Buningdek xotin sening molingni qolingdin olib, so'ngra seni unga molik bolurg'a qo'vmag'av, undin so'ng sen uning xotini bolursan, lekin u senga xotin bolmas».

So'fi Ollohyorda ham yomon xotinlar xususida bir qancha bayt aytilganki, tanishsak zarar qilmas:

*Yamon bo'lsa, na'uzu billah andin,
Ziyondin o'zga hech qolmas yamondin.*

Deyilmoqchiki: olgan xotin yomon chiqsa, bu xotin qo'lidan ziyon-u yomonlikdan bo'lak narsa kelmas. Bundayin xotinlar shumligidan Allohga sig'inib, panoh tilaymiz.

*Yamon xotun shayotin qamchisidur,
Qo'ling bog'lag'uvchi arg'amchisidur.*

Deyilmoqchiki: yomon xotin gunohlar daryosiga choktiruvchi (mazkur bayt hadisi sharif asosida aytilgan).

*Du olam nari bo'lsa, nari ketsun
Ko'zing ko'rmasa shum diydori bitsun.*

Deyilmoqchiki: bu yomon xotin ikki dunyoning do'zaxidir va uni o'zingdan nari qil. Bu ikki dunyo tamug'i ketsin, botsin, bitsin, deya taloq qil.

*Agar chandeki, buzurgodadir ul,
Yaqin bil, to'rt oyoqliq modadir ul.*

Deyilmoqchiki: yomon xotin garchi payg'ambarzoda bo'lsa ham, bilgilki, shu yomonligi uchun to'rt oyoqli urg'ochi hayvondan boshqa narsa emas.

Bir uyda ayolning ovozi baland chiqsa, ya'ni er so'zini tinglamasa, unga itoat etmay, gap qaytaraversa, u uyda xayr -yaxshilik bolmaydi, bu uydan saodat kutilmaydi, kutilgani bilan yetishib bolmaydi.

Xo'p, yomon xulqli xotinlarga shunchalik nafratimiz bor ekan. Ularga nisbatan eng so'nggi chora maqolda ham aytilgan: «Qo'shning yomon bo'lsa - ko'chib qutulasan, xotining yomon bolsa - qo'yib qutulasan». Bu so'nggi choradan Alloh asrasin. Yomon xulqli ayollarga xushxulq nasib etsin.

Shukrlarkim, yonimizda yomondan ko'ra yaxshi ayollar ko'proq. Xo'sh, kimlarni yaxshi deymiz?

- olijanob, pokiza va qalbi go'zallarni;

- aqlli, qanoatli, iffatli, vafolilarni;
- barcha harakatlarini o‘‘ylab qiladigan, erining borida ham, yo‘g‘ida ham hurmatlab, o‘zini va nomusini saqlaydiganlarni;
- yaxshi va yomon kunlarda fidokor bolishni o‘zlariga shior qilib olganlarni;
- yuzidan kulgi arimaydigan, tili shirin, qoli barakali, qadami qutlug‘ bo‘lganlarni...

Yaxshi ayollarga xos fazilatlarni bayon qilib, siz muhtaram ota va onalar uchun hech bir yangilik kashf qilganim yo‘q. Bu fazilatlarni o‘zingiz ham yaxshi bilasiz. Lekin men diqqatingizni ikki narsaga qaratmoqchiman: awalo, bu fazilatlar faqat ayollarga xosmi? Erkaklar uchun zarur emasmi? Bizningcha, zarur. Ikkinchidan, farzandlarimizni, ayniqsa, qizlarimizni bu fazilatlar asosida tarbiya qilyapimizmi?

«Kimning xotini do‘st, mehribon va uyi saranjom- sarishta bo‘lsa, u kishi haqiqatan baxtiyordir. Agar xotining iffatli, nomusli, ochiq yuzli va shirinso‘zli bolsa, u xoh go‘zal, xoh xunuk bo‘lsin, biribir uni sev, yana hurmat qil. Bu so‘zlar yolg‘iz xotinlargagina emas, erkaklarga ham maxsusdir. Er va xotin hamjihat va hamfikir bo‘lsalar, ularning ko‘zlagan hamma murod va maqsadlari hosil boldi, demakdir», deyilar.

Er so‘ziga quloq solgan, hurmatini ado etgan xotin o‘zining yaxshi xulqi bilan kambag‘alni podshoh qiladi. Kimningki ko‘ngil habibasi bolgan ayoli, xonadonining bekasi o‘ziga uyg‘un va mos bo‘lsa, o‘sha odam eng baxtiyor kimsadir. Har kuni tong otgandan to oqshom- gacha ishda band, uzun tun bedorlik bilan o‘tsa-yu, ammo yoningda ko‘nglingni ovlovchi, senga tasalli beruvchi, qiyinchilik va mashaqqatingga sherik, dardingni oluvchi bir ayol - beking bolsa, bu dunyo tashvishlaridan sira qo‘rqmasang ham bolaveradi. Bunday xotin erning boshiga baxt tojini kiydiruvchidir.

So‘fi Olohyor hazratlarining yomon xotinlar haqidagi fikrlari bilan tanishdik, yaxshi xotinlar haqida nima degan ekanlar?

*Xush ul zan bilmasa behuda demi.,
Suchuk lafzi bilan shod etsa erni.*

Deyilmoqchiki: yaxshi xotin behuda so'zlarni aytishni bilmas. Ammo shirin so'zlari bilan erini shod qilur.

*Agar o'n yil uyida. bo'lmasa un,
Uni chiqmas, ani ayturga bir kun.*

Deyilmoqchikim: agar xotin yaxshi bolsa, erining uyida o'n yil davomida un bolmasa, birovgacha hech vaqt un yo'q, deb un (tovush) chiqarmas, shikoyat qilmas.

Rivoyat. Faqir bir odam uylanib, o'g'il farzand ko'rdi. U o'glini bag'oyat sevar edi. Bola tish chiqara boshlagach, ota nolib qoldi:

- Qara, tishlari chiqib qoldi. Endi ovqat yeyishni xohlaydi. Endi men unga ovqatni qaydan topib kelaman?

Erining aqlini, didini bilgan soliha xotin uni shunday deb yupatdi:

- Ey mening soddaginam, tushunchasi nuqsonli erginam. Siz ko'pam vasvasa qilavermang. Farzan- dimizga tishni Alloh bergan, unga ovqatni ham O'zi beradi. Butun olamga rizq bergan Janobi Haq qodirdir. Go'daklar, chaqaloqlarning ham rizqini beradi. Siz tashvish qilmang!

Chindan ham chaqaloqlarga ona qomida surat va shakl bergan Alloh ularning rizqlarini, umrlarini ham beradir. Agar ayol soliha emas, bu haqiqatdan uzoq bo'lganida edi shaddodlik yoki qo'pollik bilan «Siz otasiz, topib kelish burchingiz», deb dilini xira qilishi tayin edi.

Hikoyat. Bir cho'ponning soliha, farosatli xotiniga hamma havas qilardi. Hamma shu cho'ponni «eng baxtli odam» deb ta'riflardi. Qishloqda kimki xotini bilan kelisholmay qolsa: «Bor, cho'ponning xotinidan ibrat olib kel», derdi. Bir kuni xotini bilan janjallashib qolgan qishloq og'asi ham shunday dedi. Xotin «Men kimman-u cho'ponning xotini kim! Undan nimani o'rganardim!», dedi. Keyin

«bu xotinni hamma maqtaydi, bir borib ko'rayinchi», deb qiziqib yo'lga chiqdi. Borsa, cho'pon xotini hovlidagi idishda turgan suvdan olib ichayotgan ekan. Qishloq og'asining xotini chanqagan edi, «shu suvdan ichayin», deb so'radi. «Xo'p, - dedi cho'pon xotini, - sizga hozir ichkaridan muzday suv olib chiqaman, bu ilib qolgan».

- Ichkarida muzday suv bo'lsa, o'zingiz nima uchun bu iligan suvdan ichyap siz? - deb ajabladi og'aning xotini.

- Xonim, erim bu onlarda dalada, jaziramada yuribdilar. Meshlaridagi suv quyosh nurida ilib qolgandir. Erim u yoqda iligan suv ichsalar-u men bu yerda muzdek rohatbash suv ichsam, mehribon xotinligim qayerda qoldi!

Bunday farosat egasini har bir erkak orzu qiladi. Bu baxtiyorlikdir. Bunday baxt mol-mulk, boyluk, davlat- mandlik, xonlik, beklik yoki o'qigan, katta martaba sohibi bolish bilan qolga kiritiladigan davlat emas. Ba'zan ikki karra ikkining to'rtligini bilmaydigan odam ilmli, farosatli, oqila ayolga er boladi. Huddi shu hikoyadagi cho'pon kabi! Inson mol-mulk topa oladi. Qolidan har narsa keladi. Ammo yaxshi ayol qolda yasab oladigan ne'mat emas.

Yaxshi xotinga ega birodarlarimizning ayrimlari ba'zan xotinlarini biron-bir davrada maqtab qo'yadilar. Bilmay- dilarki, xotinni maqtash odobdan emas, chunki odatda sotilguvchi narsa maqtaladi.

Yana bir hikoyat. Bir yangi uylangan yigit taqdiridan quvonib, maqtanibdi:

- Amaki, keliningiz shunday nazokatli, farosatliki, siz bilmaysiz.

Amakisi jiyaniga nasihat qilib o'tirmay, oqshomda mehmon bolib borishni tayinlabdi.

Jiyani kelgach, amaki xotiniga tarvuz olib kelishni buyuribdi. Xotin olib kelibdi. Amaki tarvuzni ko'rib: «Bunisi yaxshi emas, boshqasini olib kel», debdi. Xotin itoat bilan ikkinchisini olib kelibdi. Shu tarzda erning xohishiga qarab o'n marta boshqa tarvuzga qatnabdi.

Ammo lom-mim demabdi. Jiyanning taklifi bilan ertasiga amaki mehmonga boribdi. Jiyani ham xotiniga tarvuz keltirishni buyuribdi. Birinchi tarvuzni ko'rib: «Bu yaxshi chiqmaydi, boshqasini olib kel», debdi. Juvon itoat bilan ikkinchi tarvuzni olib kelibdi. Jiyani bundan mamnun bolib, amakisiga «ko'rdingizmi!» deganday kulib qarabdi- da, «bu ham bolmaydi, boshqasini olib kel», debdi. Uchinchi tarvuzni ham bo'lmaydiga chiqarib qaytarmoqchi bolganida juvon:

- Nima, bir arava tarvuz tushirib qoyganmisiz, hali unisini, hali bunisini olib kel, deyaverasiz. Bor-yo'g'i uchta tarvuz bor uyda, yoqmasa turingda, j'axshisini o'zingiz tanlab oling. Men tanlashni bilmayman! - deb noroziligini bayon qilibdi.

Shunda amaki jiyaniga degan ekan:

- Ko'rdingmi, bolaginam, sen ko'pam maqtanaver- magin. Mening uyimda bir donagina tarvuz bor edi. Xotinim yaxshi felli, farosatli bolgani uchun menga e'tiroz bildirmay o'sha bitta tarvuzni o'n marta olib keldi. Lekin biron marta itoatsizlik bilan gap qaytarmadi, labini ham burmadi.

So'fi Oллоhyor hazratlarining bitiklarini o'qishni davom ettiramiz:

*Sirinfosh aylamas, gar g'anda bo'lsun,
Agar tang bo'lsa, aytur: «Bo'lsa - bo'lsun».*

Deyilmoqchiki: yaxshi xotin o'zi alamda bolsa ham, erning sirin aslo fosh aylamas. Agar ro'zg'ori tanglikda qolganini birov aytsa, eslatsa ham «bolsa bolar, ertaga Xudo berib qolar», deb o'zga so'z aytmaz.

*Agar zanning muningdek bo'lsa xishti,
Ani degil bu dunyoning behishti.*

Deyilmoqchiki: agar xotinning sifati yuqorida bayon qilinganidek bolsa, ul xotinni bu dunyoning jannati bil.

*Ilikka tushsa mundog' nozanin gul,
Degil bu sandadur bo'sanda, man - qul.*

Deyilmoqchiki: Alloh Taolo nasib aylab, shunday xotin qo'lingga tushsa, nimayiki siring bo'lsa, yashirmay aytishing mumkin va uni quchib, bo'sa olib «qulingman sening» desang ham arziydi.

Bunday fazilatli ayollar har bir erkakning orzusidir. Ayni choqda yaxshi fazilatli erlar har qanday ayolning orzusidir. Ya'ni, aqlli xotinni orzu qilmish erning o'zi ham aqlli bolmogi shart. Vafoni talab qiluvchi erning o'zi awalo vafoli bolsin. Alloh har bir erkakka o'ziga yarasha qizni nasib etadi. Diqqat qilaylik: aqlli odamga kamdan-kam hollarda ahmoq xotin duch keladi. Chunki, aqlli yigit duch kelgan qizga uylanavermaydi. Faqat qosh-ko'zlariga emas, gap-so'zlariga, odob-axloqiga e'tibor beradi. Er-xotinning aql-zakovati, feli, zehni-farosati orasida keskin farq bolmasa, ularning turmushlari yaxshi kechadi. Bir- birlarini tushunishlari oson boladi. Ulug'lardan shunday pand-nasihati bor: «Xotin olsang ulug' salohlig' (yaxshi) xonadondin xotin talab qilg'il. Har turlik avboshning qizin olmag'il, nedinkim, xotinni uyning kadbonlig'i uchun olurlar, shahvat uchun olmaslar. Xotin kamolgayetg'on, oqila bolg'on, onasining kadbonlig'in (sarishtali uy bekasi ekanligini), otasining kadxudolig'in (oila xo'jasi ekanini) ko'rg'on va bilg'on bolsun. Agar bunday nozanin qolingga tushsa, uni aslo qoldin chiqarmag'il va jahd qilib uni olg'il».

Rivoyat. Qadim Arabistonda ilm-u hikmatda benazir Shan degan bir hakim «o'zimga o'xshagan biror bilimdon qiz topilmagunicha uylanmayman», deb ahd qilgan ekan. Qayliq axtarib mamlakatni kezib chiqsa hamki, o'ziga munosib yor topa olmabdi. Shu niyatda sarson-sargardon yurgan kezlari bir odam unga yolda hamroh bolibdi. Shan undan:

- Siz meni ko'tarasizmi yo men sizni ko'tarayinmi? - deb so'rabdi.

- Ajab betamiz odam ekansiz, - debdi hamrohi achchiqlanib, - o'zim sallamni zo'rg'a ko'tarib yuribmanu, sizni qanaqasiga ko'taraman?

Shan indamabdi. Bir oz yolyurganlaridan keyin barq urib yashnab turgan bir bug'doyzorga yetibdilar. Shan ekinzorga qarab:

- Bu bug'doyzorning donini yeb bolishdimikan? - deb hamrohiga qarabdi.

- Jinniga o'xshaysiz-a! Bug'doyi pishmagan, o'rib olinmay turib qanaqasiga yeb boladi!

Shan yana indamabdi. Yana bir oz yurishgandan so'ng tobut ko'tarib ketayotganlarga yoliqishibdi.

- Bu odam oldimikan yo hali ham tirikmikan? - deb Shan hamrohidan so'rabdi.

Hamrohining battar jahli chiqibdi:

- Umrin bino bolib sizga o'xshagan ahmoqni endi ko'rishim. Qabristonga ko'tarib olib ketilayotgan olikni tirikmi yo olikmi, deb so'rashingiz aqlli odamning gapi emas. Iltimos, endi gapirmay jim keting. Gapirsangiz ko'nglim ozib ketyapti.

Shunday qilib indamay yuraverishibdi. Manzilga yetishgach, haligi odam «musofirni mehmon qilib ham savob olay, ham boyagi qo'polligimni ko'nglidan chiqaray», deb uyiga taklif qilibdi. U odamning husn-u malohatda, aql-u farosatda tengsiz qizi bor ekan. U otasidan «Hamrohingiz kim ekan, yo'lda nimalarni gaplashib keldingiz?» deb so'rabdi.

- Ey qizim, bu safar qip-qizil ahmoqqa ro'para kelib qoldim, - ota shunday deb bolib o'tgan gaplarni so'zlab beribdi.

- Uning ko'nglini og'ritib chakki qilibsiz, - debdi qiz.

- Sizga aytgan so'zlari uning juda katta hakim va zo'r bilimdon ekanidan dalolat beryapti. Birinchi savolining ma'nosi shu: «Yo'lning zahmatini kamaytirish uchun siz biron narsa so'zlab berasizmi yo men aytib beraymi?» «Bu yerning g'allasini yeb bo'lishdimikan?» deb «Bu g'allani ekan odam biror sudxo'rdan qarzdor bolishi, uning qistovidan tezroq qutulish maqsadida, bug'doyni

o'rishi bilanoq to'g'ri bozorga borib sotishi mumkin», degan ma'noni nazarda tutgan. Mulohaza qilib ko'rsilsa, bu hoi ekin pishishidan oldinroq yeb ketilganday boladi. Tobutdagi murdani olikmiyo tirikmi, deb so'rganining ma'nosi shu: «bu odam o'lganidan keyin yodgorlik sifatida biror farzand yoki shogird qoldirdimikan, eslashga arzigulik biror xayrli ish qildimikin voxud johil va fosiqligidan, o'lishi bilanoq hammaning esidan chiqib ketdimikin?» Siz darhol uning huzuriga chiqib, uzr so'rang, aytgan so'zlarini sharhlab bering. Aks holda u sizni ahmoq va johil degan qarorga kelishi mumkin.

Shunda ota chiqib, qizining aytganlarini bildiribdi. Shan uning sharhini tinglab bo'lgach so'rabdi:

- Bu sharh sizning tabiatingizga mutlaqo xilof. Yaxshisi, bu so'zlarni kim o'rgatganini aytng.

Qizning otasi haqiqatni aytishga majbur bolgach, Shan shuncha yillardan beri qidirib yurgan gavharimni endi topdim, deb suyunib ketibdi. Otasining roziligi bilan qizni nikohiga olib, murodiga yetibdi.

Rivoyatdan oladigan ibratimiz shuki, kishi o'z holiga, darajasiga qarab, har jihatdan o'ziga mos bolgan oilaning qiziga uylangani ma'qul. O'zidan yuqori darajadagi qizga uylansa, xotini otasining hashamati va dabdabasiga mag'rur bolib, erni mensimay qolishi mumkin. Iffatli, hayo-nomusli xotin marg'ub va maqbul bolsa, achchiq tilli, hayosiz xotin faqat o'z erining emas, balki xalqning nafratiga sazovor boladi.

Payg'ambarimiz (s.a.v.) «Musulmonning uyi jannat bog'idan bir bog'chadir», deganlar. Bundan ibrat shuki, «jannatda o'sgan» qizga uylangan erning boshiga baxt qushi qo'nibdi. Ammo baxt qushi qo'nishi uchun uning o'zi ham jannatda o'sgan bo'lishi kerak.

Hikoyat. Qozi Shurayk tobeinlardan ShalDiy haz- ratlariga nasihat qilibdilar:

- Ey ShaTDiy, agar uylansang, Bani Tamim qabilasidagi qizlardan biriga uylan. Ular qizlariga yaxshi tarbiya berishadi.

Sha'biy: «Qayerdan bilasiz?», deb so'radilar. Qozi Shurayk savolga javoban shunday debdilar:

- Yoshlik faslimda Bani Tamim qabilasi tomonga borgan edim. Qaytib kelayotib, qari bir ayol bilan yosh qiz o'tirishganini ko'rdim. Qiz g'oyat da chiroyli, latofatli ko'rinar edi. Qizni yaqinroqdan ko'rmoq uchun chan- qog'imni bosish bahonasida ularning oldiga borib, suv so'radim. Ayol qizga suv olib kelishni buyurdi. Suvni ichgach, ul xotindan: «Bu qiz kimning farzandi, ismi nima?», deb so'radim.

- Bu qiz Xudoyorning qizidir, ismi Zaynab, - dedi kampir.
- Turmushga chiqqanmi? - deb so'rashga jur'at etdim.
- Yo'q, hali turmush qurmagan.
- Allohning amri ila menga berasizmi? - deb so'radim.
- Awal so'rab-surishtirib, kuyovlikka loyiq bo'lsang beramiz, - dedi kampir.

Uyimga qaytganimdan keyin ham qizni ko'rgim kelaverdi. Unga uylanishni ixtiyor etdim. Qarindoshimdan birini olib, qizning amakisi huzuriga bordik-da, maqsadimizni aytdik. Qizni surishtirgan edik «U senga munosib», dedilar. Nikoh bolganidan keyin Bani Tamim qabilasining ayollari qanday ekanini yaxshi bilmayman, boshqa-boshqa muhit, boshqa qabila odamlarimiz, shoshilib, adashmadimmikin, deb pushaymon bo'la boshladim. Lekin ichimdagini hech kimga aytmay, oxiri baxayr bolar, deb kutdim. Uylandim, kelinni olib keldik. Yolg'iz qolganimizda nikohimga olganim qiz menga shunday dedi:

- Afandim, bu oqshom kuyov ikki rakaat namoz o'qishi kerak. Alloh rizosi uchun o'qiladigan bu namozdan keyin kelinning xayrli va baxtli bolishini tilashi, Janobi Haqdan ezguliklar, barakot niyoz etmog'ini tilashi sunnatdir.

Uning gapi ma'qul kelib, ikki rakaat namoz o'qidim. Salomdan keyin qarasam, u ham namoz o'qiyapti. Namozdan so'ng u menga qarab shunday dedi:

- Afandim, men sahroyi muhitning qiziman. Siz esa boshqa muhitda tarbiya topgansiz. Taqdir bizni birlashtirdi. Sizga o'z muhitingizdan bir qiz, menga esa o'z qabilamdan bir yigit topilar edi. Ammo taqdiri ilohiy shunday ekan, bir-birimizning fel-atvorimiz va axlo- qimizni bilmaganimiz holda taqdir hukmi bilan oila qurdik. Sizdan birinchi iltimosim, yaxshi ko'radiganingiz va mamnun bo'ladiganingiz narsalarni menga aytib qo'ysangiz. Sizning istagingizga mos xizmat qilaman, yoqtirmaydigan va xush ko'rmaydigan hollami ham aytib qoying, toki men ulardan saqlanay. Shundan keyin siz menga lutf etib, muloyim felli bo'ling, men ham sizga xotinlik vazifalarimni o'rniga qo'ymoq uchun astoydil harakat qilay. Agar men o'z vazifamni bajarmay, tanballik va itoatsizlik qilsam, meni otamning uyiga qaytarib yuborishingiz mumkin. Buning uchun hech ranjimay- man. «Boshga tushganni ko'z ko'rar», «Boshga tushsa yig'lamas», deydilar. Men sizdan shularnigina iltimos qilaman. Janobi Haqdan bir-birimiz uchun xayrli va barakotli turmush qurishimizni tilayman.

Menga uning so'zlari xush yoqib, dedimki:

- Xonim, sen menga shunday purma'no so'zlar aytding- ki, agar aytganlaringni ado etsang, meni toleyi baland va baxtiyor etasan. Agar so'zingda turmasang, ahvol boshqacha boladi. Men mana bu narsalarni istayman, bu narsalarni sevaman, mana bularini esayoqtirmayman. Men orzu qilganlarni ado et. Xush ko'rmaganlarimni yashir, ko'rsatma.

So'ng u «Qarindoshlarimning kelib-ketib turishlarini xohlaysizmi?», deb so'radi. «Uzoq turmaslik sharti bilan mayli, lekin haddan ziyod tez-tez kelishlarini xohla- mayman», dedim. «Qo'shnilardan kimlar kirib-chiqqa oladi? Xohlamaganingiz bilan ko'rishmayman», dedi. Men dedim:

- Falon qo'shnilar chiqishi mumkin. Ular nomush va vijdonli odamlar. Falon kimsalarni xohlamayman, ularning hayoti odamiylikka zid. Undaylarning xona-

donimizga qadam bosishlari yaxshilik keltirmaydi. Bunday mezonlar bilan qurilgan oila qisqa vaqt ichida bir jannati xonadon boladi.

Oradan biror yil o'tdi. Bir kuni uyimga kelsam, keksa ayol mehmon bolib otirgan ekan. Uning ayolimga «Qizim, bunday qil, unday qilma», deb nasihat qilishidan taajjublanib: «Bu kim?» deb so'radim. Ayolim «Qaynonangiz», deb javob berdi. Men qaynonamning hurmatini bajo keltirib, hurmat va ehtirom ko'rsatdim. Qaynonam «Xotiningizdan mamnunmisiz?» deb so'radilar.

- Juda mamnunman, Alloh sizlardan rozi bolsin, juda ham yaxshi farzand yetishtiribsiz. Bundan yaxshisi bolmaydi. Nihoyatda mamnunman, - dedim.

Bunga javoban qaynonam:

- Men uni jannatday oila go'shasida o'stirganman, o'glim. Ayolning badfelidan Alloh saqlasin. Qarindoshlarimiz sizni ko'rgani kelishmoqchi, qachon kelishsin? - deb so'radilar.

Men: «Istagan kunlari kelishsin. Uyimning to'ri ularniki», dedim.

Qaynonam har yili bir kelib, qiziga nasihatlar qilib ketardilar. Men xonim bilan yigirma yil birga yashab, uning birorta aybini ko'rmadim.

Aziz ota-onalar, mazkur hikoyani, undagi qizning gaplarini yana bir qayta o'qib chiqing. Yaqin oylardayoki yaqin yillarda kelinlik libosini egniga iluvchi qizingizga ham o'qib, ma'nosini tushuntirib bering. Biz, har birimiz uyimizda jannat huzuri bolishini istaymiz, ammo bu ne'mat faqat duo bilan bolmaydi. Bu ne'matga erishish uchun odamning o'zida yaxshilik sari intilish bolishi kerak. Qizining baxtli bolishini istagan ota-ona unga yaxshi tarbiya berishi zarur. Mazkur hikoyada shunday o'gitlar bor-ki, ularga amal qilish xonadonni jannat misoli huzur manbayi qila oladir. Qozi Shuraykning qaynonasi «Qizimni jannatda o'stirdim» deganiga diqqat qilaylik: bunda awalo hikoya awalida zikr etilgan hadisga ishora bor. Ikkinchidan esa jannat - tiriklik chog'ida ko'p

yaxshiliklar qilgan odamlar to'planadigan joy. Qiz komil xulq egalari ta'sirida voyaga yetgan. Har bir harakatida odamiylik talablariga amal qiladi. Kimki uyini jannat bog'chasi qilsa, farzandini shu bog'cha guli kabi parvarishlaydi. Ko'rinishi go'zal bolgani uchun emas, feli go'zal, axloqi yaxshi bolgani uchun ayol e'zozlanadi. Chunki mol-dunyo tugaydi, go'zallik o'tib ketadi. Shu gaplar aytilganda birovlarning ensasi qotib «o'tmishdagi gaplarni misol qilishning nima foydasi bor?» deb qol siltashadi.

Kaminaning afsusi ham shunda. Ajab, ajabki, jannat bog'chalari o'tmishda qolib ketdimikin? Yigirma birinchi asr mezoni bu jannat bog'chalarini inkor etadimi? Bolajak kelin boy, bo'yalgan, yasangan bolsa basmi? Tor shim kiyib, kindigini ko'rsatib yuruvchi, ota-onasidan ham ko'ra diskotekani yaxshi ko'ruvchi qizlar qaysi bog'chada parvarish qilindilar ekan? Jannat bog'chasidami yo do'zaxning qurib-qovjiragan biyobonidami? Ba'zan ko'chada ko'ramiz: onasi binoyi ayol, hatto hijobda. Qizi esa sharmandali kiyimda. Bu qanaqa oila boldi?!

Sevikli Payg'ambarimiz (s.a.v.) sahobalariga: «Axlatxonada bitgan guldand ehtiyot boling», deganlar. Ashob: «Axlatxonada bitgan gul qanday gul, yo Rasulalloh?», deb so'radilar. Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar:

- Yomon muhitda, islomiy tarbiyadan uzoq, axloqsiz bir oilada yetishgan ayol.

Qiz olinayotganida oilasining odob-axloqi, yashash tarzi yaxshi o'rganilishi kerak. Albatta, qo'ni- qo'shnilarning aytganlari e'tiborga olinadi. Lekin qo'shnining ham har xili boladi. Bu ishda ko'rinishi chiroyli qo'shnilardan emas, balki axloqi go'zal vijdonli odamlardan so'raladi. Qiz beruvchi ham kuyovning turish- turmushi, axloqini bilishi shart. Yaxshi surishtirmasdan to'ydand keyin «kuyov badaxloq ekan, kuyov giyohvand ekan», deb vovaylo aytishdan foyda yo'q. Surishtirishda yolg'on ishlatilmasligi kerak. «Aybi bor, ammo to'ydand

keyin tuzatib olar», degan umidda aldash odamiylikka
zid.

Bu o'tkinchi imtihon dunyosida baxt kishiga hadeb kulib boqavermaydi. Birovning oti bolsa, aravasi yo'q, aravasi boming oti yo'q. Oila baxti ham shunday. Bugun er-xotin o'zini bag'oyat baxtiyor his etadi, ertaga esa aksi. Oila baxtini bir daraxtga qiyos etsak, uning ikki o'q ildizi bo'ladi. Biri erning fazilatidan, ikkinchisi xotinning xislatlaridan suv ichadi. Agar bu barobarlik yo'qolsa, mas'udlik daraxtining umri qisqa bolib qolishi mumkin. Shu bois oila baxtini ta'minlashda erning mas'uliyatini yana qayta talddlab, bir rivoyatni eslaymiz.

Rivoyat. Bir yigit go'zal va oqila qizga oshiq bo'lib qoldi. Qizning ham unda ko'ngli bor edi, unashtirib qo'yildilar. Ammo to'dan awal qiz xastalikka chalindi, yuzlariga chechakka o'xshagan nimadir toshib ketdi, tabiblar uning chorasini qila olmadilar. Oqibatda qiz awalgi go'zalligini yo'qotdi va yigitga turmushga chiqish ahdidan qaj^tdi, o'zini dunyodan yolg'iz o'tishga hukm qildi. Ittifoqo, yigit ham kasallikka chalinib, bir necha kun qimirlamay yotdi. Keyin oyoqqa turdi-yu, biroq ko'zlari ojiz bolib qoldi. Yigit qizga uylanish ahdidan qaytmadi. Qiz ham noiloj ko'ndi. Ikkovlari shu tarzda ancha yil baxtiyor umr ko'rdilar. Vaqti-soati kelib, ayol vafot etdi. Uning janozasidan keyin erning ko'zlari ko'r emasligi malum boldi. Bu rivoyatdan murod - oila baxti uchun er ham fidoyi bo'lmog'i kerak.

Har bir erkak nomusli, hayoli qizga uylanishni istaydi. Bu fazilatni qiz eng awalo o'z oilasida o'zlashtiradi. Agar oiladagi ota-ona tarbiyali, odobli va bir-birlariga xush- muomala bolishsa, farzandlari ham ulardan ibrat olib, shunday fazilatlar egasi boladilar. «Onasini ko'rgin-u qizini ol», deb bekorga aytmaganlar. Sovchilar borgan uylarining hashamatiga lol qolib o'tirmasdan uy bekasining sarishtaligiga, muomalasiga diqqat qilsalar adash- maydilar. Agar yodingizda bolsa, Abdulla Qodiriy «Otkan kunlar»ning awalidayoq uylanish mashaqqatidan so'z ochadilar:

«- Manimcha uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo'qdir, - dedi Rahmat va Otabekka yuz o'girdi. - Uylangach, xotining tab'ingga muvofiq kelsa bu juda yaxshi; yo'qsa, munchalik og'ir gap dunyoda bo'lmas.

Otabek Rahmatning bu so'zini samimiyat bilan qarshiladi.

- So'zingizning to'g'riligiga shubha yo'q, - dedi, - ammo shuni ham qo'shmoq kerakki, oladiring'on xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xotinga muvofiquttab' (ta'biga mos) bo'lsin.

-Xotinga muvofiq bo'lish va bo'lmasliqni uncha keragi yo'q, - dedi Homid e'tirozlanib, - xotinlarg'a «er» degan ismning o'zi kifoya... ammo jiyan aytkandek, xotin degan erga muvofiq bo'lsa bas.

Rahmat kulib, Otabekka qaradi. Otabek ham istehzoli tabassum orasi Homidga ko'z qirini tashladi..

- Uylanishdagi ixtiyorimiz, - dedi Rahmat, - ota- onalarimizda bo'lg'anliqdan, oladigan kelinlari o'g'illariga yoqsa emas, balki uning ota-onalari o'zlariga yoqsa bas. Bu to'g'rida uylanguvchi yigit bilan er qilg'uvchi qizning lom-mim deyishka haq. va ixtiyorlari bo'lmay, bu odatimiz ma'qul va mashru' ishlardan emasdir. Masalan, men ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim.... ammo xotanim ota-onamg'a muvofiq bo'lsa ham menga muvofiq emas. Siz aytgandek, ehtimol men ham xotininga muvofiq emasdirman...»

Kitobdagi bu satrlarni batafsil eslashimning boisi, e'tibor qilgan bolsangiz, o'tmish va bugungi kun holatida o'zgarish kam. Oramizda Homidga o'xshab chakki fikrlovchilar ham uchrab turibdi. Farzandlarini uylantirishda ularning xohish-istaklarini inobatga olmayotganlar ham ko'p. Demak, buxususdagi bahslarga chek qo'yish vaqti hali kelmabdi.

Oila qurgan kishini kemanding ichiga tushgan odamga qiyoslash mumkin: kema dengiz o'rtasiga yol olgan. Dengizda esa po'rtanalalar mavjud. Farzandlarning tug'ilishi bu kemani boshqarishni yanada qiyinlashtiradi.

Endi kema darg'asidan yanada ko'proq kuch va mahorat talab etiladi.

Farzand tug'ilishi quvonch va baxt keltirishi bilan birga ayrim oilalarda kutilmagan tashvishlarni ham yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, er-xotin, qaynona-kelin orasida kelishmovchilik mavjud oilalarda bola tug'ilishi bilan vaziyat yanada keskinlashadi. To'g'rirog'i, vaziyatning keskinlashishi ayol homiladorligini sezgan kunlardan boshlanadi. Malumki, ayollardagi homiladorlik jarayoni bir xilda kechmaydi. Ayrimlari bu jarayondan yengil o'tadilar, ayrimlari g'oyatda qiynaladilar, maxsus muolajaga ham muhtoj boladilar. Ana shu paytda oilada ham er, ham qaynona, ham boshqa a'zolar tomonidan homilador ayolga alohida mehr va shafqatli munosabatda bo'lish talab etiladi. Ba'zi qaynonalarning «shunga shunchami, menam homilador bolganman, menam tuqqanman, bunaqa taltayib yotmas edim», deyishlarini nodonlikka yo'ysak ranjimasinlar. Kelinlarning barchasi ham ayyor emasdir. Ularning vujudi qaqshasa, qiynalishsa nima qilishsin? Kelinning bunday azobli kunlarida aqlli, insofli qaynona unga o'z onasiday mehribonlik bilan muomala qilishi kerak. Er ham xo'jayinlik martabasidan tushib, mehribon yoldosh maqomini olishi shart. Bola tug'ilguniga qadar ayolga moddiy-ma'naviy sharoit yaratib berilishi kerak. Uni ayrim og'ir vazifalardan ozod qilish lozim. Er suv sepmoqchi bolgan xotini qo'lidan chelakni olsa, bu yoqdagilar uni kulgi qilmasliklari zarur. Homilador ayolni, ayniqsa, asabiylashishdan ehtiyot qilish kerak. Ayol ko'p asabiylashsa, majburiy qiynoqlarga ro'para qilinsa, bolaning asabiy kasallik bilan tug'ilishini tibbiyot isbot qilib bergan. Demak, agar homilador ayolga yaxshi sharoit yaratib bersak, aslida tug'ilajak farzandimizga yaxshilik qilgan bolamiz. Farzand soglom tug'lsa, o'zimizning baxtimiz-ku! Uning xasta tug'ilishiga o'zimiz sabab bolib, keyin zir yugurib yurishimiz bizga o'sha yomonligimiz uchun berilgan jazo emasmi?

Ayol homiladorlik paytida arzimagan gapdan ham ranjiydigan bo'lib qoladi. Quvnoq onlaridan g'amgin damlari ko'payadi. Agar bu qayg*usi haddan oshsa, bola tashlaydi. Shu bois ham erkaklarning bu davrda ayollarini avaylashlari xotinni erkalatish degani emas, balki tug'ilajak bolani avaylashdir. Ayolini g'am va kamquvatlikdan ehtiyotlash erining burchi. Ayolning bahavo joylarda ko'proq yurishi, tez hazm boladigan kuchli ovqatlarni tez-tez va oz-oz tanowul qilishi bizning oilalar uchun kamyob hodisa. Homilador kelin qomi ochsa ham boshqalarning dasturxon atrofiga o'tirishini kutishga majbur. O'zicha ovqatlansa, uni ochofatga chiqarib qo'yadilar. Keyin esa bolani saqlash uchun shifoxonaga yotqizadilar. Agar kelin ketma-ket ikki marta bola tashlasa, «buning pushti chatoq ekan, bolamga boshqa xotin olib berish kerak», degan harakatga tushib qoladilar. «Kelin homilador bo'lganidan keyin uning sharoitini yaxshilash uchun nima qildik?», deb o'zlarini savolga tutmaydilar. Agar kelin kamovqat bolishi, ko'p qayg'uga berilish oqibatida bola tashlasa, buning gunohi er, qaynota-qaynona zimmasiga tushadi.

Nikohning birinchi maqsadi - odam naslini ko'paytirishdir. Shuning uchun har bir odam butun kuch- quwatini avlodining himoyasiga qaratishi kerak. Hech bir ota-ona bolasini nobud bolishini istamaydi. Ona qomida bola paydo bolganidan so'ng uning hayot-mamoti ota-onaga bogliq. Shuning uchun ham ular bolani nobud bolishiga olib keladigan ishlarni qilmasliklari kerak. Ayollar, ayniqsa, erlar bolaga zarar keltirishi mumkin bolgan tashqi ta'sirlar nimalardan iborat ekanini yaxshi bilmaydilar. Masalan, tibbiyot fani malumotiga ko'ra, homiladorlikning ikkinchi oyidan to to'rtinchi oyigacha ko'p onalar bola tashlaydilar. Buning sabablari qo'rquv, kamquvatlilik, og'ir jismoniy ishlarni bajarish va ko'p qayg'urish bo'ladi. Og'iroyoq ayollarni uyda yolg'iz qoldirish ham mumkin emas. Homilador ayolga yaxshi sharoit yaratib berish ham har bir oilaning burchi, ham

jamiyatning vazifasi. Chunki bir ayolning homilador bolishi, farzand ko'rishi bir oilaning muammosi emas. Bu -jamiyat kelajagiga doir muhim masala!

Farzand tug'ilganidan keyin er ham, xotin ham bir narsani anglab olishlari kerak: farzandi tug'ilguniga qadar har bir odam o'zi uchun yashaydi, tug'ilganidan keyin farzandi uchun yashaydi. Boshqacha bolishi mumkin emas. Yaqinda bir davrada ilmi birodarimizdan «Bir odamning xotini va qizi bor. Xotinining og'zidan yomon hid keladi. Davolatay desa, davosi yo'q ekan. Ajrashmoqchi, shu to'g'rimi?» deb so'rab qolishdi. Ilmi birodarimiz o'lab ham o'tirmay «To'g'ri, ajrashmoqchi kerak, og'zidan hid kelishini qiz to y dan oldin aytishi kerak edi», dedi. Men bu fatvodan ranjdim. Agar oilada farzand bolmaganda ajrashib ketishsa mayliga edi. Lekin farzand tirik yetim qolyapti-ku, nahot buni o'ylashmasa?! Men ulamolar bilan bahslashishga ojizman, lekin bunday fatvo berishlarini to'g'ri deb hisoblay olmadim. Awalo, ayolning og'zidan keluvchi hid to'dan keyin paydo bolgandir. Bu ko'proq oshqozon-ichak xastaligi bilan bogliq. Lekin ayollar erlaridan shunday hid kelsa, ajrab ketmaydilar- ku? Ham aroq, ham tamaki hidi anqib turgan erkaklar bilan ba'zan yonma-yon o'tirib, besh-o'n daqiqaga chidamaymiz, ularning ayollariga esa balli deymiz. Yana shu o'rinda yuziga yara toshib, go'zalligini yo'qotgan qallig'iga uylanish uchun ko'zini ojiz qilib ko'rsatgan insof egasi haqidagi rivoyatni eslaylik. Bizlar shunday tanti, mard, olijanob bola olmaymizmi? Bizlar o'z nafsimiz yolida shu qadar tubanlashdikmi?

Mahalladagi qoydi-chiqdilarini hal qiluvchi yig'inda bir er xotinini taloq qilganini aytib, «U mening mentalitetimga to'g'ri kelmaydi», deb izoh berdi. Malum bolishicha, bu «mentalitet egasi» Amerikaga ishga borib kelgan ekan. Agar yirik olim sifatida borib kelsa-yu «xotinimning saviyasi past», desa tushunish mumkin. Amerikada ikki yil bir mehmonxona zinalarini yuvish bilan mashg'ul bolgan ekan, bu janobning «mentalitet»lari qanday bolishi

mumkin? Eng muhimi, bu nodon janobninguch farzandi bor. Bu farzandlar tug'ilgunicha mentalitetlari qayerda edi? Kim nima desa desin, ammo jiddiy sababsiz bolalarini tirik yetim qilayotganlarni ayblashdan toymaymiz. Farzand oilani buzishga sababchi emas, balki oilani saqlab qolishga vosita bolishi kerak. Xotinga chiday olmay qolgan er, eriga chiday olmay qolgan xotin farzandining kelajagini o'ylab ko'rsa-chi? Ehtimol, shu ularni oxirgi qadamdan saqlab qolar? Sudda er ham, xotin ham farzandni talashadi. Farzandni shunchalik yaxshi ko'rar ekan, shu bolaning baxti uchun o'z nafsidan kecha qolsa bolmasmikin? Ha, sudda farzandlarini talashadilar. Keyin... yangi oila qurayotganlarida uni bolalar uyiga olib borib beradilar. Bunga nima deymiz? Bolasini tirik yetim qilib qo'yganlar yangi oilalarida nahot o'zlarini baxtli his qila olsalar? Ota yoki ona mehri tashna bolaning uvoli ularni tutmaydimi? Bu dunyoda otasiz yoki onasiz, yoki ota-onasiz o'sgan farzandlari bilan Qiyomatda yuz ko'rishishganlarida bola mehr-shafqat haqini da Vo qilsa, nima deb javob beradilar?

Qiyomatdagi javobga qadar ota va onaning jamiyat oldidagi burchi bor. Qamalib qolgan o'smirlar hayoti bilan qiziqib ko'rganimda ular orasida ota-onasi, buvasi va buvisi tarbiyasida ulg'aylaganlari oz edi. Ota-onasining ajrashib ketishi natijasida otasi yoki onasi mehridan begona ravishda o'sganlari esa ko'pchilikni tashkil qilar edi. Bolaligi yoki o'smirligida jinoyat yoliga kirib, so'ng bu olamda umrining oxirigacha qolib ketgan farzand ota- onasini hayotlik davridayoq kuydirib kul qiladi. Bunday farzand ota-onasi vafotidan keyin ularni yo'qlab biror marta duo qilarmikin? Bu ham bir masala. Duotalab ruhlarning Qiyomatga qadar azoblanib, chirqirab turishidan Alloh asrasin! Bir «Mehribonlik uyi»dagi bolalarning o'n foizi «g'irt yetim» - otasi ham, onasi ham yo'q ekan. To'qson foizining otasi ham onasi ham bor! Ota- onalaridan tashqari bobo-buvilari, tog'alari-amakilari, xolalari-ammalari bor. Bu naqadar ayanchli holat!

Ayollar ishlashlari kerakmi yo yo'qmi, degan muammo bugungi kun oilasi uchun muhim bolib turibdi. «Bugungi kun» deb ta'kidlashimning boisi, awallari bunday muammo bolmagan. Ayollar uyda o'tirganlar. Biroq bu ishlamaganlar, degan gap emas. Ayollar uy yumushlari, farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullanishdan tashqari malum bir hunar bilan band bolganlar. Masalan, kashtachilik, do'ppichilik kabi. Undan tashqari ayollar ishlashi kerakmi yo yo'qmi, degan masala faqat shaharga xos. Qishloqlarda bunday masala yo'q. Er dalada ketmon chopib, ayol uyda pashsha qo'rib o'tirmaydi. Er bilan baravar ishlaydi. Farzand tarbiyasi ham shu mehnat jarayonida olib boriladi.

Xo'sh, bugun shahar oilasida ayol ishlashi kerakmi yo yo'qmi?

Bu savolga har bir oila o'z sharoitidan kelib chiqib javob berishi zarur. Muhimi, ayolning nima ish bilan shug'ullanishiga jiddiy e'tibor berish kerak. Ayollarni og'ir va sogliq uchun zararli ishlardan ehtiyot qilishimiz kerak. Bugun biz ayollarni qurilishdani yoki zavoddani og'ir ishlarni bajarayotganini ko'ramiz. Hatto dalada traktorga ham mindirib qo'yib, uni olqishlaganmiz. Ayollarni jismoniy og'ir va zararli ishlarda ishlashlari biz - erlar uchun uyat emasmi?! Buxorodagi sayyohlarga tarixdan hikoya so'zlovchilar zardo'zlik san'ati haqida gapira turib, «qadimda zardo'zlik bilan faqat erkaklar shug'ullanganlar, ayollarni mensimaganlar, ularga ishonmaganlar», deb izoh berishadi. Bu nodonlarcha izohga sayyohlar, albatta, ishonadilar. Holbuki, u zamonlarda erlar ayollarni ehtiyot qilganlar. Awalo bu ish ancha mashaqqatli. Ikkinchidan, zardan turli chang ko'tariladi va ayolning salomatligiga ta'sir qiladi. Yaqinda bir birodarimizning ayoli vafot etdi. Shunda birodarimiz «ayolimni ishlatmasam bolarkan, barvaqt olmas edi», deb qoldi. Uning ayoli bosmaxonada harf teruvchi bolib ishlardi. U paytlar «linotipchi» degan kasb egasi, ya'ni harf teruvchining shundaygina yonida qo'rg'oshin qaynab turardi. O'sha ishda orttirilgan kasallik oxiri o'z kuchini ko'rsatdi.

Bu masalada ayrimlar sal keskinroq fikr ham bildirib «ishlaydigan ayollarning buzilishlari osonroq bo'ladi», deyishadi. Bu fikrga qo'shilish qiyin. Tarbiyasiz ayol uyida o'tirib ham buzilaveradi.

Boshqa birovlar ishlamay uyda o'tirgan ayollarning dunyoqarashi tor, saviyasi pastlashib ketadi, deyilar. Bu ham bir yoqlama to'xtam. Deylik, bir xonada olti ayol ishlaydi. Bittasi kitobxon, boshqalari kitob desa, boshi og'riydigan toifadan. O'sha kitobxon ayol jahon adabi- yotidan gapirsa, qolganlar eshitishadimi? Eshitishmaydi. Ularga bundan ko'ra g'iybat afzal. G'iybatdan lazzatlanishadi. Oqibatda o'sha kitobxon ayolni ham o'z qatorlariga qo'shib olishadi. Agar uyda o'tirgan ayollarning saviyasi past bo'lsa, Zebuniso begim, Nodira begim, Uvaysiyar dunyo adabiyoti tarixiga gavharlar to'karmidilar?

Ishlash masalasini hal etishda har ikki tomon keskin talablardan voz kechib, sharoitdan kelib chiqqan holda murosa qilganlari ma'qul. Bu masalada bir oila ikkinchisiga namuna bola olmaydi.

Oila, er-xotinning huquqlari, bir-birlariga mehr- muhabbatlari xususida adoqsiz ravishda fikr yuritish mumkin. Chunki har bir oila - o'ziga xos bir olam. Bu olamning esa o'ziga xos olam-olam quvonchlari, olam- olam tashvishlari, olam-olam muammolari mavjud. Bu muammolarni odilona hal etish esa barchaning: oila boshliqlari - ota va onaning, farzandlarning, kelin-u kuyovlarning burchi. Biz mazkur suhbat bahonasida shu muammolarni hal etishda ularga xolis bir maslahatchi bolishga urindik, xolos.

Umidimiz yulduzlari, siz tug'ilishingiz bilan oilangiz yaqinlari «chaqaloq unib-o'sib, fayzli xonadonga ardoqli kuyov (suyukli kelin) bolsin, deb duolar qilishgan. Hozir ham shunday duo qiladilar. Oradan bir necha yil o'tib, toy harakati boshlanganida, toy kunlari va undan keyin ham bu duolarni ko'p eshitasiz. Siz bir narsani unutmang: duolar hisobi minglardan, millionlardan oshsa ham

o'zingizda bu baxtga intilish bolmasa, yetolmaysiz. Siz bir saroy qurmoqchisiz. Bu saroyning nomi - baxt! Poydevori - iffat, hayo, g'ishtlari - sabr va shukr, devori iymon, tomi - aql va iroda. Bezaklari - farosat, saxovat, mehr... Odamlar duo qilib sizga omad tilashadi. Birov sizga bitta g'isht olib uzatmaydi. Aksincha, o'zining noto'g'ri maslahati va xatti-harakati bilan baxt saroyini qurishingizga halaqit beradiganlar topiladi. Agar siz umringizni ular bilan olishishga sarflasangiz, saroy qurilishi chala qoladi. Siz bugun hayotingizning g'oyat mas'ul pallalarida turibsiz. Sizda baxt saroyini qurishga yetarli tajriba haliyetarli emas. TaTair joiz bolsa, imoratda poydevor bolishini bilasiz, lekin beton qorishni bilmaysiz, sement va qum qorishmasining miqdorini nazariy jihatdan bilasiz-u, amalda qanday ishlashdan hali yiroqsiz. Poydevor tepasiga g'isht terish, so'ng tom yopishni... barchasini nazariy jihatdan bilasiz. Lekin g'isht terib ko'rmagansiz. Suvoq qilish qoldan kelmaydi... Lekin noumid bolmang, bulaming hammasini eplash, o'rganish mumkin. Betonchi, duradgor, suvoqchilikni bir necha oyda o'rganish mumkin. Biroq, ramziy ma'noda aytayotganimiz baxt saroyini qurish tez kunlarda osonlik bilan bolmaydi. Bu mashaqqatni oldindan his qila olishingiz kerak. **Oilaga doir masalalarning yechimini ilmdan izlang.** Buning uchun hikmat kitoblarini o'qishdan to'xtamang. Ota-bobolarimiz siz-u bizga bebaho mulkni - odamiylik mulkini meros qilganlar. Bu mulkni behuda sovurmay, undan aqlingiz, tafakkuringizni boyitish uchun foydalaning. Bu borada birinchi galda ota- onangiz, qo'shnilar, qarindoshlar, ustozlar orasidagi donolarning sizga yordam berishlarini umid qilaman.

Umidimiz yulduzlari, odam bolasi dunyoda boy bolish uchun emas, balki baxtli bolish uchun yashar ekan, qush parvoz uchun, inson esa baxtiyor bolish

uchun yaralgan ekan, men jon-u dilim bilan barchangizga saodatli umr tilayman.

Aziz umidimiz yulduzlari, sizga baxt fasli o'zining yangi-yangi chiroylarini ochyapti. Bu xuddi bahor fasli go'zalligidan mast bolishga o'xshaydi. Qirga chiqsangiz, lolazor husni qalbingizga ajib bir tarovat beradi. Boqqa borsangiz, daraxt gullarining uforidan dilingiz yayraydi... Umrning bahor fasli ham shu kabidir. Lekin... bu go'zallikdan har odam har xil ta'sirlanadi. Tulporga chavandoz qay ko'z bilan qaraydi-yu, qassob qay nazar bilan boqadi? Baxt fasliga bolgan munosabat ham shu kabidir. Hamonki, sizga barcha baxt tilamoqda ekan, siz bu xayrli duolar qanotida, o'zingizning g'ayratli harakatingiz tufayli, ikki dunyo saodatga erishasiz, insha Alloh!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tafsiri hilol. Mufassir - shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.
2. Qur'oni Karimning ma'no tarjimasi. Mutarjim - shayx Alouddin Mansur.
3. Qur'oni Karimning ma'no tarjimasi. Mutarjim - shayx Abdulaziz Mansur.
4. Hadisi qudsiy. Mutarjim - Abu Muhammad Mahbubiy Marg'iloniy.
5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. A1 jomi' al sahih. (Mutarjimler jamoasi)
6. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Al adab al mufrad. Mutarjim - Shamsuddin Boboxon.
7. Ismi a'zam (Duolar to'plami) Mutarjim - Zufarjon Shosalimov.
8. Imom A'zam Abu Xanifa. Musnad. Mutarjim - Abdulloh Murod Xolmurod o'gli.
9. Abdusattor Shayx. Abdulloh ibn Mas'ud. Mutarjim - Abdurashid Zohid.
10. Hadis va hayot. Muallif- shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.
11. Al faqih Abu Lays As-Samarqandiy. Tanbehul g'ofilun. Mutarjim - Dilmurod Qo'shoqov.
12. Farididdin Attor. Tazkirat-ul Avliyo. Mutarjim - Mirzo Kenjabek.
13. Abu Homid G'azzoliy. Mukoshaf at ul-qulub. Mutarjim Miraziz A'zam.
14. Abu Homid G'azzoliy. Riyozat un-nafs. Mutarjim- Rashid Zohid.
15. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. Mutarjim - Ик^Бек Abduvahob.
16. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Ma'naviy masnaviy. Mutarjim - Asqar Mahkam.
17. Amir Temur. Temur tuzuklari. Mutarjim - Alixon- to'ra Sog'unliy.
18. Risolayi aziza - «Sabotul ojizin» sharhi. Tuzuvchi Botirbek Hasan.

19. Yusuf Hos Hojib. Qutadg'u bilig. Nashrga tayyorlovchi -
Ya'qub xo'ja.
20. Kaykovus. Qobusnoma. Mutarjim - Muhammad Rizo Ogahiy.
21. Shayh Sa'diy Sheroziy. Guliston. Mutarjim - Muhammad Rizo
Ogahiy.
22. Kalila va Dirnna. Mutarjim - Suyuma G'aniyeva.
23. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar.
24. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Nasriy bayon muallifi -
Inoyat Maxsumov.
25. Alisher Navoiy. Munshaot. Nashrga tayyorlovchi Yusuf
Tursunov.
26. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Nasriy bayon muallifi
- Sharafiddin Sharipov.
27. Muhammad Avfiy. Nodir hikoyalar. Mutarjimlar - Ilyos
Nizomiddinov, Turg'un Fayziyev.
28. Yusuf Tovasliy. Hikmatlar xazinasini. Mutarjim - Urfon Otajon.
29. Munawar qori Abdurashidov. Adibus-soniy.
30. Abdurauf Fitrat. Oila.
31. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.
32. Alibek Rustamov. So'z haqida so'z.
33. Oz-oz o'rganib dono bolur. Mutarjim - Shorasul Zunnun.
34. Rabindranat Thakur. Maqolalar. Tanlangan asar- lar. 8-jild.
35. Tafakkur gulshani. To'plam.
36. Aql aqldan quwat oladi. To'plam.
37. Nomiq Kamol Zaybak. Ahmad Yassaviy yoli va hikmatlari.
Mutajjim - Rohila Ro'zmanova.
38. Sayyid Muhammad Xotamiy. Islom tafakkuri tarixidan.
Mutarjim - N. Qodirzoda.
39. Muhammad Kamol. Hikmatlar. Mutarjimlar - Sanobar
Tursunova, Shoir Nuriddinova.
40. Muhammad Kamol. Hikmatlar va ibratlar. Mutarjimlar -
Abdulatif Abdullayev, Nodir Jo'raqo'ziyev.

41. Muhammad Kamol. Hayot tomchilari. Mutarjimlar jamoasi.
42. Mahmud As'ad Jo'shon. Tasawuf va nafs tarbiyasi. Mutarjim - Nodirxon Hasan.
43. Mahmud As'ad Jo'shon. Ramazon va taqvo. Mutarjim - Sayfiddin Sayfulloh.
44. Umar Foruq Saydo al Jazariy. Tasawuf sirlari. Mutarjimlar Bahridin Umrzoq, Abdulloh Murod Tilov.
45. Usmon Nuriy To'pbosh. Masnaviy bog'chasidan. Mutarjim Muhammad Qobil.
46. Rizouddin ibn Faxriddin. Javome'ul kalim.
47. Muhammad Zohid Qo'tqu ibn Ibrohim al Bursaviy. Mo'aminning sifatleri. Nashrga tayyorlovchilar - Nodirxon Hasan, Abdulaziz Muborak.
48. Konfutsiy. Lunon. Izrecheniya.
49. Lev Tolstoy. Misli mudrix lyudey.
50. Zabavnie rasskazi pro velikomudrogo i xitroumnogo Birbala.
51. Leonardo da Vinchi. Skazki, legendi, pritchi.
52. Sulxan-Saba Orbeliani. Mudrost vimisla.
53. Shuningdek, «Hidoyat» jurnah va turli taqvimlarda e'lon qilingan kichik hikoya va hikmatlardan ham foydalanildi.

IZOH: Odatda ilmiy-tadqiqotga doir asarlar so'ngida foydalanilgan adabiyotlar royxati beriladi. Mazkur bayonim ilmiylikni da'vo qilmaydi. Foydalanilgan adabiyotlar royxatini e'tiboringizga havola etishdan murod - manbalarni malum qilib qoyishgina emas, balki siz - azizlarga o'qish uchun tavsiya qilishdir. Hayotda yomon hamsuhbatga uchrab, aldanib qolish elitimoli bor. Kim muborak kitoblarni o'ziga maslahatgoy qilsa, adashmaydi. Qur'oni Karim, qudsiy hadislar, sharaflil hadislar, tafsirlar, ulamolarning sharhlari va hikmatlari har bir odamning xolis va vafoli do'stidir. Bu vafoli do'st siz-u bizni hidoyat yo'liga boshlaydi- ki, barchalarimizning yo'limiz iymon nuri bilan yo'g'rilgan jannat yo'li bo'lsin. Sizdan yana bir o'tinchim bor: kitob bilan tanishib chiqqach, nomlari tilga olingan ulug'lar,

donishmandlar haqiga, Allohning kalomini, Payg'ambarimiz (s.a.v.) ko'rsatmalarini bizlarga yetkazgan ulamolarimiz, ziyolilarimiz va ularning ota-onalari, ustozlari haqiga duolar qilsangiz nur alannur bolur.

MUNDARIJA

| | |
|---------------------------------------------------------|-----|
| Zulm, zolim va zulmat..... | 3 |
| Qachonki aql ketsa | 34 |
| Og'ir yuk..... | 50 |
| Ayovsiz ilon | 64 |
| Halol va harom | 91 |
| Qo'shning yomon bolsa | 110 |
| «Uy - fonus, mehmon sham'u men esam parvonamen...»..... | 124 |
| Doka ro'mol qachon quriydi?..... | 157 |
| Foydalanilgan adabiyotlar | 220 |

Adabiy-badiiy nashr TOHIR MALIK KO'NGIL NIMADAN QORAYADI

Muharrir Feruza QUVONOVA Musahhih Muhabbat MENGNOVA Badiiy
muharrir Uyg'un SOLIHOV Kompyuterda sahifalovchi Feruza BOTIROVA

Bosishga 31.01.2014 y.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 7,0. Shartli bosma tobog'i 11,76. Garnitura «Bookman Cyr+Uzb».

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 17.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

Litsenziya raqami: AI № 198. 2011 yil 28.08 da berilgan.

«SPECIAL PRINTING SERVICE» bosmaxonasida bosildi. 100113. Toshkent.Chiilonzor tuinani,

Chilonzor ko'chasil a. «Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida muqovalandi. 100113. Toshkent,

Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60. **Murojaat uchun telefonlar:**

Nashr bolimi - 278 36 89; Marketing bolimi - 128-78-43 faks — 273-00-14; e-mail:

yangiasravlodi@mail.ru